O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASI
O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

# “BURHONIDDIN MARG‘INONIY ILMIY MEROSINING ZAMONAVIY ISLOM MA’RIFATIDAGI O‘RNI”

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*

*Материалы международной научно-практической конференции на тему*

# «РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ БУРХАНИДДИНА МАРГИНАНИ В СОВРЕМЕННОМ ИСЛАМСКОМ ПРОСВЕЩЕНИИ»

*International scientific and practical conference on the topic*

# “THE ROLE OF BURHANIDDIN MARGINANI‘S SCHOLARLY HERITAGE IN CONTEMPORARY ISLAMIC EDUCATION”

**2026-yil 12-fevral**

“O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2026

**UDK 008:1(=512.1)(09)(082)**
**KBK 71.1+63.3**
**K 21**

“Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosining zamonaviy islom ma’rifatidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2026. – 390 b.

***Mas’ul muharrir:***
**M. Kamilov,** *O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori*

***Tahrir hay’ati:***
**S. Toshboyev, N. Xoliqnazar, I. Daminov**

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami buyuk mutafakkir, faqih va islom huquqi ilmining yirik namoyandasi Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini o‘rganish, uning zamonaviy islom ma’rifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Konferensiya doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalarda Marg‘inoniy shaxsi, ilmiy merosining mazmun-mohiyati, ayniqsa, “Hidoya” asarining islom huquqi taraqqiyotidagi o‘rni, fiqhiy, axloqiy va ma’rifiy jihatlari tahlil qilingan.

To‘plamdan joy olgan tadqiqotlar Marg‘inoniy ilmiy merosining hanafiy mazhabi shakllanishi va rivojidagi roli, uning fikrlarida adolat, bag‘rikenglik, qonun ustuvorligi kabi umuminsoniy qadriyatlarning ifodalanishini ochib bergan.

Shuningdek, maqolalarda Marg‘inoniy qarashlarining bugungi globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, ekstremizm va radikalizmga qarshi ma’rifiy kurashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Konferensiya materiallarida islom ma’rifati, diniy ta’limni modernizatsiya qilish, milliy va umumjahon ilmiy an’analarini uyg‘unlashtirish masalalari ham muhokama etilgan. Konferensiya ishtirokchilari Marg‘inoniy merosini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, ta’lim jarayonlari va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflarni ilgari surganlar.

Ushbu to‘plam islomshunoslik, fiqh, tarix, manbashunoslik sohalarida tadqiqot olib borayotgan olimlar, doktorantlar, talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

*Konferensiya materiallari to‘plami O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi O‘quv va ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan (2026-yil 25-fevraldagi 2-sonli bayonnoma).*

*O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 07.01.2026-yildagi 03-07/6198-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.*

**ISBN 978-9910-9309-9-7**

© “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2026

## KIRISH SO‘ZI

Bugungi kunda insoniyat uchun jamiyat taraqqiyoti, ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy totuvlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi, turli g‘oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir sharoitda din va ma’rifat masalasiga ilmiy, xolis va asosli yondashuv zarurati yanada ortmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, islom ma’rifati va uning buyuk namoyandalari ilmiy merosini o‘rganish, ularning g‘oyalarini zamonaviy hayot bilan uyg‘un holda talqin etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyo zamini azaldan islom ilm-fani, fiqh, hadis, tafsir va tasavvuf sohalarida jahon miqyosida tan olingan buyuk allomalarni yetishtirib bergan. Ana shunday ulug‘ zotlardan biri – Burhoniddin Marg‘inoniy bo‘lib, u islom huquqi taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi.

Allomaning ibratli hayoti va boy ilmiy merosi, ayniqsa, “Hidoya” asari asrlar davomida musulmon dunyosida fiqh ilmining asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Burhoniddin Marg‘inoniy nafaqat o‘z davrining yetuk faqih olimi, balki chuqur tafakkur egasi, adolat va ma’naviyatni ustuvor qo‘ygan mutafakkir sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Uning asarlarida islom huquqi masalalari aql, ilm va naql uyg‘unligi asosida yoritilgan bo‘lib, bu yondashuv bugungi zamonaviy islom ma’rifati uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Marg‘inoniy ta’limotida inson qadr-qimmati, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va jamiyat barqarorligi kabi masalalar markaziy o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda milliy va diniy-ma’naviy merosni chuqur o‘rganish, islom sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar ilmiy merosini tiklash va targ‘ib etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Islom sivilizatsiyasi markazi, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, xalqaro ilmiy tuzilmalar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bu borada muhim natijalar bermoqda.

Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosiga bag‘ishlangan mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham ana shu ezgu maqsadlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Marg‘inoniy ilmiy merosini har tomonlama o‘rganish, uning zamonaviy islom ma’rifatidagi o‘rnini aniqlash, shuningdek, alloma g‘oyalarini bugungi ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan uyg‘un holda tahlil qilishga qaratilgan. Konferensiya doirasida mahalliy va xorijiy olimlar, islomshunoslar, huquqshunoslar va tadqiqotchilar ishtirok etib, Marg‘inoniy merosining turli jihatlari bo‘yicha ilmiy fikr almashdilar.

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalarda Burhoniddin Marg‘inoniy hayoti va ilmiy faoliyati, uning fiqhiy qarashlari, “Hidoya” asarining ilmiy-nazariy ahamiyati, shuningdek, alloma merosining bugungi kun uchun dolzarb jihatlari keng yoritilgan.

Ayniqsa, uning ta’limotida islom dinining ma’rifiy, insonparvar va bag‘rikeng mohiyati qanday ifoda etilgani alohida tahlil qilingan.

Shuningdek, to‘plam materiallarida Marg‘inoniy ilmiy merosining zamonaviy jamiyatda zamonaviy fiqhiy dolzarb masalalar yuzasidan ilmiy asoslangan yechimlari, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, turli radikal va ekstremistik g‘oyalarga qarshi ma’rifiy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni ham alohida ta’kidlanadi.

Uning asarlarida mutaassiblikka yo‘l qo‘yilmasligi, ilm va dalilga tayanish, ixtilof masalalarida hikmat bilan yondashish tamoyillari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Kirish so‘z o‘rnida alohida ta’kidlash joizki, mazkur to‘plam ilmiy tadqiqotlar majmuasi bo‘libgina qolmasdan, yosh avlodni milliy va diniy-ma’naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga, islom ma’rifati haqida xolis va to‘g‘ri tasavvurni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Marg‘inoniy ilmiy merosini chuqur o‘rganish orqali jamiyatda huquqiy ong, ma’naviy mas’uliyat va adolat tamoyillarini mustahkamlash imkoniyati kengayadi.

Ushbu to‘plamni tayyorlash jarayonida bildirilgan ilmiy fikrlar, xulosa va takliflar islomshunoslik, fiqh va tarix sohalaridagi keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi, deb qat’iy ishonamiz.

Shu bilan birga, konferensiya materiallari xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, turli ilmiy maktablar o‘rtasida tajriba almashish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani tashkil etishda ishtirok etgan barcha ilmiy muassasalarga, olim va tadqiqotchilarga, aziz mehmonlarga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Mazkur to‘plam Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini yanada keng targ‘ib etishga, uning g‘oyalarini zamonaviy islom ma’rifati rivoji yo‘lida samarali qo‘llashga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

**Muzaffar Kamilov,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori*

# YALPI MAJLIS

**Muzaffar KAMILOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIY ILMIY MEROSINING ISLOM HUQUQSHUNOSLIGI RIVOJIDAGI O‘RNI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Bugungi globallashuv sharoitida islom huquqshunosligi sohasida mumtoz manbalarni xolis ilmiy asosda o‘rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Islom fiqhi faoliyatida o‘tmishdan qolgan asarlar nafaqat huquqiy tizimning rivojida, balki jamiyatda ma’naviy va axloqiy muvozanatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Mazkur yo‘nalishda yaratilgan asarlar gultoji, buyugi, shubhasiz, alloma-ajdodimiz Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari bo‘lib, u hanafiy mazhabning eng asosiy huquqiy manbalaridan biri sifatida tarixga kirgan.

Burhoniddin Marg‘inoniy islom huquqshunosligidagi muhim hissasi bilan nafaqat o‘tmishda, balki zamonaviy huquqiy tafakkurda ham o‘rin topgan. “Hidoya” asari uzoq asrlar davomida faqihlar va olimlar tomonidan tahlil qilingan, talqin va izohlar berilgan, ko‘plab sharhlar bitilgan. Bu esa uning ilm-fan doirasidagi ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Asarda keltirilgan fatvolar o‘z zamonasining dolzarb masalalari hamda tarixiy an’anaga muvofiq tarzda tizimlashtirilgan. Ularning har biri hanafiylik fiqhi qoidalariga muvofiq birlamchi manbalar – Qur’oni karim oyatlari hamda hadisi shariflar asosida dalillangani bilan e’tiborga loyiqdir.

Alloma Marg‘inoniy o‘z asarida dalil sifatida keltirgan hadislarning sahihligini baholash bilan shug‘ullanmagan bo‘lsa ham, keyinchalik, olimlar, jumladan, Jamoluddin Zaylaiy ushbu masalada jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. Uning ilmiy tahlillari natijasida “Hidoya”da dalil olingan barcha hadislar ishonchliligi isbotlangan. Bu esa asarning ilmiy qiymatini yanada oshirgan[1].

Zamonaviy ahamiyat nuqtayi nazaridan qaralganda, “Hidoya” hozirgi kun islom huquqshunosligi ta’limida asosiy darslik sifatida qo‘llaniladi.

Uning metodologiyasi va huquqiy prinsiplari hanuz ta’lim muassasalarida o‘rgatiladi va huquqiy qarorlar, ijtimoiy va ma’naviy masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Bu esa

[1] Ghani, U. (2019). Justifying the Role of Prophetic Narration in Ḥanafī Jurisprudence. The Case of al-Zaylaʿī‘s (d. 762/1361) Naṣb al-rāya as a Ḥadīṯ Companion to al-Marġīnānī‘s (d. 593/1197) al-Hidāya. MIDÉO. Mélanges de l‘Institut dominicain d‘études orientales, (34), 99-109.

Burhoniddin Marg‘inoniy merosining doimiy ahamiyati va uning zamonaviy islom ma’rifatiga ijobiy ta’sirini isbotlaydi.

Shuningdek, “Hidoya”dagi huquqiy va axloqiy prinsiplar zamonaviy qonunchilik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin. Uning inson qadr-qimmati, adolat va qonun ustuvorligi kabi tamoyillari bugungi kun ma’rifiy jarayonlar uchun ham muhim asos yaratadi.

Asarning tarixiy ahamiyati, ta’limdagi tajribasi va zamonaviy huquqiy va ma’naviy muammolarni hal qilishdagi qo‘llanilishi uning davomiy ilmiy qiymatini ta’minlaydi.

Burhoniddin Marg‘inoniy XII asrning eng yirik faqihlaridan biri sifatida hanafiylik mazhabi rivojidagi asosiy namoyandalar sirasiga kiradi. Uning ilmiy faoliyati, “Hidoya” asari va boshqa ijodiy ishlari islom huquqshunosligida katta iz qoldirgan. Marg‘inoniy ilmiy merosi faqat fiqhiy bilimlar bilan cheklanib qolmagan, balki kalom, axloq va boshqa sohalar rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Marg‘inoniyning hayoti va faoliyati uning fiqhiy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. U Samarqand va Buxoro kabi yirik ilmiy markazlarda tahsil olgan, turli olimlar bilan ilmiy suhbat-mulohazalar almashuvida bo‘lgan. Shu orqali u an’anaviy fiqhiy bilimlarni mukammal egallab, o‘zining mustaqil nazariy qarashlarini rivojlantirgan.

Faqih sifatida shakllanishi davomida Marg‘inoniy huquqiy masalalarni dalillarga asoslangan tarzda tahlil qilishni asosiy tamoyil qilib olgan. Uning ilmiy maktabi faqihlikni chuqur tahlil, aql va naql uyg‘unligi asosida ko‘rsatadi.

“Hidoya” asari orqali Marg‘inoniy o‘z fikrlarini tizimli tarzda bayon qilib, fiqhiy qarorlarni amaliyotda qo‘llash uchun muhim qo‘llanma yaratgan.

Marg‘inoniyning hanafiylik rivojiga qo‘shgan hissasi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Uning ijodida an’anaviy hanafiy qarashlar, yuzlab yillar davomida shakllangan islom qonunchiligi tajribasi va fiqhiy dalillardan kelib chiqib, huquqiy normalar tartibga solingan. Bu esa hanafiylik fiqhining tarixiy rivojida muhim bosqich bo‘lgan va uning asarlari bugungi kunga qadar huquqshunoslik ta’limida asosiy darslik sifatida qo‘llanilib kelmoqda.

Burhoniddin Marg‘inoniyning eng mashhur “Hidoya” asari uning ona vatani Rishtonda boshlanib, 1178-yili Samarqandda tugallangan. Asar yaratilishida Marg‘inoniyning maqsadi fiqh masalalarini tartibli, to‘liq va asoslangan tarzda yoritish, huquqiy yechimlar va nazariy asoslarini birlashtirish edi.

Mahmud ibn Sulaymon Kafaviyning “Katoibul a’lomil axyor fi taboqot fuqaho va mashoyix mazhab Nu’mon” asarida keltirilishicha, Marg‘inoniy “Bidoyatul muntahiy” asarini yaratib, keyinchalik uni “Kifoyatul muntahiy” deb sharhlagan va natijada, bu asarning to‘liq shakli sifatida “Hidoya” paydo bo‘lgan[2].

“Hidoya” asarining tuzilishi fiqhiy masalalarni tizimli tarzda taqsimlash bilan ajralib turadi. U to‘rt juzdan iborat bo‘lib, har bir juz muayyan huquqiy yo‘nalishga bag‘ishlangan:

2 Anshori, A. Y., & Abdurrahman, L. T. (2025). History of the Development of Mażhab, Fiqh and Uṣūl Al-Fiqh: Reasoning Methodology in Islamic Law. Samarah: Jurnal Hukum Keluarga dan Hukum Islam, 9(1).

1. Ibodat masalalari – tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj.

2. Oilaviy va shaxsiy huquq – nikoh, taloq, topib olingan bolaning nasabi va boshqa masalalar.

3. Mulk, moliyaviy va ijtimoiy masalalar – oldi-sotdi, kafolat, qarz, ijara, majburiy mehnat, qarz berish va sherikchilik.

4. Meros va jinoyat huquqi – meros taqsimlash, shafoat, qurbonlik va unga oid qoidalar va huquqiy tartiblar.

Asarda har bir masalada huquqiy yechimlar dalillarga asoslangan tarzda keltirilgan. Marg‘inoniy avval yirik faqihlar fikrlarini bayon qiladi, ularga izoh qo‘shadi va eng ma’qul yechimni tanlaydi. Bu usul, nafaqat qonunning o‘zi, balki uning mukammal sharhini ham taqdim qilish imkonini beradi.

Shu bilan “Hidoya” nafaqat nazariy fiqh, balki huquqiy amaliyot uchun ham asosiy qo‘llanmaga aylandi.

Asarning ahamiyati asrlar davomida namoyon bo‘lgan. U ko‘plab musulmon mamlakatlarida, xususan, Markaziy Osiyoda islom huquqshunosligida eng asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. 1917-yilgi Rossiya inqilobidan keyin mavjud qozilik instituti o‘rniga sovet sud tizimi joriy qilinganiga qadar bu asar amalda qolgan va hozirgi kunda ham shariat asosida huquq yuritadigan mamlakatlarda qo‘llanilib kelmoqda.

Uning ruscha tarjimasi 1893-yili N.P. Grodekov tomonidan nashr qilingan va 1994-yilda Toshkentda A.X. Saidov so‘z boshi va sharhi bilan qayta nashr qilgan[3].

Shu tariqa, “Hidoya” asari Marg‘inoniyning ilmiy merosining yuqori nuqtasi, balki islom huquqshunosligi rivojida muhim qadam sifatida tarixda o‘z o‘rnini mustahkamlashda davom etmoqda. Asarning metodologiyasi va tizimli yoritilishi hanafiylik fiqhi ta’limi va huquqiy amaliyotini zamonaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Muallif usuli asosan aql va naql uyg‘unligiga tayanadi. Marg‘inoniy har bir fiqhiy masalada Qur’on va hadislarni asosiy dalil sifatida olib, ularni aqliy tahlil va fikrlash bilan uyg‘unlashtirgan. Bu yondashuv uning asarlarini nazariy jihatdan mukammal va amaliy jihatdan ishonchli qiladi.

Ixtilofli masalalarda Marg‘inoniyning yondashuvi hikmatli va muvozanatli bo‘lgan. U turli faqihlar fikrlarini to‘plab, bahsli masalalarda eng maqbul va barqaror yechimni topishga intilgan.

Masalan, “Hidoya” asarida huquqiy yechimlar keltirilganda, u turli asarlardan olingan fikrlardan asosli tanlov qiladi va ularning ijtimoiy hamda huquqiy oqibatlarini hisobga oladi[4].

Bu usul nafaqat nazariy mukammallik, balki fiqhiy qarorlarning amaliy qo‘llanishi uchun ham muhimdir.

3 Grodekov N. P. Hidoyaning ruscha tarjimasi va izohlari. Toshkent, 1994.

4 Anshori, A. Y., & Abdurrahman, L. T. (2025). History of the Development of Mażhab, Fiqh and Uṣūl Al-Fiqh: Reasoning Methodology in Islamic Law. Samarah: Jurnal Hukum Keluarga dan Hukum Islam, 9 (1).

Marg‘inoniyning fiqhiy metodologiyasida adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlik g‘oyalari markaziy o‘rinda turadi.

U qonunning faqat mazmuni bilan cheklanmay, uning ijtimoiy ahamiyatini ham hisobga oladi, adolat va ijtimoiy muvozanatni ta’minlaydi.

Shuningdek, u huquqiy masalalarda shaffoflik, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashni ustuvor maqsad sifatida belgilagan.

“Qozilar odobi” bo‘limida hukm chiqarishda adolatga, ilmiy asl manbalarga tayanish, qozining yuksak xulq egasi bo‘lishi lozimligi, shaffoflikni qat’iy ta’minlash lozimligi kabi zaruriy masalalar qat’iy qoidalar o‘laroq belgilangan.

Shu tariqa, Marg‘inoniy ilmiy merosi nafaqat fiqhiy yechimlar, balki metodologik yondashuv sifatida ham qadrli hisoblanadi. Uning usuli hanafiy mazhab fiqhi ta’limida va zamonaviy islom huquqshunosligida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqhiy qarashlari nafaqat hanafiy mazhab doirasida, balki butun islom huquqiy tafakkurining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Marg‘inoniy asarlari asosiy fiqhiy masalalarni tizimli tarzda yoritish va huquqiy metodologiyani amaliy qo‘llashda namuna bo‘lgan[5].

Marg‘inoniyning merosi keyingi avlod faqihlari va islom huquq maktablari uchun asosiy manba bo‘lgan. Bu meros turli fiqhiy fikrlarni tahlil qilish, ixtilofli masalalarda muvozanatli yechimlar topish va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini bergan. Ushbu metodologiya faqihlar uchun nazariy yo‘riqnoma bo‘lib, islom huquqiy tafakkurining rivojlanishida muhim bosqich bo‘lgan.

Marg‘inoniy merosi islom huquqiy tafakkuri tarixida shakllanishda ham muhim rol o‘ynagan. Uning asarlari turli zamonlarda huquqiy masalalarning hal qilinishida, sud amaliyotida va fiqh ta’limida asosiy mezon vazifasini bajargan. Shu bilan u islom huquqiy tafakkurini sistemalashtirishga va uning umumiy rivojiga hissa qo‘shgan.

Shuningdek, Marg‘inoniy merosi xalqaro ilmiy an’analarda ham keng e’tirof etilgan. “Hidoya” butun musulmon olamida o‘rganilgan va tahlil qilingan, ko‘p olimlar tomonidan sharhlangan. Uning fikrlari Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham islom huquqshunosligi manbasi sifatida qo‘llanilib kelmoqda. Bu uning nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi fiqhiy va huquqiy ilmiy an’analarga ta’sirini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, Marg‘inoniy ilmiy merosi islom huquqshunosligi taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, keyingi faqihlar, huquq maktablari va xalqaro ilmiy an’analar uchun barqaror manba sifatida xizmat qilmoqda. Uning metodologiyasi va nazariy asoslari zamonaviy huquqshunoslik va fiqh ta’limotini rivojlantirishda ham qimmatlidir.

Marg‘inoniyning ilmiy merosi diniy bag‘rikenglik va ma’rifiy yondashuvni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Uning metodologiyasida naql aql va uyg‘unligi, ixtilofli masalalarda muvozanatli yechim topish va adolat tamoyillari

5 al-Shafi‘i, M. I. I. (2020). The Epistle on Legal Theory: A Translation of Al-Shafi‘i‘s Risalah. New York University Press.

markaziy o‘ringa qo‘yilishi zamonaviy jamiyatda turli din va mazhab vakillari o‘rtasida o‘zaro hamfikrlik va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Marg‘inoniy ilmiy merosi ekstremizm va radikalizmga qarshi ma’rifiy asos sifatida ham qimmatli hisoblanadi. Uning metodologiyasida huquqiy qarorlar dalillarga asoslanishi, ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta’minlanishi ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Bu esa zamonaviy musulmon jamiyatlarida diniy ta’lim va huquqshunoslik sohasida barqarorlikni ta’minlaydi va radikal g‘oyalar tarqalishining oldini oladi.

Shu tariqa, Marg‘inoniyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy islom huquqshunosligi, ma’rifiy tarbiya va ijtimoiy barqarorlik uchun ham asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Uning fiqhiy va metodologik qarashlari orqali klassik meros bilan zamonaviy hayot talablari uyg‘unlashtirilishi mumkin.

Marg‘inoniyning ilmiy merosini o‘rganish va uni zamonaviy huquqshunoslik amaliyotida tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Uning asarlari zamonaviy huquqiy, ijtimoiy va ma’rifiy masalalarda yechim topishda asosiy nazariy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi, shu bilan zamonaviy musulmon jamiyatlarida din va huquq uyg‘unligini ta’minlashga erishiladi. Umuman, olimning ilmiy merosi nafaqat zamonaviy islom huquqshunosligi, ta’lim va tarbiya uchun ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning merosini o‘rganish va amaliy qo‘llash kelajakdagi tadqiqotlar va huquqshunoslik amaliyoti uchun muhim asos yaratadi.

# ASOSIY MA’RUZALAR

**Shovosil ZIYODOV,**
*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, professor*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIY MEROSI: MA’RIFAT DIPLOMATIYASI

Burhoniddin Marg‘inoniy (1118–1197) islom huquqshunosligining yorqin vakili, hanafiylik fiqhining buyuk olimidir.

Uning ilmiy merosi asrlar davomida musulmon olamida huquqiy va ma’naviy hayotni tartibga solishda asosiy manba sifatida xizmat qilib keldi.

Bugungi global ilmiy maydonda Marg‘inoniy merosini targ‘ib qilish nafaqat islom huquqshunosligi, balki umuminsoniy huquqiy madaniyatni boyitishda ham muhim ahamiyatga ega.

Burhoniddin Marg‘inoniy 1123-yil Farg‘ona viloyati Rishton tumanida tug‘ilgan. Ilk ta’limni otasi Abu Bakr ibn Abduljamil olib, Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy qo‘lida tahsilni davom ettirgan.

Rishton, Marg‘ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarida ta’lim olib, hanafiylik mazhabining buyuk faqihi sifatida nom qozongan va shayxulislom bo‘lib yetishgan.

Movarounnahrning o‘z davrining ilmiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan.

Mavlono Burhoniddin Marg‘inoniy balog‘at yoshiga yetganida mukammal ilmga ega bo‘lganiga qaramay, ustozlardan ta’lim olishni izchil davom ettirgan.

“Kitobul mashoyix” (“Ustozlar haqida kitob”) asarida o‘zi ta’lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab o‘tgan. Bu ro‘yxatda Najmuddin Umar ibn Muhammad Nasafiy, Abu Asir Baydaviy, Abu Yoqub Sayariy, Abu Is’hoq Navqadiy, Ja’far Hinduvoniy kabi nomdor olimlarning ismlari zikr etilgan.

Marg‘inoniy fiqhga oid masalalar bilan qiziqib, o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan allomalaridan “Al-Muhit” (“Ilmlar dengizi”) asarining muallifi Umar ibn Maaza, “Al-Fatava va favoiduz zohira” (“Fatvolar va zohir narsalarning foydalari”) asarining muallifi Zohiruddin ibn Umar Qoziy Buxoriy ibn Itobiy va boshqalarning nazariga tushgan.

Alloma 1197-yil 29-oktyabrda Samarqandda vafot etgan va Samarqand shahridagi mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

Burhoniddin Marg‘inoniy islom dinidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilari asarlarini o‘rganish bilan birga o‘zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan.

Bizgacha yetib kelgan asarlaridan “Bidoyatul muntahiy” (“Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim”), “Kifoyatul muntahiy” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim”), “Nashrul mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”), “Kitobul mazid” (“Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”), “Manosikul haj” (“Haj marosimlari”), “Majmaul navozil” (“Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami”), “Kitobul faroiz” (“Farzlar kitobi”) va boshqalar ma’lum.

Burhoniddin Marg‘inoniyning butun islom olamida mashhur bo‘lgan “Hidoya” asarining yaratilishi Rishtonda boshlanib, 1178-yili Samarqandda tugallangan.

Ushbu asar imom Muhammad Shayboniyning “Kichik to‘plam”, Quduriyning “al-Muxtasarul Quduriy” asarlari asosida shakllantirilgan.

“Hidoya”da “Muxtasar”da mavjud huquqiy asoslar keltirilgan bo‘lsa ham, uni alohida asar sifatida e’tirof etish mumkin.

Chunki unda ko‘rib chiqilgan masalalar Quduriyning “al-Muxtasarul Quduriy”dan ko‘ra kengroq yoritilgan.

“Hidoya” to‘rt juzdan iborat bo‘lib, alohida bob va bo‘limlarga bo‘lingan 57 ta kitobni o‘z ichiga mujassam etadi.

Birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, ular tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kitoblaridir.

Ikkinchi juzga nikoh, emizish, taloq, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan.

Uchinchi juzda oldi-sotdi, pul muomalasi, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (otaliqqa olish), majbur qilish, homiylik va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan.

To‘rtinchi juzda shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik, shariatga zid narsalar, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish, taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

“Hidoya”ning qisqartirilgan rus tiliga tarjimasi 1893-yilda N.P. Grodekov tomonidan nashr etilgan.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o‘rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari islom huquqshunosligida mashhurligini nazarga olib N.I. Grodekovning inglizchadan ruschaga qilgan va tor doira uchun mo‘ljallangan “Hidoya”ning 1-kitobi Toshkentda 1994-yil A.X. Saidovning so‘z boshi va sharhi bilan qayta nashr etildi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyoda huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma hisoblangan.

Hatto hozirgi kunda ham musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng uning ilmiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, asarlarini chop etish ishlariga katta e’tibor berila boshlandi.

Xususan, 1997-yil Burhoniddin Marg‘inoniy vafotining 800-yilligi va 2000-yilda alloma tavalludining 910-yilligi keng nishonlandi, Marg‘ilon shahri markazida yodgorlik majmui bunyod etildi.

Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asarida huquqiy qoidalar tizimli va mukammal tarzda bayon etilgan bo‘lib, u islom huquqshunosligida klassik manbaga aylangan (Hakimov, 2020).

Asarda adolat, insof, tenglik va jamoat manfaatini ustuvor qo‘yish kabi umuminsoniy tamoyillar mujassam.

Shu jihatdan, asar nafaqat musulmon huquqshunosligi, balki umuminsoniy huquqiy tafakkurning rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Asar XII asrda yozilgan bo‘lib, keyingi yetti asr davomida hanafiylik maktabida asosiy huquqiy manba sifatida qo‘llanildi. Asarning ahamiyati nafaqat islom huquqshunosligida, balki umuminsoniy huquqiy tafakkurda ham namoyon bo‘ladi.

Marg‘inoniy asarlarida Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyning fikrlari sintez qilingan va mukammal huquqiy tizimga aylantirilgan.

Marg‘inoniyning uslubi islom huquqshunosligini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning asarlari orqali huquqiy fikrda pragmatizm va diniy motivlar uyg‘unlashdi.

“Hidoya” hanafiylik huquqshunosligida asosiy qo‘llanma sifatida qabul qilindi va keyingi asrlarda turli sharhlar va tarjimalar orqali keng tarqaldi.

Asar islom huquqi qoidalarini tizimli va mukammal tarzda bayon qiladi. Unda adolat, insof, tenglik va jamoat manfaatini ustuvor qo‘yish kabi universal tamoyillar mujassam.

Marg‘inoniy asarlari islom sivilizatsiyasida huquqiy fikrning shakllanishi va taraqqiyotini ko‘rsatadi.

Asarlarning turli tillarga ilmiy asoslangan tarjimalarini tayyorlash Marg‘inoniy merosini keng auditoriyaga yetkazishda muhim qadam hisoblanadi.

Umuman, Burhoniddin Marg‘inoniyning ilmiy merosi nafaqat islom huquqshunosligi, balki umuminsoniy huquqiy tafakkurning rivoji uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Uning asarlarini global ilmiy maydonda targ‘ib qilish orqali insoniyat huquqiy madaniyatiga ulkan hissa qo‘shish mumkin. Bu jarayonda tarjimalar, tadqiqotlar, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlik asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Homidjon ISHMATBEKOV**
*O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisining birinchi o‘rinbosari*

# IMOM BURHONIDDIN MARG‘ILONIY MEROSINI GLOBAL ILMIY MAYDONDA TARG‘IB QILISHNING AHAMIYATI

Imom Burhonuddin Marg‘iloniyning to‘liq ismlari Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Siddiqiy Farg‘oniydir. U zot hijriy 511-yil, rajab oyining sakkizinchi kuni tavallud topgan.

Alloma Kamol ibn Humom va Akmaluddin Bobartiy “Hidoya”ga yozgan sharhlarida Marg‘iloniyni “Shayxu mashoyixil islom” (Islom ulamolarining shayxi) deb ta’riflaganlar. Imom Abdulhay Laknaviy esa u zotning fazilatlarini batafsil bayon qilib shunday degan:

كان إماما فقيها حافظا محدثا مفسرا جامعا للعلوم ضابطا للفنون متقنا محققا نظارا مدققا زاهدا ورعا فاضلا ماهرا أصوليا أديبا شاعرا لم تر العيون مثله في العلم والأدب وله اليد الباسطة في الخلاف والباع الممتد في المذهب.

“u zot imom, faqih, hofiz, muhaddis, mufassir, barcha ilmlarni jamlagan, fanlarni puxta egallagan, mukammal va tahqiqchi, o‘tkir nazarli va nozik tahlilchi, zohid va taqvodor, fazilatli, mahoratli, usuliy, adabiyotchi va shoir edi. Ilm va adabda unga teng keladigan insonni ko‘zlar ko‘rmagan. U ixtilof ilmida keng qudratga, mazhabda esa chuqur salohiyatga ega edi”.

Imom Marg‘iloniy haqida Muhibbiddin Ibnush-Shihna kitob yozib, uning tarjimayi holini batafsil yoritgan. Shuningdek, mashhur hanafiy olim Shayx Homid ibn Ali al-Imodiy Marg‘iloniy hayoti va ijodini haqida alohida asar yozib, uni “Al-Iqdus samin fi tarjamati sohibil Hidoya Burhonuddin” (Hidoya sohibi Burhonuddinning tarjimayi hollari haqida qimmatbaho dur) deb nomlagan.

Imom Marg‘iloniy mazhab doirasida – imom Abu Hanifa rahimahullohdan aniq matn kelmagan masalalarda – mustaqil ijtihod qila oladigan mujtahid ulamolardan sanaladi. Uning bu martabasini Imom Laknaviy, Imom Rofe’iy (Ibn Obidin hoshiyasiga yozgan ta’liqlarida), Shihobuddin Marjoniy (“Nozuratul haq” asarida) va alloma Kavsariylar tasdiqlaganlar.

Alloma o‘z davrining ulug‘ ulamolari qo‘lida fiqh ilmidan ta’lim olgan. Jumladan, ikki olam muftiysi Najmuddin Abu Hafs Umar Nasafiy, uning o‘g‘li Abu Lays Ahmad Nasafiy, Sadrush shahid Husomuddin Umar, Sadrus sa’id Tojuddin Ahmad, shuningdek Imom Saroxsiyning shogirdi Abu Umar Usmon Baykandiy va boshqa ko‘plab ustozlardan saboq olgan.

Imom Burhoniddin Marg‘iloniyning ilmiy merosi islom huquqshunosligining turli qirralarini qamrab olgan bo‘lib, ular orasida muallifning shaxsiy ilmiy uslubini aks ettiruvchi “Bidoyatul-mubtadiy” va uning mukammal sharhi hisoblangan mashhur “Al-Hidoya fi sharhil bidoya” asarlari markaziy o‘rin tutadi.

Shuningdek, allomaning “Kifoyatul-muntahiy” nomli dastlabki keng ko‘lamli sharhi, Imom Muhammad ibn Hasanning “Al-Jome’ al-kabir” asariga yozgan ilmiy izohlari hamda mazhab an’analarini keng yoyishga xizmat qiluvchi “Nashrul mazhab” va “Muntaqal marfu’” kabi tadqiqotlari hanafiy mazhabi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Muallifning “Mu’jamush shuyux” asari esa muhaddislar uslubida yozilgan bo‘lib, unda alloma ta’lim olgan ustozlarning tarjimayi hollari va ilmiy silsilasi bayon etilgan.

Allomaning avvalgi manbalarda ochiq bayon etilmagan murakkab masalalarni yorituvchi “At-Tajnis val-mazid” hamda nozil bo‘lgan fiqhiy masalalar to‘plami – “Muxtorot majma’in-navozil” kitoblari fatvo sohasi mutaxassislari uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, Burhoniddin Marg‘iloniy meros huquqiga bag‘ishlangan “Faroizul-usmoniy” va haj ibodatining nozik jihatlarini tushuntiruvchi “Uddatun-nosik fi uddatil-manosik” kabi asarlari orqali muayyan huquqiy sohalardagi muammolarga aniq va tizimli yechimlar taklif etgan.

Ulamolarning Imom Marg‘iloniyga bo‘lgan yuksak e’tibori va asarlarini qabul qilganlari shunda yaqqol ko‘rinadiki, ayrim olimlar allomaning “Al-Hidoya” asarini butun umr davomida o‘qib-o‘rgatishga bag‘ishlaganlar. Shu sababli ba’zilari “Qoriul hidoya” (“Hidoya qorisi”, “Hidoyani muntazam o‘quvchi”) nomi bilan tanilgan.

Boshqalari esa bu asarni yod olish va mukammal o‘zlashtirishga intilganlar. Ulardan: Shamsuddin Muhammad Halabiy bo‘lib, uning “Hidoya”ni yod bilganini shofe’iy mazhabining allomasi Ibn Vardi shaxsan imtihon qilib, e’tirof etgan. Shuningdek, Alloma Abdurrahmon Ardabiliy ham shunday zotlardan edi. Shamsiddin Saxoviy bu haqda shunday degan: “U Ibn Soaotiyning “Al-Badi’” asarini ham, “Hidoya”ni ham yod olgan edi”.

Imom Marg‘iloniyning “Al-Hidoya” asari asrlar davomida hanafiy mazhabining asosiy qo‘llanmasi sifatida islom olamida keng qo‘llanib kelingan. Biroq mazkur asar va uning muallifi faoliyatining ilmiy salohiyati hali to‘la ma’noda global ilmiy maydonda o‘z aksini topgan, deb bo‘lmaydi. Shu bois, Marg‘iloniy merosini xalqaro miqyosda ilmiy muomalaga kiritish nafaqat islom huquqi tarixi uchun, balki umumjahon huquqiy tafakkurining rivoji uchun ham muhimdir.

Bugungi kunda G‘arb mamlakatlarida islom fiqhiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Biroq ko‘p hollarda bu tadqiqotlar islom huquqining amaliy manbalari va ulamolar merosiga yetarlicha tayanilmagan holda olib borilmoqda. Imom Marg‘iloniy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish orqali islom fiqhining tizimli, mantiqiy va insonparvar mohiyatini jahon ilmiy jamoatchiligiga xolisona yetkazish mumkin.

Shuningdek, Marg‘iloniy asarlarida huquqiy muvozanat, adolat va ijtimoiy barqarorlik g‘oyalari ustuvor o‘rin tutadi. Bu tamoyillar zamonaviy global huquqiy muammolar – inson huquqlari, ijtimoiy adolat, diniy bag‘rikenglik masalalari bilan hamohangdir.

Demak, uning ilmiy merosini targ‘ib qilish turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi intellektual muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayni paytda Marg‘iloniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish O‘zbekistonning boy ma’naviy-intellektual salohiyatini jahon hamjamiyatiga namoyon etishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon milliy ilmiy maktablarning nufuzini oshirish, mahalliy tadqiqotchilarning xalqaro ilmiy maydondagi ishtirokini kengaytirishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga Imom Burhoniddin Marg‘iloniyning boy ilmiy merosini dunyo miqyosida ommalashtirish faqatgina tarixiy manbalarni o‘rganishni emas, balki ushbu asarlardagi umuminsoniy tamoyillarni zamonaviy ilmiy muomalaga kiritishni ham taqozo etadi. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

Marg‘iloniy asarlaridagi ilmiy xulosalarni bugungi kunning fuqarolik, iqtisodiy va oila huquqi bilan qiyosiy tahlil qilish muhimdir.

Xususan, “Al-Hidoya” asarida ilgari surilgan mulk huquqi, shartnomaviy munosabatlar va majburiyatlar ijrosiga oid masalalar zamonaviy huquq tizimlari bilan solishtirilganda ko‘plab mushtarak jihatlarni namoyon etadi. Bunday integratsiya Marg‘iloniy merosini shunchaki diniy matn sifatida emas, balki dunyo huquqiy fikri rivojiga ta’sir ko‘rsatgan manba sifatida taqdim etish imkonini beradi.

2. Axborot texnologiyalari davrida alloma asarlarini, xususan, “Al-Hidoya” va unga yozilgan ko‘p sonli sharhlarni raqamli formatga o‘tkazish dolzarb vazifadir. Bu nafaqat matnlarni skanerlash, balki ularning interfaol va qidiruv imkoniyati keng bo‘lgan elektron bazalarini yaratishni nazarda tutadi. Ushbu manbalarni nufuzli xalqaro elektron kutubxonalar va ilmiy platformalarga joylashtirish dunyo olimlarining Markaziy Osiyo fiqhiy maktabiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va iqtibos olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Alloma Marg‘iloniy asarlarining mahalliy va jahon tillariga (ingliz, fransuz, nemis, ispan va h.k.) sifatli, zamonaviy ilmiy sharhlar bilan boyitilgan tarjimalarini yaratish zarur. Mavjud eskirgan yoki qisqartirilgan tarjimalar bugungi ilmiy talablarga to‘liq javob bermaydi. Asarlarni asl manbadan (arab tilidan) bevosita tarjima qilish va ularni zamonaviy yuridik terminlar bilan muvofiqlashtirish alloma merosini global miqyosda qayta kashf etishga xizmat qiladi.

5. Alloma merosini global miqyosda targ‘ib qilishning muhim shartlaridan biri – dunyoning turli kutubxona va arxiv fonlarida sochilib ketgan qo‘lyozma nusxalarni tizimli ravishda jamlash hamda ularni yagona raqamli bazaga integratsiya qilishdir.

Imom Burhoniddin Marg‘iloniy asarlarining nodir qo‘lyozmalarini aniqlash va ularning yuqori sifatli elektron nusxalarini nufuzli xalqaro ilmiy platformalarga joylashtirish dunyo olimlari uchun birlamchi manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bu jarayon nafaqat matnshunoslik va manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlarni jadallashtiradi, balki alloma asarlarining asl mazmun-mohiyatini buzilishlardan himoya qilgan holda, ularni keng ilmiy jamoatchilik uchun ochiq va qulay ma’lumotlar manbaiga aylantiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Imom Burhoniddin Marg‘iloniyning ilmiy merosi shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki zamonaviy global huquqiy tafakkurni boyitishga qodir bo‘lgan jonli ma’naviy manbadir.

Alloma asarlarida ilgari surilgan adolat, mo‘tadillik va inson manfaatlarini himoya qilish tamoyillari bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan huquqiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marg‘iloniy merosini global ilmiy maydonda targ‘ib qilish – O‘zbekistonning boy intellektual salohiyatini xalqaro miqyosda namoyish etish bilan birga, islom huquqshunosligining insonparvarlik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Asarlarni raqamlashtirish, zamonaviy tillarga sifatli tarjima qilish va ularni xalqaro ilmiy platformalarga integratsiya qilish orqali biz nafaqat ajdodlar merosini saqlab qolamiz, balki uni jahon sivilizatsiyasining umumiy mulkiga aylantiramiz.

“Al-Hidoya” kabi shoh asarlarning mazmun-mohiyatini keng yoyish, dunyoda huquqiy madaniyat va bag‘rikenglik g‘oyalarining qaror topishida katta ahamiyatga ega.

**Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV**
*O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi o‘rinbosari,*
*siyosiy fanlar doktori, professor*

## BURHONIDDIN MARG‘ILONIY ASARLARINING ZAMONAVIY ISLOM TA’LIMI TIZIMIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Islom sivilizatsiyasi tarixida buyuk ulamolar qoldirgan ilmiy meros nafaqat diniy-huquqiy masalalarni hal etishda, balki ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotda ham muhim o‘rin tutadi. Ana shunday allomalardan biri Abu-l-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy ar-Roshidoniy al-Marg‘inoniy (1123, Marg‘ilon – 1197, Samarqand) – fiqh olimi, islom huquqshunosi, imom. Dastavval otasi Abu Bakr ibn Abduljalil, imom Bahouddin Ali ibn Muhammad Isfijobiy qo‘lida tahsil ko‘rgan. Rishton, Marg‘ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarida islomiy ta’lim olib, hanafiy mazhabining buyuk faqihi sifatida nom qozongan. Shayx ul-islom bo‘lib yetishgan. 1149-y. haj safariga borgan. Burhoniddin Marg‘inoniy fiqh bo‘yicha asosiy asari (“Fiqh o‘rganishni boshlovchilar uchun qo‘llanma”)ni hanafiylik nazariyotchisi Abu-l-Hasan Kuduriy (vaf. 1029) va Muhammad Shayboniy (vaf. 884) asarlariga tayanib yozgan. Ushbu kitob nazariy asar bo‘lib, undan amaliy jihatdan

foydalanish qiyin bo‘lgan. Shu sababli Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi 8 juzli sharh – “Kifoyatul muntahiy” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta’limot”)ni yozishga qaror qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida “Kitob ul-Hidoya” (qisqacha nomi “Hidoya” – “To‘g‘ri yo‘l”)ni yaratgan (1178). Mazkur kitob nafaqat Movarounnahr, balki butun islom Sharqida bir necha tillarga tarjima etilib, ma’lum va mashhur bo‘lib ketgan. Undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo‘yicha qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Shu bois u nafaqat allomalar, balki oddiy xalq orasida ham “hidoyat yo‘lining sarboni” deya katta hurmat-e’tibor qozongan. Alloma “Burhonuddin val milla” (islom dinining dalili, isboti) degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan.

Burhoniddin Marg‘iloniy yana bir qancha asarlar yozgan: «Nashr ul-mazhab» (“Mazhabning tarqalishi”), «Kitob ut-tajnis val-mazid» (“Fuqarolik huquqini taqdim etish”), «Kitob ul-faroiz» (“Meros haqida kitob”), «Mazid fi furu’ il-hanafiy» (“Hanafiy mazhabiga qo‘shimchalar”) va b. U o‘z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilik shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslari, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoiy ishni ko‘rish masalalarini batafsil yoritib bergan[6].

Uning “al-Hidoya” asari asrlar davomida islom huquqi sohasida asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilib kelgan.

“Kitob al-Hidoya”ning yaratilishi o‘z tarixiga ega. XI asrdan boshlab fiqhda muxtasar qoidalar to‘plami – darsliklar yaratish yo‘lida ilmiy kitoblar yozila boshlandi. Jumladan, Bag‘dod hanafiy maktabining namoyandasi Ahmad ibn Muhammad al-Quduriy (vaf. 1036-y.)ning “al-Muxtasar” asari hanafiy dunyosida keng tarqaldi. Uni sharhlashga movarounnahrlik olimlardan Bahouddin Muhammad al-Isfijobiy (vaf. 1106-y.)ning “Zod al-fuqaho”, Abu Bakr al-Buxoriy Xoharzoda (vaf. 1090-y.)ning “Sharh mushkilot al-Quduriy”, Alouddin as-Samarqandiy (vaf. 1144-y.)ning “Kitob tuhfat al-fuqaho”, Abu Bakr ibn Mas’ud al-Kosoniy (vaf. 1196-y.)ning “Bado’i as-sano’i fi tartib ash-sharo’i”, Muxtor az-Zohidiy al-G‘azminiy (vaf. 1260-y.)ning “al-Mujtabo”, Hamididdin Ali ad-Darir ar-Romishiy (vaf. 1267-y.)ning “al-Favoid al-badriyya” asarlari bag‘ishlangan. Burhoniddin Marg‘inoniy o‘z navbatida “Muxtasar al-Quduriy” va ash-Shayboniyning “al-Jome’us-sag‘ir” asarlariga Sadr ash-Shahidning sharhlari bilan qisqa asar yaratdi va uni “Bidoyat al-mubtadiy” deb atadi. Muallifning o‘zi o‘z asariga “Kifoyat al-muntahiy” nomli sharh yozdi. Keyin u ikkinchi marta «Bidoyat al-mubtadiy»ni boshqa fiqhiy asarlar yordamida sharhladi. Shunday qilib Burhoniddin al-Marg‘iloniyning o‘zidan avvalgi va zamondosh ulamolar tomonidan ishlab chiqilgan, barcha sohalarda hanafiylik fiqhining qonunlarini o‘zida mujassam qilgan mashhur asari – “Kitob al-Hidoya” dunyoga keldi.

Ushbu asar hanafiy fiqhining qiyosiy manbasi sifatida juda tez omma orasida tarqaldi. Asardan joy olgan 57 ta kitob va boblar bevosita amaliyotda keng qo‘llanila

[6] Qarang: Islom. Ensiklopediya. – T.: O‘z ME DIN, 2017. – B. 126–127.

boshlandi. “Kitob al-Hidoya” asariga yirik faqihlar tomonidan qator sharhlar bitilgan. “Kitob al-Hidoya” asari bir nechta tillarga tarjima qilingan[7].

“Hidoya” kitobi bugungi kunga qadar islom huquqi bo‘yicha barcha sohalarda o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan va faqihlarning ko‘pchiligi, ularning mazhablaridan qat’i nazar, unga katta e’tibor bilan qaraganlar. Shu sababli unga ko‘p sharhlar yozilib, ba’zan esa qisqartirilib, qisqartmasiga ko‘p sharhlar yozilgan. “Hidoya”ni Buxorolik Sadrushshari’a o‘z nevarasi ikkinchi Ubaydulloh ibn Mas’ud (vaf. 747 h) uchun qisqartirgan. Tojushshari’a Mahmud ibn Sadrushshari’a birinchi o‘z qisqartmasini «Viqoyaturrivoya fi masoilil-Hidoya», deb atab, uning muqaddimasida “Hidoya” haqida quyidagidek fikr bildirgan edi: “Hidoya” faxrlanishga arzigulik bir nafis va oliy asar, to‘lqinlantiruvchi bir ummon, yuksak o‘rinli, qimmatli, o‘z aniq dalillari va hujjatlari bilan katta ahamiyatga ega, cheksiz yaxshi tomonlari va aniq jumlalari bilan hammaga fayzu baraka manbasi bo‘lib kelgan bir kitobdir».[8]

Ushbu asarni ikkinchi Sadrush-shari’a ham sharhlagan (Sharhul-viqoya) va uni qisqartirib “Niqoya” yoki “Muxtasarul-viqoya” deb atagan. Ushbu “Hidoya” qisqartmasi ustidan faqihlar tomonidan arab, fors, turk, tatar va urdu tillarida o‘ndan ortiq sharhlar va ular ustida hoshiyalar yozilgan.

“Muxtasar” haqida oxirgi katta sharh toshkentlik olim Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja tomonidan o‘zbek tilida yozilib, “Majma’ul-maqsud” nomi bilan ikki jildda 1917-yilgacha Toshkent bosmaxonalarida ikki marta 1080 bet hajmda nashr qilingan edi. Oxirgi qayta to‘ldirilgan nashri 2015-yili “Sharq” nashriyotida ikki jildda nashr etildi.[9]

Bundan tashqari, Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga Hisomuddin ibn Ali Sig‘noqiy Hanafiy sharh yozib uni “Nihoya” deb atagan, Ali ibn Zarif al-Buxoriy (ikki jildda sharh yozib, “Favoid” deb atagan), Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy al-Kokiy (“Mi’rojud-diroya” deb atagan), Abul Abbos Ahmad ibn Assorujiy (“Kitobul-aymon”gacha yozib, “al-Inoya” deb atagan), qozi Sa’duddin Muhammad ibn Muhammad Dayriy (“Bobul-murtad”gacha olti jildda sharh qilgan), Jaloluddin Umar ibn Muhammad al-Xabboziy yozgan hoshiya katta shuhrat qozonib, Muhammad ibn Ahmadul-Qunaviy ushbu hoshiyani to‘ldirib, “Takmilatul-favoid” deb atagan. Qavomuddin Amir kotib ibn amir Umar Itqoniy Hanafiy tomonidan “G‘oyatul-bayon va nodiratul-aqron” nomli uch jildlik sharh bo‘lib, muallif ushbu sharhni Iroq, Bag‘dod va Damashq shaharlarida ilmiy faoliyatida davomida 26 yil-u 6 oyda yozib tugatgan. “Fathul-qodiyr lil-ojizil-faqir” Kamoliddin Muhammad ibn Abdulvohid Siyvosiy Ibn Humom al-Hanafiy tomonidan “Kitobul-vakola”gacha yozilgan ikki jildlik sharh. Ali Qoriy mazkur sharh uchun ikki jildlik hoshiya yozgan. Qozizoda muftiy

[7] Qarang: Burhonuddin Marg‘inoniy. HIDOYA sharh bidoyatil-mubtadi (o‘zbekcha ilmiy-akademik izohli tarjima / tarj. A.Qambarov va boshqalar). – T.: Hilol-nashr, 2021. – J. 1. – B. 7-8.

[8] O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №.R.9445 raqam ostida saqlanayotgan «Viqoyatu-rrivoya» qo‘lyozma nusxasi. B.1.

[9] Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja. Majma’-ul maqsud // Muxtasar ul-Viqoyaning sharhi. 2 jildda. – Toshkent: “Sharq”, 2015.

Ahmad ibn Qo‘rd kitobning sharhini oxirigacha to‘ldirib, Ibrohim ibn Muhammad Halabiy “Fathul-qodir”ni bir jild qilib qisqartirgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, “Fathul-qodir” va uning hoshiya va qo‘shimchalari katta shuhrat va e’tibor qozonib, Misr, Hindiston va boshqa mamlakatlardagi madrasalarda o‘qitilgan. Turkiyalik olim Akmaliddin Muhammad ibn Mahmud Bobartiy tomonidan “Inoya” nomi bilan yozilgan ikki jildlik sharh. Bu sharh Turkiyada katta e’tibor va ahamiyatga ega bo‘lib, muftiy Sa’duddin Taftazoniy uning ustida bir hoshiya yozgan[10].

“Hidoya”ga amaliy ehtiyojdan kelib chiqib, turli davrlarda musulmon olamining turli mintaqalarida unga sharhlar bitilgan.

Bugungi kunda islom ta’limi tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – klassik islomiy merosni zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘un holda o‘qitish, yosh avlodga diniy bilimlarni chuqur, tizimli va hayot bilan bog‘lab yetkazishdir. Shu nuqtayi nazardan, Burhoniddin Marg‘iloniy asarlarining zamonaviy islom ta’limi tizimida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning shoh asari “al-Hidoya” eng mo‘tabar huquqiy darslik sifatida sakkiz asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hind yarim oroli, Turkiya va ko‘p arab mamlakatlari uchun eng daqiq va ishonarli manbalardan biri vazifasini o‘tab kelmoqda.

“Al-Hidoya” Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun “alAzhar”, Fransiyaning “Sarbon”, Afg‘oniston Islom dorulfununi, Hindiston Aligarh universiteti, “Devband” doru-lulumi, boshqa islom mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bu ulug‘ kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalar sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Afg‘oniston va Hind yarim orolida “Kanz” va “al-Quduriy” kitoblaridan keyin, “al-Hidoya”ni yetuk ustozdan o‘qib tamomlamagan tolib haqiqiy fiqh olimi hisoblanmaydi.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Marg‘iloniy o‘z asarlarida masalalarni bayon etishda quyidagi usullardan foydalangan:

[10] “Hidoya” asariga yana quyidagi sharhlar ham bitilgan: Ibn Turkmoniy Mordiniy sharhi, Qozi Badruddin Mahmud ibn Ahmad al-ayniy sharhi, Ibnu-sh-shahna Muhibuddin Muhammad sharhi, Musannif Ali ibn Muhammad sharhi, Ahmad ibn Mustafo Toshko‘brizoda sharhi, Ahiyzoda Abdulhalim ibn Muhammad sharhi, Mavlo Zakariyo ibn Bayrom al-Muftiy sharhi, Muslihuddin Mustafo ibn Zakariyo ibn Oydugmish al-Qirmoniy yozgan “Irshod ar-rivoya fi sharhi-l-hidoya” nomli sharhi, “Zubdatu-r-rivoya” nomli qozi Abdurrahim ibn Ali Omadiy yozgan sharhi, Ibn Abdulhaq Ibrohim Ali ad-Damashqiy sharhi, Sayyid sharif Ali ibn Muhammad al-Jurjoniy sharhi, Ahmad ibn Abilqodir al-hanafiy sharhi, “Al-lubob” nomli sharh, Muinu-l-hiraviy sharhi, “Ravzatu-l-axbor” nomli sharh, Abu Bakr ibn Muhammad al-hasiniy sharhi, Ibrohim ibn Ali at-Turtusiy sharhi, Ibn Abdillo al-hasindiy ad-Dihliy sharhi, Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan Abul Abbos Taqyuddin ash-Shamaniy sharhi, Is’hoq ibn Ali ibn Yahyo Abu Tohir Najmuddin. “Hidoya”ga yozgan hoshiyasi, Jaloliddin ibn Shamsiddin al-Xorazmiy al-Karloniy “Hidoya”ga yozgan “Kifoya” nomli sharhi, Hasan ibn Ali Hajjoj ibn Ali Husomuddin Sig‘noqiy “Hidoya”ga yozgan “Nihoya” nomli sharhi, Samarqandiy Hamidiy yozgan ta’liq va boshqa bir qator qisqartmalar, sharhlar, ta’liqlar, turli mamlakatlarda, ayniqsa, Hindiston bosmaxonalarida nashr etilgan “Hidoya” matni uchun yozilgan muqaddimalar va hoshiyalar ham muhim bo‘lib, ular tomonidan yozilgan muqaddima va izoxlar ushbu asarning tub mazmuniga yetib borish uchun katta yordam beradi. Ma’lumot uchun qarang: Mustafo ibn ‘Abdulloh ar-Rumiy al-hanafiy ash-shahir bi Xoji Xalifa. «Kashf az-zunun ‘an asmo‘ al-kutub va-l-funun». 2 jildli. − Makka: Maktaba al-faysaliyya, 1981. J.2. – B. 1356, 1283, 1586.

Diskursiv bayon: Avval muammo qo‘yiladi, so‘ng turli mazhablarning dalillari keltiriladi va oxirida eng maqbul yechim asoslab beriladi.

Sillogizm: Huquqiy normalarni mantiqiy ketma-ketlikda chiqarish.

Bu metod zamonaviy yurisprudensiya va islom huquqi talabalari uchun voqea-hodisalarga ko‘r-ko‘rona emas, balki tahliliy yondashish ko‘nikmasini beradi.

Bugungi kunda “Islom moliyasi” fani jahon ta’lim tizimida jadal rivojlanmoqda. “Al-Hidoya”ning “Kitob al-buyu” (Savdo kitobi), “Kitob al-muzoraba” va “Kitob ar-rahn” kabi boblari zamonaviy bank-moliya munosabatlarining shar’iy asoslarini o‘rganishda bebahodir.

Marg‘iloniy asarlaridagi shartnomalar nazariyasi (bitim tuzish, ribodan saqlanish, sherikchilik) zamonaviy islom banklarining mahsulotlarini ishlab chiqishda nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi.

Olim merosidan ta’limda tizimlilik va integratsiya uchun foydalanish mumkin. Marg‘iloniyning yondashuvida fanlararo bog‘liqlik kuchli o‘rin egallagan. U huquqiy masalani yechishda axloq (tasavvuf), tilshunoslik va mantiq fanlarini birlashtiradi. Zamonaviy ta’limda buni “Integratsiyalashgan o‘qitish” deb ataladi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Al-Hidoya”ni nafaqat “Fiqh” fani doirasida, balki “Qiyosiy huquqshunoslik” va “Xalqaro huquq” fanlari bilan integratsiya qilgan holda o‘qitish lozim.

“Al-Hidoya”da inson huquqlari, qo‘shnichilik haqlari, boshqa din vakillari (zimmiylar) bilan munosabatlar masalasi yuksak insoniylik tamoyillari asosida yoritilgan. Zamonaviy islom ta’limida ushbu manbalardan foydalanish yoshlarda diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Bu esa turli diniy nizolar va radikalizmning oldini olishda muhim mafkuraviy qurol sanaladi.

Marg‘iloniy asarlarini bugungi kunda samarali qo‘llash uchun quyidagi qadamlar tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy tilga moslashtirish (Parafraza): Asarning tili murakkab bo‘lgani bois, talabalar uchun uning soddalashtirilgan va zamonaviy huquqiy atamalar bilan boyitilgan izohli nashrlarini yaratish.

2. Case Study (Keys-stadi) usuli: Marg‘iloniy bayon etgan huquqiy holatlarni bugungi hayotiy muammolarga (masalan, elektron tijoratdagi huquqiy munosabatlar) qiyoslash orqali o‘qitish.

3. Raqamli resurs yaratish: “Al-Hidoya”ning elektron bazasini yaratib, undagi normalarni sohalar bo‘yicha (oila, meros, jinoyat, savdo) tezkor qidirish tizimini joriy etish.

Burhoniddin Marg‘iloniyning ilmiy merosi shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki tirik va amaliy ilm manbaidir. Uni zamonaviy ta’lim tizimiga to‘g‘ri tatbiq etish, bir tomondan, milliy-diniy qadriyatlarimizni saqlab qolishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, xalqaro talablarga javob beradigan kuchli islom huquqshunoslari va iqtisodchilarini tayyorlashga zamin yaratadi.

Asarda bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan bir nechta aniq huquqiy misollar mavjud:

1. Omonat va mas’uliyat masalasi (Vadia).

Marg‘iloniy omonat saqlovchining javobgarligini aniq chegaralab beradi. Misol: agar bir kishi boshqasiga biror buyumni omonat topshirsa va omonatdor uni o‘z mulkiga qo‘shib qo‘ysa (masalan, o‘z pullari bilan aralashtirib yuborsa), buyum yo‘qolgan taqdirda omonatdor uni to‘lab berishi shart.

Huquqiy mantiq: bu yerda “aralashtirish” harakati omonatni “tasarruf qilish” (egalik qilish) deb baholanadi va mas’uliyat omonatdor zimmasiga o‘tadi. Zamonaviy qo‘llanilishi: Bankdagi omonatlar va logistika kompaniyalarining yuk saqlash javobgarligini tushuntirishda muhim keys hisoblanadi.

2. Savdo-sotiqda “Ixtiyor” huquqi (Xiyor ash-shart). Marg‘iloniy xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi adolatni ta’minlash uchun “tanlash huquqi”ni batafsil yoritadi. Misol: xaridor biror mahsulotni sotib olayotganda “Uch kun ichida qaytarish huquqiga egaman” deb shart qo‘ysa, bu shart qonuniy hisoblanadi. Agar shu muddat ichida xaridor fikridan qaytsa, sotuvchi mahsulotni qabul qilishga majbur. Huquqiy mantiq: Bu ikki tomonning ham zarar ko‘rmasligi va “aldanib qolmaslik” huquqini himoya qiladi.

Zamonaviy qo‘llanilishi: Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlardagi “mahsulotni qaytarish muddati” konsepsiyasining klassik asosidir.

3. Garov munosabatlari (Rahn). Garovga qo‘yilgan mulkdan foydalanish borasidagi cheklovlar. Misol: agar qarzdor o‘z qarzi evaziga biror hayvonni (yoki mashinani) garovga bersa, qarz bergan kishi (garov oluvchi) undan o‘z xohishicha foydalanishi mumkin emas. Chunki bu “ribo” (sudxo‘rlik)ning bir ko‘rinishi hisoblanishi mumkin. Huquqiy mantiq: garov faqat qarzni qaytarish kafolati bo‘lishi kerak, foyda olish manbai emas. Zamonaviy qo‘llanilishi: Islom moliya tizimida lombard va garov shartnomalarini tuzishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

4. Ko‘chmas mulk va qo‘shnichilik huquqi (Shuf’a). Marg‘iloniy qo‘shnilarning bir-biri oldidagi huquqlarini juda nozik ifodalagan. Misol: agar uy egasi o‘z uyini sotmoqchi bo‘lsa, uni sotib olishda birinchi navbatda qo‘shnisi imtiyozga ega. Agar uy egasi qo‘shnisiga aytmay begonaga sotsa, qo‘shni sud orqali o‘sha narxda sotib olishni talab qilishi mumkin. “Zararning oldini olish” (Daf’ al-mazarra) tamoyili. Notanish yoki yomon qo‘shni kelishining oldini olish orqali ijtimoiy tinchlik saqlanadi. Bugungi ko‘chmas mulk bozoridagi ustuvorlik huquqi nazariyasini o‘rganishda qo‘llaniladi[11].

Yuqoridagi misollarning zamonaviy islom ta’limi tizimida qo‘llash ahamiyatini yana quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Nazariya va amaliyot uyg‘unligi: Talaba quruq qoidani emas, hayotiy holatni ko‘radi.

[11] Qarang: Burhoniddin Marg‘inoniy. Al-Hidoya sharh Bidoya al-mubtadiy (Soid Bektosh tahqiqi ostida). – Madina: Dor as-siroj, 2019. – J. 5. – B. 418-486; — J. 6. 259-316.

2. Mantiqiy izchillik: Marg‘iloniy har bir hukmning sababini (“Illat”) tushuntiradi. Masalan, nima uchun mumkin emas? Chunki bu birovga zarar yetkazadi.

3. Qiyosiy tahlil imkoniyati: “Al-Hidoya”dagi bu misollarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari bilan qiyoslash talabada huquqiy dunyoqarashni kengaytiradi.

**Uyg‘un G‘AFUROV,**
*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rektori,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## IMOM MARG‘INONIY G‘OYALARI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ISLOM MA’RIFATINI RIVOJLANTIRISH SIYOSATINING UYG‘UNLIGI

Imom Marg‘inoniy merosi asarlar davomida milliy davlatchilikning ma’naviy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Insoniyat tamadduni tarixida huquqiy madaniyat va ijtimoiy adolat mezonlarini shakllantirgan buyuk siymolar orasida Imom Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘rni beqiyosdir. Uning “Al-Hidoya fi sharh bidoyatil mubtadi’” asari sakkiz asrdan buyon islom olamida nafaqat diniy qo‘llanma, balki mukammal huquqiy kodeks sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonning siyosiy va ma’rifiy qiyofasi shakllanayotgan bugungi davrda Imom Marg‘inoniy ilgari surgan insonparvarlik g‘oyalarini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, ulardan keng xalq ommasi, xususan, yoshlarni xabardor qilish shunchaki tarixiy xotirani tiklash emas, balki milliy davlatchiligimizni kuchli huquqiy va axloqiy asosda rivojlantirish ehtiyoji hamdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning eng katta boyligimiz – bu bobolarimiz qoldirgan beqiyos bilimlar va ma’naviy xazinadir. Bu boylikni o‘rganmay, unga tayanmay turib, biz Yangi O‘zbekistonni qura olmaymiz”.

Imom Marg‘inoniy ilgari surgan “Adolat – davlat va jamiyat barqarorligining garovi” degan fundamental g‘oya bugungi kunda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot strategiyasi bilan to‘laqonli hamohangdir.

Imom Marg‘inoniyning ijtimoiy-huquqiy qarashlari va zamonaviy davlatchilik mezonlari borasida so‘z ketar ekan, avvalo alloma ilmiy merosi, xususan, uning fiqhiy qarashlari zamirida inson huquqlarini himoya qilish – “hazrati inson” tushunchasi va jamiyatda muvozanatni saqlash g‘oyasi yotadi. Bu yo‘nalishda quyidagi uchta muhim jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Mulk daxlsizligi va iqtisodiy adolat: “Al-Hidoya”ning katta qismi savdo-sotiq, ijara va mulkiy munosabatlarga bag‘ishlangan. Imom Marg‘inoniy xususiy mulkni daxlsiz hisoblagan. Shunga muvofiq iqtisodiy munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarning majburiyligini ilmiy asoslab bergan.

Konstitutsiyamizning 65-moddasida mustahkamlangan “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”, degan norma bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi.

Marg‘inoniyning iqtisodiy erkinlik borasidagi qarashlarini bugungi kundagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatining tarixiy-huquqiy ildizi sifatida baholash mumkin.

Alloma sud hokimiyati mustaqil va adolatpesha bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlagan. Imom Marg‘inoniy asarda “Qozilar odobi” nomli alohida bob ajratib, unda sud institutining “Odob-axloq kodeksi”ni tushuntirib bergan.

Uning fikricha, adolat faqat qonun bilan emas, balki sudyaning yuksak ma’naviyati bilan qaror topadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda sud tizimini isloh qilish, sudyalarning mustaqilligini ta’minlash borasidagi qadamlar Imom Marg‘inoniy an’analarining zamon bilan hamnafas, hamqadam ekanini ko‘rsatadi.

Alloma asarlarida kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy sheriklik masalasiga huquqiy maqom bergan. Zakot va vaqf munosabatlarini tizimlashtirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish yo‘llarini ko‘rsatgan. Yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan “Vaqf” xayriya jamoat fondi tomonidan amalga oshirilayotgan xayrli ishlar, shuningdek, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy mexanizmlar aynan Imom Marg‘inoniy ta’limotidagi ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg‘un amaliyotlardir.

Imom Marg‘inoniy asarlarini tizimli o‘rganish mustaqillik yillarida, ayniqsa, so‘nggi to‘qqiz yilda mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, ular orqali alloma shaxsi ibrati va ilmiy merosi natijalarini ijtimoiy hayotga ko‘chirish doirasida ibratli, xayrli ishlar alohida ahamiyatga molikdir.

Taniqli olim Abdulhakim Juzjoniy Imom Marg‘inoniyning huquqiy qarashlarini zamonaviy yurisprudensiya bilan qiyosiy tahlil qildi, Salohiddin Muhitdinov rahbarligida bir guruh yosh olimlar “Hidoya” asarini arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 2000-yilda “Adolat” nashriyotida bosmadan chiqarildi.

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrasi mudiri Soatmurod Primov allomaning “Hidoya” asari 1-jildini keng izohli sharhi bilan nashr ettirgan.

Imom Marg‘inoniyning “Hidoya” asarini ilk marotaba to‘liq o‘zbek tilidagi izohli va akademik tarjimasi, 2021-yil A’zamxon Qambarov (bosh tarjimon), Akmaljon Ikromjonov, Ilhomjon Bekmirzayev tomonidan tarjima qilinib, nashr qilindi.

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida va O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida Imom Marg‘inoniy fiqhi asosida “Islom huquqi va iqtisodiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda.

Xususan, Toshkent islom institutida “Fiqh” fanidan allomaning “Hidoya” asari talabalarga 1-kursdan, 4-kursgacha asosiy darslik sifatida o‘qitiladi. Bu esa Imom Marg‘inoniy g‘oyalarini nafaqat tarixiy yodgorlik, balki amaliy huquqiy yechim sifatida o‘rganilayotganini isbotlaydi.

Yangi O‘zbekistonning diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlari “ajdodlar merosini renessans poydevoriga aylantirish” tamoyiliga asoslangan. Bu yo‘nalishda Burhoniddin Marg‘inoniy shaxsiyati va ijodi bir nechta yirik markazlar diqqat markazida turibdi.

Marg‘ilon shahrida Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu markaz bevosita allomaning vatanida tashkil etiladi, uning asosiy vazifasi “Al-Hidoya” asarining qo‘lyozma va nashr qilingan nusxalarini jamlash, “Burhoniddin Marg‘inoniy – buyuk huquqshunos” mavzusidagi turkum ilmiy maqolalar to‘plami nashr etish kabi muhim vazifalar belgilanadi.

2000-yilda alloma tavalludining 900-yillik yubileyi xalqaro YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda keng ko‘lamda nishonlanib, unda Turkiya, Misr va BAA olimlari Marg‘inoniy fiqhining zamonaviy xalqaro huquq tizimi bilan mushtarak jihatlarini e’tirof etdilar.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Imom Marg‘inoniy merosi uchun alohida “Huquq va fiqh” bo‘limi tashkil etildi. Markaz ilmiy xodimlari tomonidan “Al-Hidoya” asarining dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan 50 dan ortiq nodir nusxalari reestri tuzildi.

Yangi O‘zbekistonning diniy-ma’rifiy siyosatida Marg‘inoniy ilgari surgan “Vasatiylik” (mo‘tadillik) va “Ma’rifiy islom” g‘oyalari markaziy o‘rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ochib berishi Imom Marg‘inoniyning fiqhiy qarashlari bilan bir xil maqsadni ko‘zlaydi. Zero, Imom Marg‘inoniy dinni tor tushunchalardan chiqarib, uni ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi ilm darajasiga ko‘targan.

Imom Marg‘inoniy ta’limotida davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning mukammalligi jamiyat farovonligining asosi deb ko‘riladi. Bugungi O‘zbekistonning dunyoviy davlat qurish yo‘lidagi islohotlarida diniy qadriyatlarning hurmat qilinishi – alloma intilgan “komil jamiyat” modeliga yaqindir.

Davlat tomonidan “Vaqf” xayriya jamoat fondining qayta tiklanishi va uning mablag‘larining ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilishi – Imom Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asaridagi ijtimoiy adolat boblarining zamonaviy institutsional ko‘rinishidir.

Umuman, Burhoniddin Marg‘inoniyning ilmiy merosi shunchaki 800-yillik tarix emas, balki Yangi O‘zbekistonning huquqiy va ma’naviy yuksalishi uchun tirik manbadir. Alloma ilgari surgan adolat, mulk daxlsizligi, mo‘tadillik va ilmga asoslangan hayot tarzi bugungi davlat siyosatining strategik ustunlariga aylandi.

Imom Marg‘inoniy g‘oyalari va Yangi O‘zbekistondagi islom ma’rifati siyosatining uyg‘unligida inson qadri oliy qadriyat sifatida ko‘riladi, diniy qarashlar va dunyoviy taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi hamda ilmiy tadqiqotlar orqali asl diniy qadriyatlar radikallashuv va soxta g‘oyalardan himoya qilinadi.

Imom Marg‘inoniy merosini o‘rganish – xalqimizning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va dunyo hamjamiyatida Yangi O‘zbekistonning intellektual salohiyatini namoyish etishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Jobir ELOV**
*O‘zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyati vakili,*
*Fatvo markazi ulamolar kengashi a’zosi,*
*Mir Arab oliy madrasasi rektori*

## O‘ZBEKISTONDA IMOM MARG‘INONIY ILMIY MEROSINI O‘RGANISH VA UNING XALQARO DARAJADA TARG‘IB QILISH TAJRIBALARI

Islom huquqi va fiqh ilmi tarixida Movarounnahr allomalari muhim o‘rin tutadi. Ana shunday ulug‘ zotlardan biri Imom Burhoniddin Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr Marg‘inoniydir. U hijriy VI asrda hanafiy mazhabining nazariy va amaliy asoslarini mukammal tarzda tizimlashtirgan buyuk faqih sifatida tanilgan. Uning “Al-Hidoya fi sharh Bidayat al-mubtadi” asari islom huquqi tarixida eng ko‘p sharh qilingan va o‘qitilgan fiqhiy manbalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston hududi Marg‘inoniy yashab ijod qilgan ilmiy-madaniy muhitning markazi bo‘lgan. Shu bois mustaqillikdan so‘ng milliy ilmiy merosni qayta tiklash va chuqur o‘rganish jarayonida Imom Marg‘inoniy shaxsiyati va ilmiy faoliyatiga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayon nafaqat milliy o‘zlikni anglash, balki O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasidagi o‘rnini xalqaro maydonda namoyon etishga xizmat qilmoqda.

Burhoniddin Marg‘inoniy (Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniy) Movarounnahr ilmiy muhitida yetishib chiqqan buyuk faqih, mufassir va muhaddis sifatida tanilgan. Tarixiy manbalarda uning nasabi sahoba Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqalishi qayd etiladi. Bu holat allomaning ilmiy va ma’naviy maqomini yanada yuksaltirgan omillardan biri hisoblanadi.

Marg‘inoniy Farg‘ona vodiysida tug‘ilib, keyinchalik o‘sha davrning yirik ilmiy markazlaridan bo‘lgan Samarqandda tahsil olgan. U yerda yetuk olimlar bilan ilmiy bahs-munozaralarda ishtirok etib, hanafiy fiqh maktabining chuqur bilimdoniga aylangan. Zamondoshlari tomonidan unga “Burhonuddin val-milla” (“Din va millatning hujjati”), “Shayx ul-hanafiyya” kabi yuksak unvonlarning berilishi ham uning ilmiy salohiyatidan dalolat beradi.

Imom Marg‘inoniyga zamondoshlari va undan keyingi davr allomalari yuksak baho berganlar. Jumladan, mashhur faqih Hasan ibn Mansur Qozixon, imom Ahmad ibn Muhammad al-Utabiy, shayx Zahiriddin Buxoriy (“Fatovo-yi Zahiriyya” va “Favoid Zahiriyya” asarlari muallifi), shuningdek, “Al-Muhit al-Burhoniy” va “Az-Zaxira” asarlari sohibi Mahmud ibn Ahmad ibn Abdulaziz Burhoniddin Marg‘inoniy

zamonasining eng yirik faqihlari va ummatning yetuk namoyandalaridan biri ekanini tasdiqlaganlar.

Allomaning ilmiy merosi serqirra bo‘lib, “Nashr al-mazhab”, “Kitob at-tajnis va-l-mazid”, “Kitob ul-faroiz”, “al-Mazid fi furu‘ al-hanafiyya” kabi asarlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilik, jinoyat va jazo, qozilik instituti hamda fuqarolik huquqiga oid masalalarni qamrab oladi. Biroq Marg‘inoniy ilmiy faoliyatining eng yuksak mahsuli sifatida “Al-Hidoya” asari alohida e’tirof etiladi.

“Al-Hidoya” asari 1165–1178-yillar oralig‘ida, o‘n uch yil davomida yozilgan bo‘lib, hanafiy fiqhini boshqa sunniy mazhablar bilan qiyosiy tahlil etish asosida bayon qilgani bilan ajralib turadi. Manbalarda qayd etilishicha, alloma bu asarni yozish jarayonida muttasil ro‘zador bo‘lgan, bu esa uning ilmga bo‘lgan ixlosi va taqvosining yorqin ifodasidir.

Allomaning muhaddislikdagi yuksak maqomini ko‘rsatadigan muhim dalillardan biri – uning asarlarida, xususan, “Al-Hidoya”da keltirilgan hadislarning ko‘pligidir. Alloma Anvar Shoh Usmoniy “E‘lo as-sunan” asarida Marg‘inoniy hadis ilmini chuqur egallagan hofiz bo‘lganini aynan shu jihat bilan isbotlaydi. Ushbu hadislarni hofiz Zaylaiy maxsus ravishda “Nasb ar-roya fi taxrij ahadis al-Hidoya” asarida taxrij qilgan, keyinchalik hofiz Ibn Hajar Asqaloniy ularni qisqartirib, “Ad-Diroya li ahadis al-Hidoya” nomli asarni yaratgan.

Ba’zi hadislar haqida “g‘arib” degan hukm berilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pi Imom Abu Yusufning “Kitob al-xaroj”, “Al-Asor”, shuningdek, Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyning “Al-Asor” va “Kitob al-hajj” asarlarida mavjud ekani aniqlangan.

Shuningdek, Marg‘inoniy arab tili va adabiyotida ham yuksak mahorat sohibi bo‘lgan. “Al-Hidoya” asarida uchraydigan fasohat, balog‘at, uslubiy uyg‘unlik va ravonlik ko‘plab adiblar tomonidan e’tirof etilgan. Bu holat Imom Marg‘inoniyning nafaqat faqih va muhaddis, balki yetuk adib va til bilimdoni bo‘lganini ham yaqqol namoyon etadi.

Mazkur asar ixchamligi, mantiqiy tizimi va amaliy ahamiyati bilan Sharq uyg‘onish davrining eng muhim huquqiy manbalaridan biriga aylandi. “Hidoya” asari to‘qqiz asrdan buyon hanafiy mazhabi bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida madrasalar va islom oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilib kelinmoqda hamda unga 60 dan ortiq sharh va hoshiyalar bitilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Imom Marg‘inoniy merosini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Mir Arab oliy madrasasi va boshqa diniy-ta’lim muassasalarida Marg‘inoniy asarlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borildi.

Qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan “Al-Hidoya” va unga yozilgan sharhlar ilmiy-tanqidiy asosda o‘rganildi, ayrim nusxalar faksimile va nashr ko‘rinishida

chop etildi. Asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi esa milliy fiqhiy terminologiyani rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, oliy ta’lim va diniy ta’lim tizimida Marg‘inoniy merosini o‘qitishga oid maxsus kurslar, ilmiy seminarlar va bitiruv-malakaviy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bu esa yosh tadqiqotchilarni fiqhiy merosni chuqur o‘rganishga rag‘batlantirmoqda.

Imom Burhoniddin al-Marg‘inoniy qalamiga mansub “Al-Hidoya” asari hanafiy fiqh ta’limining eng yuksak bosqichi sifatida asrlar davomida butun islom olamidagi yetakchi diniy ta’lim muassasalarida asosiy darslik sifatida o‘qitib kelinmoqda. Xususan, Hindiston va Pokistondagi Devband, Nadvat ul-ulamo, Jomea Ashrafiya kabi mashhur madrasalarda “Al-Hidoya” oliy darajadagi fiqhiy tayyorgarlikning cho‘qqisi hisoblanib, bu an’ana bugungi kunda ham davom etmoqda.

Shuningdek, Usmoniylar davridan boshlab Turkiya hududidagi madrasalar, Misrning al-Azhar universiteti hamda Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Quvayt kabi arab mamlakatlaridagi diniy ta’lim muassasalarida “Al-Hidoya” hanafiy fiqhni chuqur va tizimli o‘rganishda muhim manba sifatida e’tirof etilgan. Mazkur asar sharh va hoshiyalar orqali keng yoyilib, xalqaro miqyosda hanafiy huquq tafakkurining asosiy tayanchlaridan biriga aylangan.

Bugungi globallashuv sharoitida Imom Marg‘inoniy merosini xalqaro darajada targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan xalqaro ilmiy konferensiyalar, xususan, islom huquqi va hanafiy mazhabga bag‘ishlangan anjumanlarda Marg‘inoniy ta’limotiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy olimlar tomonidan “Al-Hidoya” asari ingliz, arab, turk va boshqa tillarda tadqiq etilmoqda.

Ayrim universitetlarda mazkur asar fiqh va qiyosiy huquq fanlari doirasida o‘quv qo‘llanma sifatida o‘rganilmoqda. Bu holat Marg‘inoniy merosining umuminsoniy ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda Marg‘inoniy ilmiy merosini raqamlashtirish, qo‘lyozmalarni elektron platformalarda ommalashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, uning fiqhiy qarashlarini zamonaviy huquqiy tizimlar bilan qiyosiy o‘rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida Marg‘inoniy merosini kompleks tadqiq etish, xalqaro ilmiy loyihalar doirasida o‘rganish va yosh avlodga yetkazish O‘zbekiston ilmiy maktabining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

Imom Marg‘inoniy ilmiy merosini o‘rganish va uni xalqaro miqyosda targ‘ib etish O‘zbekistonda izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu meros hanafiy fiqhning nazariy va amaliy asoslarini chuqur anglashda, shuningdek, zamonaviy huquqiy muammolarga ilmiy yechim topishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Комилжон Шермухамедов**
*Имом Мотуридий халқаро-илмий тадқиқот маркази директори, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент*

# “ҲИДОЯ” АСАРИДАГИ БАҒРИКЕНГЛИК ВА МЎЪТАДИЛЛИК ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ РАДИКАЛЛАШУВГА ҚАРШИ КУРАШДАГИ ЎРНИ

Буюк аждодимиз, ислом ҳуқуқшунослиги ривожига улкан ҳисса қўшган фақиҳ Бурҳониддин Марғиноний қаламига мансуб “Ҳидоя” асари асрлар давомида бутун мусулмон оламида ҳуқуқий маданият ва ижтимоий муносабатларни тартибга солиб келган муҳим манба ҳисобланади.

Мазкур асарнинг аҳамияти шундан иборатки, унда инсонлар ўртасидаги муносабатларда бағрикенглик, мўътадиллик ва адолат тамойилларига қатъия риоя қилиш бош мезон сифатида белгиланган.

Муаллиф томонидан илгари сурилган инсонпарварлик ғоялари аниқ ҳуқуқий меъёрлар ва мантиқий далиллар орқали асослаб берилган. Ҳар бир шахснинг ҳаёти, мол-мулки ва ор-номуси ҳанафийлик мазҳабининг мўътадил қоидалари билан мустаҳкам ҳимоя остига олинган.

Бурҳониддин Марғиноний “Ҳидоя” асарида “васатийлик” (мўътадиллик), “тайсир” (енгиллаштириш) ва бағрикенглик масалаларига ислом динининг устувор тамойиллари сифатида алоҳида эътибор қаратган.

Бу эса жамиятдаги турли тоифалар ўртасидаги кескинликни юмшатишга, ўзаро илиқ мулоқот муҳитини таъминлашга хизмат қилган.

Асарда бағрикенглик ва мўътадилликка алоҳида эътибор қаратилгани инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ижтимоий муносабатлардан олдин келтирилганида ҳам яққол кўзга ташланади.

Бурҳониддин Марғиноний жамиятдаги ижтимоий ва жиноий қонунлар инсон қадр-қимматига зид келмаслиги, аксинча жамият манфаати ҳамда фаровонлигига хизмат қилишини таъкидлаган. Бундай ёндашув инсонни радикализм ва экстремизм таҳдидларидан ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Муаллиф “Ҳидоя”да фиқҳий қоидаларни баён қилишда нафақат нақлий далилларга, балки ақлий мушоҳада ва инсон манфаатига (маслаҳа) асосланган.

Радикал оқимларнинг динни фақат мажбурият ва зўравонлик тизими деб билувчи “азимат” парадигмаси (енгиллик танлови турганда машаққатни танлаш) га зид равишда, Марғиноний ҳанафийлик мазҳабининг моҳиятини “тайсир” (енгиллаштириш) принципи билан боғлайди.

Бу методология ислом ҳуқуқини догматик қолиплардан чиқариб, уни ҳаётий ва мослашувчан тизимга айлантиради. Фақиҳ ҳар бир масаланинг ечимида “одамларга машаққат туғдирмаслик” зарурлигини ҳуқуқий асос сифатида келти-

ради. Бу эса ўз-ўзидан радикаллашувнинг асоси бўлган муросасизликка илмий зарба беради.

Асарнинг ибодатларга доир қисмидаги “рухсат” (енгиллик) боблари мўътадилликнинг амалий исботидир. Масалан, сув топилмаганда таяммум қилиш, касал киши ўтирган ёки ишора билан намоз ўқиши, сафарда намозни қаср қилиб ўқиш каби ҳукмлар шунчаки қоидалар эмас, балки исломда инсон фитрати ва имкониятлари биринчи ўринга қўйилганидан далолат беради.

Радикал мафкура тарафдорлари инсонни ўз тоқатидан ташқаридаги нарсага мажбурлаш орқали диндан узоқлаштиришга уринса, Марғиноний кишиларга берилган енгилликлардан фойдаланиш ҳам ибодатнинг бир қисми эканлигини алоҳида қайд этган. Бу ёндашув динни шахсий ва ижтимоий ҳаётда қийинчилик эмас, балки меъёр ва хотиржамлик манбаи сифатида тақдим этади.

“Ҳидоя” методологиясидаги энг муҳим жиҳатлардан бири ҳукм чиқаришда “замон ва макон” омилини ҳисобга олишдир. Асарнинг турли қисмларида, айниқса “урф” (жамиятда қабул қилинган анъаналар) ва “зарурат” тушунчаларига тез-тез мурожаат қилиниши ҳанафийлик фиқҳининг динамик характерини кўрсатади.

Радикал гуруҳлар ислом ҳуқуқини VII аср муҳитида қотириб қўйган бўлса, Марғиноний жамиятнинг ривожланиши ва инсонларнинг эҳтиёжлари ўзгариши билан фатволар ҳам мослашиши мумкинлигини кўрсатиб берган.

Асардан ўрин олган “Китоб ас-сияр” (Халқаро ҳуқуқ) боби нафақат классик фиқҳнинг, балки замонавий бағрикенглик ва дипломатик муносабатларнинг пойдевори ҳисобланади.

Марғиноний ушбу бобда давлатлараро ва динлараро муносабатларни тартибга солишда “аҳдга вафо қилиш” ва “инсон қадр-қиммати” тамойилларини илгари сурган. Бугунги кунда радикал гуруҳлар инсонларни диний жиҳатдан тоифаларга ажратиш орқали зўравонликни оқлашга уринаётган бир пайтда, “Ҳидоя”даги “ал-Амон” (Омонлик бериш) концепцияси уларга қарши мустаҳкам ҳуқуқий ҳимоя бўлиб хизмат қилади.

Муаллифнинг таъкидлашича, ҳар қандай мусулмон бўлмаган шахсга берилган хавфсизлик кафолати илоҳий аҳд сифатида қабул қилинади ва уни бузиш ислом шариатига кўра оғир жиноят ва хиёнат ҳисобланади.

Марғиноний “мустаъмин” (мусулмон ўлкасига вақтинча кирган чет эллик) ва “зиммий” (доимий яшовчи ғайридин) тушунчаларини таҳлил қилар экан, уларнинг дахлсизлигини мутлақ ҳуқуқий норма даражасига кўтаради.

Асардаги машҳур “Уларнинг қони бизнинг қонимиз каби, моллари бизнинг молимиз каби дахлсиздир” қоидаси радикаллашувнинг асосий қуроли бўлган диний нафрат ва айирмачиликка илмий асосда чек қўяди.

Бу тамойилга кўра, ислом жамиятида яшовчи бошқа дин вакилларининг ҳаёти ва мулкини ҳимоя қилиш давлат ва жамият зиммасидаги зарурий вазифа ҳисобланади.

Радикаллар томонидан амалга ошириладиган террор ва тажовузкорлик ҳаракатлари Марғиноний таъкидлаган олий ҳуқуқий тенглик принципига мутлақо зид бўлиб, исломнинг асл тинчликпарвар моҳиятидан узоқ эканини исботлайди.

Асарнинг “Китоб ас-сияр” бобида халқаро шартномалар ва сулҳ масалаларига берилган эътибор замонавий халқаро ҳуқуқ нормалари билан ҳамоҳангдир. Марғиноний мусулмон давлатининг бошқа давлатлар билан тузган келишувларини муқаддас деб билиб, ҳатто уруш ҳолатида ҳам белгиланган ахлоқий-ҳуқуқий чегаралардан чиқмасликни таъкидлайди. Бу эса радикалларга хос бўлган “ҳеч қандай чегара билмайдиган зўравонлик” мафкурасига кучли раддия бўлиб хизмат қилади.

Асардаги бундай тизимли ёндашув ёшларда ўзга дин ва маданият вакиллари билан ўзаро ҳурмат ва адолат асосида яшаш кўникмасини шакллантиради.

Натижада, “Ҳидоя” мероси жамиятда диний бағрикенглик муҳитини мустаҳкамлаш, шунингдек, турли таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитет ҳосил қилишда беқиёс аҳамият касб этади.

Бугунги кунда асардаги халқаро ҳуқуқ меъёрларини ўрганиш диний адоватга асосланган низоларнинг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга. Марғинонийнинг фиқҳ илмидаги бебаҳо илмий хазинаси инсониятни нафратга эмас, балки адолатли мулоқот ва ўзаро тотувликка чорлайди.

Ушбу манбалар асосида тайёрланган илмий асослар радикаллашувнинг мафкуравий замини бўлган жаҳолат ва мутаассибликни енгишда асосий маърифий восита бўлиб хизмат қилади.

Марғиноний ўз асарида жазо тизимини ёритар экан, қоидалар жазолашдан кўра кўпроқ ислоҳ қилиш ва жиноятнинг олдини олишга йўналтирилганлигини илмий асослаб беради. Радикал оқимлар шариатни фақат шафқатсиз қатл ва жисмоний жазолар тўплами сифатида талқин қилаётган бир пайтда, Марғиноний ҳанафийлик мазҳабининг энг инсонпарвар тамойилларидан бири – инсон томонидан муайян жиноятнинг содир этилганига аниқ далиллар мавжуд бўлмаган ҳолатда  жазони бекор қилиш принципини илгари суради.

Бу методология “шубҳа бўлган жойда жазо қўлланилмайди” деган олтин қоидага асосланади ва ўзбошимчалик билан ҳукм чиқаришнинг олдини олади. Бу тамойил радикалларга хос бўлган “ҳаммани айбдор деб билиш” мафкурасига мутлақо зид бўлиб, инсоннинг шаъни ва ҳаёти исломда нақадар юксак қадрланишини кўрсатади. Марғинонийнинг бу ёндашуви жамиятда мўътадиллик ва бағрикенглик маданияти шаклланишига хизмат қилган.

Марғиноний мероси бизга шуни ўргатадики, ҳақиқий ислом ҳуқуқи бу кўр-кўрона догматик қоидалар эмас, балки ҳар бир инсонга адолат ва инсоф назари билан қараш, жамиятда адоват эмас, балки бағрикенглик ва мўътадиллик муҳитини яратишдан иборатдир.

Шу нуқтаи назардан, асар ёшларни мутаассибона қарашлардан асраб-авайлаш, уларда юксак ҳуқуқий онгни тарбиялашда беқиёс аҳамият касб этади.

Умуман олганда, “Ҳидоя” асари шунчаки фиқҳий ҳукмлар тўплами эмас, балки ислом ҳуқуқини рационал ва гуманистик мезонлар асосида тизимлаштириб берган фундаментал асардир.

Марғиноний ҳанафийлик мазҳабининг моҳиятини “инсон учун машаққат туғдириш” эмас, балки “ижтимоий барқарорлик ва шахс манфаати” деб билади. Бугунги кунда радикал тоифалар диний матнларни қотиб қолган ва зўравонликка асосланган ҳолда талқин қилаётган бир даврда, “Ҳидоя” асари жамият учун мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш воситаси вазифасини ўтайди.

“Ҳидоя” асарининг бағрикенглик ва мўътадилликни таъминлашдаги аҳамияти қуйидаги концептуал йўналишларда намоён бўлади:

Биринчидан, мўътадиллик тамойили асарнинг ҳар бир жилдида бош мезон сифатида амал қилади. Марғиноний диннинг моҳиятини фақатгина тақиқлар, чекловлар ва жазолар тизими сифатида эмас, балки инсонга берилган қулайлик, адолат ва илоҳий марҳамат сифатида талқин этади. Радикал мафкуралар динни инсон табиатига зид бўлган “азимат” даражасига кўтариб, жамиятда қўрқув ва муросасизлик муҳитини яратса, “Ҳидоя” асари енгиллик ва кечиримлилик орқали ижтимоий тотувликка йўл очади. Бу эса ёш авлод онгида дин ҳақидаги соғлом ва ижобий тасаввурнинг шаклланишига хизмат қилади.

Иккинчидан, асар диний жаҳолатга қарши кучли илмий раддия ҳисобланади. Радикаллашув жараёнлари одатда диний тушунчаларнинг ҳиссиётга асосланган юзаки талқинидан озуқа олади. “Ҳидоя”даги мураккаб мантиқий далиллар, қиёс ва истиҳсон усуллари ёшларни эмоционал чақириқлардан воз кечиб, теран илмий мушоҳада юритишга ўргатади. Чуқур фиқҳий билимга эга бўлган шахс радикаллашган гуруҳларнинг диний шиорлар ортига яширинган сиёсий ва қўпорувчилик мақсадларини осонгина англаб етиб, уларга нисбатан мафкуравий иммунитет ҳосил қилади.

Учинчидан, “Ҳидоя” маданиятлараро мулоқот ва бағрикенглик манбаидир. Асарнинг халқаро муносабатларга оид қисмида илгари сурилган инсон қадр-қимматини эъзозлаш, аҳдга вафо қилиш ва тинчликни устувор билиш ғоялари бугунги дунёвий давлатчилик ва халқаро ҳуқуқ нормалари билан тўлақонли уйғунлик касб этади. Бурҳониддин Марғинонийнинг ҳуқуқий мероси ислом ва замонавий демократик қадриятлар ўртасидаги боғловчи кўприк бўлиб, мусулмон жамиятининг глобал дунёга тинч йўл билан интеграциялашувида методологик асос бўла олади.

Хулоса қилиб айтганда, Бурҳониддин Марғиноний қаламига мансуб “Ҳидоя” асарида жамланган илмий салоҳият бугунги куннинг энг мураккаб мафкуравий саволларига жавоб бера оладиган улкан хазинадир.

Ушбу меросни тизимли ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш экстремизм ва терроризмнинг мафкуравий илдизларини қуритишда, жамиятда диний бағрикенглик ва маърифатпарварлик муҳитини қарор топтиришда энг самарали йўлдир.

Бу асар нафақат ўтмишнинг ёдгорлиги, балки келажак авлодларни зулматдан нурга, мутаассибликдан маърифатга етакловчи ҳаётий қўлланмаси ҳисобланади.

**Muzaffarxon JONİYEV,**
*Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## IMOM MARG‘INONIY ASARLARIDA ADOLAT VA INSOF TAMOYILLARI: IJTIMOIY BARQARORLIKNING ASOSI

Hozirgi davrda huquqiy davlat va barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida inson qadri, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari markaziy o‘rinni egallamoqda. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslanib, shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda davlat boshqaruvi va huquqni qo‘llash amaliyotini insonparvarlik mezonlari asosida takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Ushbu jarayonda milliy huquqiy tafakkur va diniy-ma’naviy merosni zamonaviy talqin asosida ilmiy jihatdan tahlil etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Islom huquqiy tafakkurida inson qadri tushunchasi adolat va insof tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Hanafiy fiqh maktabining yirik namoyandasi buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Farg‘oniy Marg‘inoniy (1123-1197-yy.) o‘z asarlarida huquqiy normalarni belgilashda inson sha’ni, manfaatlari va ijtimoiy mas’uliyatini asosiy mezon sifatida e’tiborga oladi.

Uning “Al-Hidoya” asarida adolat shaxs huquqlarining teng himoyasi va zulmning oldini olish vositasi sifatida talqin qilinsa, insof huquqni qo‘llash jarayonida qat’iylik bilan insoniylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv fiqhiy qarorlarning ijtimoiy adolatga xizmat qilishini ta’minlashga qaratilgan.

Imom Marg‘inoniy merosida inson qadri, avvalo, huquqiy mas’uliyat va manfaatlarning mutanosibligi orqali ifodalanadi.

U muomala va mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligini, sud jarayonlarida xolislikni, jazolashda esa mutanosiblik va adolatni ustuvor qo‘yadi. Mazkur jihatlar insonni huquq subyekti sifatida tan olish, uning sha’ni va huquqlarini asrashga qaratilgan yondashuvning klassik namunasi sifatida baholanishi mumkin. Bu holat bugungi kunda inson qadrini yuksaltirishni bosh mezon etib belgilagan zamonaviy huquqiy islohotlar bilan konseptual uyg‘unlikni namoyon etadi.

Yangi O‘zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-

tadbirlar inson qadrini huquqiy tizim markaziga qo‘yish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuv Imom Marg‘inoniy asarlarida ilgari surilgan adolat va insof mezonlari bilan mushtarak bo‘lib, huquqni qo‘llashda formalizm emas, balki inson manfaatlarini inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Islom huquqshunosligida adolatni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan sud tizimi (qazo) nafaqat huquqiy nizolarni hal qilish, balki jamiyatda barqarorlikni ta’minlovchi institut hisoblanadi. Imom Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asari ushbu tizimning huquqiy va axloqiy asoslarini tizimlashtirib bergan manbadir. Marg‘inoniyga ko‘ra, sudyaning (qozining) adolati – bu islom huquqining hayotga tatbiq etilishidagi eng muhim bo‘g‘indir.

Ijtimoiy barqarorlikning birinchi sharti – sud organlariga bo‘lgan ishonchdir. Marg‘inoniy “Al-Hidoya” asarida qozining (sudyaning) shaxsi va uning sud jarayonidagi harakati adolat mezonini belgilab berishini ta’kidlaydi.

Odil sudlovni amalga oshirish uchun qozi muayyan intellektual va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi shart. Marg‘inoniy va islom huquqshunoslari qozining oqil, odil, mustaqim (to‘g‘ri so‘zli), amin (ishonchli), makin (vazmin) va matin (irodali) bo‘lishini talab qiladilar[12].

Imom Marg‘inoniy qarashlariga ko‘ra, qozilik lavozimiga tayinlanadigan shaxs katta gunohlardan saqlanuvchi, halol va adolatli bo‘lishi shart. Ulamolar qozilik mas’uliyatini faqat rasmiy lavozim sifatida ko‘rmasdan, bu lavozimning ijtimoiy va huquqiy ahamiyatini ham hisobga olganlar. Shundayki, agar fosiq yoki gunohkor kishi qozilikka tayinlansa, ba’zi ulamolar bu holatni shariat nuqtayi nazaridan joiz deb topsa ham, u chiqaradigan hukmlarning adolat mezonlariga zid kelishi xavfi yuqori bo‘lishini qayd etganlar.

Bu fikr “Al-Hidoya” asarida qozilikning huquqiy va axloqiy mezonlari doirasida bayon qilingan bo‘lib, Marg‘inoniy adolat va insof tamoyillarini qozining shaxsiy sifati bilan uzviy bog‘laydi. Shu nuqtayi nazardan, qozining adolatlilik, halollik va ma’naviy poklik kabi sifatlari sud hukmlarining qonuniy va ijtimoiy barqaror bo‘lishi uchun zarur shart sifatida qaraladi.

Marg‘inoniyning huquqiy falsafasi markazida adolat va insof tushunchalari yotadi. Uning fikricha, huquq shunchaki jazo choralari emas, balki jamiyatda barqarorlikni saqlash, fitnalarning oldini olish va inson qadrini himoya qilish vositasidir[13].

Ijtimoiy barqarorlikning birinchi sharti – sud organlariga ya’ni qoziga bo‘lgan ishonchdir. Marg‘inoniy “Al-Hidoya” asarida qozining (sudyaning) shaxsi va uning sud jarayonidagi harakati adolat mezonini belgilab berishini ta’kidlaydi.

Mahkama huzuridagi mutlaq tenglik: Marg‘inoniyga ko‘ra, qozi da’vogar va javobgarga, ularning ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil munosabatda bo‘lishi

[12] Hikma binti Qubayl Utaybiy. Imom Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asaridagi fiqhiy qoidalar (“Adab al-qozi” kitobi asosida) // Majallatul kulliyatil islamiyya va arabiyya. – Suhaj (Misr). 2023. – T. 29. – № 2. – B. 878.

[13] Cihangir M. İslam Hukuku Açısından İltimas Olgusu ve Adil Yargılamaya Etkisi //Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2021. – T. 25. – №. 2. – S. 836.

shart. Agar taraflarning biri jamiyatning yuqori tabaqasidan, ikkinchisi esa oddiy fuqaro bo‘lsa ham, qozi ularni bir xil joyga o‘tqazishi, bir xil nigoh bilan qarashi va bir xil ohangda so‘zlashishi lozim. Ushbu tenglik prinsipi buzilsa, jamiyatda adolatsizlik hissi uyg‘onadi va bu o‘z navbatida ijtimoiy tartibsizliklarga (fasodga) yo‘l ochadi.

Qozining mustaqilligi va axloqi: Qozi har qanday tashqi ta’sirdan, xususan, ijro hokimiyatining bosimidan xoli bo‘lishi kerak. Marg‘inoniy qozining taraflardan hadya olishini yoki ularning maxsus ziyofatlariga borishini qat’iyan man etadi. Chunki poraxo‘rlik va tanish-bilishchilik kirgan joyda insof yo‘qoladi.

Sud hukmining adolatliligi keltirilgan dalillarning haqqoniyligiga bog‘liq. Marg‘inoniy isbot vositalari orasida guvohlikka alohida e’tibor qaratadi.

Guvohlarning ishonchliligi: Marg‘inoniyga ko‘ra, guvohlik qiluvchi shaxs “adolatli” bo‘lishi shart. Adolatli shaxs esa – katta gunohlardan qochadigan, yaxshiliklari yomonliklaridan ko‘p bo‘lgan insonlardir. Agar guvoh yolg‘onchilikda yoki fiskda ayblangan bo‘lsa, uning so‘zi inobatga olinmaydi.

Qozining vazifasi faqat guvohni eshitish emas, balki uning jamiyatdagi obro‘sini ham tekshirishdir. Guvohning yashirin holatlarini o‘rganish orqali begunoh odamlarga nohaq jazo berilishining oldini olish maqsad qilinadi. Bu tizim islom huquqining “ehtiyot” prinsipiga asoslanadi va jamiyatda huquqiy xavfsizlikni ta’minlaydigan muhim jihat sifatida qaraladi.

Ijtimoiy barqarorlikning iqtisodiy asosi bozor munosabatlarida adolat o‘rnatishdir. Marg‘inoniy asarlarida tijoratni faqat foydaga emas, balki “insof” ustiga qurilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Marg‘inoniy savdo-sotiqda sotuvchining xaridorni aldamasligini, ayniqsa, molning tannarxini to‘g‘ri aytishini talab qiladi. Agar sotuvchi xiyonat qilsa (narxni asossiz oshirsa), xaridorga shartnomani bekor qilish huquqi beriladi. Ushbu qoidalar bozorda insofni ta’minlab, boy va kambag‘al o‘rtasidagi adolatli muvozanatni saqlaydi.

Shuningdek, Marg‘inoniy o‘lchovda hiyla qilishni ijtimoiy muvozanatni buzuvchi og‘ir gunoh deb baholaydi. Bozor munosabatlaridagi halollik jamiyatda o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi[14].

Marg‘inoniy huquqiy tizimida inson ongi va shaxsi daxlsizdir. Uning asarlarida “aybi isbotlanmaguncha kishi aybsizdir” prinsipi markaziy o‘rin tutadi.

Har bir inson ozod va gunohsiz tug‘iladi. Shuning uchun har qanday da’vo isbot talab qiladi. Marg‘inoniy “isbotlash majburiyati da’vogarning zimmasidadir”[15] degan hadisni huquqiy poydevor sifatida qo‘llaydi. Insonlarga potensial ayblanuvchi sifatida qarash taqiqlanadi va ularning shaxsiy daxlsizligi himoya qilinadi[16].

---

[14] Burhonuddin Marg‘inoniy. Hidoya. Tarjima va izohlar mualliflari: A’zamxon Qambarov (va boshq.). – T: Hilol. 2020. J. 2. – B. 226.

[15] Ushbu hadisning to‘liq matni quyidagicha: Umar ibni Shuaybdan rivoyat qilinadi Rasulullоh (s.a.v): “Dalil isbot) da’vogarga yuklatilgan, qasam esa da’vogar qarshisidagi shaxsga (javobgarga) yuklatilgan”, dedilar (Ibn Munzir rivoyati).

[16] Mujeed M. A. The Hidāya: with its commentary, called the Kifayah, a treatise on the questions of Mohammadan Law. – Hukeem, 1832. – T. 4.

Marg‘inoniyga ko‘ra, qozining qarorlari dalillar to‘liq bo‘lganda kechiktirmasdan chiqarilishi kerak. Chunki hukmni asossiz kechiktirish mahkumga nisbatan zulm bo‘lishi bilan birga, jamiyatda fitna va buzg‘unchilikka sabab bo‘ladi. Shuning uchun nizolarni tezkorlik bilan hal qilish ijtimoiy barqarorlikning zaruriy shartidir.

Marg‘inoniy huquqiy qarashlarida jamiyat manfaati shaxsiy manfaatdan yuqori turadi. Agar biror bir huquqiy yechim xalq uchun og‘irlik tug‘dirsa yoki ijtimoiy tartibni buzsa, islom huquqining “zararni daf qilish foydani jalb qilishdan afzaldir” degan tamoyilga ko‘ra ish tutadi. Ushbu yondashuv xalqning davlatga bo‘lgan sadoqatini oshiradi va barqarorlikni ta’minlaydi.

Imom Marg‘inoniy asarlarida adolat va insof tamoyillari nafaqat huquqiy normalarni belgilash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va inson qadrini himoya qilishning asosiy mezoni sifatida ko‘riladi.

Uning Al-Hidoya asarida qozining shaxsiy fazilatlari – halollik, adolatlilik, aqlli va irodali bo‘lishi – sud hukmlarining qonuniy va adolatli bo‘lishi uchun zarur shart sifatida ta’kidlangan.

Marg‘inoniyga ko‘ra, qozilik faqat rasmiy lavozim emas, balki jamiyatdagi nizolarni hal qilish, ijtimoiy tartibni saqlash va fuqarolarning huquqini himoya qilishga xizmat qiluvchi institutdir.

Sud qarorlarining adolatliligi dalillarga, guvohlikning haqqoniyligiga va inson qadri hurmatiga bog‘liq bo‘lib, bu tizim islom huquqining ehtiyot prinsiplariga muvofiq shakllantirilgan.

Shuningdek, Marg‘inoniy jamiyatdagi iqtisodiy va bozor munosabatlarida adolatni ta’minlashni ham qozining mas’uliyati doirasiga kiritadi. Savdo-sotiqda halollik, mol-mulkni aldamaslik va insonlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash ijtimoiy ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq va ijtimoiy islohotlar Marg‘inoniy merosida ilgari surilgan adolat, insof va inson qadri tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu bilan birga, zamonaviy huquqiy tizimda qozining mustaqilligi, qarorlarining asosliligi va shaxslarning daxlsizligi prinsiplariga rioya qilinishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Marg‘inoniy asarlari huquqiy va axloqiy prinsiplarga tayangan holda inson qadri, adolat va insofni jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi markaziy element sifatida ko‘rsatadi.

Alloma merosi Yangi O‘zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

**Ilhom BEKMIRZAYEV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori*

# “HIDOYA” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA YOZILISH USLUBI

“Hidoya” kitobi to‘qqiz asrdan buyon hanafiy mazhabi bo‘yicha eng muhim va mo‘tabar qo‘llanma sifatida barcha musulmon mamlakatlari madrasalari va islomiy oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilib kelinmoqda. Uning matni va qisqartmalari ustidan mashhur faqihlar tomonidan 60 dan ortiq sharhlar va hoshiyalar yozilib, fiqhiy mazhabning tarqalishi yo‘lida ta’sirchan omil sifatida xizmat qilib kelgani hammaga ma’lum.[17]

Hozirda bizgacha yetib kelgan “Hidoya”ga yozilgan sharhlarning soni 35 tadan oshadi. Agar biz “Hidoya”ning qisqartmasi “Al-Viqoya” va uning qisqartmasi “Muxtasarul-viqoya” ustida yozilgan ko‘p sonli sharhlarni ham nazarda tutadigan bo‘lsak, unda “Hidoya” va uning qisqartirilgan matnlari ustida yozilgan sharhlar soni 50 tadan oshadi. Qur’oni karimdan keyin islom huquqining asosiy manbalaridan biri bo‘lmish, Buxoriyning “Al-Jomi’us-sahih” kitobi bo‘yicha, Brokkelman “Arab adabiyoti tarixi” kitobida yozishicha 43 ta sharh yozilgan va nemis islomshunos olimi Ahlvardning yozishicha, faqatgina Berlindagi qo‘lyozmalar ro‘yxatiga uning 60 ta sharhi kiritilgan.[18] Aytish mumkinki, Buxoriy asaridan keyin, Marg‘inoniyning “Hidoya” asari, eng ko‘p sharhga ega bo‘lgan kitoblardandir. Bu esa “Hidoya”ning qanchalik buyuk ilmiy, amaliy va hayotiy ahamiyatga molik ekanligi inkor qilib bo‘lmaydigan dalillardan biri hisoblanadi.

Aytilganlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, “Hidoya” kitobi bugungi kunga qadar islom huquqi bo‘yicha barcha sohalarda o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan va faqihlarning ko‘pchiligi, ularning mazhablaridan qat’i nazar, unga katta e’tibor bilan qaraganlar. Shu sababli uning ustidan juda ko‘p sharhlar yozilib, ba’zan esa qisqartirilib, qisqartmasi ustidan ham ko‘p sharhlar yozilgan.

Burhonuddin Marg‘inoniy yozgan to‘rt jildlik “Hidoya” kitobi, hanafiy mazhabi bo‘yicha, eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165ta bob, 152ta fasldan tarkib topgan bo‘lib, meros huquqidan tashqari, furu’ al-fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan. Burhonuddin Marg‘inoniy meros huquqini o‘z kitobiga kirgizmaganining sababi, Abu Hanifa rohmatullohi alayh meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni “Faroiz ilmi” deb atagani sabablidir.

“Hidoya”ning arabcha matni 4 jilddan iborat bo‘lib, uning har bir jildi shariat nuqtayi nazaridan ibodat va ijtimoiy hayotdagi turli xil muammolarning shar’iy-huquqiy yechimiga bag‘ishlangan.

---

[17] Mustafo ibn ‘Abdulloh Rumiy alhadis hanafiy ash-shahir bi Xoji Xalifa. Kashf az-zunun ‘an asmo‘ al-kutub va-l-funun. 2 jildli. – Makka: Maktaba al-faysaliyya, 1981. J.2. – B. 1356.

[18] Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. 3 jildli. − Weimar-Berlin: Hay‘a al-misriyya, 1898-1993.

Birinchi jildi 5 kitobdan iborat bo‘lib, tahorat va amaliy ibodatlar namoz, ro‘za, zakot va haj masalalariga bag‘ishlangan. Bu jild 47 ta bob va 37 ta fasldan iborat.

Ikkinchi jildga nikoh, emizish huquqi, taloq qilish, qullarni ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar va yo‘qolgan buyumlar, sherikchilik shartlari, vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. Bu jild 60 ta bob, 36 ta fasldan tashkil topgan.

Uchinchi jild 14 ta kitobni o‘zi ichiga oladi. Bular: savdo-sotiq, sarroflik (ya’ni, pul ayriboshlash) masalalari, kafolat, havola (ya’ni, qarzni birovga o‘tkazish), qozilarning vazifalari, guvohlik berish, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, muzoraba (ya’ni, bir ishga pul tikish orqali sherik bo‘lish), vadi’a (ya’ni, pulni saqlashga berish), qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan. Bu jildda 36 ta bob, 37 ta fasl bor.

To‘rtinchi jildda esa, shafe’lik huquqi (ya’ni, imtiyozli huquq asosida sotib olish), merosni taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilikka doir shartnomalar, qurbonlikka so‘yiladigan jonliqlar, qurbonlik qilish shartlari, shariatga zid keladigan narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar, ovchilik, garovga berish va olish, jinoyatlar, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi huquqiy masalalar yoritilgan. Bu jild 23 ta bob, 38 ta fasldan iborat.

Hidoya muallifi nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi bo‘lganda sahobalar, mazhab asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar, turli toifa va qabilalar nomlarini zikr etadi. Abdulhay Laknaviy “Favoidul-bahiya” asarining muqaddimasida Hidoyaning birinchi qismida zikr etilgan sahobalar va tobein ismlari 50 dan ko‘proq, toifa va urug‘lar nomlari 12 ta, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar nomi 55 ta ekanligini ko‘rsatib, ularning har biri haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tgan. U Marg‘inoniy asarida kelgan to‘qsondan ortiq buyuk faqihlar, mujtahidlar, jumladan, mashhur sahobalar va muhaddislar ismlarini hamda ularga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni zikr etadi. Shundan kelib chiqib, “Hidoya” muallifining ishi qanchalik og‘ir va keng qamrovli ekanligini tushunish qiyin emas.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” kitobida huquqiy muammolarni yechish jarayonida nafaqat to‘rtta asosiy mazhab (Hanafiy, Molikiy, Shofe’iy, Hanbaliy mazhablari), balki Zohiriy va Avzo’iy mazhablariga doir fikr va mulohazalarni ham, o‘rni kelganda berib o‘tgan va har biri haqida o‘z nuqtayi nazarini bildirgan.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” kitobini yozishda o‘ziga xos uslub yaratdi. Uning har bir iborasi nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumlalarning har biri bir umumiy qoida shaklida beriladi. Uning iboralari mo‘jaz, ya’ni qisqa va sermazmun, so‘zlarining tarkibi puxta, nuqsonsiz bo‘lib, sun’iylikdan uzoq. U ko‘p zarurat sezmasa, sinonim so‘zlardan foydalanmaydi. Hashv va zavoidni (kerak bo‘lmagan ortiqcha so‘zlarni) ishlatmaydi. Uning yozish uslubi “sahli mumtani’” (ya’ni,oson, sodda, lekin uningdek qilib yozish mumkin emas) dir.

Muallif, “Hidoya”ni yozishda o‘ziga xos bo‘lgan qisqa so‘zlar, istilohlar (atamalar) va ixcham iboralarni ishlatadi. Ushbu iboralar “Hidoya” ustidan yozilgan ko‘p sharhlar va hoshiyalarda mualliflari tomonidan izohlab berilgan. Mazkur manbalarga asoslanib, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy), Shayx Abdulhaq Dehlaviy va Abdulhay Laknaviy o‘z asarlarida ularni izohlab o‘tganlar. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

Muallif asarda «قال رضي الله عنه» (Undan Alloh rozi bo‘lsin aytadi) desa, o‘zini nazarda tutgan. Usmoniylar qozisi Abu Su’ud aytadi: “Hidoya” sohibi qachon o‘zining so‘zini keltirsa, «قال العبد الضعيف عفا الله عنه» (Zaif banda, Alloh uni afv qilsin, aytadi), iborasini keltirgan. Lekin vafotlaridan so‘ng ba’zi shogirdlari bu iborani «قال رضي الله عنه» (qola roziyallohu anhu) iborasiga o‘zgartirganlar»[19].

Demak, muallif manmanlik shubhasidan saqlanish uchun o‘zini birinchi shaxsda zikr qilmagan. Kamtarlik ulug‘ faqih va muhaddis rohimahullohning doimiy odati bo‘lgan.

Faqih o‘zi ixtiyor qilgan mazhab dalillarini eng so‘ngida keltiradi. Yana shunday doimiy odatidan biri, garchi buyuk faqihlarning so‘zlarini sanaganda ko‘pincha birinchi bo‘lib eng kuchli so‘zni keltirsa, ixtilofli so‘zlarga dalil keltirgan vaqtda oxiri keltirilgan dalil oldingisiga javob o‘rnida bo‘lishi uchun eng kuchli so‘zning dalilini oxirida keltiradi.

فِي دِيَارِنَا – “fi diyorino” (bizning diyorimizda) deganda, u Movarounnahr shaharlarini nazarda tutadi.

قَالَ مَشَايِخُنَا “qola mashoyixuno” (bizning shayxlarimiz, ya’ni ustozlarimiz dedilar) dan murod, u Movarounnahr (Buxoro, Samarqand) olimlarini nazarda tutadi.

Muallif «fiqh» so‘zi bilan, aqliy dalilni ifodalaydi. Masalan, «الفقه فيه كذا» (ya’ni ushbu masala haqida aqliy dalil quyidagidek...), Muallif o‘zini xudbinlikdan saqlash maqsadida «men» so‘zini o‘z fikrini bildirishda ishlatmagan.

Uning odatlaridan biri shundaki, nazarida ma’qul ko‘ringan mazhab dalilini asar oxirida keltiradi. Qozizoda Rumiy laqabi bilan mashhur bo‘lgan Zayniddin Shayx Muhammad Afandi «Natoijulafkor» kitobida yozishicha, muallif turli mavzular uchun dalil keltirish jarayonida eng kuchli dalilni hammasidan oxirida keltiradi. Bundan uning maqsadi, oxirgi so‘zni yuqorida zikr etilgan masala uchun dalil sifatida qo‘llashdir.

Muallif ilgari zikr etilgan oyatga بما تلونا «bimo talavna» (tilovat qilganimizga binoan), hadisga بما روينا “bimo rovayna” (rivoyat qilganimizga binoan) va ilgari keltirilgan aqliy, mantiqiy dalilga بما ذكرنا «bimo zakarno» (zikr qilganimizga binoan) degan iboralari bilan ishora qiladi. Shuningdek, u “nass”, ya’ni oyat yoki hadis matnida kelgan illat yoki sababni tekshiriladigan masalani isbotlash uchun mantiqiy dalil qilib ishlatadi. U ko‘pincha aqliy dalilni, naqliy dalildan keyin keltiradi. Tug‘ilishi mumkin bo‘lgan savol yoki e’tirozga esa, فان قيل كذا قلنا كذا “fain qiyla kazo, qulna kazo” (agar bunday deyilsa, shunday javob beramiz) iborasini ishlatgan. U ko‘pincha

[19] Kavakcı Y. Z. XI ve XII Asırlarda Karahanlılar Devrinde Ma vara‘ al-Nahr İslom Hukukçuları. – Ankara: Sevinç Matbaası, 1976. – XXIV. – B 322.

o‘rganayotgan masala borasida, avvalambor, Abu Hanifaning buyuk shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyning qarashini, so‘ngra dalilini keltiradi, undan keyin Abu Hanifaning qarashini zikr etib, uning dalilini shunday izohlab o‘tadiki, har ikkalasi uchun javob bo‘ladi. Muallifning yozish uslubi, u ishlatgan o‘ziga xos iboralar va atamalarni yaxshi bilib olish, “Hidoya”ni o‘qib, undan foydalanishga katta yordam beradi.

Muallif “asl” deb aytsa, bu bilan Muhammad Shayboniyning “Mabsut” asarini nazarda tutgan. “Muxtasar” va “Kitob” lafzlarini zikr qilganda esa, “Muxtasarul-Quduriy” asarini nazarda tutadi.

Ko‘rilayotgan masala “Quduriy” yoki “al-Jomi’us-sag‘ir”ning masalasi bo‘lsa, yoki “Bidoya”da zikr qilingan bo‘lsa, so‘z boshida «قال» (aytdi) lafzini zikr qiladi. Agar yuqoridagilardan boshqa asarlarda zikr qilingan bo‘lsa, «قال» (aytdi) lafzini zikr qilmaydi»....[20]

Agar muallifُ الحَدِيثُ وَ كَذَا مَحْمُولٌ “bu hadis falon ma’noda” desa, hadis imomlari tomonidan yakdil xulosaga kelinganiga ishora qiladi.

Agar وَ الحَدِيثُ نَحْمِلُ عَلَي كَذَا”biz uni shu ma’noda deb hisoblaymiz”, desa, hadis imomlari emas, balki faqihning o‘zi ushbu xulosaga kelganini tushunish mumkin.

Qachonki عِنْدَهُ “falonchiga ko‘ra”, desa, o‘sha kishining mazhabini nazarda tutgan bo‘ladi. عَنْهُ “falonchidan” desa, u kishidan qilingan rivoyat nazarda tutiladi.

النَصُّ “Nass” so‘zidan Qur’oni karim oyatlari yoki hadisi shariflarni nazarda tutadi.

“Zohirur-rivoya”dan maqsad Muhammad Shayboniyning olti kitobi, “Mabsut” (bu kitob “Asl” deb ham ataladi), “Ziyodot”, “al-Jomi’ul-kabir”, “al-Jomi’us-sag‘ir”, “as-Siyarul-kabir” va “as-Siyarus-sag‘ir” asarlarini nazarda tutgan.

“Hidoya”da qiyos so‘zi o‘z joyiga qarab ikki xil ma’noda ishlatilgan. Birinchisi nassda kelmagan masalani nassda kelgan masalaga taqqoslash va unga buning hukmini berish. Ikkinchisi shariatda joriy bo‘lgan umumiy-kulliy qoidalarda.

“Hidoya” asarida muallif ko‘pincha qiyos — umumiy-kulliy qoidalarni tark qilib masalani istehson — ko‘pchilik ilg‘amaydigan nozik jihatini e’tiborga olgan. Bundan maqsad odamlar uchun shariat ko‘rsatmalarini oson tushunish va ularga qulaylik yaratishga e’tibor qaratadi.

“Hidoya” kitobining yana bir xususiyati shundan iboratki, unda muallif «ilmul-xilof» orqali belgilab berilgan qoidalaridan keng ko‘lamda foydalangan.

«Ilmul-xilof» faniga birinchi bo‘lib asos solgan alloma Abu Zayd Dabusiy[21] edi. Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya”da huquqiy muammolarni yechish jarayonida faqat asosiy mazhablargagina emas, balki zohiriy va avzo’iy mazhablariga doir fikr-mulohazalarni ham o‘rni kelganda tekshirib o‘tadi va har biri haqida o‘z nuqtayi nazarini bildiradi.

---

[20] Ahmad ibn Mustafo Toshkubrizoda. Miftoh as-sa‘oda va masobih as-siyoda. 11 jildli. – Qohira: Dor al-kutub al-hadisiyya, 1995. J.9. – B. 248.

[21] Mo‘minov A.Q. Hanafiy ulamolarning markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar): Tarix fan. dokt. dis. avtoref. – T.: TIU, 2003. – B 26.

Ushbu nuqtayi nazardan “Hidoya” «Ilmul-xilof»ni keng ko‘lamda o‘rganish uchun ham muhim va e’tiborli manba hisoblanadi. Ayni holda uni oxirgi davrda yangi bir fan sifatida yuzaga kelgan «qiyosiy huquq»ning o‘ziga xos bir shakli deb ham qarash mumkin.

Marg‘inoniy fiqhiy nuqtayi nazardan, huquqiy masalalarni izohlash jarayonida, ularning mashru’ (qonuniy) yoki nomashru’ (g‘ayriqonuniy) ekanligini naqliy dalillardan keyin, aqliy dalillar bilan yoritib o‘tadi.

Ushbu nuqtayi nazardan “Hidoya”ni islom huquqi falsafasi va keyingi davrlarda keng rivojlangan “huquq falsafasi” fanining manbalaridan biri deb qabul qilsak, to‘g‘ri xulosa chiqargan bo‘lamiz.

**Durbek RAHIMJONOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIY “AL-HIDOYA” ASARIDA HADISLARNING O‘RNI

Hanafiy fiqhi bo‘yicha mashhur asar yozib, Movarounnahrda hanafiy fiqhining rivojlanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, XII asrda Samarqandda faoliyat ko‘rsatgan faqih olim – Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abi Bakr Rishdoniy Marg‘inoniy Farg‘oniy (1117-1197) fiqh ilmi bilan birga bir qatorda hadis ilmida ham peshqadam edi. Burhoniddin Marg‘inoniy Rishton, Marg‘inon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda o‘z otasi, akalari qo‘lida, so‘ngra boshlang‘ich maktabda va bir qator madrasalarda, xususan Marg‘inondagi “Pur Siddiq” madrasasida tahsil oldi. U Qur’on, tafsir va hadis ilmlarini chuqur o‘rgandi.

Burhoniddin Marg‘inoniy dastlabki ta’limni Rishton va Marg‘ilonda olgan, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. Marg‘inoniy yoshligidan Qur’onni yod olib, hadislarni o‘rgangan[22].

Hadis bo‘yicha boshlang‘ich ta’limini Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (v. 892-y.) usuli bilan, uning hadislar to‘plami asosida Ziyouddin Abu Muhammad Said ibn As’ad Marg‘inoniy qo‘lida oldi. Burhoniddin Marg‘inoniy Samarqandda muhaddis Abu Hafs Nasafiydan hadis va boshqa ilmlardan saboq olgan. Marg‘inoniyning zamondoshlari u haqda shunday guvohlik beradilar: “U imom, faqih, hofiz, muhaddis, mufassir, barcha ilmlarni yaxshi biluvchi kishi edi”[23].

[22] Saidov A.X. Burhoniddin Marg‘inoniy – buyuk huquqshunos. T.: Iqtisodiyot va huquq 1997. – B. 89.
[23] Burhon ad-din al-Marg‘inoniy. al-Hidoya. – T. I. – Bayrut. – 1990. – B. 3.

Burhoniddin Marg‘inoniy ilm talabida Samarqand, Buxoro kabi Movarounnahrning madaniy markazlarida bo‘lish bilan birga, 1149-yili haj safariga chiqdi. U haj safari chog‘ida ham iloji boricha ko‘proq ilm ahli orasida bo‘lishga, ulardan bilmaganlarini o‘rganishga harakat qildi. Hajdan qaytayotib, o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida Marv shahrida to‘xtadi. Bu yerda farg‘onalik olim Tojuddin Ahmad ibn Husayn Bandanijiydan hadislar tinglaydi. Al-Marg‘inoniy o‘zining “Kitob al-hidoya”, “Kitob at-tajnis va-l-mazid”, “al-Kitob fi-l-faroiz”, “Kitob bidoyyatu-l-mubtadiy” asarlarida hadislardan mahorat bilan foydalangan. Marg‘inoniy va unga zamondosh bo‘lgan marg‘ilonlik ulamolar faoliyatlari bu davrda Samarqand bilan bir qatorda Marg‘ilonda ham hadis ilmi rivojlanganini ko‘rsatadi. Abu Hafs Nasafiy, Abu Sa’d Sam’oniylar bu davrda yashab faoliyat ko‘rsatgan oltita ko‘zga ko‘ringan marg‘ilonlik muhaddis-faqihlarning tarjimai hollarini beradilar[24].

Manbalarda olimning “al-Hidoya” asari 1178-yili Samarqandda yozilganligi qayd etiladi[25]. Chunki o‘sha davrda Movarounnahrning ikki shahri – Samarqand va Buxoro yirik ilm markazlari bo‘lib, Burhoniddin Marg‘inoniy Samarqandga ko‘chib borgan edi. Buxoro asosan qadimiy yirik tijorat markazlaridan biri sifatida fiqh ilmining markazi bo‘lgan bo‘lsa, Samarqand shahri hadis, kalom va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ilm markazi bo‘lgan edi. Samarqandda hadis ilmi majlislari turli joylarda – muhaddislar uylari, mahallalar, guzarlar, masjid va madrasalar kabi hadis toliblari yig‘iladigan joylarda bo‘lar edi. Shulardan biri “Dorul juzjoniya” XI-XII asrlarda muhaddislar qizg‘in faoliyat ko‘rsatgan hadis markazlaridan biriga aylandi. Bu ilm muassasasida ustoz muhaddislar imlo tarzida dars o‘tar, ilm toliblari eshitganlarini yozib borar edilar. Bu ilm o‘chog‘ida darslar tong otmasdanoq (subayha) boshlanar edi.

Burhoniddin Marg‘inoniy o‘zining “al-Hidoya” asarida fiqhiy hukmlarning isbot-dalili hamda asoslarini, qanday tamoyil asosida chiqarilganini ko‘rsatib bergan. Shu sababli ham bu kitob sunniylik olamida va hanafiylik mazhabida mo‘tabar manba hisoblanadi. Ko‘pincha hadis ahli Imom Marg‘inoniyni o‘z asari “al-Hidoya”da keltirgan hadis rivoyatlarining isnodi va manbalarini keltirmaslikda ayblaydilar.

Olim o‘z asarida keltirgan rivoyatlarning aslini yaxshi bilganidan asosiy e’tiborni qaratgani va hadislarni dalillashga ko‘p e’tibor bermaganini esa ko‘pchilik bilmaydi. Mazkur ta’nalarga qarshi bir qator ulamolar “al-Hidoya”dagi hadislarning ishonchli ekanini ko‘rsatib berishga qaratilgan taxrij asarlarini yozganlar. Ulardan biri Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad az-Zayla’iydir. Hanafiy mazhabi faqihi, hadis va tarix ilmlarida peshqadam olim bo‘lib, “Nasb ar-roya li ahodis al-hidoya” (“al-Hidoya hadislariga bayroq tiklash”) asarini yozgan. Bu asarda muallif Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” kitobida keltirilgan hadislarning ishonchlilik darajasini ko‘rsatib berish, ularning manbasini aniqlashga bag‘ishlangan.

---

[24] Ansob. – T. V. – B. 259-260; Qand. 1991. 245, 298.

[25] Qoriyev O. Burhoniddin al-Marg‘inoniy (1123-1197) // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/burhonuddin-al-marginoniy-1123-1197/#_ftn3. Murojaat sanasi: 26.01.2026.

Bugungi kunda Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asari sunniylik-hanafiylik mazhabiga e’tiqod qilinadigan yurtlarda asosiy manba sifatida tan olinadi. Hattoki uni yod olmagan kishini fiqh ilmining bilimdoni sanamaydilar.

Mazkur asarga hanafiylikdan boshqa mazhablarda ham alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, shofe’iy mazhabi vakillari ham “al-Hidoya” asarini o‘rganib, uning muallifini ishonchli bo‘lmagan hadislardan foydalanganlikda tanqid qilganlar. Ammo olim Muhammad Abdulhay Laknaviy mazkur tanqidlarni “Marg‘inoniyning maqomi va ilmidan xabarsizlik”, – deb baholagan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asariga taxrij yozgan olimlardan biri Shayx Muhyiddin Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy Misriydir (vaf. 775/1373-1374-y.). U “al-Hidoya” asarida keltirilgan hadislarni taxrij qilib, ya’ni undagi hadislar matnining to‘g‘ri ekani va roviylarining ishonarli ekanini isbotlab “al-Inoya bi ma’rifati ahodisi-l-Hidoya” (“al-Hidoya hadislarini bilishga e’tibor berish”) asarini yozgan. Bu asarda hadislarga e’tibor berishning muhimligi ta’kidlanib, hadislarni tushuntirish, ajratib olish va hujjatlashtirish orqali fiqh va hadis tushunchalarini boyitishga bag‘ishlangan.

Shayx Jamoliddin Abdulloh ibn Yusuf Zaylaiy “Nasbur roya li ahodiysil hidoya” hamda shayx Alouddin “al-Kifoya fi ma’rifati ahodisil hidoya” nomli kitobida mazkur hadislarning ishonchli ekanligini dalillab berganlar. Bu asarlarga qo‘shimcha ravishda Ibn Hajar Asqaloniy qisqa ravishda “ad-Diroya fi muntaxab ahodisi-l-hidoya” asarini bitgan.

Shunday qilib, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asarida kelgan hadislarni taxrij qilib yozilgan ushbu olimlarning nomlarini sanab o‘tish mumkin. Ular:

Ibn Turkmoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Qozi Abu-l-Hasan Ali ibn Usmon al-Hanafiy (vaf. 750/1350)ning “at-Tanbih alo ahodisi-l-hidoya va-l-xulosa” (“al-Hidoya va Xulosa hadislari haqida eslatma”). Bu asar ustoz Muhammad Sayyid Abdulfattoh Darvesh tomonidan nashrga tayyorlangan;

Jamoliddin Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Zaylaiy (vaf. 762/1360-y.)ning “Nasbu-r-roya li-ahodisi-l-hidoya” (“al-Hidoya hadislariga bayroq tiklash”) kitobi;

Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy (vaf. 775-y.)ning “al-Inoya fi ma’rifat ahodisil hidoya” (“al-Hidoya hadislarini bilishga e’tibor berish”) nomli asari;

Qosim ibn Qutlubg‘o ibn Abdulloh Zaynuddin Abul Adl (vaf. 879/ y.)ning “Munya al-almaiy fi ma fata min taxrij ahodisi-l-hidoya li-z-Zaylaiy” (“Zaylaiyning “al-Hidoya” hadislari taxrijida o‘tib ketganlarni (kamchiliklarni) to‘ldirish bo‘yicha o‘tkir rag‘bat”) nomli kitobi.

Jamoliddin Zaylaiy o‘zining “Nasbu-r-roya” asarida “al-Hidoya” asaridagi hadislarni taxrij qilganda ayrim hadislarni o‘tkazib yuborgan yoki topa olmagan. Ibn Qutlubug‘o ushbu asari orqali Zaylaiydan tushib qolgan hadislarni to‘ldirgan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asaridagi hadislarni o‘rganishga bag‘ishlangan taxrij kitoblarining adadi ko‘pligi va xilma-xilligi bu asarga asrlar davomida kuchli talab bo‘lganini va undagi hadislar o‘z asoslariga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Хабибулло САГДИЕВ,**
*доцент Международной академии исламоведения Узбекистана*

## НАУЧНОЕ БУРХАНИДДИНА МАРГИНАНИ В ЗАПАДНОЙ ИСТОРИОГРАФИИ: ОТ КОЛОНИАЛНОЙ ПРАГМАТИКИ К СОВРЕМЕННОЙ ТЕКСТОЛОГИИ

Исследование научного наследия выдающэгося правоведа Бурханиддина Маргинани (1135–1197) в европейской академической традиции представляет собой уникалный историко-культурный феномен. В центре внимания западных исследователей неизменно находился его магнум опус «ал-Хидая» («Руководство»), который на протяжении столетий служил ключевым источником для рецепции ханафитского права. Специфика изучения данного труда на Западе, особенно на ранних этапах, была детерминирована не абстрактным научным интересом, а утилитарной необходимостью управления обширными мусулманскими территориями в колониалный период.

Европейское осмысление трудов Маргинани началос с административно-правового заказа. В 1770-х годах первый генерал-губернатор Индии Уоррен Гастингс (1732-1818) инициировал масштабный проект по созданию доступного свода мусулманских законов, который мог бы исползовтся британскими судьями, не владеющими арабским языком.

Политическая задача заключалас в интеграции исламских правовых норм в судебную систему Британской империи, что привело к возникновению гибридной правовой системы, известной в историографии как «англо-магометанское право». Труд Маргинани стал настолной книгой для колониалной администрации при рассмотрении гражданских дел мусулманского населения Индии, что предопределило селективный подход к тексту и специфику его первоначалной интерпретатсии.

Ключевой методологической особенностью ранней ретсепсии наследия Маргинани стал отказ от прямого перевода с арабского оригинала. Для реализатсии проекта Гастингса в Калкутту была приглашена группа авторитетных мусулманских правоведов (улемов), перед которыми была поставлена задача

переложения сложного арабского текста на персидский язык, являвшийся в то время официальным языком судопроизводства в Индии.

Исторические источники сохранили имена ученых, осущэствивших эту фундаменталную работу:

– Гулям Яхя Хан — руководитель группы и основной научный редактор текста.

– Мулла Таджуддин.

– Мир Мухаммад Хусейн.

– Мулла Шариат Улла.

Результатом работы коллектива стал труд, получивший название «Хидаяту-л-мубтади» (персидская версия). Процесс перевода (этап 1: арабо-персидский) не был механическим. Улемы осущэствляли глубокую редакторскую правку и интерпретатсию: они намеренно опускали пространныэ схоластические дискуссии и споры между различными правовыми школами, оставляя лиш те нормативныэ положения, которые считалис применимыми в индийской юридической практике XVIII века. Таким образом, текст подвергся структурной редуксии ещэ до попадания к европейскому переводчику.

Рукописи, созданныэ группой Гуляма Яхи Хана, имеют следующую локализатсию:

– Британская библиотека (Лондон): Коллекция Индиа Оффисэ Ресордс содержит рабочие манускрипты британских чиновников, в частности, под шифром Адд. MC 26, 242. Копии из Калкутты также описаны в каталогах Чарлза Риу.

– Националная библиотека Индии (Колката): В отделе редких рукописей хранятся наиболеэ аутентичныэ списки с пометками улемов и английскими маргиналиями правоведов.

– Азиатское общэство (Колката): Фонды содержат оригиналы, подготовленныэ в первыэ годы деятелности британских востоковедов.

Британский востоковед Чарлз Гамилтон выполнил первый полный перевод «ал-Хидая» на английский язык, опубликованный в 1791 году. В своей работе (этап 2: персидско-английский) он опирался исключительно на «облегченную» персидскую версию, регулярно консультируяс с индийскими учеными для разъяснения терминологии.

Несмотря на то, что перевод Гамилтона, переизданный в 1870 году Стендишем Грейди с обширными комментариями, стал «классическим» справочником для западного права XIX века, современная наука подвергает его жесткой критике. Исследователи, такие как Мухаммад Акрам Надви и Ваэл Халлак, выделяют три фундаменталных методологических изъяна данной работы:

а) перевод осущэствлялся не с языка оригинала, а через язык-посредник (арабский → персидский → английский). Это породило эффект «испорченного

телефона», в результате чего многие тонкие юридические термины и категории классического фикха были упрощэны или искажены;

б) Гамилтон практиковал внедрение собственных пояснителных примечаний непосредственно в тело основного текста без должной графической маркировки. Это создавало у читателя (британского суди) ложное представление о том, что комментарии переводчика являются аутентичным текстом Маргинани. Стратегической селю таких вставок была адаптация исламского права под прецедентную логику английской юриспруденсии;

в) в оригинале «ал-Хидая» представляет собой учебный трактат, построенный на диалектическом методе — сопоставлении мнений Абу Ханифы, Абу Юсуфа и аш-Шайбани. Гамилтон трансформировал этот живой дискурс в жесткий кодекс законов, лишив систему присущэй ей гибкости («иджтихада») и превратив динамичную традитсию в застывший набор императивов.

Источниковедческая база изучения наследия Маргинани опирается на обширную коллексию манускриптов, хранящихся в фондах Европы и Азии. Карл Броккелман в своем фундаменталном труде «Гесчичте дер арабисчен Литтератур» систематизировал данныэ о рукописях, находящихся в Берлине, Париже и Лондоне.

Идентификационныэ номера ключевых рукописей «ал-Хидая» и комментариев к ней:

– Британская библиотека (Лондон):

Адд. 16,667–16,669 – многотомныэ копии колониалного периода.

Ор. 3274 – один из старейших списков.

Ор. 11,547 – рукопис комментария «Кифоя».

– Бодлианская библиотека (Оксфорд):

МС. Марш 116 – ранняя копия «Ал-Хидоя».

МС. Пососке 267 – рукопис из коллексии Эдварда Покока.

МС. Ҳунтингтон 145 – важный экземпляр арабского фонда.

– Берлинская государственная библиотека (Германия):

Аҳlwардт 4484–4490 – группа рукописей (коллекция В. Алвардта), включающая полныэ и сокращэнныэ версии.

Мс. ор. ост. 630 — поздняя, хорошо сохранившаяся копия.

– Националная библиотека Франсии (Париж):

Арабе 828–832 — тома с сенными глоссами на полях.

В XIX–XX веках континенталное востоковедение (немеская и французская школы) сместило фокус с прагматики на историко-правовой анализ. Выдающийся исламовед Ёзеф Шахт исследовал методику Маргинани в контексте систематизатсии классического фикха.

В современной западной науке наблюдается переход к углубленному критическому анализу:

Исследователи, такие как Якуб Майрун, рассматривают Маргинани не как компилятора, а как «новатора в рамках традитсии», анализируя его методы синтеза текстов предшественников (ал-Кудури и аш-Шайбани).

Ученыэ Оксфордского центра исламских исследований (например, Мохаммад Акрам Надви) ведут работу по исправлению неточностей переводов Гамилтона и уточнению смыслов оригиналной терминологии.

Академические школы университетов Лейдена и Галле фокусируются на изучении структуры аргументатсии Маргинани, в частности, на исползовании методов аналогии (қияс) и юридического предпочтения (истиҳсан).

Таким образом, научное осмысление наследия Бурханиддина Маргинани на Западе прошло сложную эволютсию от инструментализатсии текста в рамках колониалного управления до современного академического дискурса, направленного на восстановление аутентичного смысла источника и реконструксию правовой логики великого мыслителя.

**A`xamxon QAMBAROV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*dotsent v.b.*

## BURHONUDDIN MARG‘INONIY “HIDOYA” ASARI TARJIMALARI

Burhonuddin Marg‘inoniy yoshligidanoq tinimsiz ilm o‘rgandi va hanafiy mazhabi bo‘yicha o‘z davrining buyuk faqihi darajasiga ko‘tarildi. Uning fiqh ilmi bo‘yicha bunday yuksak darajaga ko‘tarilishi uchun quyidagi omillar sabab bo‘ldi:

Birinchidan, u oliy iste’dod, o‘tkir tafakkur egasi va ilm-fan shaydosi edi. Ilmga qiziqish uni uzoq safarlarga chorlab, o‘sha davrning asosiy fanlarini o‘zlashtirishi uchun imkon yaratib berdi.

Ikkinchidan, u yashagan davr Sharq uyg‘onish davrining birinchi bosqichi bo‘lmish XI-XII asrlarga, ya’ni O‘rta Osiyoda jamiyat taraqqiyoti uchun fiqh ilmiga katta zarurat tug‘ilgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Fiqh ilmi bo‘yicha u yozgan asarlar, ayniqsa, “Hidoya” kitobi o‘sha davr huquqiy muammolarini yechib berishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, Marg‘inoniyning Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit (r.h.) asos solgan hanafiy mazhabi, ya’ni huquqiy maktabiga mansubligi ham uning o‘sib, kamolot cho‘qqisiga ko‘tarilishi uchun katta omil bo‘ldi. Negaki, Abu Hanifa shariatning uchta asosiy manbasi (Qur’on, Sunna, ijmo)dan keyin, to‘rtinchi manba bo‘lmish ratsional manba, ya’ni qiyosga boshqa mazhablarga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalq ichida yoyilib, ularning hayotiga singib ketgan urf-

odatlar hanafiy mazhabida huquqiy muammolarni hal qilishda qo‘shimcha manba sifatida kengroq ko‘lamda qo‘llaniladi.

Undan tashqari, “Hidoya” asari fors, ingliz, turk, urdu, rus va dunyoning ko‘plab boshqa tillariga tarjima qilinib, g‘arb olimlari uchun ham mazhabimizni o‘rganishda ahamiyatli manba sifatida foydalanilayotgani bizni quvontiradi.

Burhonuddin Marg‘inoniyning shoh asari “Hidoya” eng mo‘tabar huquqiy qo‘llanma sifatida to‘qqiz asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hind yarim oroli, Afg‘oniston, Turkiya va ko‘pgina arab mamlakatlari uchun eng daqiq va ishonchli manbalardan biri sifatida e’tirof etilgan.

“Hidoya” Yevropaning eng qadimgi universitetlaridan Fransiyaning Sarbon, Angliyaning Oksford universiteti, musulmon olamining eng qadimiy va nufuzli universitetlaridan al-Azhar, Tunisning Zaytuna oliygohi, Afg‘oniston Islom universiteti, Hindiston Aligarh muslim universiteti, Devband dorululumi, Pokiston Karachi Xalqaro islom universiteti va boshqa musulmon mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bu mashhur kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Bugungi kunda Hanafiy mazhabi ta’limotiga ixtisoslashgan islom bilim yurtlarida “Kanz” va “Quduriy” kitoblaridan keyin, “Hidoya”ni yetuk ustozdan o‘qib tamomlamagan tolib haqiqiy fiqh olimi hisoblanmaydi.

“Hidoya”ning eng dastlabki tarjimasi 1190/1776-yilda Bangola hokimi Imodud Davla Masirvolning topshirig‘i bilan arab tilidan fors tiliga mazkur shahar bosh qozisi lavozimida bo‘lgan G‘ulom Yahyoxon Bahoriy, Mavlaviy Tojuddin Bangoliy, Mir Muhammad Husayn Eroniy va Mavlaviy Shariatulloh Sambhaliylar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu tarjima “Hidoya” homili mutun al-Bidoya maa tarjimayi forsiy» nomi bilan 1808-yilda Kalkutta shahrida nashr qilingan.[26] Ana shu forscha tarjimasi asosida Charls Xamelton “Hidoya”ni ingliz tiliga tarjima qilib, 4 jildda 1791-yil Londonda nashr ettirgan. Mazkur tarjimaga asarning bevosita ibodatga oid dastlabki to‘rt kitobi (“Tahorat”, “Namoz”, “Ro‘za” va “Haj” kitoblari) kiritilmagan. Buning sababi, mazkur tarjimadan ko‘zlangan maqsad, mustamlakachilar tomonidan bosib olingan musulmon mamlakatlarida yerli aholini boshqarishda foydalanishni maqsad qilingan bo‘lishi mumkin.[27]

1806-yilda Hindistonda hukmronlik qilib turgan inglizlar mazkur ikki tarjimani qiyoslab ko‘rishni Dehli madrasalarining birida hanafiy fiqhidan dars beruvchi mudarris Muhammad Roshid ibn Ziyovuddin Muhammad Bardavoniyga topshiradilar. U forsiy tarjimada tushirib qoldirilgan o‘rinlarni, tarjima qilinmagan atamalar va ba’zi kamchiliklarni qayta tuzatib chiqadi.[28]

---

[26] Mahmud Hasaniy. Al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 200. – B. 31-32.

[27] Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. Otv. red. i avt. vstup. stati i kommentariy A.Saidov. Tashkent: O‘zbekiston, 1994. – S.40.

[28] Mahmud Hasaniy. Al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 200. – B.32.

1870-yil S.G.Gariyning nazorati ostida “Hidoya”ning muxtasar shakli o‘laroq yana bir inglizcha muxtasar tarjimasi bir jildlik holda chop etilgan. Oxirgi marta inglizcha muxtasar tarjimasi 1982-yil Lohurda bosmadan chiqqan.

N.I.Grodekov 1893-yilda “Hidoya”ni inglizcha tarjimasidan rus tiliga o‘girgan. Bu o‘rinda mazkur tarjimalardan ko‘zlangan maqsadlardan qat’iy nazar ular arab tilidan xabardor bo‘lmagan islom huquqi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun hozirgi kunimizga qadar asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Olmoniyalik olim Ekart Shiyvak to‘plagan ma’lumotlarga ko‘ra, “Hidoya”ning mashhur nashrlari quyidagilardan iborat: arabcha asl matni 1818-yil Kalkuttada, so‘ngra Bombey, Laknov, Saharanapur, Dehlida chop etilgan. XIX asrda Qohirada, shu asrning oxirida Tataristonning (1888-yil) Qozon shahrida bosilgan. Uning birinchi tanqidiy matni 1908-yil Qohira shahrida nashr etilgan va eng so‘nggi tahririy matni ham 1980-yili Qohirada nashr qilingan.

Bizning davrimizda amalga oshirilgan “Hidoya” asarining tarjimalari sirasiga 1991-yilda islomshunos olim Ahmad Meylanning Anqarada chop etilgan arab tilidan turk tiliga qilgan tarjimasini ham kiritish mumkin.

Hidoyaning ruscha tarjimasi nusxalari kamayib, yo‘qolish darajasiga yetgan edi. Shu sababli, yuqoridagi ruscha tarjimasi asosida 1994-yili akademik Akmal Saidov tomonidan “O‘zbekiston” nashriyotida uning birinchi jildi katta adadda nashr qilinishi muhim va xayrli ish bo‘ldi [29].

Hidoya arab tilidan o‘zbek tiliga ilk marotaba taniqli olim, Salohiddin Muhiddinov rahbarligida bir guruh yosh olimlar tomonidan birinchi jildi (ya’ni, taloq kitobigacha) tarjima qilinib, 2001-yil “Adolat” nashriyotida bosmadan chiqarilgan, ammo ushbu tarjima oxirigacha yakunlanmay qolgan.

“Hidoya” faqat islom huquqshunoslari uchun emas, balki Fapb huquqshunos olimlari uchun ham juda e’tiborli huquqiy manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1958-yili Majid Hadduriy va Hebert J.Libes tomonidan nashr etilgan “Islomda huquq” nomli kitobda asosan “Hidoya”dan keng foydalanilgan.[30]

Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari O‘zbekiston tarixida huquqiy madaniyatni yuksalishiga benazir xizmat qilgan asarlar sirasiga kiradi. Darhaqiqat “Hidoya” har qanday ongli kishini fikrlashga undaydi.

Albatta, eng avvalo Sharq ijtimoiy-huquqiy tafakkuri, madaniyati mahsuli bo‘lgan ham muhim amaliy ahamiyatga, ham yuksak ilmiy-tarixiy qiymatga ega bunday asarlarni buyuk bobokalonlarimiz o‘n asrlar muqaddam yarata olgan ekanlar, ular quruq joydan paydo bo‘lmagan, degan fikr xotiraga keladi. “Hidoya” kabi asarlar yaratilishi uchun shunga yarasha shart-sharoit, ijtimoiy ong va tafakkur, madaniyat va ma’naviyat darajasi, eng muhimi, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga arzigulik muayyan amaliy ijtimoiy-huquqiy tajriba bo‘lmog‘i zarur edi.

---

[29] Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. Otv. red. i avt. vstup. stati i kommentariy A.Saidov. – Tashkent: O‘zbekiston, 1994. – 480 s.

[30] Islam Ansiklopedisi. Vol. XVI. – Istanbul: Hanefi Mezhebi-Haya, 1997. − B.105.

“Hidoya” kitobi fiqh ilmiga oid deyarli barcha asosiy masalalarni o‘zida jamlagan. “Hidoya” mavzu jihatidan juda keng qamrovli va sermazmun asar.

Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari “Fatvo” janrida yozilgan fiqh kitoblar sirasiga kirmaydi. Balki bir shar’iy masala ustida boshqa mazhablarning qarashlarini hanafiy fiqhi namoyondalari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida yozilgan asardir.

Shunin uchun kitobxon “Hidoya” asarini o‘qir ekan, muallifning aql-zakovati, hayotiy tajribasi, mantiqli gaplari va misollariga maftun bo‘ladi, unda keltirilgan ilmiy, huquqiy, diniy dalillarga ishonch hosil qiladi, asar muallifining tiliga, badiiy tasvir mahoratiga qoyil qoladi.

“Hidoya”ning huquqiy qiymati shundaki, uning muallifi o‘z fikrlarini turli dalillar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari o‘quvchiga tez va tushunarli yetishi uchun turli manbalarni keltiradi.

“Hidoya” tilining soddaligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Marg‘inoniyning bayon uslubi asarni barcha uchun birdek, o‘qimishli qilgan.

“Hidoya” bir necha asrlar davomida ko‘p musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma hisoblanib, mintaqada 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan keyin ham to 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sho‘ro sud tizimi joriy qilingunga qadar amalda bo‘lib keldi.

“Hidoya” asari O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi Imom Buxoriy nomidagi Islom instituti va bir qator diniy o‘quv yurtlarida, talabalarga shariat normalarini o‘rgatishda asosiy darslik sifatida qo‘llanib kelinmoqda.

“Hidoya” arab yozuvida yozilgani va oxirgi yuz yillik davrida mazkur imlo muomaladan chiqarilgani sabab ko‘pchilik uni o‘qiy olmay qolgan edi. Shuning uchun uni mintaqamiz xalqlari uchun hozircha keng iste’molda bo‘lib turgan imloda va o‘zbek tilida nashr etish davr talabidir.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarini ilk marotaba to‘liq o‘zbek tilidagi izohli va akademik tarjimasi, 2021-yil A’zamxon Qambarov, Akmaljon Ikromjonov, Ilhomjon Bekmirzayev tomonidan tarjima qilinib, nashr qilindi.

“Hidoya”ning o‘zbek tiliga ilk bor amalga oshirilgan ushbu ilmiy, izohli-akademik to‘liq tarjimasi quyidagi jihatlari bilan boshqalaridan farq qiladi:

– Tarjimada O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi manbalar xazinasida Inventar raqam: № 3148 ostida saqlanayotgan, “Hidoya” asari asos qilib olindi. Ushbu qo‘lyozma nusxa 2003-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Rahbariyati tomonidan Toshkent islom universiteti Manbalar xazinasiga tuhfa qilingan. Ushbu nusxa asarning, qadimiy qo‘lyozmalaridan biri bo‘lib, “Kitobut-tahorat” bilan boshlanadi va “Kitob al-xunsa” (Xunasalar kitobi) bilan yakun topgan. Mazkur qo‘lyozma XIII asrga oid bo‘lib, nusxa 900 varoqdan iborat, nasx xatida ko‘chirilgan.

– Mazkur “Hidoya” asarining arabcha matni 2019-yilda Madinayi Munavvaraning “Dorus-siroj” nashriyotida arab tilida nashr etilgan tadqiqoti bilan tanqidiy matnshunoslik jihatidan qiyoslandi;

– Tarjimada arabiy matnda kelgan usul va furu’ fiqhiga doir qoidalarni misollar keltirish orqali izohlab ketildi;

– Ilmiy jamoatchilik va kitobxonlar ommasini nazarda tutib Hidoyaning asl matnini berish bilan birga tarjimasida izoh talab fiqhiy masalalarga misollar orqali izohlar berildi;

– Jamoliddin Abu Muhammad ibn Yusuf Zayla’iyning “Nasbur-roya fi ahadisil-Hidoya” hamda Ibn Hajar Asqaloniyning “ad-Diroya fi taxrij ahadisil-Hidoya” asarlari asosida Hidoya matnida kelgan har bir hadis haqida to‘liq ma’lumotlar berib ketildi;

– Asarda nomi kelgan o‘quvchilarga ma’lum bo‘lmagan joy nomlari bugungi kunda qanday nomlanishi geografik jihatdan qaysi davlat hududida joylashgani ko‘rsatib o‘tildi;

– Muallif yashagan davrdagi o‘lchov birliklarini bugungi kundagi o‘lchov birliklari bilan qiyoslab tahlil va tadqiq qilindi;

– O‘quvchiga ma’lum bo‘lmagan buyuk faqihlar, ularning asarlari va sahobalar haqida qisqacha ma’lumotlar berildi;

– Oldingi tarjimalardan farqli ravishda ushbu kitob dastlab arabcha matni, tuzatilgan va tahrir qilingan shaklda, so‘ng matn tarjimasi sodda va ravon o‘zbek tilida izohli tarjima qilindi;

– Rasulullоh sallallohu alayhi va sallamdan boshqa barcha matnda nomlari o‘tgan shaxslarni ilmiy tilda “san” bo‘lgani uchun “siz” deb tarjima qilinmadi;

– Mazhab asoschilari va buyuk faqihlarning nomlari kelganda ularga “Imom” degan so‘zni yozishdan qochildi. Sababi, avvalo asl matnda shunday kelmagan. Qolaversa, ularning nomlari matnda juda ko‘p takror-takror uchraydi. Shuning uchun “imom” so‘zini qo‘yib chiqish o‘quvchiga malol kelishi e’tiborga olindi;

– Tajribadan ma’lumki, tolibi ilmlar uchun “Hidoya” asari kabi fundamental asarlar matnlarini o‘zlashtirish qiyin bo‘lganligi sababli hozirgi diniy o‘quv yurtlarida Hanafiy fiqh kitoblari to‘liq o‘qitilmaydi. Ushbu holatni e’tiborga olib bo‘lajak mutaxassislar buyuk faqihlarimizning asarlaridan to‘liq ma’lumot olishsin degan maqsadda, kitobni arabcha matnini ham, o‘qishni qulaylashtirilgan shaklda berildi. Matn to‘liq tushunarli bo‘lishi uchun qavs ichidagi jumlaning mazmunini to‘ldiruvchi izohlar berib o‘tildi;

– Omma kitobxonlarining “Hidoya” asarida yoritilgan masalalarni tushunishlarida mashaqqat yuzaga kelmasligi uchun asarda ko‘rilgan har bir yangi masalani raqam bilan belgilab qo‘yildi. Agar masalaning boshida raqam kelgan bo‘lsa, u yangi masala sanaladi. Agar raqam berilmagan bo‘lsa, demak u o‘zidan avvalgi masalaning davomi hisoblanadi;

– Kitobning ikkinchi nashrida kelib tushgan takliflarga va nafaqat ilmiy jamoatchilik balki omma kitobxonlari ham keng tushuna olishlari uchun avvalgi nashriga qaraganda tarjima va izohlarga ko‘proq ahamiyat berildi.

– “Hidoya” asarida keltirilgan har bir ma’lumotga “Hidoya” asariga yozilgan o‘ndan ortiq mashhur sharhlar va boshqa Hanafiy fiqhi manbalariga murojaat qilgan holda ilmiy asoslar qayd qilib qo‘yildi.

**Soxibjon UMMATALIYEV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*katta o‘qituvchisi,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

## AKMALIDDIN BOBARTIYNING “AL-INOYA” ASARIDA “HIDOYA”NI SHARHLASH METODIKASI

Ahli sunna val-jamoaning hanafiy mazhabi fiqhini o‘rganishda Burhoniddin al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning to‘liq nomi “Kitob al-Hidaya fi sharh Bidoyatul-Mubtadi” bo‘lsa-da, qisqacha “Hidoya” nomi bilan tarixga kirgan. Bu asar 1178-yilda Samarqandda yozilgan bo‘lib, islom huquqshunosligi – fiqh sohasidagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Hidoya kitobi hanafiy mazhabi fiqhining murakkab jihatlarini tizimli, izchil va aniq bayon qiluvchi sharhli asardir. U to‘rt juzdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha tuzilgan:

Birinchi juz besh kitobdan iborat bo‘lib, tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kabi kabi masalalarga bag‘ishlangan.

Ikkinchi juzda oilaviy huquq, nikoh, taloq, vorislik, qullarni ozod qilish, topilgan narsalar va bozor huquqi kabi masalalar yoritilgan.

Uchinchi juzda tijorat, qarz-berish, guvohlik, sud masalalari, mol-mulk va shartnomalar bilan bog‘liq huquqiy masalalar aks etgan.

To‘rtinchi juzda esa shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik, tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar vasiyat va boshqa masalalar bayon qilingan[31].

Hidoya kitobi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlar davomida ham ilmiy faoliyat diqqat markazida bo‘lib keldi. Ushbu asarning fiqh ilmida tutgan beqiyos o‘rni uning asosida yuzlab sharhlar (izohlar), hoshiyalar (qo‘shimcha izohlar), ta’liqlar va muxtasarlar yozilishiga sabab bo‘lganidadir. “Hidoya”ga yozilgan sharhlar nafaqat asarning murakkab fiqhiy masalalarini tushuntirish, balki hanafiy mazhabi huquqiy metodologiyasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Islom ilmiy an’anasida sharh yozish keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayon asarning murakkabligi, qisqa va ixcham uslubda yozilgani bilan bog‘liq bo‘lgan. “Hidoya” ham aynan shunday asarlardan biri bo‘lib, unda fiqhiy masalalar juda qisqa, lekin mazmunan

[31] https://arboblar.uz/uz/people/burkhanuddin-al-marginoni

chuqur bayon qilingan. Shu sababli ulamolar ushbu asarni kengroq izohlash, dalillarni batafsil tushuntirish, turli fiqhiy qarashlarni solishtirish, amaliy masalalarga tatbiq etish uchun sharhlar yozishga ehtiyoj sezganlar. Sharhlar, asosan, madrasa ta’limida talabalar uchun tushunishni osonlashtirish va qozilar hamda muftiylar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajargan.

“Hidoya” asariga yozilgan mashhur sharhlar sifatida Jaloliddin Gurloniy (vaf. 1366)ning “Al-Kifoya fi Sharh al-Hidoya”, Kamoliddin ibn Humom (vaf. 1457) ning “Fath al-qadir”, Akmaliddin Muhammad ibn Mahmud Bobartiy (vaf. 1384) ning “Al-Inoya sharh al-Hidoya”, Badriddin al-Ayniy (vaf. 1451)ning “Al-Binoya sharh al-Hidoya” kabi kitoblarni zikr qilish mumkin[32]. Quyida ushbu shorihlardan biri Akmaluddin Bobartiy va uning “Al-Inoya” asari xususida to‘xtalib o‘tiladi.

Akmaluddin Bobartiyning to‘liq ismi Akmaluddin Abu Abdulloh ibn Mahmud ibn Ahmad al-Bobartiy ar-Rumiy al-Hanafiy bo‘lib, u usul al-fiqh, furu‘ al-fiqh, hadis, kalom kabi sohalarida muhaqqiq olimdir. Allomaga “Bobartiy” nisbasi berilishi borasida manbalarda ikki xil ma’lumot mavjud. Birinchisi Bog‘dodning Dujayl shahri atrofidagi “Bobart” qishlog‘i nomidan olingan. Ikkinchisi Turkiyadagi “Bobart” degan joy mavjud bo‘lib, u Rum diyoriga tegishli bo‘lgan.

Alloma Bobartiy yoshligidan ilm-fanga qiziqib, avvalo, o‘z diyoridagi olimlardan ilm-fan asoslarini egallagan. U aqida va fiqhni Muhammad ibn Muhamammad Kokiydan o‘rgangan. So‘ng, Halabga safar qilgan. Qozi Nosiruddin ibn Adim uni “Sadiyya” madrasasiga jo‘natgan. Akmaluddin Bobartiy o‘sha yerda bir muddat istiqomat qilib, madrasa olimlaridan saboq olgan. U 1339-yildan keyin Qohiraga safar qilib, Abu Hayyon Andalusiydan hamda “Muxtasar ibn Hojib” asarining shorihi Abu Sano Shamsuddin Isfahoniydan ham saboq olgan[33].

Alloma teran aql va kuchli iroda sohibi bo‘lgan inson edi. Akmaluddin Bobartiyga bir necha marotaba qozilik lavozimi taklif qilinishiga qaramay, u bu lavozimni rad etgan. Bobartiyning ustozlari va shayxlari ko‘p sonli va turli sohalarda bo‘lgani uning ko‘plab ilmlarni o‘rganganiga dalolat qiladi. Bu esa, olimning ilmiy asarlarida o‘z isbotini topgan. Jumladan, muarrixlar Bobartiyning ko‘plab ustozlardan tahsil olganini aytishadi. Shuningdek, Hofiz Shamsuddin Dovudiy “Tabaqot al-mufassirin” asarida u haqida shunday deydi: “U ilmni Abu Hayyon Isfahoniydan olgan. Hadisni Dalusiy va Ibn Abulhadiydan eshitgan. Umarolarning huzurida ham juda aziz edi. Hattoki, Sulton Zohir Barquq Imom Bobartiy bilan suhbatlashar va xonaqohga kirib ketgunicha kutib turar edi”[34].

Akmaluddin Bobartiy ko‘plab asarlar yozgan. Ular qatorida “Al-inoya sharhul-hidoya”, “Sharh vasiyyati imom Abi Hanifa”, “Al-Irshid fi sharhi al-fiqh al-akbar”, “Sharh al-Aqida at-tahoviyya” “Sharh umdatul-aqoid”, “Sharh al-faroiz as-sirojiyya”,

[32] Mahmud Hasaniy. Al-Marg‘inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. – T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – B. 21.
[33] Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-mIam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 9.
[34] Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiyat al-mIam Abi Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 10.

“Sharh tajrid al-kalom linusayr at-Tusiy”, “Al-Maqsad fil-kalom”, “Al-kashoif al-burhoniyya sharh al-Mavoqif lil-Iyjiy”, “Muqaddima fil-faroiz” va boshqa asarlar muallifi sanaladi.

Allomaning “Al-Inoya” asari Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga sharh sifatida yozilgan bo‘lib, muallif bu kitobni ustozi Hisomiddin Sig‘noqiyning (vaf. 1310) “An-Nihoya sharh al-Hidoya” asaridan muxtasar shaklda yozgan. Asarda fiqhiy kitoblar va boblar tizimli joylashtirilgan va dalillar keltirilgan. Shuningdek, unda hanafiy mazhabi olimlarining fikrlari bayon qilinib, ularning ichidan eng to‘g‘risi (rojihi) ko‘rsatib beriladi. Ba’zan boshqa mazhab olimlarining qarashlari ham zikr qilinadi. Ayrim istiloh va so‘zlarga lug‘aviy (tilshunoslik) jihatdan sharh berilib, ko‘zda tutilgan ma’no aniqlab beriladi.

Aksar masalalarda Akmaluddin Bobartiy dalillarni keltirishda birinchi navbatda Qur’on oyatlariga, so‘ng hadislarga murojaat qiladi. Agar hadis “Sahihayn”da (imom Buxoriy yoki Muslim kitoblarida) bo‘lsa, faqat shularni zikr qilish bilan cheklanadi. Agar hadislar boshqa sunan va musnadlarda bo‘lsa, bir nechta manbadan keltiradi. Har bir masalada to‘rt mazhab imomlarining va boshqa mazhablarning qarashlari bayon qilinib, shu bilan birga agar mavjud bo‘lsa, sahoba va tobeinlarning fikrlari ham zikr etilgan. Quyida tahorat buzilishiga sabab bo‘luvchi uyqu borasidagi masalaning hukmi bayon qilinadi:

Faqihlar namozda qiyom, ruku va sajda holatlarida uxlash tahoratni buzadimi yoki yo‘qmi, degan masalada bir necha xil fikr bildirganlar.

Birinchi qarashga ko‘ra qiyom va ruku holatidagi uyqu tahoratni buzmaydi, bunda kishiga hech narsa vojib bo‘lmaydi. Imom Bobartiy ham shu fikrni ma’qullagan. U bu fikrini quyidagi so‘zlari bilan aniq bayon qilgan: “Ya’ni, agar u namozdagi sajda holatida qorin sonlardan uzoq bo‘lib, tirsaklar yerga tegmagan bo‘lsa tahorat buzilmaydi. Ammo agar buning aksi bo‘lsa, tahorat buziladi… Ammo agar namozdan tashqarida bo‘lsa, u tahoratni buzuvchi sanaladi. To‘g‘ri deb e’tirof etilgan fikr – zohir rivoyatdir. Chunki badan a’zolarining tutib turilishi (nazorat) qisman saqlanib turadi, butunlay bo‘shashib ketish esa yuz bermaydi”. Bu qarashni hanafiylar, shofe’iylar, molikiylarning bir qismi, hanbaliylar hamda zohiriylar qo‘llab-quvvatlaganlar.

Kasoniy aytadi: “Abu Yusufdan rivoyat qilinishicha, u aytadi: men Abu Hanifadan namozda uxlash haqida so‘radim. U zot: “Tahorat buzilmaydi”, dedilar. Lekin undan qasddan uxlash yoki bilmay uxlab qolishni so‘radimmi bilmayman. Meni fikrimcha “Agar kishi ataylab yotsa, uning tahorati buziladi”.

Ikkinchi qarashga ko‘ra, unga tahorat olish mustahabdir, ammo qiyomda, rukuda va sajdada uxlab qolish tahoratni buzishga aloqador emas. Bu fikr ayrim molikiy hamda hanbaliy mazhabi vakillarining qarashi hisoblanadi.

Uchinchi qarashga ko‘ra, Agar uyqu ataylab qilingan bo‘lsa, u holda tahorat buziladi. Ammo agar kishi o‘tirgan holatda bo‘lib, uyqu ko‘ziga g‘olib kelib qolgan bo‘lsa, unda tahorat buzilmaydi. Bu hanafiylardan Abu Yusufning qarashidir.

To‘rtinchi qarashga ko‘ra, eshitish va ko‘rish sezgilariga to‘liq g‘olib kelgan uyqu tahoratni buzadi. Bu esa imomiylar (ja’fariylar) mazhabining qarashidir.

Birinchi qarashning dalillari:

Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilinadi. U shunday dedi: “Men xolam Maymuna bint Horisning uyida tunab qoldim va unga: “Rasulullоh tursalar meni uyg‘oting”, dedim. Rasulullоh uyg‘onganlarida men ham turib, u zotning chap tomoniga bordim, u zot esa meni o‘ng tomonlariga oldilar. Meni mudroq tutganida u zot meni qulog‘imni yumshoq joyidan ushlar edilar”. Bu rivoyatdan xulosa qilinadiki: namoz vaqtidagi uyqu tahoratni buzmaydi[35].

Xulosa qilib aytganda, hanafiy fiqh ilmining eng muhim manbalaridan biri bo‘lgan Burhoniddin Al-Marg‘inoniy qalamiga mansub “Hidoya” asari va unga yozilgan mashhur sharhlardan biri – Akmaliddin Bobartiyning “Al-Inoya sharh al-Hidoya” kitobining sharhlash metodikasi ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida “Hidoya” asarining fiqh ilmida tutgan o‘rni, uning tizimli tuzilishi, ixcham, ammo chuqur mazmuni sababli sharhlarga bo‘lgan ehtiyoj ochib berildi.

Islom ilmiy an’anasida sharh yozish muhim o‘rin tutgani kabi, Bobartiyning “Al-Inoya” asari ham aynan shu ehtiyoj mahsuli bo‘lib, u ustozining – Hisomiddin Sig‘noqiyning “An-Nihoya sharh al-Hidoya” asari asosida muxtasar, lekin puxta va mukammal tarzda yozilgan. Asarda fiqhiy masalalar kitob va boblar bo‘yicha tartibli joylashtirilgan, dalillash metodikasi aniq ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Muallif avvalo Qur’on oyatlariga, so‘ng sahih hadislarga tayanadi, hadislarni manbalariga ko‘ra farqlab keltiradi va zarur hollarda bir nechta rivoyatni qiyoslaydi.

Bobartiyning sharhlash uslubidagi muhim jihatlardan biri – mazhablararo qiyosiy yondashuvdir. U hanafiy mazhabi doirasida hukmni bayon qilish bilan cheklanmay, boshqa uch mazhab hamda ayrim hollarda sahoba va tobeinlar fikrlarini ham keltiradi. Shu orqali u fiqhiy masalaning keng ilmiy manzarasini ochib beradi va o‘z tanlovini (ixtiyorini) asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. Bu metod “Al-Inoya”ni nafaqat sharh, balki muhaqqiqona ilmiy tadqiqot darajasiga ko‘taradi.

Maqolada, shuningdek, tahoratni buzuvchi uyqu masalasi misolida Bobartiyning metodikasi amalda ko‘rsatib berildi. Ushbu masalada u qiyom va ruku holatidagi uyqu tahoratni buzmasligi haqidagi qarashni qo‘llab-quvvatlaydi va bu fikrini hadislar hamda fiqhiy tamoyillar asosida dalillaydi. Uning bu tanlovi hanafiylar bilan bir qatorda shofe’iylar, molikiylarning bir qismi, hanbaliylar va zohiriylar qarashlari bilan hamohang ekani aniqlandi. Shu bilan birga, boshqa qarashlar ham xolisona bayon qilinib, ilmiy muvozanat saqlangan.

Demak, Akmaliddin Bobartiyning “Al-Inoya sharh al-Hidoya” asari hanafiy fiqh metodologiyasini chuqur aks ettiruvchi, dalilga asoslangan, qiyosiy va tanqidiy

[35] Mahmud Sulaymon Kabiysiy. Ixtiyorot al-imom al-Bobartiy fil-masail al-muxtalaf. Researcher Journal For Islamic SciencesPublished by the College of Islamic Sciences at the University of FallujahISSN p.p:2708-3993/ ISSN o.l:2708-4000Vol;2-Issue;1/ (2021-2022)

yondashuvni o‘zida mujassam etgan muhim ilmiy merosdir. Ushbu asar nafaqat klassik fiqhni tushunishda, balki bugungi kunda ham fiqhiy tafakkurni rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**O‘ktam PALVANOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

## “AL-HIDOYA” ASARINI YODDAN BILGAN HANAFIY FAQIHLAR

Islom huquqshunosligi tarixi va uning nazariy-amaliy rivojida Movarounnahr hududidan yetishib chiqqan allomalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mintaqa asrlar davomida islom ilmlarining muhim markazlaridan biri sifatida shakllanib, undan fiqh, hadis, tafsir va kalom sohalarida yetuk olimlarni voyaga yetkazgan. Ayniqsa, hanafiy mazhabining takomili va keng tarqalishida Movarounnahr faqihlarining ilmiy merosi muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Shunday buyuk allomalar sirasiga mansub Burhonuddin Abu-l-Hasan Ali ibn Abu Bakr Farg‘oniy Marg‘inoniy (511-593/1123-1197) islom huquqi taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi[36]. U hanafiy mazhabining yirik vakillaridan biri sifatida fiqh ilmini tizimlashtirish, huquqiy masalalarni dalillar asosida tahlil qilish hamda ularni ijtimoiy amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda yuksak ilmiy mahoratini namoyon etgan. Allomaning eng mashhur asari – “al-Hidoya fi sharh Bidoyat al-mubtadiy” islom huquqi sohasidagi eng nufuzli manbalardan biri hisoblanadi.

Burhonuddin al-Marg‘inoniyning ilmiy merosi nafaqat hanafiy mazhab doirasida, balki umumislom huquqshunosligi kontekstida ham katta ahamiyatga ega. Uning asarlarida Qur’on, hadis, ijmo’ va qiyosga tayanilgan holda huquqiy xulosalar chiqarilib, turli mazhablar o‘rtasidagi ixtilofli masalalar qiyosiy tahlil qilingan. Bu holat allomaning fiqhiy merosini ilmiy jihatdan yuksak qiymatga ega va universal ahamiyat kasb etuvchi manba sifatida baholash imkonini beradi.

Burhonuddin al-Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asari doim olimlar e’tiborida bo‘lib, yuksak baholangan. Jumladan, mashhur hanafiy olimlaridan Hisomuddin Hasan ibn Ali as-Sig‘noqiy (vaf. 710/1310-y.) “an-Nihoya fi sharh al-Hidoya” asarining muqaddimasida “al-Hidoya”ning ilmiy qadrini alohida ta’kidlab, uni rivoyat asoslariga yo‘l ko‘rsatuvchi, fiqhiy matnlarni anglashda yetakchi manba sifatida tavsiflaydi. Ushbu asarda as-Sig‘noqiy “al-Hidoya”ning ixcham iboralarda chuqur ma’nolarni mujassam etgani, fiqhiy masalalarni mukammal qamrab olgani va huquqiy tuzilmalarining mustahkam ekanini qayd etadi.

[36] Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy. Toj at-tarojim. – Bayrut: Dor al-qalam, 1992. – B. 206-207.

“Al-Hidoya” asrlar davomida Sharq islom dunyosida hanafiy fiqhining asosiy ta’lim matni sifatida madrasalarda muntazam o‘qitilib kelingan. Klassik manbalarda mazkur asarni nafaqat o‘qib va sharhlab, balki to‘liq yoddan bilgan, uni yoddan dars bergan hamda hatto imlodan o‘qitgan qator hanafiy faqihlar haqidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Bu holat “al-Hidoya”ning hanafiy mazhabida tutgan yuksak ilmiy mavqeini yaqqol namoyon etadi.

O‘rta asr islom ta’lim tizimida matnlarni yod olish ilmni o‘zlashtirishning asosiy usullaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, hadis, fiqh va usul al-fiqh sohalarida matnni so‘zma-so‘z yod bilish olimning ilmiy salohiyati, xotira kuchliligi va fanni mukammal o‘zlashtirganini ko‘rsatuvchi muhim mezon sifatida baholangan. Shu ma’noda, hajman katta va mazmunan murakkab bo‘lgan “al-Hidoya” asarini yod olish hanafiy ilmiy muhitida keng tarqalgan amaliy an’analardan biri bo‘lgan.

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ayrim yetuk hanafiy faqihlar “al-Hidoya”ning yuksak ilmiy ahamiyatini inobatga olgan holda, uni to‘liq yod olishga alohida e’tibor qaratganlar. Ular mazkur asarni yoddan bilishni faqih uchun yuqori ilmiy salohiyat, chuqur fiqhiy tayyorgarlik va mazhab doirasida yetuklik belgisi sifatida baholaganlar. Bu holat “al-Hidoya”ning faqat nazariy fiqhiy qo‘llanma sifatidagina emas, balki asrlar davomida fiqhiy ta’lim va huquqiy amaliyotda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda “al-Hidoya”ni yoddan bilgan ulamolar sonining ko‘p bo‘lgani alohida ta’kidlanadi. Asarning keng qabul qilinishi va unga bo‘lgan barqaror ilmiy qiziqish avloddan-avlodga davom etib kelgan. Olimlar va tolibi ilmlar “al-Hidoya”ni chuqur o‘zlashtirishning turli shakllaridan foydalanganlar, jumladan uni to‘liq yod olish, xotirada mustahkam saqlash hamda ta’lim jarayonida yoddan bayon etish kabi usullar qo‘llaganlar. Asarning hajmi katta va matni murakkab bo‘lishiga qaramay, u mo’tabar fiqhiy matnlar qatorida yod olingan.

Manbalarda “al-Hidoya”ni yoddan bilgani ochiq qayd etilgan qator olimlar haqida ma’lumotlar keltirilishi mazkur asarning islom huquqshunosligida tutgan o‘rni va ilmiy nufuzini yanada tasdiqlaydi. Zero, mazkur olimlar “al-Hidoya”ni nafaqat nazariy jihatdan mukammal o‘zlashtirganlar, balki uni fiqhiy qarorlar chiqarish, ta’lim berish va amaliy huquqiy masalalarni hal etish jarayonida ham keng qo‘llaganlar. Quyida ana shunday olimlardan ayrimlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

1. Shihobuddin Mahmud ibn Abu Bakr ibn Abdulqohir al-Hanafiy (v. 680/1281). U Damashqda faoliyat yuritgan hanafiy faqihlardan bo‘lib, zamonasining yetuk ulamolari safida tilga olinadi. Damashqda fiqh ilmini Jamoluddin Mahmud ibn Ahmad al-Hanafiy al-Buxoriy al-Hasiriy (546-636/1151-1239)dan olgani uning mustahkam ilmiy silsilaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Manbalarda uning “al-Hidoya”ni mukammal yod bilgani ta’kidlanishi uning fiqhiy matnlarni o‘zlashtirishda yuksak darajaga erishganini anglatadi[37].

[37] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abul Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohirul muziya fi tabaqotil hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr lit tib’ot van nashr, 1993. – J. III. – B. 457-458.

2. Muhammad ibn Muhammad ibn Abu-l-Izz Solih al-Hanafiy al-Azra’iy (663-722/1265-1322). Imom, faqih va muftiy sifatida faoliyat yuritgan mazkur olim “al-Hidoya”ni mukammal bilgani bilan ajralib turadi[38]. Uning fatvo va ta’lim faoliyatida mazkur asar muhim manba vazifasini o‘tagan.

3. Abdurrahmon ibn Abu Bakr al-Hanafiy al-Bistomiy al-Halabiy (v. 728/1328) Qohirada istiqomat qilgan mazkur olim hanafiy mazhabining Misrdagi namoyondalaridan hisoblanadi. Uning “al-Hidoya”ni yoddan bilgani qayd etilishi[39], Qohira hanafiy muhitida ham mazkur asar asosiy ta’lim matni bo‘lganini ko‘rsatadi. Al-Bastomiy ilmiy an’anani avloddan-avlodga yetkazgan mashhur ilmiy oilaning vakili sifatida ham ahamiyatga ega.

4. Shamsuddin Muhammad ibn Usmon al-Hanafiy al-Ansoriy (653-728/1255-1328). U ko‘plab ilm sohalarida chuqur bilimga ega bo‘lgan qomusiy olim sifatida tanilgan. Bir nechta asarlarni, jumladan “al-Hidoya”ni yoddan bilgani uning xotirasi va ta’limiy mahorati yuqori darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu asarga ta’liq ham bitgan[40].

5. Hisomuddin Usmon ibn Dovud al-Hanafiy al-Multoniy (v. 736/1335). Hindiston diyorida hanafiy fiqhining rivojiga hissa qo‘shgan yetuk olimlardan biri hisoblanadi. Uning “al-Hidoya” bilan bir qatorda usul al-fiqh, tasavvuf va axloqqa oid yirik asarlarni yoddan bilgani ilm sohalari o‘rtasidagi integratsiyani namoyon etadi[41]. Shuningdek, bu holat Multon mintaqasida ham hanafiy ta’lim an’anasi yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi.

6. Shamsuddin Muhammad ibn al-Hasan al-Halabiy (v. 744/1343). Halab ilmiy muhitida yetishib chiqqan mazkur olim yoshligidan “al-Hidoya”ni yod olgani va ustozlari oldida imtihondan o‘tgani bilan ajralib turadi. Jumladan, u Abu Hafs Umar ibn al-Vardiydan “al-Hidoya”ga ijoza olgan[42]. Bu holat fiqh ta’limida yod olish va ustoz oldida taqdim an’anasi qanchalik mustahkam bo‘lganini ko‘rsatadi.

7. Muhammad ibn Tug‘luqshoh al-Hindiy (v. 752/1351) Sulton bo‘lishiga qaramay, fiqh ilmiga jiddiy e’tibor qaratgani bilan ajralib turadi. Manbalarda uning “al-Hidoya”ni mukammal bilgani qayd etilishi, siyosiy hokimiyat va diniy ilm o‘rtasidagi mustahkam aloqani aks ettiradi. Bu holat hanafiy fiqhning davlat boshqaruvida ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi[43].

8. Imom Nuriddin Ali al-Hanafiy (v. 762/1361). Manbalarda “al-Hidoya”ni yoddan bilgan faqih sifatida zikr qilinishi uning fiqhiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lganini

[38] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abu al-Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib’ot va-n-nashr, 1993. – J. III. – B. 137.

[39] Shihobuddin Ahmad ibn Ali Asqaloniy. Ad-Durar al-Komina. – Bayrut: Dor al-jiyl, 1993. – J. II. – B. 326-327.

[40] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abul Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib’ot va-n-nashr, 1993. – J. III. – B. 457-458.

[41] Ash-Sharif Abdulhayy ibn Faxruddin al-Hasaniy. Nuzhatul xavotir va bahjatul masomi’ val navozir. – Bayrut: Dor Ibn Hazm, 1999. – J. II. – B. 173.

[42] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abu al-Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr lit tib’ot van nashr, 1993. – J. III. – B. 137.

[43] Shihobuddin Ahmad ibn Ali Asqaloniy. Ad-Durar al-Komina. – Bayrut: Dor al-jiyl, 1993. – J. III. – B. 460-461.

ko‘rsatadi. U o‘z davrida ta’lim va fatvo sohasida faoliyat yuritgan ulamolardan biri bo‘lgan[44].

9. Zaynuddin Muhammad ibn Umar ibn Mahmud ar-Roziy (693-766/1294-1364). Yoshligidan “al-Hidoya”ni taqdim qilgan va darslarda uni yoddan ravon bayon etgan mazkur olim pedagogik mahorati bilan ajralib turadi[45]. Ayni payda u qozi ham bo‘lgan. Uning dars berish uslubi hanafiy ta’lim an’anasida matnni yod bilish va tahlil qilish uyg‘unligini namoyon etadi[46].

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot hanafiy mazhabida “al-Hidoya” asarining nafaqat nazariy fiqhiy manba, balki o‘rta asr islom ta’lim tizimida markaziy o‘quv matni sifatida tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Klassik tabaqot va tarixiy manbalar tahlili “al-Hidoya”ni to‘liq yod olgan, uni yoddan dars bergan va imlodan o‘qitgan ko‘plab yetuk hanafiy faqihlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat mazkur asarning hanafiy ilmiy muhitidagi yuksak nufuzi, uning mazhab doirasida fiqhiy bilimlarni tizimli va barqaror tarzda uzatishdagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, matnni yod olish amaliyoti olimning ilmiy salohiyati, xotira kuchliligi va fiqhiy tayyorgarligining muhim mezoni sifatida baholangani ayon bo‘ladi.

Shu bilan birga, “al-Hidoya”ni yoddan bilish an’anasi hanafiy fiqhning amaliy qirrasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur asarning faqat ta’lim jarayonida emas, balki huquqiy qarorlar chiqarish, qazo va fatvo amaliyotida ham faol qo‘llanilganini ko‘rsatadi. Manbalarda zikr etilgan olimlar misolida “al-Hidoya”ning asrlar davomida fiqhiy tafakkurni shakllantiruvchi, mazhabiy merosni muhofaza qiluvchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilgani ravshan namoyon bo‘ladi. Demak, “al-Hidoya”ni yod olish va uni xotira orqali uzatish an’anasi hanafiy mazhab ilmiy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, islom huquqshunosligi tarixida alohida o‘rin egallaydi.

[44] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abu al-Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib’ot va-n-nashr, 1993. – J. IV. – B. 382-383.

[45] Shihobuddin Ahmad ibn Ali Asqaloniy. Ad-Durar al-Komina. – Bayrut: Dor al-jiyl, 1993. – J. IV. – B. 115.

[46] Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abu al-Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib’ot va-n-nashr, 1993. – J. III. – B. 292-293.

**Nilufar TUYCHIYEVA,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

# “HIDOYA” ASARIDA ISTEHSON METODI VA UNING HANAFIY FIQHIDAGI O‘RNI

Islom fiqhi tarixida hanafiy mazhabi o‘ziga xos metodologik yondashuvlari bilan alohida o‘rin tutadi. Mazkur mazhab fiqhiy hukmlarni chiqarishda qiyos bilan bir qatorda istehson qoidasini faol qo‘llagani bilan ajralib turadi. Istehson hanafiy fiqh usulining eng munozarali, biroq eng amaliy tamoyillaridan biri hisoblanadi. U fiqhiy hukmlarni hayotiy voqelik, ijtimoiy ehtiyoj va adolat mezonlari asosida chiqarish imkonini beradi.

Ushbu maqolada hanafiy furu’ fiqhida istehson qoidasining nazariy asoslari hamda uning amaliy qo‘llanilishi Burhoniddin Marg‘inoniyning mashhur “Hidoya” asari misolida tahlil qilinadi. “Hidoya” hanafiy fiqhining eng nufuzli manbalaridan biri bo‘lib, unda istehson qoidasi ko‘plab masalalarda aniq misollar orqali namoyon bo‘ladi.

“Istehson” so‘zi lug‘atda “yaxshi deb bilish”, “afzal ko‘rish” ma’nolarini anglatadi. Fiqhiy istilohda esa u umumiy qiyosni tark etib, undan ko‘ra kuchliroq dalilga tayangan holda boshqa hukmni qabul qilishni ifoda etadi. Hanafiy ulamolari istehsonni shariat maqsadlariga muvofiq, adolat va osonlikni ta’minlovchi metod sifatida baholaganlar.

Imom Abu Hanifa va uning shogirdlari istehsonni shaxsiy fikr yoki havoyi nafs emas, balki Qur’on, sunnat, ijmo, zarurat yoki urfga asoslangan usul deb ta’riflaganlar. Shu bois hanafiy mazhabida istehson qonuniy fiqhiy dalil sifatida qabul qilingan.

Hanafiy fiqh usulida qiyos asosiy dalillardan biri hisoblanadi. Biroq ayrim holatlarda qiyos qo‘llanilsa, hukm hayotda qiyinchilik yoki adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Mana shunday holatlarda istehson qoidasi ishga tushadi. Istehson qiyosni inkor etmaydi, balki uning qat’iyligini yumshatadi.

Hanafiy ulamolari istehsonni quyidagi turlarga bo‘lganlar: nassga asoslangan istehson, ijmoga asoslangan istehson, zaruratga asoslangan istehson va urfga asoslangan istehson. Bu turlar istehsonning mustahkam shar’iy asoslarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari hanafiy fiqhini tizimli ravishda bayon etgan eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asar asrlar davomida madrasalarda asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Unda fiqhiy masalalar qisqa, aniq va dalillarga tayangan holda keltiriladi.

“Hidoya”ning ahamiyati shundaki, u faqat hukmlarni keltirib qolmasdan, balki ularning ilmiy asoslarini ham ochib beradi. Istehson qoidasi asarda ko‘plab boblarda qo‘llanilib, hanafiy mazhab metodologiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Hidoya”da istehson ayniqsa ibodatlar, muomalot va oila huquqiga oid masalalarda ko‘p uchraydi. Masalan, ba’zi shartnomalarda qiyosga ko‘ra hukm qat’iy bo‘lishi kerak bo‘lsa-da, istehson asosida tomonlar manfaati va ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi.

Marg‘inoniy ayrim masalalarda “qiyosan emas, balki istehsonan” degan iborani qo‘llab, hanafiy fiqhda bu qoidaning qay darajada muhim ekanini ko‘rsatadi. Bu holat istehsonning nazariy emas, balki amaliy qoida ekanini isbotlaydi.

Istehson qoidasi boshqa mazhab ulamolari tomonidan tanqid qilingan. Ayrimlari uni subyektiv fikrga yo‘l ochuvchi usul deb baholaganlar. Biroq hanafiy ulamolari bu tanqidlarga qat’iy javob berganlar.

Ularning ta’kidlashicha, istehson shaxsiy xohish emas, balki kuchli dalilga tayanishdir. Agar u havoyi nafsga asoslangan bo‘lganida, hanafiy mazhab doirasida qat’iy qoidalar shakllanmas edi. Aksincha, istehson fiqhiy tizimning muvozanatini saqlab turadi.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar murakkablashib bormoqda. Yangi fiqhiy masalalarni hal etishda faqat ochiq qiyos bilan cheklanish yetarli emas. Shu nuqtayi nazardan, istehson qoidasi zamonaviy fiqh uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Hanafiy mazhab doirasida istehson orqali inson manfaati, osonlik va adolat tamoyillarini ta’minlash mumkin. Bu esa islom huquqining har bir zamon va makonga mosligini yana bir bor namoyon qiladi.

Hanafiy fiqh usulida qiyos va istehson o‘zaro zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi metodlar sifatida qaraladi. Qiyos umumiy qoida sifatida shariat matnlarida ochiq bayon qilinmagan masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ayrim holatlarda qiyos natijasida chiqarilgan hukm hayotiy voqelikka to‘liq mos kelmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda istehson qiyosni cheklab, undan ko‘ra adolatliroq yechimni taklif qiladi.

Marg‘inoniy “Hidoya” asarida qiyosni asosiy qoida sifatida qabul qilgan holda, uning ayrim holatlarda istehson bilan cheklanishini tabiiy hol sifatida ko‘rsatadi. Bu esa hanafiy fiqhda huquqiy fikrlashning qat’iy emas, balki ma’lum ma’noda dinamik ekanini anglatadi.

Istehson qoidasi faqat huquqiy mexanizm emas, balki ma’naviy-axloqiy tamoyillarga ham tayanadi. Hanafiy ulamolari inson manfaati, jamiyat barqarorligi va adolatni ta’minlashni shariat maqsadlarining asosiy qismi deb hisoblaganlar. Shu nuqtayi nazardan, istehson inson hayotida qiyinchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

“Hidoya”da keltirilgan misollardan ko‘rinishicha, Marg‘inoniy ijtimoiy munosabatlarda qattiq qoidalarga yopishib olishdan ko‘ra, shariat mazmuniga mos, oson va maqbul yechimlarni afzal ko‘radi. Bu esa istehsonning ma’naviy asoslarga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy islom huquqshunosligida shariat maqsadlari nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Aslida, istehson qoidasi ushbu nazariyaning ilk amaliy ko‘rinishlaridan biri

hisoblanadi. Chunki istehson orqali din, hayot, aql, mol va nasl kabi asosiy qadriyatlar himoya qilinadi.

Marg‘inoniyning “Hidoya” asarida istehson asosida chiqarilgan hukmlar tahlil qilinganda, ularning aksariyati aynan shariat maqsadlarini ta’minlashga qaratilgani ma’lum bo‘ladi. Bu esa hanafiy fiqhning chuqur ilmiy va falsafiy asoslarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Istehson hanafiy mazhabida faqat alohida qoida emas, balki butun fiqhiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U fiqhni hayotdan uzilib qolishdan saqlaydi va uni doimiy ravishda rivojlanib boruvchi tizimga aylantiradi.

“Hidoya” asari misolida ko‘rilganidek, istehson fiqhiy hukmlarning turli ijtimoiy holatlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Bu esa hanafiy mazhabning keng hududlarda tarqalishi va turli madaniy muhitlarda qabul qilinishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, istehson hanafiy fiqh usulining eng muhim va samarali qoidalaridan biri hisoblanadi. “Hidoya” asari misolida ko‘rilganidek, istehson fiqhiy hukmlarni hayotga moslashtirish, adolat va yengillikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Istehsonning qiyos, ijtimoiy ehtiyoj va shariat maqsadlari bilan uzviy bog‘liqligi uning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu asar hanafiy fiqh metodologiyasini chuqurroq anglash, “Hidoya” asarining ilmiy qiymatini ochib berish hamda istehson qoidasining zamonaviy fiqhiy masalalarni hal etishdagi o‘rnini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

**No‘monjon TO‘RAYEV,**
*Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO kafedrasi dotsenti*

## ABDULQODIR QURASHIYNING “AL-INOYA BI MA’RIFA AHODIS AL-HIDOYA” ASARIDA JARH VA TA’DIL METODOLOGIYASI

“al-Hidoya sharh Bidoya al-mubtadi” hanafiy fiqhiga oid eng mo‘tabar manbalardan biri hisoblanadi. Uning muallifi shayxulislom Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Burhoniddin Marg‘inoniy (vaf. 593/1196-y.) bo‘lib, u usul al-fiqh, fiqh va tafsir ilmlarida yuksak salohiyatga ega bo‘lgan yetuk allomalardan sanaladi[47].

Mazkur asar Muhammad ibn Hasan Shayboniy (vaf. 183/799-y.)ning “al-Jome’ as-sag‘ir” va Abu Hasan Quduriy (vaf. 428/1038-y.)ning “al-Muxtasar” asarlaridagi fiqhiy qarashlarni jamlagani, shuningdek, muallif tomonidan ularda mavjud bo‘lmagan ayrim

[47] Toshko‘prizoda. Tabaqotu-l-fuqaho. – Mosul: Matbaatu-z-zahroi-l-hadisiya, 1961. – B. 101.

mavzular bilan to‘ldirilgani sababli islom olamida yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan[48]. O‘ziga xos uslubi natijasida ushbu asar asrlar davomida islom ta’lim muassasalarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan hamda ko‘plab olimlar tomonidan unga sharh va hoshiyalar yozilgan.

Biroq «al-Hidoya»da hadislarning manbalari va ularning ishonchlilik darajasi mufassal bayon etilmagani sababli, ba’zi muhaddislar tomonidan unda zaif rivoyatlar mavjudligi haqida tanqidlar bildirilgan.

Mazkur tanqidlarga javob sifatida hanafiy olimlari tomonidan « al-Hidoya»da keltirilgan hadislarni taxrij qilish, ularning sanad va matn jihatidan maqbul ekanini asoslab berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu yo‘nalishda Muhiddin Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiyning (696/1297–775/1373) “al-Inoya bi ma’rifa ahodis al-Hidoya” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada mazkur asarda qo‘llangan jarh va ta’dilga doir metodologiya tahlil qilinadi.

Abdulqodir Qurashiy o‘zining “al-Inoya” asari muqaddimasida uning yozilish sababiga to‘xtalib, “al-Hidoya”da keltirilgan hadislar sababli “hanafiylar zaif hadislarga tayanib hukm chiqaradi va sunnat masalasida yetarlicha e’tibor ko‘rsatmagan”, degan tanqidlar paydo bo‘lganiga qadar bu masalaga oid qoniqarli va mufassal ilmiy javob taqdim etilmagan edi[49]. Ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida muallif “al-Inoya bi ma’rifati ahodis al-Hidoya” asarini ta’lif qilgan.

Imom Abdulqodir Qurashiyning amaliy faoliyati “al-Hidoya”da kelgan hadis va osorlarni “Sihoh”, “Sunan” va “Masonid” mualliflariga nisbat berish, ularning asl manbalarini aniqlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif faqat shu bilan cheklanib qolmasdan, roviylar haqida yozilgan maxsus asarlarni ham ko‘zdan kechirib, ulardan jarh va ta’dil imomlarining fikrlarini iqtibos keltirgan.

Muallif asarining muqaddimasida o‘z metodologiyasiga, hadisga hukm chiqarish uslubiga hamda rivoyat darajasini belgilashda jarh va ta’dil ulamolarining so‘zlarini to‘liq qamrab olishga harakat qilganini alohida ta’kidlaydi. Xususan, u shunday deydi: “Shuningdek, men ushbu soha imomlarining jarh va ta’dil haqidagi qimmatli so‘zlaridan ham foydalandim va bularni muhaddislar istilohiga binoan shakllantirdim”[50].

Muhiddin Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy 696/1297-yili Qohirada tug‘ilib, 775/1373-yili shu shaharda vafot etgan. U Abdulmo‘min bin Xalaf bin Abul Hasan Dimyotiy (vaf. 705/1305), Ali bin Nasrulloh bin Umar Qurashiy Misriy (vaf. 712/1312), Muvaffaqiya bint

Ahmad ibn Abdulvahhob (vaf. 712/1312), Ali ibn Abdulaziz ibn Abdurahmon (vaf. 713/1313), Ali ibn Abdulazim, Muhammad ibn Nasir (vaf. 713/1313) kabi qirqdan ortiq shofeiy va hanafiy olimlaridan ilm olgan[51].

---

[48] Abdulhay Laknaviy. Favoidu-l-bahiyya. – Misr: Matbaatu-s-saodat, 1906. – B. 141.
[49] Abdulqodir Qurashiy. Al-Inoya bi ma’rifati ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Dor ash-shomiya, 2023. – B. 154.
[50] O‘sha manba. – B. 87-88.
[51] Abdulqodir Qurashiy. Al-Inoya bi ma’rifati ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Dor ash-shomiya, 2023. – B. 42-63.

Alloma “al-Ilmom bi rijol Umda al-ahkom”, “Tahzib al-asmo al-voqia fi al-Hidoya va al-Xulosa”, “Juz fi bayon istihola simo Abu Hanifa min ba’z as-sahoba”, “al-Hofiy fi bayon osor at-Tahoviy”, “at-Turuq va al-vasoil ilo ma’rifa ahodis Xulosa ad-daloil”, “al-Inoya fi taxrij ahodisi al-Hidoya”, “Muxtasar fi ilm al-asar” kabi hadis roviylari va taxrij ilmiga oid o‘nga yaqin asarlar ta’lif etgan.

Abdulqodir Qurashiy roviylar jarhi va ta’dili masalasida Ibn Main (vaf. 233/848-y.) ning “at-Tarix”, Imom Buxoriy (vaf. 256/870)ning “at-Tarix al-kabir”, Imom Termiziy (vaf. 279/892)ning “al-Ilal”, Imom Nasoiy (vaf. 303/915)ning “az-Zuafo”, Ibn Abu Hotim (vaf. 327/938)ning “al-Jarh va at-ta’dil”, Ibn Hibbon (vaf. 354/965)ning “az-Zuafo”, Ibn Adiy (vaf. 365/976)ning “al-Komil fi zuafo ar-rijol”, Doraqutniy (vaf. 385/995)ning “Kitob az-zuafo va al-matrukin” hamda “al-Ilal” asarlaridan keng foydalangan.

Qurashiy ba’zi muhaddislar “ma’ruf emas”, ya’ni majhul deb qayd qilgan roviylar to‘g‘risida jarh va ta’dil manbalaridagi boshqa baholarni ham keltirib o‘tadi. Xususan, Bayhaqiy “as-Sunan al-kubro” asarida Rubayh ibn Abdurahmon ibn Abu Said Xudriyning rivoyatini keltirgach, unga nisbatan “Rubayh ma’ruf kishi emas” degan bahosini bildirgan. Qurashiy ushbu bahoga to‘xtalib, jarh va ta’dil imomlarining bir qancha fikrlarini zikr qiladi. Jumladan, u Abu Zur’a Roziyning “shayx”, Ibn Adiyning “uni lo ba’sa bih deb umid qilaman”, Ibn Ammorning esa “siqa” degan bahosini keltiradi.

Shundan so‘ng, Bazzor tomonidan Kasir ibn Zaydning mazkur matnni quvvatlovchi (mutobaat) rivoyati mavjudligi haqidagi qaydi, shuningdek, Imom Termiziy orqali Ahmad ibn Hanbaldan naql qilingan “Bu borada isnodi jayyid bo‘lgan hadisni bilmayman” degan fikr ham zikr qilinadi. Bu orqali Qurashiy “Hidoya”da keltirilgan rivoyatga nisbatan bildirilgan e’tirozlarga javob berishda roviy haqida nafaqat jarh, balki ta’dil baholari ham mavjud ekanini, shu bilan birga, rivoyat boshqa yo‘llar bilan quvvatlanganini ko‘rsatishga intiladi[52].

Qurashiy “Hidoya”dagi ayrim hadislar yuzasidan maxsus tadqiqot olib borib, ularning roviylariga batafsil to‘xtalib o‘tadi. Xususan, “al-Ilmom” asarida u mazkur hadis Sinon ibn Robia orqali Shahr ibn Havshabdan rivoyat qilinganini qayd etadi. Muallif ushbu hadisni Ibn Moja rivoyat qilganini, Imom Buxoriy Sinondan hadis naql qilganini, Ahmad ibn Hanbal va Yahyo ibn Main kabi muhaddislar Sinonni “siqa” deb baholaganlarini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ba’zi muhaddislar tomonidan unga nisbatan bildirilgan e’tirozlar ham qayd etiladi[53].

Abu Dovud “Hidoya”da keltirilgan hadis tarkibidagi “Albatta, tahorat yonboshlab uxlagan kishiga (vojib)dir” jumlasi faqat Yazid Doloniy tomonidan rivoyat qilingani sababli uni “munkar” deb baholaganini zikr qiladi. Bu holatni u mazkur qismning boshqa roviylar tomonidan “marfu’” holda rivoyat qilinmagani bilan izohlaydi[54].

---

[52] Abdulqodir Qurashiy. Al-Inoya bi ma’rifati ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Dor ash-shomiya, 2023. – B. 175-178.
[53] O‘sha manba. – B. 189.
[54] O‘sha manba. – B. 246-247

Qurashiy, shuningdek, Imom Doraqutniyning hadisni Baqiyaning Said ibn Abu Said Zubaydiydan naql qilgani va uni zaif deb baholagani haqidagi fikrini keltiradi. Ibn Adiyning esa uni “majhul” deb baholagani zikr etiladi. Muallif Doraqutniyning bahosi aynan Baqiya ibn Validga qaratilganini ta’kidlab, Shu’ba, Hammod ibn Salama, Hammod ibn Zayd, Abdulloh ibn Muborak, Yazid ibn Horun, Sufyon ibn Uyayna, Vaki’ ibn Jaroh, Avzoiy, Is’hoq ibn Rohavayh kabi yirik muhaddislar undan hadis rivoyat qilganini qayd etadi[55]. Shu bilan birga, Hokim Naysoburiy va Yahyo ibn Main kabi muhaddislarning uni ta’dil qilgani, Imom Buxoriydan tashqari sihohi sitta mualliflari undan hadis rivoyat qilgani ham bayon etiladi.

Qurashiyning roviylar jarh va ta’diliga doir qarashlarini tahlil qilish natijasida uning bu boradagi uslubi haqida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– muallif asosan e’tiroz bildirilgan, ixtilofli va jarh qilingan roviylarga to‘xtalib o‘tadi;

– agar roviy haqida ham jarh, ham ta’dil mavjud bo‘lsa, sabablari bayon qilingan jarhni afzal deb biladi;

– Imom Buxoriy yoki Imom Muslimning bir roviydan rivoyat qilganini unga nisbatan kuchli ta’dil sifatida baholaydi;

– jarh va ta’dil baholarini keltirishda mo‘tadillik va ilmiy muvozanatni saqlaydi.

Abdulqodir Qurashiyning “al-Inoya bi ma’rifa ahodis al-Hidoya” asari hanafiy mazhabida hadislarni taxrij qilish hamda jarh va ta’dil masalalarida muhim ilmiy manba hisoblanadi. Muallif mazkur asarda “Hidoya”da keltirilgan hadislarga nisbatan bildirilgan tanqidlarga mufassal va dalillar orqali javob berib, hanafiy fiqhning hadis manbalariga tayanishda mustahkam ilmiy asosga ega ekanini namoyon etgan.

**Nigora XAKIMOVA,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

## “HIDOYA” ASARIDA FIQHIY QARASHLARNING MAZHABLARARO TAHLILI

Islom huquqshunosligi tarixida Burhoniddin Marg‘inoniyning (vaf. 593/1191) “al-Hidoya sharhu bidoyati-l-mubtadiy” asari hanafiy mazhabining eng mo‘tabar va nufuzli manbalaridan biri hisoblanadi. Mazkur asar nafaqat hanafiy mazhabi meyorlarini bayon qiladi, balki boshqa fiqhiy mazhablar, xususan, shofeiy va molikiy mazhablarining qarashlarini ham qamrab olgan qiyosiy fiqh manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Muallif o‘z asarini yozishda o‘zidan oldingi hanafiy ulamolari tomonidan

[55] O‘sha manba. – B. 302-303

qo‘llanilgan uslublarni takomillashtirgan holda, mazhablararo huquqiy farqlarni tizimli ravishda tahlil qiladi.

Asarda boshqa mazhab imomlari qarashlarining qamrovi turlicha taqsimlangan bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor Imom Shofeiy va Imom Molik qarashlariga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asarning savdo-sotiqqa doir “Kitobu-l-buyu‘” bo‘limida Imom Shofeiy qarashlariga 27 o‘rinda murojaat qilingan, Imom Molik qarashlari esa bir o‘rinda keltirilgan. Imom Ahmad ibn Hanbal qarashlariga esa asarning mazkur bo‘limida umuman to‘xtalinmagan.

Muallifning Imom Shofeiy qarashlariga keng o‘rin berishi o‘sha davrda hanafiy va shofeiy mazhablarining bir-biriga yaqin hududlarda keng tarqalgani hamda islom olamida eng ko‘p ergashuvchilarga ega bo‘lgani bilan izohlanadi. Burhoniddin Marg‘inoniy asarda boshqa mazhab qarashlarini keltirish orqali hanafiy mazhabining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashni va o‘quvchiga qiyosiy tahlil imkoniyatini taqdim etishni maqsad qilgan.

Burhoniddin Marg‘inoniy boshqa mazhab qarashlarini keltirishda o‘ziga xos ilmiy uslubdan foydalanadi. U o‘z qarashlarini bayon qilishda quyidagi asosiy istilohiy birikmalarni qo‘llaydi:

– “Qola-sh-Shofeiy” (Shofeiy aytdi) – bevosita imomning so‘ziga murojaat qilishda ishlatiladi.

– “Xilofan li-Molik” (Molikka xilof o‘laroq) – hanafiy mazhabidagi hukm molikiy mazhabidan farq qilishini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

– “Indash-Shofiiy” (Shofeiy nazdida) yoki “Huva qovlu Molik” (Bu Molikning so‘zidir) kabi iboralar ham tez-tez uchraydi.

Asarning metodologik xususiyatlaridan biri shundaki, Marg‘inoniy boshqa mazhab imomlarining qarashlarini ko‘pincha mutloq (umumiy) tarzda keltirgan. Garchi asl manbalarda bu hukmlar muayyan shartlar yoki tafsilotlar bilan bog‘langan (muqayyad) bo‘lsa-da, muallif asarning hajmi qisqa bo‘lishini ko‘zlagani sababli ularni umumlashtirib bayon etgan. Shuningdek, Marg‘inoniy boshqa mazhab qarashlarini bayon qilishda ularning dalillarini ham keltirib o‘tadi va bu dalillarni hanafiy mazhabi nuqtayi nazaridan baholaydi.

Hanafiylardan boshqa ahli sunna val jamoa mazhabi qarashlari asarning deyarli barcha bo‘limlarida, jumladan, ibodat va muomalot qismlarida uchraydi. Muomalot masalalarida savdo-sotiqdagi majlis ixtiyori, ko‘rish ixtiyori, po‘stloqli mahsulotlar savdosi hamda nikoh va guvohlikka doir huquqiy holatlar boshqa mazhablar bilan qiyosiy tarzda berilgan.

“Hidoya” asari hanafiy fiqhini boshqa mazhablar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qiladi. Muallif boshqa mazhab qarashlarini, xususan shofeiylik va molikiylik fiqhiy yondashuvlarini tizimli qamrab olgani, ularni o‘ziga xos terminologiya orqali ifodalagani asarning ilmiy qiymatini oshiradi. Garchi hukmlar ko‘p hollarda muxtasarlik tamoyili asosida umumlashtirilgan

bo‘lsa-da, bu yondashuv o‘quvchiga o‘sha davr huquqiy tafakkuri haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Marg‘inoniy boshqa mazhab qarashlarini keltirishda har doim ham ularning asl manbalariga (masalan, “Umm” asariga) tayanmagan. Aksariyat hollarda u o‘zidan oldingi hanafiy olimlari jumladan Imom Saraxsiyning “Mabsut” yoki Imom Tahoviyning “Muxtasar” asarlaridagi ma‘lumotlarni asos qilib olgan.

Xulosa qilib aytganda, “Hidoya” asari o‘z davrida huquq ilmi rivojining holati va mazhablararo muloqotni tushunish uchun beqiyos manba hisoblanadi. Asar hanafiy fiqhini boshqa maktablar bilan qiyosiy o‘rganishda tizimli uslubni shakllantirgan bo‘lib, o‘quvchiga turli huquqiy yechimlarning dalillarini anglashda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

**Mas’udxon ISMOILOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

## IMOM MARG‘INONIYNING “MUXTOROT AN-NAVOZIL” ASARI XUSUSIYATLARI

Imom Marg‘inoniy – Shayxulislom Burhonuddin Abulhasan Aliy ibn Abu Bakr ibn Abduljalil alFapg‘oniy al-Marg‘inoniy (vaf. 593-y.) hanafiy mazhabi rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk allomalardan biri bo‘lib, to‘rtinchi tabaqa faqihlaridan sanaladi. Bu tabaqaga mazhab doirasida keltirilgan rivoyatlarning ba’zini boshqasidan ustunligini aniqlab berishga qodir bo‘lgan as’hobi tarjih olimlar mansub bo‘lganlar. Imom Marg‘inoniy ham Imom Quduriy, Imom Karxiy kabi zotlar kabi mazkur to‘rtinchi tabaqa faqihlaridan sanaladilar.

Imom Marg‘inoniy bir qator kitoblar muallifi bo‘lib, uning asarlari ilm ahli orasida mashhurdir. Quyida olimning asosiy asarlarini misol tarzida sanab o‘tamiz.

1) “Bidoyatul-mubtadiy” (“Boshlovchining ilk kitobi”) nomli kitobini “Hidoya” asarini qisqartma shakli – matn o‘laroq yozilan asar deyish mumkin. Muallif avval ushbu kitobni yozib, keyinchalik unga sharh sifatida “Kifoyatul-muntahiy” deb nomlagan.

2) “Kifoyatul-muntahiy” (“Yakunlovchiga kifoya qiluvchi kitob”): “Bidoyatul-mubtadiy” asariga yozilgan katta hajmli (sakkiz jildli) sharh bo‘lib, u talabalar uchun noqulaylik tug‘dirgani sababli muallif uni qisqartirib, “Hidoya”ni yaratgan.

3) Imom Marg‘inoniyning shoh asari “al-Hidoya” (“Hidoyat”) hisoblanadi. U hanafiy mazhabidagi fiqh (islom huquqi) masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, sakkiz asrdan beri butun dunyo musulmon o‘quv yurtlarida asosiy darslik sifatida o‘qitilib

kelinadi. “Hidoya” imom Muhammad ash-Shayboniyning “al-Jome’ as-sag‘ir” va Quduriyning “al-Muxtasar” asarlari asosida yozilgan.

4) “Muxtarotun-navazil” (“Majmuun-navazil” yoki “Muxtar al-fatavo” deb ham ataladi, fatvolar to‘plami);

5) “Kitab fil-faroiz” (Meros huquqi haqida);

6) “at-Tajnisu val-mazid” (Fatvolar to‘plami). Bulardan tashqari Marg‘inoniyga nisbat berilgan asarlar ham bor. Biz ushbu maqolada Imom Marg‘inoniyning “Muxtorot an-navozil” asari xususida ayrim ma’lumotlarni berib o‘tmoqchimiz.

“Muxtorot an-navozil” asari haqli ravishda tadqiqotchilarning e’tiborini tortgan asardir. Chunki bunday turdagi asarlar o‘z muallifi yashagan davrdagi diniy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turli sohalarda yuz bergan voqealarga berilgan fatvolarni qamrab olgan bo‘ladi. Boshqacha aytganda jonli savollarga javob tarzida to‘plangan fatvolar jamlanmasidir. Eng ahamiyatlisi, bunday turdagi masalalarga “Navozil” janrida yozilgan asarlar mualliflaridan oldin yashab o‘tgan faqihlar duch kelmagan va o‘z–o‘zidan bu masalaga javob ham aytmagan bo‘ladilar. Shu jihatdan ham bu turdagi asarlar qimmatli hisoblanadi. Demak, bunday asarlar o‘sha davr tarixini yoritishda ham muhim manba bo‘la oladi.

“Muxtorot an-navozil” asarining yana bir muhim jihati u “Hidoya” asarining davomi sifatida ham ko‘riladi. Ma’lumki, “Hidoya” asarida Imom Muhamadning “Zohirur rivoya” to‘plamiga kiritilgan fatvolar bilan birga “Navodir” deb ataluvchi fatvolaridan ham manba o‘laroq keng foydalanilgan. “Zohirur rivoya” deganda Imom A’zam Abu Hanifa va uning ikki sohibi – Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadlarning so‘zlari anglashilsa, “Navodir”da asosan Imom Muhammadning fatvolari joy olgan bo‘lib, ular “Horuniyyot”, “Kaysoniyyot” hamda “Raqqiyyot” kabi guruhlarga ajratilgan.

“Horuniyyot” deganda Imom Muhammad mashhur xalifa Horun Rashid davrida qozilik mansabida turib chiqargan fatvo va hukmlari tushuniladi. “Kaysoniyyot” esa Sa’iyd ibn Sinon al-Kaysoniy o‘z ustozi Imom Muhammad ibn Hasandan rivoyat qilgan masalalar to‘plamidir. “Raqqiyyot” – Imom Muhammad hazratlari Raqqa shahrida qozilik qilganida yechib bergan masalalardir.

Demak, Imom Marg‘inoniy “Hidoya”da mazkur asarlardan manba o‘laroq istifoda etgan, ammo uning davomi sifatida qaralayotgan “Muxtorot an-navozil” asarini yozishda esa uslubiy qo‘llanma sifatida foydalangan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Muxtorot an-navozil” asarida keltirilgan ayrim hukmlar “Hidoya”dagidan farq qiladi. Mazkur ixtilof asosan, quyidagi uchta ishda ko‘rinadi:

Avvalo, Imom Marg‘inoniyning fatvo berishdagi uslubi o‘zgargan bo‘lishi mumkin. zero, bu holat aksar faqihlar faoliyatida kuzatiladi. Ya’ni, faqihning ijtihoddagi ra’yi o‘zgarsa, avval bergan fatvosidan boshqacha hukm chiqaradi. Bu bilan uning faqihligiga ta’na qilinmaydi. Bunga misol qilib, Hazrati Umar ibn Xattobning boboning merosdan ulushi borasida chiqargan turli fatvolarini keltirishadi.

Ikkinchi sabab – ahvollarning o‘zgarishi, ya’ni insonlar orasida urfning o‘zgarishi, odatlar zamonlar o‘tib, makonlar oshib turlicha bo‘lib ketishidir. Shu bois olimlar

orasida “Zamonlar o‘zgarishi bois hukmlar o‘zgarsa inkor qilinmaydi” degan gap yuradi.

Uchinchidan, Imom Marg‘inoniyda yangi dalil paydo bo‘lgani uchun avvalgi fatvosini o‘zgartirgan bo‘lishi mumkin. Ya’ni, avval fatvo berayotganida bilmagan ma’lumotlari u zotda keyinchalik ravshan bo‘lgan, deyish mumkin.

Imom Marg‘inoniyning biz o‘rganayotgan ushbu asari manbalarda ikki xil nom bilan aqayd etilgan: “Muxtorot an-navozil” va “Muxtorot majmu’ an-navozil”. Asarning uch jildda bitilgani mashur biliografik asar – “Kashf az-zunun”da aytib o‘tilgan. “Muxtorot an-navozil” asaridan qator hanafiy fiqhiy asarlar mualliflari foydalanishgan. Masalan, “Fatovoyi hindiyya”, “Fatovoyi Totorxoniyya”, “Fatovoyi Ibni Obidin” kabi asarlarni keltirib o‘tish mumkin. Bu esa asarning mutaaxxir ulamolar orasida ahamiyatli manbalardan sanalganini ko‘rsatadi. Albatta, bu asarning muallifi mashhur “Hidoya”ning ayni muallifi ham ekanligi o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Imom Marg‘inoniy “Hidoya”da ko‘proq dalillar keltirgan bo‘lsa, “Muxtorot an-navozil” asarida esa juz’iy va yangi paydo bo‘lgan masalalarni keltirgan. Bunday masalalarni faqihlar “navozil” deb ataydilar. Ya’ni, mujtahidi mutlaqdan keyin kelgan tabaqadagi mashoyixlar va fuqaholarning ijtihodlarini navozil deb atash urf bo‘lgan. Imom Marg‘inoniy ham kitobiga nom berayotganida mana shu jihatni nazarda tutgan va hatto navozil masalalarining orasidan muxtor – tanlab olingan o‘z fatvolarini ushbu kitobda jamlagan. Yuqorida aytganimizdek, ayrim masalalarda muallifning fikri o‘zining “Hidoya” asaridagi masalalardan farq qiladi, buning sabablaridan biri – davrlar orasidagi uzoq muddat deb ham izohlash mumkin. O‘quvchi bu holatni o‘zini o‘zi inkor qilish deb tushunmasligi kerak. Biz buni yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Zero, tadqiqotchining fikri izlanishlari mobaynida o‘zgarib borishi ham tabiiy bir ilmiy holat sanaladi.

O‘quvchilarimizda “Muxtorot an-navozil” asari borasida yaxshiroq tasavvur hosil bo‘lishi uchun “Namoz” kitobi oxiriga ilova qilingan “turli masalalar” bo‘limidan bir qismini tarjimasini keltiramiz.

742. Bir kishi namoz o‘qishni xohlasa yoki qiro’at qilmoqni iroda qilsa, lekin bu ishiga riyo aralashishidan qo‘rqsa, mana shu qo‘rquvi (riyo aralashishi qo‘rquvi) sababidan ibodatini tark qilmog‘i durust bo‘lmaydi. Chunki buning riyo bo‘lishi mavhumdur. Riyo esa amalni botil qiladi, unga ajru savob berilmaydi, shuningdek, gunoh ham bo‘lmaydi. Ba’zilar riyokor gunohkor bo‘ladi, deyishgan. Ayrimlar esa ibodatida riyo qilgan odam kofir bo‘ladi, deyishgan.

743. Agar namozni xolis Alloh taolo uchun boshlab, so‘ng uning qalbiga riyo aralashib qolsa, namoz asliy asosga ko‘ra bo‘ladi. Chunki qalbga keladigan narsadan saqlanish mumkin bo‘lmagan ishdir.

744. Ilmni puxta egallagan olim uchun ilmga (kitobiga) nazar qilishi nafl namoz o‘qigandan ko‘ra afzaldur. Agar unga ikkisini jamlash imkoni bo‘lsa, ya’ni kechasi namozga, kunduzini ilmga bag‘ishlaydigan bo‘lsa, bu afzaldur.

Ilm olayotgan shogird ilmini birovga o‘rgataman degan niyatda olayotgan bo‘lsa, bu o‘zi uchun ilm olayotgan kishidan ko‘ra afzal hisoblanadi.

745. Ahli sunnaning e’tiqodiga ko‘ra taqdirlarni o‘zgartirishda duolarning ta’siri bordir.

Alloh taologa yaqinlashtiradigan ibodatlar, sadaqalar qilib, o‘lgan odamlar uchun savobini bag‘ishlash joizdur. Mayyitga buning savobi yetadi. Bu ahli sunnaning e’tiqodiga ko‘radir. Chunki Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislari bor: “Odam bolasining hamma amali o‘lgani tufayli uzilib qoladi. Lekin uchta narsa uzilmaydi. Bular ─ o‘lganidan keyin uning haqqiga duo qilib turadigan solih bolasi, odamlar foydalanadigan ilmni odamlarga o‘rgatgan ilmi va sadaqai joriyalari kiradi.” Va yana o‘liklarga savoblarni bag‘ishlashga buyurilganmiz.[56]

746. Mutaaxxir ulamolar xatmi Qur’ondan keyingi duoni yaxshi sanashgan. Lekin bu sahobalardan naql qilinmagan bo‘lsada, undan ma’n qiluvchi fatvo ham berilmagan. Chunki fatvo avomlar tushunmaydigan ba’zi ishlarga beriladi. Xatm vaqtida bolalari va ahli ayolini to‘playdi va ularning haqqiga duo qiladi.

747. Arabiyda duo qilish ijobatga yaqinroqdur. Qalblar qorayib ketganligini sabab qilib duo qilish tark qilib qo‘yilmaydi. Chunki qalb qoraligini ketkazish insonning qudratidagi ish emas. Ko‘ngil erib turgan vaqtda duo qilish esa afzaldur.

Imom Muhammad “Duoning lafzini qiynalib zohir qilishga intilmanglar (Ya’ni, sun’iy o‘ylab tillaringizga olmanglar). Balki o‘zingizda hozir bo‘lgan narsani aytib

[56] Tiriklar bir amalni qilib, savobini mayyitlarga bag‘ishlasa, bu amallarning savobini ularga yetishi masalasi Ahli sunnat val-jamoat nazdida salkam ittifoq qilingan masaladur. Hanafiylardan Ibn Obiddin ash-Shomiy aytadilar: “Bizning ulamolarimiz haj bobida birovning nomidan haj qilish borasida aytadilarki, inson o‘zining amali savobini boshqaga bag‘ishlasa joizdir, bu amal namoz, ro‘za, sadaqa va undan boshqa amallar bo‘lsin, uni bag‘ishlasa bo‘ladi, deyishgan. “Hidoya”da shu gap bor. Va “Totorxoniyya”da zakotning ham savobini bag‘ishlash joiz bo‘lishi aytib o‘tilgan”. “Muhiyt” kitobida kelishicha, sadaqa qilayotgan odam uchun eng afzali o‘z niyatida barcha mo‘min va mo‘minalarga deb niyat qilmoqdir. Chunki savob ularning barchasiga ham yetadi, va bu amallarni qilib, savobini bag‘ishlovchining savobidan hech narsa kamaymaydi. Ammo bizning nazdimizda savobning o‘zi yetadi, deyilgan. (Raddul muxtor, 3\151). Ibni Nujaym aytadilar: “Bir kishi ro‘za tutsa, sadaqa qilsa va ularning savobini boshqalarga, ya’ni o‘liklar yoki tiriklarga bag‘ishlamog‘i joizdur. Ularning savobi ularga yetadi. Bu ahli sunnat va jamoatning e’tiqodidur (3\59). “Badoe’”da ham shu gap (2\212). Ibn Obiddin yana aytadilar: “Shu bilan bilinadiki, bag‘ishlanuvchi odam xoh tirik bo‘lsin, xoh o‘lik bo‘lsin farqi yo‘qdir”. (Raddul muxtor, 3\151-152). Shofe’iylar olimlardan “Fathul allom” kitobining sohibi quyidagilarni naql qiladi: “Ulamolar sadaqaning savobini mayyitlarga yetishi masalasida ittifoq qilishdi. Lekin qiro’atning savobi yetishi borasida ixtilof qilishdi. Ba’zilar qabr ustiga borib qiro’at qilingandagina yetadi, uzoqdan yetib bormaydi, deyishgan. Boshqa bir qiylda mutlaqo yetmaydi, deyilgan”. Molikiylarga kelsak, ulardan Ibn Hilol aytadilar: “Ibn Rushd fatvo bergan va bizning Andaluslik imomlarimizdan bir qanchasi yurgan mazhab shuki, o‘lik Qur’oni karim qiroatidan foyda oladi. Agar qori unga savobini bag‘ishlasa, hadya qilsa mayyitga albatta foydasi yetadi. Mana shu borada sharq va g‘arb musulmonlarining amal qilishi joriy bo‘lgan. Va bu xususda qanchadan qancha vaqflar ta’yin qilishgan. O‘tgan zamonlardan beri bu ishlar davom etib kelgan” (“Fathul allom”, 3\321-322). Hanbaliylar fikrini Ibn Qudoma bir necha hadislarni naql qilganlaridan keyin, quyidagicha keltirgan: “Mana shu sahih hadislarda dalolat borki, mayyit qurbat uchun qilingan turli ishlardan foyda oladi. Chunki ro‘za, haj va istig‘for badaniy ibodatlar bo‘lib, Alloh taolo ulardan mayyitga manfaat yetkazishi aniqdir. Shuningdek, ulardan boshqa ibodatlardan ham” (Mug‘niy, 2\225). Ibn Taymiyya ham shunga fatvo bergan: “Shubhasiz, mayyit moliyaviy sadaqa va shunga o‘xshash ibodatlaridan foyda olganidek Qur’oni karim qiro’atidan ham foyda oladi” (“Yas’alunaka anid-dini val-hayoti” (1\442). Balki Ibn Qudoma “Bu masalada musulmonlar ijmo qilganlar, har bir asrda va har bir shaharda to‘planishib va qiroat qilishib savobini o‘liklarga hadya qilib kelganlarini hech kim inkor qilmagan” (Mug‘niy, 2\225).

duo qilavering. Chunki duo lafzlarini yodlab miyani chalg‘itish, qalb yumshoqligidan kishini mashg‘ul (band, ovora) qilib qo‘yadi”, deganlar.

Va yana aytiladiki, ajam (arab bo‘lmagan)lar uchun namozdan tashqarida o‘qiladigan duolarni yodlashning zarari yo‘qdur. Namozda yodlash esa zarurdur.

748. Duodan keyin qo‘lni yuzga surishning zarari yo‘q. Kishi duo qilganida “payg‘ambarlaring, rasullaring haqqi ijobat qil” demog‘i makruhdir. Zero, Xoliqning zimmasida maxluq uchun hech qanday haq bo‘lmas![57]

749. Kofirning duosi ijobat bo‘ladimi yoki yo‘qmi? Bu borada ixtilof qilishdi. Bir o‘rinda aytiladiki, uning duosi ijobat bo‘lmaydi. Chunki Alloh taoloning so‘zi bor:

“Kofirlarning duolari mutlaqo zoyedir” (Ra’d surasi, 14-oyatidan)

Chunki u Alloh taoloni tanimasdan, U Zotga loyiq sifatlarini bilmagan holda Alloh taologa duo qiladi.

Ammo Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan hadisda esa “Mazlumning duosidan saqlaninglar, agarchi kofir bo‘lsa ham”, deyilgan. Agar bu hadisni sahih deb qaraydigan bo‘lsak, ma’no “ne’matga kufroni ne’mat qilgan odam, diniy jihatdan kofir emas” deb tushuniladi.

Bir qiylda esa kofirning duosi ijobat bo‘ladi, deyilgan. Chunki buni Qur’oni karimda iblisning hikoyasi kelganligi bilan bog‘lashimiz mumkin.

(U) dedi: “Menga (insonlar) tiriltiriladigan kungacha (qiyomatgacha) muhlat ber!”

Aytdi: “Albatta, sen (jazo kunigacha) muhlat berilganlardandirsan” (A’rof surasi 14−15-oyatlar).[58]

Bu uning duosi ijobati bo‘ldi, demakdir. Va shunga fatvo berilgan.

750. Qur’on karimni ta’lim olish nafl namoz o‘qimoqdan ko‘ra afzaldur. Bunda qori tahoratli bo‘lmog‘i, Qiblaga qarab o‘tirmog‘i mustahab bo‘ladi. Shuningdek, qiroat vaqtida eng yaxshi liboslarini kiymog‘i kerak. Bu vaqtda bir narsaga suyanmasin, yonboshlab olmasin.

751. Junub odamning Qur’on o‘qimog‘i joiz emas. Shuningdek, mus’hafni ushlamaydi. Chunki janobat uning og‘zi, qo‘ligacha o‘tgan hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni yuvish vojib bo‘ladi. Lekin Qur’onga qo‘l tekkizmasdan, uni o‘qimasdan nazar solish esa durustdir. Hayz ko‘rgan, nifos holatidagi ayollarga ham batariyqi avlo joiz bo‘lmaydi. Betahorat odam esa Qur’oni karimni ushlamaydi xolos. Chunki uning tahoratsizligi ikki qo‘liga o‘tgan bo‘lib, og‘ziga o‘tmagandir. Shuning uchun unga ham qo‘lini yuvish vojib bo‘ladi, og‘zini emas.

752. G‘usl qilinadigan joylarda, hojatxona, (qushxona) qassobxona va bozor kabi yerlarda Qur’oni karimni o‘qish makruh bo‘ladi.

Bir hunarni qilib turgan (bir ish bilan mashg‘ul) odam yoki piyoda yurib ketayotgan odamning shu qilib turgan amali yoki yurishi Qur’oni karimning o‘qishidan yoki

[57] Falon ulug‘ zotning hurmatidan, desa bo‘ladi, degan ustozlarimiz.
[58] Ya’ni, jin va shaytonlarga qiyomat kunigacha muhlat berilgandir.

biror narsadan chalg‘itmaydigan bo‘lsagina unga qiroat qilish joiz bo‘ladi, yo‘qsa bo‘lmaydi.

Abu Hanifa rahimahumalloh qabrlarning ustida Qur’oni karim o‘qishni makruh deganlar. Imom Muhammadning nazdida esa makruh bo‘lmaydi. Mana shu olingandir.[59]

753. Qur’oni karimni bo‘lak-bo‘lak, juz’-juz’lab o‘qish yoki yettiga bo‘lib o‘qishdan ko‘ra Qur’oni karimni mus’haf tartibida o‘qish avloroqdur. Chunki u keyin paydo bo‘lgan ishdur.

“Ixlos” (Qul huvallohu Ahad) surasini 5000-marta o‘qigandan ko‘ra Qur’oni karimni hammasini qiro’at qilish afzaldur.

754. Qur’oni karimni to‘liq, hammasini ta’lim olgandan ko‘ra fiqhni ta’lim olmoq afzaldur. Qur’oni karimning hammasini ta’lim olmoqlik esa nafl namozdan afzaldur. Qiroat qilganda oyatlari soni ko‘p bo‘lgan har qanday surani o‘qish afzaldur.

755. Ayollar Qur’oni karimni o‘rganmoqchi bo‘lsa, ayol muallimadan o‘rganmog‘i afzaldur, ko‘r erkakdan o‘rgangandan ko‘ra.

756. To‘shakda yotib olgan odam Qur’oni karimdan tilovat qilmog‘ining zarari yo‘q. Faqat sharti shuki – oyog‘ini cho‘zmasin (chunki, bunda odobsizlik bor). Ko‘rpa ichida tasbeh, tahlil aytish esa hech qanday makruhsiz joizdur.

757.Bir kishi fiqhni yozayotgan bo‘lsa, uning yonida boshqa odam Qur’on o‘qib o‘tirgan bo‘lsa gunoh qoriga bo‘ladi. Agar eshitish unga mumkin bo‘lmasa.

Agar qori Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ismlarini eshitsa ham qiroatdan to‘xtamasin.

758. Bir kishi Qur’oni karimni o‘qishda cho‘zib qo‘shiq qilayotgan bo‘lsa agar unga e’tiroz qilinsa, vahshat, nafrat yetmaydigan bo‘lsa, eshituvchi odam uni qaytarmog‘i, ta’lim bermog‘i durust bo‘ladi. Ammo u odamga e’tiroz qilganingda u odamda vahshat paydo bo‘lsa, o‘qimay qo‘ysa, xafa bo‘ladigan bo‘lsa unday odamni to‘xtatib ta’lim berilmaydi.

759. Yosh bolaning qilgan savob ishlari o‘ziga yoziladi. Ota-onasiga esa ta’lim berganligining ajri yoziladi. Shuningdek, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganligining ajri bo‘ladi, hamda dunyoga kelishiga sabab bo‘lganligi va boqiy qoldirganligi (ya’ni, boqqanlik) uchun savob bo‘ladi.

[59] Bu haqda “Xoniya”dagi matnda shunday keladi: “Qabrlar boshida Qur’onni qiroat qiluvchi eshituvchilarni ovozi bilan munis, ulfat qilish niyatida o‘qiyveradi. Agar bu niyatni qasd qilmagan bo‘lsa, Qur’on qiroati qayerdan chiqsa ham Alloh taolo eshitadi (3\422).

**Muhabbatxon AGZAMOVA,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

# “BIDOYATUL MUBTADI” VA “HIDOYA” ASARLARI ASOSIDA MARG‘INONIYNING FIQHIY METODOLOGIYASI

Movarounnahr islom sivilizatsiyasi tarixida faqat ilm-ma’rifat markazi sifatida emas, balki hanafiy fiqh tafakkurini shakllantirgan, uni tizimlashtirgan va keyingi asrlarga uzatgan mustahkam ilmiy maktab sifatida ham alohida o‘rin tutadi[60]. Ana shu muhitda yetishib chiqqan ulug‘ ulamolar safida Burhoniddin Marg‘inoniyning nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Uning ilmiy merosi nafaqat o‘z davridagi huquqiy-ijtimoiy hayotni tartibga solishga xizmat qilgan, balki hanafiy mazhabning furu’ masalalarini izchil bayon etish, dalillash va ta’limiy tarzda tartiblash borasida namunali an’ana yaratgan.

Burhoniddin Marg‘inoniy (vaf. 593/1197)ning ilmiy merosi haqida manbalarda bir qator asarlar qayd etilgan bo‘lib, mazkur asarlar allomaning hanafiy fiqhi taraqqiyotidagi o‘rni va ilmiy nufuzini yaqqol namoyon etadi. Manbalarda unga nisbat beriladigan manbalar qatorida “Kitob majmu’ un-Navozil”, “Kitob ul-tajnis”, “Kitob ul-mazid”, “Kitob ul-faroiz”, “Kitob ul-muntaqiy”, “Bidoyat al-mubtadi”, “Kifoyat ul-muntaqiy”, “Nashr ul-mazhab”, “Manosik ul-Haj” kabi asarlar alohida e’tirof etiladi[61].

Ular orasida fiqhiy masalalarni qisqa va tizimli jamlagan “Bidoyatu-l-mubtadiy” asari hamda unga muallifning o‘zi tomonidan bitilgan sharh “Hidoya” asari hanafiy fiqhining eng mashhur va mo‘tabar matnlaridan biri hisoblanadi. “Hidoya” asari “Bidoyatu-l-mubtadiy”ning shunchaki izohi emas, balki Quduriyning “Muxtasar” nomli asari va Muhammad Shayboniyning “Al-jomi’ as-sag‘ir” asaridagi masalalarni izohlab, dalil va ixtiloflarni tartibli bayon etgan mukammal sharh hisoblanadi. Shuningdek, Marg‘inoniy avval “Bidoyatu-l-mubtadiy”ga katta hajmli sharh sifatida “Kifoyatu-l-muntahiy”ni yozishni boshlagani, biroq asar juda katta hajmga yetib, foydalanish qiyinlashishi mumkinligini inobatga olgan holda uni to‘liq yakunlamay, nisbatan ixcham va amaliy “Hidoya” asarini ta’lif etgani keltiradi[62].

Bidoyatul-mubtadi”ning tartibi haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo‘lsak, “Bidoya” – “Jomi’ as-sag‘ir” va Quduriyning “Muxtasar” asarlarining jamlanmasi bo‘lib, uning tartibi “Jomi’ as-sag‘ir”ning tartibi bilan bir xil, ixtilofli masalalarda avval Imom Abu Hanifa, keyin “sohibayn” (Abu Yusuf va Muhammad)ning qarashlarini

[60] İslâm Ansiklopedisi. – J. XXVIII. – Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Araştırmaları Merkezi (İSAM), 2003. – B. 177-180.
[61] O.Qoriyev. Marg‘iloniy mashhur fiqhshunos. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriti, 2000. – B. 25.
[62] el-Hidâye. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – J. XVII. Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 1998. – B. 471.

keltiradi. Agar ularning qarashlari bir-biridan farq qilsa, ketma-ket Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammadning fikrlari beriladi. “Bidoya”da hanafiylardan boshqa ulamolarning qarashlariga to‘xtalinmaydi.

Kitob tartibida avval Quduriyning “Muxtasar”idagi, so‘ng “Jomi’ as-sag‘ir”dagi masalalar keladi[63]. “Jomi’ as-sag‘ir”ning iborasi Quduriyning iborasiga mos kelmagan joylarda “Jomi’ as-sag‘ir”da shunday…” degan ibora bilan alohida e’tibor qaratiladi.

Muallif asar boshida kitob haqida o‘zi quyidagilarni yozadi: “Yoshligimda, hatto yanada yoshroq paytlarimda hajmi kichik, mazmuni katta, o‘z ichiga masalalarning har turini olgan bir kitob bo‘lishini orzu qilardim. Nihoyat, uzoq safarlarim davomida Quduriyning “Muxtasar”ini men orzu qilgan shaklda yozilgan kitob sifatida topdim. Bu kitob qisqa bo‘lsa-da, mazmunan boy va maqtovga sazovor uslubda yozilgan. Shuningdek, zamonning katta ulamolari ham katta-kichik barchani “Al-jomi’ as-sag‘ir”ni yodlashga undayotganini ko‘rdim. Shundan so‘ng, bu ikki kitobni birlashtirib bir kitob holiga keltirishga va  zarurat sezmas ekanman, bu ikki kitobdan tashqari hech narsa qo‘shmaslikka qaror qilib, shu ishga kirishdim. Kitob tugagach, unga “Bidoyatul-mubtadi” deb nom qo‘ydim”. Muallif “Bidoyatul-mubtadi”ga avval “Kifoyatul-muntaho” nomi bilan sharh yozishni boshlagan. Keyin esa uni yana ham qisqartirib, unga “Hidoya” deb nom bergan[64].

Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarida hanafiy fiqhning asosiy matnlariga ishora qilishning ixcham va barqaror uslubga tayanadi. Bu uslubda “Bidoyatu-l-mubtadiy” esa Quduriyning “al-Muxtasar”i hamda Imom Muhammad ash-Shayboniyning “al-Jome’ as-sag‘ir”idagi masalalarni bir joyga jamlash orqali yaxlit manba sifatida bayon qilinadi. “Hidoya” asarida muallif avvalo Quduriy matnidagi ifoda va hukmni keltiradi, so‘ng o‘sha masalaning “al-Jome’ as-sag‘ir”dagi bayoni yoki tafsilotini qo‘shib, mazhab ichidagi farq-ixtilof nuqtalarini aniqlaydi va agar ikki manba o‘rtasida farq kuzatilsa, bu holatni ochiq ta’kidlab, “al-Jome’ as-sag‘ir” iborasi bilan alohida ko‘rsatib beradi.

Alloma asarda o‘ziga xos uslubda manbalarga ishora qilish uslubidan foydalanilgan bo‘lib, “الأَصْل Asl” sifatida imom Abu Abdulloh Muhammad Hasan Shayboniyning “Mabsut” asariga ishora, “المُخْتَصَر Muxtasar” iborasini qo‘llab, “Muxtasar Quduriy”ga tayanganligini ifodalagan. Asarda “الكِتَاب Kitob” so‘zi zikr qilingan bo‘lsa, “Al-jome’ as-sag‘ir” to‘plamiga ishora sifatiga qo‘llagan[65]. Muallif odatda masalani dastlab “Muxtasar Quduriy”dan, so‘ng “Al-jome’ as-sag‘ir”da keltirilgan bayonni keltirish uslubiga tayanadi. Biror masalada bu ikki manba o‘rtacida farq bo‘lsa, u holda ““Al-jome’ as-sag‘ir” quyidagicha” deb ifodalaydi.

---

[63] O.Qoriyev. Marg‘iloniy mashhur fiqhshunos. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriti, 2000. – B. 27.

[64] Burhoniddin Marg‘iloniy. Al-Hidoya sharhi Bidayatu-l-mubtadiy. – Qohira: Dor kutub al-ilmiya. 1965. – J. I. – B. 11.

[65] Burhonuddin Marg‘inoniy. “Al-Hidoya” Bidoyatu-l-mubtadiy sharhi. – Istanbul: Kahraman Yayınları, 1992. – J. I. – B. 9-10.

Marg‘inoniy “al-Hidoya”da masalalarni bayon etar ekan, hanafiy imomlar bilan bir qatorda Imom Molik (vaf. 179/795) va Imom Shofe’iy (vaf. 204/820)ning qarashlarini ham keltiradi. Dalillar zikr etilayotganda esa, boshqa fikrlarga javob bo‘lishi maqsadida, muallif odatda afzal ko‘rgan qarashning dalilini eng oxiriga qoldiradi. U ko‘p hollarda Abu Hanifaning fikrini ustun qo‘ysa-da, ayrim masalalarda “Imomayn” (Abu Yusuf va Muhammad) qarashlariga moyil bo‘lgani ham kuzatiladi. Shu bilan birga, “al-Hidoya”da Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855)ning qarashlariga umuman murojaat qilinmaydi, ehtimol, muallif uni ko‘proq muhaddislar safida deb baholagani uchun uning fiqhiy qarashlarini zikr etishni lozim topmagan. Muallif ayrim o‘rinlarda Umar ibn Xattob, Ibn Mas’ud, Ali ibn Abu Tolib kabi sahobalardan naql qilingan so‘zlarni ham dalil sifatida keltiradi. Asarini yozishda har bir iborani nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy xukmlarni ifodalovchi jumlalarni umumiy fiqhiy qoida shaklida berilib, huquqiy muammolarni yechish jarayonida hanafiy, molikiy, shofi’iy va xanbaliy mazhablari bilan birga yana zohiriy va avzo’iy mazhablariga doir fikr mulohazalarni o‘rni kelganda tahlil qilib o‘tadi. Aynan shu jihatdan, “Hidoya” asari Abu Zayd Dabusiy[66] tomonidan asos solingan “Ilmu-l-Xilof”ni keng ko‘lamda o‘rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi[67].

Hanafiy ulamolaridan Imom Abu Hanifa va uning uch taniqli shogirdidan tashqari, Hasan ibn Ziyod, Tahoviy, Abu Bakr Roziy (Jassos), Karxiy va Saraxsiy kabi zotlarning ismlari ham uchraydi. “Hidoya” asari hanafiylikdagi mukammal huquqiy kodeks bo‘lib, unda meros huquqidan tashqari islom huquqining barcha sohalari qamrab olingan. Meros huquqini Abu Hanifa tomonidan alohida fan sohasi sifatida fiqhdan ajratilib, “Faroiz” nomi bilan atalganligi sababli[68], Marg‘iloniy “Hidoya”ga ushbu bo‘limni kiritmadi. Muallif “al-Hidoya”da faroiz (meros huquqi) mavzusini umuman yoritmagani va bu masalani juda muhim deb bilgani uchun, alohida “Kitobul faroiz” nomli mustaqil asar yozishgan.

“Al-Hidoya” asari hanafiy fiqhida keyingi davrda fatvo to‘plamlarini shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatgan. Hindiston qit’asida hanafiy mazhabi ustuvor bo‘lgan sharoitda “Hidoya” matni va uning sharh uslubi madrasa ta’limi hamda qozi va muftilar amaliyoti uchun tayanch qo‘llanmaga aylangan. Boburiylar davrida tuzilgan yirik fatvolar to‘plami “Fatovo al-Olamgiriyya” asari alohida e’tirof etilib[69], ilmiy adabiyotlarda mazkur to‘plam Aurangzeb davrida hanafiy huquqiy qoidalari sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda “Fatovoi Olamgiriy”ning mazmun va tartiblanishida “Hidoya”ning

[66] A.Q.Mo‘minov. Hanafiy ulamolarining markaziy Movarounnahr shaharlari hatidagi o‘rni va roli (II-VII/VII-XIII-asrlar). Tarix fan. dokt. dis. avtoref. – Toshkent. TIU. 2003. – B. 26.

[67] Hidoya. Burhoniddin Marg‘iloniy. Tarjimon va izohlar A.Qambarov, A.Ikromjonov, I.Bekmirzayev. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – J. I. – B.27.

[68] Hidoya. Burhoniddin Marg‘iloniy. Tarjimon va izohlar A.Qambarov, A.Ikromjonov, I.Bekmirzayev. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – J. I. – B.22.

[69] Religion and State in Late Mughal India: The Official Status of the Fatawa Alamgiri // LUMS Law Journal. – 2016. – Vol. 3, № 1. – P. 39.

ta’siri sezilarli ekani ta’kidlanadi[70]. Asar ko‘p jihatdan “Hidoya”dagi mavzular tizimi va fiqhiy qamrovni izchillashtirishga intiladi, ya’ni fatvo chiqarilishi mumkin bo‘lgan barcha asosiy mavzularni qamrab olishda “Hidoya” uslubini namuna sifatida olgani qayd etiladi. Demak, “Hidoya”ning keyingi davr rivojiga qo‘shgan hissasi faqat o‘quv matni yoki sharhlar uchun asos bo‘lish bilan cheklanmay, balki Boburiylar davridagi yirik huquqiy-fiqhiy jamlanmalarning tartib va metodologik manbasini belgilashga xizmat qilgan.

Muhammad Abdulhay Laknaviy o‘zining mashhur “Al-favoid al-bahiyya” asarida hanafiy mazhabi olimlarini olti guruhga bo‘lib, Burhoniddin Marg‘inoniy va Abulhasan ibn Ahmad ibn Muhammad Quduriyni “As’hob at-tarjiyh” ya’ni ba’zi rivoyatlarni ba’zilaridan ustun qo‘yish salohiyatiga ega bo‘lgan olimlar qatorida zikr etgan[71].

Xulosa qilib aytsak, “Al-Hidoya” Burhoniddin Marg‘inoniyning Quduriyning “al-Muxtasar”i va Shayboniyning “al-Jomi’ as-sag‘ir” asarida mavjud masalalarni bir joyga jamlab, o‘zi qalamga olgan “Bidoyatul-mubtadi” nomli asarining sharhi bo‘lib, Marg‘inoniy “al-Hidoya”ni yozishdan avval “Bidoyatul-mubtadi”ga “Kifoyatul-muntaho” nomi bilan sharh yozgan, ammo asar hajmi juda kattalashib ketgach, u o‘quvchiga zerikish keltirib qo‘yishi mumkin, degan fikr bilan yangi sharh yozishga qaror qilgan va unga “al-Hidoya” deb nom bergan. “Hidoya” hanafiylar orasida eng ko‘p qabul qilingan va eng ko‘p o‘qilgan kitoblardan biri bo‘ldi. qo‘lyozma nusxalarining ko‘pligi, unga qilingan sharhlar, hoshiyalar va ta’liqlarning juda ko‘p ekani ham “Hidoya”ning qay darajada muhim sanalishiga dalildir. Uning shunchalik mashhur bo‘lishi, shubhasiz, mazmunining boyligi va ishonchliligi, uslubining go‘zalligi hamda ilmiy ustunligi bilan izohlanadi. Burhoniddin Marg‘inoniy fiqhni faqat hukmlar majmuasi sifatida emas, balki mantiqiy tizim, dalilga tayanadigan xulosa va ijtimoiy hayot ehtiyojlariga mos huquqiy yechimlar sifatida ko‘ra olgan mutafakkir olim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning “Hidoya” asari hanafiy fiqh adabiyotida tayanch matn sifatida tanilib, asrlar davomida madrasalarda asosiy o‘quv qo‘llanma bo‘lib kelgan, unga o‘nlab sharhlar, hoshiyalar yozilgan. Bu esa Marg‘inoniyning fiqhiy bayonidagi aniqlik, tizimlilik va metodik mukammallikning o‘ziga xosligini isbotlaydi.

[70] Guenther, A. M. “Hanafi Fiqh in Mughal India: The Fatawa-i ‘Alamgiri‘” // Eaton, Richard M. (ed.). India‘s Islamic Traditions. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – B. 215-223.

[71] Muhammad Abdulhay Laknaviy. Al-favoid al-bahiyya fiy tarojim al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-Arqam, 1998. – B. 223.

**Jurabek SODIKOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*
*“Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o‘rganish*
*ICESCO” kafedrasi dotsenti*

# BURHONIDDIN MARG‘ILONIYNING ISLOM HUQUQSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Islom sivilizatsiyasi tarixida Movarounnahr mintaqasidan yetishib chiqqan allomalar alohida o‘rin tutadi. Ushbu zamindan chiqqan faqihlar va muhaddislar nafaqat mintaqaviy, balki butun islom olamida e‘tirof etilgan ilmiy maktablarni shakllantirganlar. Ana shunday ulug‘ allomalardan biri Burhoniddin Marg‘iloniy bo‘lib, u hanafiy fiqhining nazariy va amaliy rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan.

U zotning bir qancha asar va ta‘lifotlari mavjud. Jumladan: “Majmu‘ an-navozil”, “Kitobu-l-Faroiz” (meros ilmiga oid kitob), “at-Tajnis va-l-Mazid”, “Bidoyat al-mubtadiy”, “Kifoyat al-muntahiy”, “Kitobu-l-Hidoya”, shuningdek “Manosik al-haj” asarlari[72].

Burhoniddin Marg‘iloniy nomi, avvalo, uning mashhur “Hidoya” asari bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur kitob asrlar davomida ko‘plab ilmiy va diniy muassasalarda islom huquqi bo‘yicha asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida foydalanib kelinmoqda. Yuqoridagi omillar Marg‘iloniyning ilmiy faoliyatini chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Burhoniddin Marg‘iloniy hijriy 511 (milodiy 1118)-yilda Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon shahrida tavallud topgan. Marg‘ilon o‘sha davrda Movarounnahrning muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, ushbu muhit allomaning ilmiy yuklsalishida muhim rol o‘ynagan.

Olimning “al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘iloniy” deyilgan taxallus nisbalari esa, uning va ota-onalarining yurtlariga nisbatan berilgan. “Marg‘iloniy” nisbasi tug‘ilgan yurtini anglatib, qadimda arablar Marg‘ilon shahrini “Marg‘inon” deb atashgan[73].

Asli ismi Ali ibn Abu Bakr bo‘lib, u zot fiqh ilmida juda kuchli bo‘lganliklari bois “Burhonuddin” – “Din hujjati”, “Din dalili”, degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan. Shamsiddin Zahabiy aytadi:

“Alloma, Movarounnahr olimi, Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Marg‘iloniy al-Hanafiy – fiqhga oid “al-Hidoya” va “al-Bidoya” asarlarining muallifidir.

Bu davrda u zot haqida bizga yetib kelgan xabarlar kam bo‘lsa-da, u ilm xazinalaridan (ilmni chuqur egallagan buyuk olimlardan) edi. Alloh uni rahmat qilsin”[74].

---

[72] Burhoniddin Marg‘iloniy. Al-Hidoya fi sharhi Bidayati-l-mubtadiy / Muqaddima. – Karachi: Idora al-Qur‘on va-l-ulum al-islomiya, 1417/1996. – J. I. – B. 12.

[73] N.Adulahatov, T.G‘oziyev. Burhoniddin Marg‘inoniy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 9.

[74] Shamsiddin Zahabiy. Siyaru-l-a‘lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1982. – J. XXI. – B. 232.

U yoshligidanoq ilm talabida bo‘lib, arab tili, Qur‘on, hadis va fiqhga oid ilmlarni chuqur o‘rgangan. Marg‘iloniy dastlabki bilimlarni mahalliy ulamolardan olib, keyinchalik Samarqand va Buxoro kabi ilm markazlarida tahsilini davom ettirgan.

Burhoniddin Marg‘iloniy hanafiy fiqh maktabining yetuk namoyandalaridan saboq olgan. Uning ilmiy shakllanishida Najmiddin Nasafiy va boshqa mashhur faqihlarning ta‘siri katta bo‘lgan.

Hanafiy mazhabining chuqur metodologiyasi Marg‘iloniyning fiqhiy qarashlarida yaqqol namoyon bo‘lib, u masalalarni naqliy dalil, qiyos va istehson asosida tahlil qilish uslubini mukammal egallagan edi.

Burhoniddin Marg‘iloniy ilmiy merosining eng yuksak namunasi – “al-Hidoya fi sharhi Bidoyati-l-mubtadiy” asaridir. Ushbu kitob hanafiy fiqhining eng mukammal va tizimli shaklga ega manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois ko‘pchilik orasida Marg‘iloniy aynan shu asari bilan tanilgan. Jumladan, Abdulqodir Qurashiy bu haqda shunday deydi:

“Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy, Shayxulislom, Burhoniddin, al-Marg‘inoniy – buyuk alloma, muhaqqiq olim, “al-Hidoya” asarining muallifidir.

U zotning fazilati va ilmiy ustunligini o‘z zamonasining yetuk ulamolari tan olganlar. Jumladan, Imom Faxriddin Qozixon va Imom Zayniddin Attobiy uni alohida e‘tirof etganlar”[75].

Olimning butun islom olamida mashhur bo‘lgan ushbu asari hijriy 573 (milodiy 1178)-yilda Samarqandda yozib tugallangan. Bu asarni yozilishi bilan bog‘liq rivoyatlar xalq orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Mahmud ibn Sulaymon Kafaviyning keltirishicha, Burhoniddin Marg‘iloniy o‘zining “Bidoyatu-l-muntahiy” asarining so‘z boshida “Hidoya”ning yaratilishi to‘g‘risida shunday yozgan edi:

“Iroqqa safar qilganimda, “al-Muxtasaru-l-Quduriy” (“Quduriy qisqartmasi”) ni ko‘rdim. U fiqh bobida ajoyib asar edi. Bu paytda kattayu-kichik, barcha “Jome‘ us-Sag‘ir”dan foydalangan edi. Shunda fiqhga oid barcha asarlarni jamlab, ulardan eng zarur masalalarni oldim va bu asarga “Bidoyatu-l-muntahiy” deb nom berdim. Keyinchalik ushbu asarga sharh yozib, uni “Kifoyatu-l-muntahiy” deb nomladim”[76].

“Hidoya” fiqhiy masalalarni ixcham, mantiqiy va dalillarga tayangan holda bayon etishi bilan ajralib turadi. Asar nafaqat fiqhiy hukmlarni, balki ularning sabab va hikmatlarini ham ochib beradi.

Bu asar uzoq asrlar davomida madrasa ta‘lim tizimida asosiy darslik sifatida o‘qitilib, unga ko‘plab sharh va hoshiyalar yozilgan.

“Hidoya”dan tashqari, Burhoniddin Marg‘iloniyning bir qator boshqa fiqhiy asarlari ham ilmiy jamoatchilik orasida mashhur. Jumladan, “Majmu‘ an-navozil”, “Kitobu-l-Faroiz” va “Manosik al-haj” kabi asarlar olimning chuqur ilmiy salohiyatiga dalolat qiladi.

---

[75] Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Al-Javohir al-mudiya fi tabaqat al-hanafiyya. – Madina: Dor al-Hijr, 1993. – J. II. – B. 627.

[76] N.Adulahatov, T.G‘oziyev. Burhoniddin Marg‘inoniy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 6.

Uning asarlarida fiqh masalalari bilan bir qatorda axloqiy va ijtimoiy jihatlar ham e‘tibordan chetda qolmagan. Bu esa Marg‘iloniyning fiqhni faqat nazariy emas, balki amaliy hayot bilan bog‘liq fan sifatida ko‘rganini anglatadi.

Har bir fiqh maktabi o‘z asoschilariga mansub yoki ularga nisbat berilgan muayyan mo‘tabar asarlar majmuasini tan oladi. Vaqt o‘tishi va huquqiy ta‘limotning bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan keyingi mualliflarning ayrim asarlari, garchi nazariy jihatdan ular hech qachon asoschi imomlarning asarlari bilan nufuz jihatidan teng bo‘lmasa-da, o‘ziga xos e‘tiborli maqom kasb etdi. Shofeiy mazhabida Imom Rofeiy (vaf. 623/1226) va Imom Navaviy (vaf. 676/1277) asarlari, Hanafiy mazhabida esa Burhoniddin Marg‘iloniy (vaf. 593/1196) asari ana shunday e‘tiborli manbalarga kiradi.[77]

593/1197-yil – buyuk faqih, imom Burhoniddin Marg‘inoniy ikkinchi marta haj safariga otlanganda Samarqandni tark etishga ulgurmay og‘ir xastalikdan vafot etdi. Tarixchi Abu Tohirxoja Samarqandiyning “Samariya” asarida yozilishicha, bu xodisa hijriy 593-yil zulhijja oyining o‘n to‘rtinchi kuni seshanbada (milodiy 1197-yil 29-oktyabrda) sodir bo‘ldi. Uni musulmon olamining ko‘plab katta olimlarini o‘z bag‘riga olgan tabarruk maskan – Chokardiza qabristoniga dafn etganlar.

Alloma ilmiy merosi hozirgi kunda ham islom huquqshunosligida muhim manbalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kundagi zamonaviy fiqhiy tadqiqotlarida Marg‘iloniy asarlariga ko‘p murojaat qilinishi – olim ilmiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Burhoniddin Marg‘iloniy Movarounnahrdan yetishib chiqqan buyuk faqih sifatida islom huquqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning ilmiy merosi, xususan “Hidoya” asari – hanafiy mazhabining nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Marg‘iloniy ilmiy faoliyatini o‘rganish bugungi kunda ham fiqh ilmi va islom huquqshunosligi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

[77] Wael B. Hallaq. A History of Islamic Legal Theories. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. - B. 209.

**Shohista XUDAYBERDIYEVA,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o‘qituvchisi, PhD*

# BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING FIQH ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI VA “HIDOYA” ASARINING ILMIY AHAMIYATI

O‘zbekiston davlatchiligi va huquq tizimining asoslari nihoyatda qadimiy, mustahkam va uzoq tarixga ega. Mintaqamizning boy madaniy merosi asrlar davomida ajdodlarimiz – ilm-fan namoyandalari tomonidan rivojlantirilib, takomillashtirilib kelgan. Ular yaratgan ilmiy va ma’naviy boyliklar nafaqat biz uchun, balki butun insoniyat uchun bebaho meros hisoblanadi.

Aynan Movarounnahr faqihlari o‘zlarining buyuk asarlari va huquqiy nazariyalari orqali islom huquqining rivojlanish sohalarini kengaytirgan hamda fiqh ilmining kompleks rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Mujtahidlar davridan keyin ham O‘zbekiston hududida faoliyat yuritgan faqihlar nafaqat tarixiy va tanqidiy davrda, balki taqlid davrida ham yirik ilmiy yutuqlarga erishganlar.

Ma’lumki, XII asrda Markaziy Osiyo, jumladan Movarounnahr hududida fiqh ilmining rivojlanishi uchun muhim omillar yuzaga kelgan. A. Muminov[78] ta’kidlaganidek, bu omillardan biri Qaraxoniylar davlatining shakllanishi bo‘lgan. Markaziy shaharlarda mustaqil boshqaruvning kuchayishi hukmdor guruhlarining ta’sir doirasini kengaytirgan. Bu esa fiqh normalarini amaliyotga joriy etish uchun real sharoit yaratgan. Natijada Buxoro va Samarqand yirik ilm markazlariga aylangan. Bu shaharlarda Nasaf, Marv va Farg‘ona faqihlari ham faoliyat yuritgan.

Turk tadqiqotchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, bu davrda taxminan 300 ga yaqin faqih faoliyat olib borgan, 150 dan ortiq fiqhiy asarlar hamda 20 ta fatvo to‘plamlari yaratilgan bo‘lib, ularning 98 foizi hanafiy mazhabiga tegishli bo‘lgan.

Bu davrda hanafiy fiqhiga yangi ilmiy ma’lumotlarni kiritish uch asosiy yo‘l orqali amalga oshirilgan: Birinchidan, Muhammad ibn Hasan Shayboniy asarlariga “Zahir ar-rivoya” darajasida sharhlar yozilgan. Ikkinchidan, mustaqil fiqhiy kitoblar yaratilgan. Uchinchidan, avvalgi va zamondosh faqihlarning fatvolari to‘plamlar shaklida jamlangan.

Marg‘inoniyning “Kitob al-Hidoya fi sharh al-Bidoya” asari ushbu sohadagi asarlarni umumlashtirgan darslik hisoblanadi. “Al-Hidoya” Burhoniddin Marg‘inoniy tomonidan yozilgan qimmatli huquqiy asar bo‘lib, u o‘zining ixchamligi, mukammalligi hamda hanafiy mazhabini boshqa sunniy mazhablar bilan solishtirib tahlil qilgani sababli katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Marg‘inoniy hanafiy mazhabi doirasida ko‘plab huquqiy masalalarga yechim topishga muvaffaq bo‘lgan. U ilmiy faoliyatida qiyos, ayniqsa istihson usulidan

[78] Mo‘minov A. “Movarounnahr musulmonlari: hanafiylar” // Sharqshunoslik, №9 / 1999. – B. 25.

keng foydalangan. Shu sababli ayrim olimlar uni “mazhab doirasidagi mujtahid” deb ataganlar.

Marg‘inoniy fikricha, bilim uch manbadan kelib chiqadi. Birinchisi – nass, ya’ni Qur’on oyatlari va Payg‘ambar hadislaridir. Ikkinchisi – aql va tafakkur. Uchinchisi – hissiy idrok orqali shakllangan ma’lumotlar bo‘lib, ular dalilsiz ham qabul qilinishi mumkin.

“Hidoya” asarida muallif fiqhiy masalalarni solishtirma usulda tahlil qiladi. U hukm chiqarishda avvalo Qur’on, so‘ng sunnat, keyin ijmo va qiyosga tayanadi. Agar qiyos yordam bermasa, istihson yoki urfga murojaat qiladi. Bu yondashuv huquqiy muammolarni hal qilishda keng imkoniyat yaratadi. Marg‘inoniy faqat ibodat masalalarini emas, balki insonlarning kundalik hayoti bilan bog‘liq huquqiy masalalarni ham tahlil qilgan. U mantiqiy tahlil, deduksiya va ilmiy tahlil usullaridan keng foydalangan. Har bir masalani turli mazhablar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, yakunda eng maqbul qarorni tanlagan. Shu sababli “Hidoya” asarini islom huquqining falsafiy tahlili sifatida baholash mumkin.

Manbalarda olimning uchta asari haqida ma’lumot beriladi: “Kitob an-Nisob”, “Hizanat al-Vaqeot” va “Khulosat al-Fatova”. Ayrim manbalarda “Hizanat al-Fatova” asari ham unga nisbat berilgan. Iftixoruddin Tohir Buxoriyning “Khulosat al-Fatova” asari fiqh tarixida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar uzoq vaqt davomida faqihlar, qozilar va muftiylar faoliyatida qo‘llanilgan. Ushbu asarda turli hududlar – Iroq, Balx, Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon va boshqa shaharlardagi olimlarning fatvolari jamlangan.

Bugungi kunda ham ushbu asarning qadimiy qo‘lyozma nusxalari turli kutubxonalarda saqlanmoqda. Movarounnahr fiqh maktabining yana yirik vakillari qatoriga Alouddin Samarqandiy va Alouddin Kosoniy kiradi. Samarqandiyning “Tuhfat ul-Fuqaho” asari hanafiy fiqhida muhim o‘rin tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hanafiy mazhabi Movarounnahr hududida keng tarqalgan bo‘lib, bu hududda yetishib chiqqan olimlar fiqh ilmiga katta hissa qo‘shganlar. Ular Abu Hanifa va uning shogirdlari asarlariga tayanib muhim huquqiy asarlar yaratganlar. Bugungi kunda jamiyat rivojida, ayniqsa ma’naviyatni mustahkamlashda, islom huquqi normalarini ilmiy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa oila huquqi, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar masalalarini ilmiy o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Shu sababli klassik fiqh asarlarini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, XII asr Movarounnahr olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros hanafiy fiqh rivojida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarlar keyingi asrlarda yaratilgan fiqhiy asarlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan va uzoq vaqt davomida amaliy huquqiy faoliyatda qo‘llanilgan.

Fiqh ilmi Islom sivilizatsiyasining eng muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U faqat diniy ibodat qoidalarini emas, balki inson hayotining ijtimoiy,

iqtisodiy, oilaviy va huquqiy munosabatlarini ham tartibga soladi. Shu sababli fiqh islom jamiyatining huquqiy asosini tashkil etgan ilmiy tizim sifatida shakllangan.[79]

Islom tarixida fiqh ilmi faqat Arab hududlarida emas, balki boshqa mintaqalarda ham rivojlangan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo – Movarounnahr hududi – fiqh va boshqa diniy ilmlarning yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Bu hududda yetishib chiqqan olimlar islom huquqshunosligining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.[80]

Shunday buyuk allomalardan biri Burhoniddin Marg‘inoniy hisoblanadi. U hanafiy fiqh maktabining eng yirik nazariyotchilaridan biri sifatida tanilgan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa “Hidoya” asari, asrlar davomida musulmon dunyosida asosiy huquqiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.[81]

Marg‘inoniy yashagan davr – XII asr – islom ilmlari rivojining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan. Bu davrda ilmiy markazlar faol rivojlangan, madrasalar keng tarqalgan va ilmiy an’analar mustahkam shakllangan edi. Shu sababli Marg‘inoniy ilmiy merosini o‘rganish nafaqat bitta olim faoliyatini, balki butun bir ilmiy davrni tushunishga yordam beradi.[82]

Burhoniddin Marg‘inoniy Movarounnahr hududida, Farg‘ona vodiysi yaqinida tug‘ilgan. Bu hudud o‘rta asrlarda yirik ilmiy markazlardan biri bo‘lgan. Bu yerda diniy ilmlar, ayniqsa fiqh, hadis va tafsir keng rivojlangan edi.[83]

O‘sha davrda madrasa tizimi ilmiy ta’limning asosiy shakli hisoblangan. Talabalar ustozlar qo‘lida ilm o‘rgangan, ilmiy munozaralarda qatnashgan va fiqhiy masalalarni chuqur tahlil qilishga o‘rgatilgan. Bu tizim ilmiy merosning uzluksiz davom etishini ta’minlagan.[84]

Movarounnahrda fiqh ilmi juda yuqori darajada rivojlangan edi. Hanafiy mazhabi hududda asosiy huquqiy maktab sifatida shakllangan. Olimlar fiqh masalalarini nafaqat saqlab qolish, balki rivojlantirish bilan ham shug‘ullangan.[85]

Ilmiy an’analarda ustoz-shogird tizimi muhim o‘rin egallagan. Har bir olim o‘zidan oldingi olimlar qarashlarini o‘rganib, ularni rivojlantirishga harakat qilgan. Marg‘inoniy ham ana shu ilmiy muhitda shakllangan.

Marg‘inoniyning eng katta xizmatlaridan biri hanafiy fiqhini tizimlashtirish bo‘lgan. Undan oldingi davrlarda fiqhiy qarashlar ko‘plab alohida manbalarda tarqalgan edi. Marg‘inoniy esa ularni yagona tizimga keltirdi.

U fiqhiy masalalarni dalillar asosida izohlashga katta e’tibor bergan. U Qur’on, hadis, ijmo‘ va qiyos kabi manbalardan foydalanib, hukmlarni asoslab bergan. Bu

[79] Wael B. Hallaq, An Introduction to Islamic Law. Cambridge University Press. 2009. P. 209.
[80] Ira M. Lapidus, A History of Islamic Societies. Cambridge University Press. 2014. P. 1020.
[81] P. Bearman, Th. Bianquis, C.E. Bosworth, E. van Donzel, W.P. Heinrichs (eds.), Encyclopaedia of Islam (Second Edition). Brill Academic Publishers. 1960–2005. P. 800–1000 (each volume).
[82] George Makdisi, The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West. Edinburgh University Press. 1981. P. 384.
[83] Richard N. Frye, The Golden Age of Persia: The Arabs in the East. Weidenfeld and Nicolson. 1975. P. 272.
[84] Jonathan P. Berkey, The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo: A Social History of Islamic Education. Princeton University Press. 1992. P. 280.
[85] Noel J. Coulson, A History of Islamic Law. Edinburgh University Press. 1964. P. 264.

ilmiy yondashuv fiqhni mustahkam ilmiy tizimga aylantirgan. Marg‘inoniy nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirgan. U fiqhni faqat nazariy fan sifatida emas, balki jamiyat hayotini tartibga soluvchi tizim sifatida ko‘rsatgan. Bu yondashuv fiqhning amaliy ahamiyatini oshirgan.

Uning metodologiyasi solishtirma tahlilga asoslangan. U turli olimlar fikrlarini keltirib, eng asosli qarorni tanlagan. Bu uslub fiqhiy tafakkurning rivojiga yordam bergan. Marg‘inoniyning qarashlari keyingi fiqh olimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘plab sharhlar, izohlar va ilmiy ishlar uning asarlari asosida yozilgan.

“Hidoya” hanafiy fiqhining eng mukammal asarlaridan biri hisoblanadi. Asarning asosiy maqsadi fiqh masalalarini tartibli va tushunarli shaklda bayon qilish bo‘lgan.

Asar quyidagi asosiy bo‘limlarni qamrab oladi: ibodat huquqi; oila huquqi; savdo va iqtisodiy munosabatlar; jinoyat huquqi. Asarda ayniqsa iqtisodiy munosabatlar, mulkiy huquqlar va jamiyat hayotiga oid masalalar chuqur yoritilgan.[86] “Hidoya” boshqa fiqh asarlaridan aniq tizimlashtirilgan tuzilishi va sodda tushuntirish uslubi bilan farq qiladi. Unda murakkab fiqhiy masalalar mantiqiy izchillik bilan bayon qilingan.

Tarixiy jihatdan “Hidoya” madrasa ta’limining asosiy darsliklaridan biri bo‘lgan. Talabalar yuqori bosqichda aynan shu asarni o‘rganishgan. Asar hanafiy fiqhining eng muhim manbalaridan biri sifatida tan olingan. U turli hududlarda – Yaqin Sharq, Hindiston, Usmonli davlati hududlarida keng tarqalgan.

Asarning uzoq vaqt mashhur bo‘lib qolishining sababi – uning ilmiy aniqligi, tizimliligi va amaliy hayotga mosligidir. Bugungi kunda ham “Hidoya” fiqh tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida ishlatiladi. Bugungi kunda “Hidoya” islom huquqi tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ko‘plab universitetlarda u ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi. Zamonaviy fiqh olimlari Marg‘inoniyni hanafiy fiqhni mukammallashtirgan buyuk olim sifatida baholaydi.

Burhoniddin Marg‘inoniy fiqh tarixida alohida o‘rin egallaydi. U fiqhni tizimlashtirish, ilmiy metodologiyani rivojlantirish va fiqhni amaliy hayot bilan bog‘lash orqali katta ilmiy meros qoldirgan. “Hidoya” esa islom huquqi tarixidagi eng muhim asarlardan biri bo‘lib, o‘z ilmiy ahamiyatini bugungi kungacha saqlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, XII asr Movarounnahr hududi hanafiy fiqh ilmining rivojida alohida tarixiy bosqich bo‘lib, bu davrda siyosiy barqarorlik va markaziy shaharlarda ilmiy muhitning kuchayishi fiqhiy tafakkur taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Fiqh adabiyotlari sharhlar, mustaqil asarlar va fatvo to‘plamlari ko‘rinishida boyib borgan hamda hanafiy mazhabining hududiy va ilmiy mavqei mustahkamlangan. Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari esa hanafiy huquqiy merosni tizimli shaklga keltirgan, solishtirma yondashuvni keng qo‘llagan va amaliy huquqiy

[86] Mohammad Hashim Kamali, Principles of Islamic Jurisprudence. Islamic Texts Society. 2003. P. 600.

masalalarni mantiqiy tahlil asosida bayon etgan fundamental manba sifatida ajralib turadi. Shu bois “Hidoya” nafaqat tarixiy madrasa ta’limi uchun, balki zamonaviy islom huquqi tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy manba bo‘lib qolmoqda.

**Doston MUSTAFAYEV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi, PhD*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “TAJNIS” ASARI VA HANAFIY FIQH METODOLOGIYASI

Ali ibn Abu Bakr Farg‘oniy Roshidoniy, Marg‘inoniy 1123-yil tug‘ilib, 1197-yilda Samarqandda vafot etgan. Burhoniddin Marg‘inoniy dastlabki ta’limni Rishton va Marg‘ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. “Kitobul mashoyix” asarida o‘zi ta’lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab o‘tgan. Burhoniddin Marg‘inoniy keyinchalik fiqhga qiziqishi uyg‘onib, hayotining asosiy qismini shu ilmga bag‘ishladi. Marg‘inoniy fiqh ilmi bo‘yicha “Bidoyatul mubtadiy”, “Kifoyatul muntahiy”, “Nashrul mazhab”, “Kitobul mazid”, “Manosikul haj”, “Mazid fi furu’ al-hanafiy”, “Kitobut tajnis val mazid” kabi kitoblar ta’lif etgan[87].

Burhoniddin Marg‘inoniy hanafiy mazhabining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi islom huquqi tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning eng mashhur asari “Al-Hidoya” bo‘lsa-da, “Tajnis va al-mazid” asari ham hanafiy fiqhini chuqur anglashda muhim manbalardan hisoblanadi. “Tajnis” asari mazmunan fiqhiy masalalarni tizimlashtirish, ularni muayyan mezonlar asosida turlarga ajratish va o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga qaratilgan bo‘lib, u Marg‘inoniyning faqat faqih emas, balki mukammal usulshunos ekanini ham namoyon qiladi. Asarning nomi ham uning mohiyatini ifodalaydi: “tajnis” so‘zi arab tilida turlarga bo‘lish, tasnif qilish ma’nosini anglatadi va muallif aynan shu usul orqali fiqhiy masalalarni tartibga soladi.

Asarda masalalar oddiy rivoyat sifatida keltirilmay, balki mantiqiy bog‘liqlik asosida tizimlanadi, har bir hukmning qaysi jihati asosiy, qaysi tomoni ikkinchi darajali ekani aniq ko‘rsatiladi. Marg‘inoniy qiyos, istihson, urf kabi hanafiy mazhabga xos manbalardan foydalangan holda masalalarni asoslaydi va ularni o‘zaro taqqoslaydi. Bu esa asarni shunchaki qoidalar jamlanmasi emas, balki fiqhiy fikrlashni shakllantiruvchi ilmiy qo‘llanma darajasiga ko‘taradi. “Tajnis”da ibodatlarga oid hukmlar, muomalot,

[87] Burhoniddin Marg‘inoniy. Al-Hidoya sharh bidoyatil mubtadi. Ibodatlar qismi. Birinchi jild. / Tarjima va mualliflari: A.Qambarov, A.Ikromjonov va I.Bekmirzayev. – T.: Hilol-nashr nashriyot-matbaasi, 2020. – B. 3-4.

nikoh-taloq, qazo va shahodatga doir qoidalar muhokama qilinib, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ilmiy uslubda bayon qilinadi[88].

Asarning ilmiy qiymati, avvalo, uning qiyosiy tahlil uslubida namoyon bo‘ladi. Muallif har bir masalani o‘xshash holatlar bilan taqqoslab, faqat natijani emas, balki unga olib boruvchi mantiqiy yo‘lni ham ko‘rsatadi. Shu orqali talabani yuzaki emas, balki chuqur fiqhiy fikrlashga o‘rgatadi. Shuningdek, asarda hanafiy ulamolar o‘rtasidagi ayrim ixtiloflar ham ilmiy tartibda bayon qilingan bo‘lib, muallif qaysi fikrni nega ustun ko‘rishini dalillar asosida tushuntiradi. Bu hol “Tajnis”ni nafaqat fiqhiy hukmlar jamlanmasi, balki fiqhiy bahs madaniyatini aks ettiruvchi asarga aylantiradi.

“Tajnis” asarida usul va furu’ o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yaqqol ko‘rinadi, ya’ni umumiy qoidalardan qanday qilib xususiy hukmlar kelib chiqishi amaliy misollar orqali ochib beriladi. Shu jihatdan u fiqh usuliga oid manba sifatida ham qimmatlidir. Asar Marg‘inoniyning mashhur “Hidoya” asari bilan qiyoslanganda, unga nisbatan murakkabroq, ilmiy bahslarga boyroq va mutaxassislarga mo‘ljallangan ekani bilan ajralib turadi. “Hidoya” ko‘proq fiqhiy hukmlarni o‘rganish uchun xizmat qilsa, “Tajnis” fiqhiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan asar, deb aytish mumkin.

Tarixiy jihatdan qaralganda, “Tajnis” asari Movarounnahr fiqh maktabining yuksak ilmiy salohiyatini namoyon etadi. Unda mahalliy fiqhiy an’analar, hanafiy mazhabning rivojlangan shakli va Samarqand hamda Buxoroning islom huquqi ilmi markazlari sifatidagi o‘rni yaqqol ko‘rinadi. Asar asrlar davomida qo‘lyozma holda madrasalarda o‘qitilib, ko‘plab faqihlar shakllanishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Tajnis” asari hanafiy fiqhida faqat hukmlar yig‘indisi emas, balki fikrlash madaniyatini o‘rgatuvchi, fiqhiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim ilmiy meros hisoblanadi. U Marg‘inoniyning faqat muallif emas, balki mukammal usulshunos ekanini, shuningdek, Movarounnahr islom huquqi maktabining yuksak darajasini yaqqol namoyon etadi. Bugungi kunda “Tajnis” asarini tadqiq qilish islom huquqi tarixi, hanafiy mazhabi metodologiyasi va klassik fiqhiy tafakkurni anglash uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

[88] Ali ibn Abu Bakr Marg‘inoniy. Kitab at-Tajnis va al-mazid. Karachi: Idora al-Qur’on va al-ulum al-islamiyya. 2005. – B. 5.

**Doniyor MURATOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

# “AL-HIDOYA” ASARIGA YOZILGAN “TAXRIJ” ASARLAR BORASIDA

Muhaddislar tomonidan fiqh, tafsir, tasavvuf, aqida, kalom, odob-axloq kabi hamda boshqa turli sohalarga oid kitoblarda kelgan hadislarni o‘rganish ishlari olib borilgan. Zero, hijriy V (milodiy XI) asrdan keyin yozilgan asarlarda hadislarni keltirishda ularning isnodini to‘liq yozish odati kamayib bordi. Ayrim olimlar hadislarni avvalgi ma’lum va ishonchli manbalarga havola qilish bilan cheklanishni odat qildilar. Yana bir guruh olimlar esa, ayniqsa faqihlar, muhaddislardan boshqa o‘zlarining isnod yo‘llariga ega bo‘lganlari sababli boshqa kitoblarga tayanmagan holda hadislarni keltirib o‘tdilar. Ana shu holat natijasida taxrij asarlari paydo bo‘la boshladi.

Avvalo, “taxrij” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Taxrij so‘zi arab tilida “chiqarish”, “chiqarib yuborish”, “ro‘yxatdan o‘chirish”, “tayyorlash”, “ta’lim berish”, “tarbiya berish”, “tushuntirish”, “sharhlash”, shuningdek, “tanlangan hadislar jamlangan to‘plam” kabi ma’nolarni anglatadi[89].

Hadis ilmi istilohida esa taxrij – “hadisning asl manbalardagi o‘rniga dalolat qilish, uning sanadini keltirish va zarur o‘rinlarda hadisning ishonchlilik darajasini bayon etish”[90] demakdir. Boshqacha aytganda, muayyan asarlarda kelgan hadislarni aslida kim rivoyat qilganini ko‘rsatib berish yoki hadisning asl manbasini aniqlash taxrij hisoblanadi.

Keyingi davrlarda olimlar ayrim kitoblardan hadislarni olib, “Imom Buxoriy rivoyat qilgan” kabi iboralar bilan cheklanib, hadisning to‘liq isnodini keltirmay qo‘yganlar. Shuningdek, tafsir, fiqh, aqida va shu kabi sohalarga oid asarlarda hadisning faqat matnini keltirish odat tusiga kirgan.

Muhaddislar esa bunday asarlarda kelgan hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash maqsadida alohida taxrij asarlarini yozib qoldirganlar. Masalan, Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asarida keltirilgan hadislarning isnodlari zikr qilinmagan. Ushbu kitobdagi hadislarni aslida kimlar rivoyat qilganini va ularning ishonchlilik darajasini isnodlar orqali ochib berish ishlari taxrij deb ataladi.

“Taxrij ilmi” hadis ilmida rivoyat sanadi va matni bilan bog‘liq eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada hadisning asl manbalaridagi o‘rni, roviylari, rivoyat yo‘llari hamda ularning ishonchlilik darajasi kabi masalalar atroflicha tadqiq qilinadi. Natijada o‘quvchi hadisning asl manbasiga eng yaqin va qulay yo‘l orqali yetadi, shuningdek, uning sahih yoki zaif ekani, isnodga ega yoki ega emasligi haqida ham aniq tasavvur hosil qiladi.

---

[89] Al-Qomus // Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
[90] Mahmud Tahhon. Usulu-t-taxrij. – Bayrut: Doru-l-Qur’oni-l-karim, 1979. – B.12.

Muhaddislar tomonidan taxrijga oid ko‘plab asarlar yaratilgan. Jumladan, Abu Bakr Muhammad ibn Muso Hozimiy (vaf. 584/1188-y.)ning “Taxrij ahadis al-muhazzab fi-l-fiqh ash-Shofeiy” asari, Hisomiddin Ali ibn Ahmad ibn Makkiy (vaf. 598/1202-y.)ning “Xulosat ad-dalail fi tanqih al-masoil” (ya’ni “Muxtasar al-Quduriy” sharhida kelgan hadislar taxriji), Ali ibn Ahmad ibn Yamaniy (vaf. 625/1228-y.)ning “al-Hoviy fi bayan osor at-Tahoviy” (“Sharh ma’oni al-osor” hadislari taxriji) shular jumlasidandir.

Shuningdek, Abdulloh ibn G‘assoniy Abu Muhammad (vaf. 682/1283-y.)ning “Taxrij al-ahadis az-zi’of min Sunan ad-Doriqutniy” asari, Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulhodiy Maqdisiy (vaf. 744/1344-y.)ning “Taxrij ahadis al-muxtasar al-kabir li-Ibn al-Hojib fi-l-usul” asari ham taxrij ilmida muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa, hanafiy mazhabida mashhur muhaddis Jamoliddin Abdulloh ibn Yusuf Zaylaiy (vaf. 762/1360-y.)ning “Taxrij ahadis al-Kashshof” asari mazkur sohada eng mashhur va nufuzli manbalardan biri hisoblanadi. Bu kabi asarlar hadislarning manbalarini aniqlash, rivoyat yo‘llarini ochib berish va ularning ilmiy qiymatini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Faqih olimlardan Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asariga bir qator olimlar tomonidan taxrij asarlari yozilgan. Bunga sabab, muallif mazkur asarni ta’lif etish jarayonida keltirilgan hadislarning isnodlarini zikr qilmagani, shuningdek, o‘zidan oldingi muayyan muhaddislar asarlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havola bermaganidir. Bu holat Marg‘inoniyning hadis ilmida mustaqil manba va rivoyat yo‘llariga ega bo‘lgan olim ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, u faqat faqih sifatidagina emas, balki muhaddis sifatida ham baholanadi. Hatto XX asrning yirik olimlaridan Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy (vaf. 1394/1974-y.) o‘zining “E’lo as-sunan” asarida Burhoniddin Marg‘inoniyni muhaddislar qatorida zikr qilib o‘tgan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asariga bag‘ishlab bir qator mashhur olimlar tomonidan alohida taxrij asarlari yozilgan. Jumladan, Ibn Turkmoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Ali ibn Usmon ibn Ibrohim Mordiniy Misriy (vaf. 750/1349-y.) “at-Tanbih ala taxrij ahodis al-Hidoya va-l-xulosa” asarini ta’lif etgan. Shuningdek, hanafiy mazhabining mashhur muhaddisi Jamoliddin Zaylaiy (vaf. 762/1360-y.) tomonidan “Nasb ar-roya li ahadis al-Hidoya” asari yozilgan bo‘lib, bir yarim ming atrofidagi hadisga qo‘shimcha qilib, unda jami 8160 ta hadisni taxrij qilingan.

Bundan tashqari, alloma Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy (vaf. 775/1374-y.) “al-Inoya bi ma’rifat ahodis al-Hidoya” asarini, muhaddis Abdulloh ibn Ali ibn Usmon Mordiniy (vaf. 769/1368-y.) “Taxrij ahadis al-Hidoya” nomli asarini, shuningdek, mashhur shofeiy mazhabi faqihi va muhaddisi Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1448-y.) “ad-Diroya fi taxrij ahadis al-Hidoya” nomli asarini yozib qoldirgan.

Yuqorida zikr etilgan taxrij asarlari orasida imom Jamoliddin Zaylaiyning “Nasb ar-roya li ahadis al-Hidoya” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar bo‘yicha O‘zbekistonda PhD D. Bobonazarov tomonidan ilmiy tadqiqot ishi amalga oshirilgan.

Shuningdek, ushbu asar ustida yana besh nafar olim tomonidan tadqiqotlar olib borilgani “Nasb ar-roya” asarining hadis va fiqh ilmlari tarixida nechog‘lik muhim manba ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Olimlar orasida Ibn Turkmoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan Ali ibn Usmon ibn Ibrohim Mordiniy Misriy (vaf. 750/1349-y.) “al-Hidoya” asariga bag‘ishlab yozgan “at-Tanbih ala taxrij ahodis al-Hidoya va-l-xulosa” nomli taxrij asarida o‘ziga xos uslublardan foydalangan. Jumladan, ayrim o‘rinlarda hadislarni ma’no jihatidan zikr qiladi, boshqa joylarda esa asl manbaga tayangan holda hadisning to‘liq matnini keltiradi. Shuningdek, ba’zan hadisning ma’lum bir qismini asl manbaga ishora qilish orqali bayon qiladi. Ayrim hollarda esa hadis matnining faqat dalolat qiladigan qismi bilan cheklanadi. Ba’zi o‘rinlarda hadis matnidagi ixtilofli jihatlarga ishora qilib o‘tadi yoki matnning ma’no jihatdan muhim bo‘lgan qisminigina keltiradi.

Ibn Turkmoniy asar davomida muxtasar va ixcham uslubga qat’iy rioya qilgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli u mazkur asarini “at-Tanbih” deb nomlagan, ya’ni muallif unda faqat ishora bilan cheklanib, hadis matnlarining ma’nolarini keng sharhlashga, ularning dalolatlari yoki o‘zaro farqlarini batafsil tahlil qilishga kirishmagan[91].

Ibn Turkmoniy hadislar haqidagi hukmni ba’zan ochiq-oydin matn orqali bayon qiladi. Bu hukm ayrim hollarda sanad roviylaridan birida zaiflik mavjud ekanini ko‘rsatish yoki uning zaifligi haqida keltirilgan fikrlar bilan cheklanish orqali ifoda etiladi. Bunday ishoralar, odatda, hadisning zaif ekanini yoki aksincha, uni sahih deb baholashni anglatadi.

Biroq, agar hadis “Sahihayn”da zikr qilingan bo‘lsa yoki sahihlik shartlariga qat’iy amal qilingan manbalarda, masalan, Ibn Xuzayma yoki Ibn Hibbon asarlarida kelgan bo‘lsa, muallif ko‘p hollarda ochiq hukm chiqarmasdan qoladi. Ayrim o‘rinlarda esa hadis haqidagi hukmni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qiladi yoki mazkur hadis xususida olimlarning fikrlarini keltirish orqali uning maqomini aniqlab beradi.

Imom hadislarni taxrij qilishda muayyan va barqaror usulga qat’iy amal qilgan. U hadisni zikr etib, odatda uning roviysini ham keltiradi. Ayrim hollarda sanadning faqat ba’zi qismlarini zikr qilib o‘tadi. Bu esa, aksariyat hollarda, mazkur hadisda zaiflik mavjud ekaniga ishora qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ba’zan u hadisni kim taxrij qilganini, ya’ni uni qaysi muallif rivoyat qilganini ochiq nomi bilan bayon qiladi. Ayrim o‘rinlarda esa bevosita nomni keltirmasdan, unga ishora qiluvchi qaytuvchi olmosh (zamir) bilan cheklanadi[92].

Shu bilan birga, ba’zi hollarda hadisni kim asl manbada keltirganini umuman zikr qilmasligi ham uchraydi. Yoki hadisni keltirib, uning bir nechta manbalardan rivoyat qilinganini ko‘rsatish bilan kifoyalanadi. Ana shu holatlarning barchasi imomning mazkur asarida qo‘llagan taxrij usullarini tashkil etadi.

---

[91] Ibn Turkmoniy. at-Tanbih ala taxrij ahodis al-Hidoya va-l-xulosa. – Ommon: Ulum islomiyya, 2013. – B. 56.

[92] Ibn Turkmoniy. at-Tanbih ala taxrij ahodis al-Hidoya va-l-xulosa. – Ommon: Ulum islomiyya, 2013. – B. 58.

Ibn Turkmoniy hadislarni taxrij qilishda, asosan, ularning manbalarini ko‘rsatish bilan cheklangani sababli, uning asarini muxtasar va xulosaviy xarakterga ega deb baholash mumkin. Chunki u hadislarning qaysi manbalarda kelganini aniq ko‘rsatish bilan kifoyalanadi. Ayrim hollarda hadisni “al-Hidoya” asarida kelgan o‘ziga xos lafzi bilan keltiradi yoki o‘zi ishora qilgan asarlardagi mazmunni qisqacha xulosa qilib bayon etadi.

Shuningdek, hadislarni taxrij qilishda roviyni, rivoyat yo‘lini yoki hadisni taxrij qilgan manbani zikr qilish usuli muallifda juda ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, ushbu asardagi uchinchi hadis: “Tahoratsiz namoz qabul qilinmaydi, Allohning nomi zikr etilmagan tahorat ham qabul qilinmaydi”, mazmunidagi hadisdir. Muallif ushbu hadisni Ibn Moja tomonidan Abu Said Xudriydan rivoyat qilingan hadisga tayangan holda keltiradi. Shuningdek, uni Termiziy ham Saiddan rivoyat qilingan hadis orqali zikr qilganini ko‘rsatadi.

Mazkur usul – ya’ni hadisni bir necha manbalarga nisbat berish orqali taxrij qilish – muallifda eng ko‘p qo‘llaniladigan yo‘l hisoblanadi va boshqa usullarga nisbatan ancha keng tarqalgan[93].

“Al-Hidoya” asariga bag‘ishlab yozilgan taxrij asarlaridan yana biri alloma Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy (vaf. 775/1374-y.) qalamiga mansub bo‘lib, u “al-Inoya bi ma’rifat ahodis al-Hidoya” deb nomlanadi. Olim mazkur asarida o‘ziga xos, biroq tizimli taxrij uslublarini qo‘llagan.

Qurashiy hadislarni joylashtirishda “al-Hidoya” asari muallifi Burhoniddin Marg‘inoniy qo‘llagan tartibga qat’iy amal qiladi. Bu esa o‘quvchi va tadqiqotchiga kerakli hadisni oson topish imkonini beradi. Ya’ni hadislar fiqhiy mavzular asosida – namoz, zakot, haj va boshqa kitoblar doirasida – izchil ravishda taqdim etiladi.

Qurashiy hadis yoki asar matnini ayrim hollarda “al-Hidoya” muallifi keltirgan shaklda to‘liq naql qiladi, ayrim o‘rinlarda esa unga ishora qilish bilan cheklanadi. Shundan so‘ng u hadisning holatini bayon qiladi, ya’ni uning sahih, zaif yoki boshqa hukmlarga ega ekanini ochiqlaydi. Uning taxrijdagi metodologiyasining asosiy jihati shundaki, “al-Hidoya” muallifi tomonidan ochiq-oydin zikr qilingan yoki ishora tariqasida keltirilgan har bir hadis albatta taxrij qilinadi.

Misol tariqasida, “al-Hidoya” muallifi quyidagicha bayon qiladi: “(Mas’h) butun boshni qamrab oladi, bu esa sunnatdir”. Qurashiy ushbu o‘rinda boshga mas’h tortish masalasida “al-Hidoya” muallifining mazkur fikrini keltirib, ortidan: “Bu hadis Sahihaynda Amr ibn Yahyo Moziniy rivoyati orqali sobit bo‘lgan”, deb ta’kidlaydi va hadis matnini to‘liq keltiradi[94].

Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiyning taxrijdagi uslubiga nazar tashlanganda, u bu borada yagona va qat’iy bir metodga to‘liq amal qilmagani ko‘rinadi. Aksar hollarda u hadisning sanadi va matnini asl manbalarda keltirilgan shaklda zikr qiladi.

[93] Ibn Turkmoniy. at-Tanbih ala taxrij ahodis al-Hidoya va-l-xulosa. – Ommon: Ulum islomiyya, 2013. – B. 59.
[94] Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Al-Inoya bi ma’rifat ahodis al-Hidoya. – Qatar: ad-Dor ash-Shomiyya, 2023. – B. 97.

Ayrim o‘rinlarda esa sanadni qisqartirib, yoki butunlay qoldirib, faqat sahobiy yoxud tobeiy nomi bilan cheklanadi. Bunday uslub, ko‘pincha “Sahihayn”dan tashqari manbalardan keltirilgan hadislarda uchraydi.

Qurashiyning “al-Hidoya” asarida kelgan hadislarni taxrij qilish uslublari masalasida olim Alo Abd Solih Hayyoniy “al-Inoya” asarining tahqiqida alohida to‘xtalib, Qurashiy o‘z taxrij ishlarida qo‘llagan o‘n beshta turli uslubni batafsil bayon qilib o‘tgan.

Xulosa qilib aytganda, imom Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asaridagi nafaqat fiqhiy masalalar, balki unda keltirilgan hadislar ham ulamolar e’tiboridan chetda qolmagan. Taxrij asarlari mualliflari “al-Hidoya”da zikr etilgan hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash orqali faqih olimlarning hadis ilmida tutgan o‘rinlarini ochib berganlar. Shu bilan birga, ular faqihlarning hadis ilmida ham yuksak ilmiy salohiyatga ega ekanini ilmiy asoslar bilan isbotlab berganlar.

Umuman olganda, hanafiy mazhabi olimlari taxrij ilmiga alohida e’tibor qaratib, ushbu sohada ko‘plab tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Ular faqat mazhab doirasidagi fiqhiy manbalar bilan cheklanib qolmasdan, balki aqida, tasavvuf va siyrat yo‘nalishlariga oid manbalarda kelgan hadislarni ham taxrij qilish orqali hadis ilmi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

**Adhambek YANGIBOYEV**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*o‘qituvchi-stajyori*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “HIDOYA” ASARIGA YOZILGAN TAXRIJ KITOBLARI

Islom huquqi tarixida hanafiy mazhabi doirasida yozilgan eng muhim asarlardan biri Burhoniddin Marg‘inoniy (vaf. 593/1197)ning “Hidoya” nomli mashhur fiqhiy asaridir. “Hidoya” asari o‘rta asrlardan boshlab bugungi kunga qadar ta‘lim muassasalari va fatvo masalalarida hanafiy fiqhining asosiy manbalaridan biri sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu asarning ahamiyati shunchalik yuksakki, unga ko‘plab sharhlar, hoshiyalar va undagi hadislarga bag‘ishlangan alohida taxrij kitoblari bitilgan.

“Hidoya” asarining eng muhim jihatlaridan biri – undagi fiqhiy masalalar Qur‘on oyatlari, hadislar va sahobalardan kelgan rivoyatlar asosida quvvatlangan. Biroq Marg‘inoniy hadislarni, odatda, qisqa va ishoraviy tarzda keltirgan. Shu sababli keyingi davr muhaddis va faqih olimlar “Hidoya”da zikr etilgan hadislarning manbalarini aniqlash, ularning sanad va matn jihatidan holatini ochib berish maqsadida alohida taxrij asarlar yozganlar.

Taxrij – hadis ilmining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u fiqhiy yoki boshqa asarlarda keltirilgan hadislarning asl manbalarini aniqlash, qaysi hadis kitoblarida rivoyat qilinganini ko‘rsatish, sanadlarini bayon qilish va hadisga baho berish bilan shug‘ullanadi. Fiqhiy matnlarda hadislar ko‘pincha qisqartirilgan holda yoki faqat ma‘nosi bilan keltirilgani sababli, taxrij ilmi ularning ilmiy ishonchliligini tekshirishda muhim vosita hisoblanadi. “Hidoya” kabi mo‘tabar fiqhiy asar uchun taxrij yozilishi, bir tomondan, hanafiy mazhabi dalillarining hadis ilmi nuqtayi nazaridan mustahkamligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, fiqh va hadis ilmlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga bir qancha taxrij kitoblari yozilgan bo‘lib, ulardan biri Alovuddin ibn Turkmoniy (vaf. 750/1349) qalamiga mansub “at-Tanbeh ala ahodisi-l-Hidoya” nomli asar hisoblanadi. Mazkur kitob nafaqat hanafiy fiqhining asosiy manbalaridan biri, balki hadis ilmi sohasida ham muhim ahamiyatga ega asardir. Muallif asarda Imom Marg‘inoniyning “Hidoya” kitobida keltirilgan hadislarni qayta ko‘rib chiqib, ularning asl manbalarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratgan. Ibn Turkmoniyning metodologiyasi qisqa, lo‘nda va aniqligi bilan alohida ajralib turadi. U hadislarning mazmunini keng sharhlashdan ko‘ra, ularni qaysi manbalarda kelganini ko‘rsatish, sanadlariga ishora qilish va zarur hollarda qisqa tanqidiy mulohazalar bildirish bilan kifoyalangan. Bu holat asarni ixcham, o‘qishga qulay va ilmiy jihatdan samarali bo‘lishiga xizmat qilgan.

Ibn Turkmoniy hadislarning fiqhiy ahamiyatini ochib berishda hanafiy mazhabiga xos yondashuvni namoyon etgan. U fiqh va hadisni bir-biridan ajratmagan holda, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. “At-Tanbeh ala ahodisi-l-Hidoya” asari hanafiy mazhabida hadis ilmining o‘rni va ahamiyatini mustahkamlovchi muhim manbalardan biri deyish mumkin.

“Hidoya” asariga yozilgan yana bir taxrij asari Abdulqodir Qurashiy (vaf. 775/1373)ning “al-Inoya fi taxriji ahadisi-l-Hidoya” kitobidir. Mazkur asar hanafiy fiqhida muhim o‘rin tutgan “Hidoya” kitobida keltirilgan hadislarni taxrij qilish borasida olib borilgan eng mukammal va tizimli ishlardan biri hisoblanadi. Muallif bu orqali fiqhiy masalalarda dalil sifatida keltirilgan hadislarning manbaviy asoslarini mustahkamlash, ularning ilmiy darajasini aniqlash hamda hanafiy mazhabining sahih hadislarga tayanganligini ochib berishni maqsad qilgan.

Abdulqodir Qurashiyning uslubi aniqlik va tizimlilik jihatidan boshqalaridan ajralib turadi. U taxrij qilish asnosida har bir hadisning asosiy manbasi, tegishli bob nomi, jildi va sahifasini aniq ko‘rsatib o‘tgan. Bundan tashqari, hadis lafzlarining turli manbalardagi farqli shakllarini qiyosiy tarzda bayon qilib, ilmiy tekshiruv asosida baholagan. Ilmiy mavqei va ta‘siri nuqtayi nazaridan, mazkur asar undan keyin “Hidoya” hadislarini taxrij qilgan barcha olimlar uchun asosiy yo‘nalish beruvchi manba vazifasini bajargan. Xususan, u hanafiy fiqhi va hadis ilmi o‘rtasidagi uzviy

bog‘liqlikni mustahkamlab, hanafiy mazhabining hadisga tayangan ilmiy an‘anasini yaqqol namoyon etgan.

Asarning ilmiy ustunligi shundaki, muallif hadislar va sahobalar hamda tobeinlardan rivoyat qilingan rivoyatlarni sanad jihatidan tahlil qilib, ularga ilmiy izohlar bergan. Har bir rivoyatning qabul qilinish darajasi, sanad ishonchliligi va fiqhiy dalil sifatidagi ahamiyati asoslab ko‘rsatilgan. Bu esa asarni nafaqat tahrij kitobi, balki hadis ilmi nuqtayi nazaridan chuqur tadqiqot namunasi sifatida e‘tirof etishga asos bo‘ladi. Shu bois, uni hanafiy fiqhi va hadisga doir ilmiy merosni qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida qilingan muhim ilmiy ishlardan deyish mumkin.

“Hidoya” hadislariga oid eng keng qamrovli va mashhur taxrij asari, shubhazis, Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf Zaylaiy (vaf. 762/1360) tomonidan yozilgan “Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya” kitobidir. Ushbu asar taxrij ilmining mumtoz namunasi sifatida tan olingan.

Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya” asari hanafiy fiqhi va hadis ilmi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlagan, ilmiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega bo‘lgan manbalardan biri hisoblanadi. Muallif asarni yozishda Burhoniddin Marg‘inoniyining “Hidoya” asariga to‘liq tayangan holda, mavzularni kitob, bob va fasllar ketma-ketligida joylashtirgan. Bu esa fiqhiy masalalar bilan bog‘liq hadislarni izlash va ulardan foydalanishni ancha yengillashtirgan.

Zaylaiyning metodologiyasida e‘tiborga molik jihatlardan biri shundaki, u Marg‘inoniy tomonidan alohida boblarga ajratilmagan mavzular uchun mustaqil bo‘limlar tashkil etgan, hamda “Hidoya”da zikr qilinmagan, biroq bob mazmuniga bog‘liq bo‘lgan hadislarni ham ilmiy tahlil doirasiga kiritgan. Bu holat uning asarni faqat sharhlash bilan cheklanib qolmaganini, balki uni ilmiy jihatdan to‘ldirish va boyitishga intilganini ko‘rsatadi.

Hadislarni keltirish tartibida Zaylaiy o‘zgacha uslubni qo‘llagan holda eng sahih va ishonchli rivoyatlarni birinchi o‘rinda keltirgan. Bu uslub hadislarni fiqhiy dalil sifatida qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif har bir hadisga nisbatan uning eng sahih rivoyatini asos sifatida qabul qilib, keyingi rivoyatlarni unga qiyoslash orqali baholagan.

Asarning yana bir muhim jihati shundaki, Zaylaiy hanafiy mazhab dalillarini asosiy o‘ringa qo‘ygan bo‘lsa-da, boshqa mazhablarning dalillarini ham keng qamrab olgan va ularga xolisona ilmiy munosabat bildirgan. Bu esa uning mazhabiy mutaassiblikdan xoli, qiyosiy va keng qamrovli tadqiqot olib borganini tasdiqlaydi. Manba tanlashda ham Zaylaiyning ilmiy salohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. U fiqh, hadis, tafsir, tarix va lug‘at sohalariga oid 240 dan ortiq ishonchli manbalardan foydalangan bo‘lib, ularning katta qismi hanafiy mazhabidan tashqari boshqa mazhab ulamolari asarlaridir. Bu holat asarning umumislomiy ilm an‘analari doirasida yaratilganini va uning ilmiy qiymatini yanada oshirganini ko‘rsatadi.

“Nasbu-r-roya” asari hadis taxrij qilish sohasida o‘zidan keyin yaratilgan ko‘plab asarlar uchun asosiy manba va yo‘naltiruvchi qo‘llanma vazifasini bajargan. U bugungi kunda ham hanafiy fiqhi dalillarini hadis ilmi mezonlari asosida mustahkamlashga xizmat qiluvchi hamda islom huquqi va hadis ilmi sohasida muhim ilmiy asar hisoblanadi.

“Hidoya” asariga doir taxrij kitoblaridan yana biri Hofiz Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1449) tomonidan yozilgan “ad-Diraya fi taxrij ahadisi-l-Hidoya” asari hisoblanadi. Muallif asarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Hidoya”dagi hadislarni taxrij qilmagan, balki Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya” asarini ixchamlashtirgan va tahrir qilgan. Shu bois, “ad-Diraya” hajman kichikroq bo‘lsa-da, mazmunan nihoyatda puxta va tanqidiy ruhda yozilgan.

“Ad-Diraya fi taxrij ahadisi-l-Hidoya” asarining uslubi hadis ilmining qat‘iy mezonlariga asoslangan. Ibn Hajar Asqaloniy har bir hadisning manbasini ko‘rsatib, sanad holatiga alohida e‘tibor qaratgan, roviylar haqidagi baholarni ixcham, ammo aniq tarzda bayon etgan. U hadislarni sahih, hasan yoki zaif ekanini qisqa iboralar bilan ko‘rsatib o‘tgan va ko‘pincha fiqhiy bahsga chuqur kirishmasdan, hadisning ilmiy qiymatini aniqlash bilan kifoyalangan.

“Ad-Diraya fi taxrij ahadisi-l-Hidoya” asarining muhim jihatlaridan biri shundaki, “Hidoya”dagi hadislarni xolislik bilan baholagan. U ayrim hadislarning zaif tomonlarini ochiq ko‘rsatib bergan, ayrim hollarda esa Zaylaiyning xulosalarini tasdiqlagan yoki to‘ldirgan. Natijada, mazkur asar “Nasbu-r-roya”ni to‘ldiruvchi va hadislarga berilgan baholarni yanada aniqlashtiruvchi manba sifatida qabul qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari asosida yozilgan taxrij kitoblari islom ilmiy merosining muhim qismi hisoblanadi. Ibn Turkmoniy, Abdulqodir Qurashiy, Jaloliddin Zaylaiy va Ibn Hajar Asqaloniy kabi allomalar tomonidan “Hidoya”ga bag‘ishlab yozilgan taxrij asarlari hanafiy fiqhining hadis dalillarini aniqlash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Shubhasiz, mazkur taxrij asarlarini chuqur o‘rganish fiqh va hadis ilmlari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ham katta ilmiy foyda keltiradi.

**Nigora YUSUPOVA,**
*yu.f.d., professor*

# BURHONIDDIN MARG‘INONIY HIDOYA ASARINING FIQH ILMI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

O‘zbekiston davlati va huquqining poydevori – milliy davlatchilik tayanchlari juda qadimiy va mustahkam bo‘lib, ko‘p yillik tarixga ega.

Ko‘hna tarixga ega mintaqamizning boy madaniyati asrlar davomida ilmu-fan darg‘alari bo‘lmish ajdodlarimiz ijodi bilan takomillashdi, boyidi va taraqqiyotning yuksak pog‘onalariga ko‘tarilib, nafaqat bizga, balki butun bashariyat uchun bebaho meros bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston faqihlari mujtahidlar davridan so‘ng nafaqat taxriyj va tarjiyh davrlarida, balki taqlid davrida ham islom huquqshunosligini takomillashtirish yo‘lida faxrlanishga arzigulik ilmiy muvaffaqiyatlarga erishib, kalom va huquq sohalarida yangi fan va maktablarga asos solish bilan birga, yangi huquqiy nazariyalar yaratganlar.

Ma’lumki XII asrda Markaziy Osiyo, jumladan, Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va takomili uchun ta’sirchan omillar yuzaga kela boshladi. Ushbu omillardan biri, A. Mo‘minov ta’kidlaganidek, bu davrda Qoraxoniylar davlati qaror topishi natijasida “Movarounnahrning Xuroson bilan aloqalari zaiflashib, oyoqqa turgan mahalliy maktablarning mustaqil rivojlanishiga asos yaratildi. Markaziy shaharlarda avtonom boshqaruvning kuchayishi ulamo guruhlari ta’sir doirasining kengayishiga olib keldi. Bu bilan fiqh normalarini hayotga tatbiq etishga real sharoit yaratildi. Buxoro va Samarqandni haqiqiy ilm markazlariga aylantirdilar. Bu shaharlarda, Nasaf, Marv, Farg‘ona faqihlari ham faoliyat ko‘rsatdilar”[95].

Turk tadqiqotchilari xulosalariga ko‘ra, mazkur davrda 300 ga yaqin faqih mavjud bo‘lib, 150 dan ko‘proq fiqhiy (huquqiy) asarlar, 20 ta fatovo (fatvolar majmualari) yozilib, ularning asosiy qismi 98% hanafiy mazhabiga tegishli bo‘lgan.

Bu davrda yaratilgan bebaho asarlarda yangi katta hajmdagi ma’lumotlarni hanafiy fiqhining an’anaviy qobig‘iga kiritish 3 yo‘l bilan amalga oshirildi:

1. Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning “Zohir-ar-rivoya” darajasidagi asarlarga sharhlar yozildi;

2. Fiqh fani doirasida yangi mustaqil kitoblar tuzildi;

3. Avvalgi davr va zamondosh faqihlarning fatvolari to‘plamlarga yig‘ildi.

Bu sohadagi ishlarni umumlashtiruvchi darslik bo‘lib Marg‘inoniyning “Kitob al-Hidoya fi sharh al-Bidoya “ asari paydo bo‘ldi[96].

Burhoniddin Marg‘inoniyning qimmatli huquqiy asari “Al-Hidoya” o‘z ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy uslubda

[95] Mo‘minov A. “Movarounnahr musulmonlari: hanafiylar” // Sharqshunoslik, №9 / 1999. – B. 42.
[96] Mo‘minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik. №9 /1999. – B. 42.

o‘rganib har tomonlama yoritganligi uchun o‘ziga xos katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Burhoniddin Marg‘inoniy hanafiy mazhabi[97]ning keng doirasida son-sanoqsiz huquqiy masalalarni hal qilish yo‘llarini topishga muvaffaq bo‘ldi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil sur’atda ijtihod qilish vakolatiga ega bo‘lmasa ham, o‘z ilmiy-huquqiy asarlarini yaratishda qiyosdan (qiyosi jaliydan), ayniqsa qiyosning ikkinchi turi bo‘lmish “qiyosi xafiy” yoki “istihson[98]”dan, keng ko‘lamda foydalandi. Shuning uchun ayrim olimlar Marg‘inoniyni “al-Mujtahid fil-mazhab”, ya’ni mazhab bo‘yicha Mujtahid deb bilganlar[99].

Marg‘inoniy fikricha, bilim – uch manbadan hosil bo‘ladi. Birinchisi, nass bo‘lib, u shar’iy hukm manbai bo‘lmish Qur’on oyatlari va Payg‘ambar (s.a.v.) hadisi shariflaridir. Ikkinchisi, aql va tafakkur, uchinchisi, his-tuyg‘u (sezgi) organlarida hosil bo‘ladigan ma’lumotlar badiiy, ya’ni hech qanday dalolatsiz qabul qilinadigan hisoblanadi.

Alloma “Hidoya”da fiqhiy masalalarni yoritishda qiyosiy uslubdan foydalanib, turli mazhablardagi nazariyalarni bir-biri bilan solishtiradi. Avval, Qur’on, so‘ngra Sunnaga asoslanadi, undan keyin ijmo’ va qiyosga o‘tadi. Qiyos muammoni hal etishda yordam bermasa, istehson (qiyosi hafiy)ga o‘tadi. Yechimi topilmagan holatda esa urfu odatga tayanib xulosa chiqaradi

Burhoniddin Marg‘inoniyning masalalarni yechishda aqliy manba sifatida qiyosga e’tibor qaratishi hamda istehson va urfga tayanishi huquqiy muammolarni hal etishda keng imkoniyat ochib beradi. U ibodatlardan tashqari insonlarning amaliy hayotiga tegishli bo‘lgan huquqiy masalalarni, boshqa dalillar bilan birga, ushbu mezonlar bilan ham baholaydi. Mantiqiy tahlildan o‘tkazadi. U istiqro (deduksiya) va ilmiy tahlil (analiz)dan keng foydalanadi. Har bir masalani turli mazhablar orasida qiyosiy uslubda o‘rganib, xulosa chiqaradi va eng ma’qul deb topgan fikrini tahlil oxirida zikr etib, uni ustun qo‘yadi. Shu sababli “Al-Hidoya” Islom huquqining falsafiy tahlili deb atalsa ham o‘rinli bo‘ladi[100].

“Al-Hidoya” Marg‘inoniyning shoh asari bo‘lib, Burhoniddin Marg‘inoniyning zamondoshlari mashhur faqihlar ham buni e’tirof etishgan. Bu haqda alloma al-

---

[97] Hanifiy mazhabi boshqa mazhablardan shariatning uch asosiy manbai (Qur’on, sunna, ijmo)dan keyin, to‘rtinchi asosiy manba bo‘lmish ratsional (aqliy) manba, ya’ni qiyosga boshqa mazhablarga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalq ichida yoyilib, ular hayotiga singib ketgan urf-odatlar hanafiy mazhabida huquqiy muammolarni hal qilishda qo‘shimcha manba sifatida keng ko‘lamda qo‘llaniladi.

[98] Istehson so‘zi arab tilida bir narsani boshqasidan yaxshi deb bilish, yaxshilash, ma’qullash ma’nolarini anglatadi. Fiqhda istehson Mujtahidning ochiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz’iy hukmga o‘tishligi tushuniladi. Ya’ni istehson – bu masalani hal qilishning ikki yo‘lidan qaysi biri musulmon jamoasi manfaatiga foydaliroq, ma’qulroq bo‘lsa o‘shanisini tanlab masalani hal etish, musulmon jamoasi manfaati taqozo etsa, unga foydaliroq bo‘lsa taqiqlovchi umumiy qoidadan chetga chiqib, istisno tariqasida muammoni hal etish. Batafsil qarang: Toshkulov. J., Yusupova N., Bekmirzayev I., Sarsenboyev O., Masaidov S. Islom huquqshunosligi. O‘quv qo‘llanma. T.; Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2014. — B. 90.

[99] Yusupova N.J., Jo‘zjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg‘inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: “Akademiya”, 2007. — B. 17.

[100] Yusupova N.J., Jo‘zjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg‘inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: “Akademiya”, 2007. — B. 18.

Xaddod: “Hidoya ham Qur’on singari o‘zidan ilgarigi shariat bo‘yicha yozilgan kitoblarni e’tibordan qoldirdi[101]” degan.

“Hidoya” asari uzoq 13 yil davomida yozib bitkazildi. Buning sababi birinchidan, “Bidoyatil-Mubtadiy”ga Imom Muhammad ash-Shayboniyning “Al-jomi’ as-Sag‘ir” va al-Quduriyning “Muxtasar” asarlari asos qilib olingan bo‘lib, “Bidoyatul-mubtadiy”ga kiritilgan asosiy huquqiy masalalarga oid minglab far’iy (juz’iy) masalalar mavjud edi. Ular orasida xalqning amaliy hayotiga bog‘liq, o‘z yechimini topmagan ko‘plab muammolar bor edi. Shu nuqtayi nazardan o‘sha davrning o‘zgaruvchan sharoitini sinchiklab o‘rganish, birinchi darajali muammolarni ikkinchi darajali muammolardan ajratib olib, ularni yechish yo‘llarini belgilab berish muallifdan katta diqqat-e’tibor, har tomonlama tekshirish va chuqur kuzatishlarni talab qilardi.

Ikkinchidan, Burhoniddin Marg‘inoniy fiqh ilmi bosib o‘tgan olti davrning (Payg‘ambar, sahobalar, tobi’inlar, mujtahidlar, muxarrijlar va muqallid (taqlid etuvchi)lar davrlari) beshinchi bosqichi bo‘lmish muxarrijlar (ulardan ilgari o‘tgan mujtahidlar va buyuk huquqshunos olimlar asarlariga murojaat qilish orqali mazhab doirasida yangi topilgan murakkab huquqiy muammolarning yechish yo‘llarini topuvchilar) davrida yashagani uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri erkin ijtihod qilish vakolatiga ega emas edi. Chunki IV hijriy asr boshlarida (milodiy X asrda) hech kim islom huquqi bo‘yicha mustaqil ijtihod qilish vakolatiga ega emas, degan fikr bor edi. Huquqshunoslik bo‘yicha barcha faoliyat, buyuk olimlar tomonidan belgilab berilgan asosiy qonun-qoidalarni izohlash, tafsir etish sohasida bo‘lishi kerak, degan nazar mavjud edi.[102] Lekin Muhammad Abdulhay Laknaviy o‘zining mashhur asari “Al-Favoid al-bahiya”da hanafiy mazhabi olimlarini olti guruhga bo‘lib, Burhoniddin Marg‘inoniy va al-Quduriyni “as’habut-tarjiyh”, ya’ni ba’zi rivoyatlarni ba’zilariga tarjiyh berish (ustun qo‘yish) salohiyatiga ega olimlar qatorida zikr etgan.

Mazkur sharoitda Burhoniddin Marg‘inoniy oldida turli mualliflar tomonidan yozilgan ko‘p fatovolar (huquqiy majmualar) bor edi. Ularda minglab masalalar, ayrim muayyan muammolar bo‘yicha o‘nlab mulohazalar, hatto bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud edi. Muallif nazarda tutgan huquqiy masalani yoritish uchun, birinchidan, shariatning asosiy manbalari, undan keyin Abu Hanifa, Imom Molik, imom Shofi’iy, imom Ahmad ibn Hanbalning asarlari, ash-Shayboniyning “Zohirur-rivoya” kitobi, Abu Yusufning “Kitobul-xiroj”, “Adabul-qoziy”, “Abu Hanifa va Ibn Abilaylo orasidagi ixtiloflar”, “Avzo’iy va Anas ibn Molikning ayrim huquqiy masalalar bo‘yicha bildirgan fikrlariga yozilgan raddiya” kitoblari, imom Zufar asarlari, shuningdek, islom huquqi turli sohalariga oid son-sanoqsiz kitob va to‘plamlarni o‘qib chiqib, ularda bildirilgan fikr-mulohazalarni bir-biri bilan solishtirib, asosli xulosalar chiqarish kerak edi[103].

[101] Muhammad Abdulhay. Hidoya muqaddimasi sifatida yozilgan risola. Lakhnau: 1394 h.y. — B. 3.
[102] Majid Xadduriy, Xerbert Lebisni. “Islomda huquq”, Tehron-Nyu York, 1958. — B 105.
[103] Yusupova N.J., Jo‘zjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg‘inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: “Akademiya”, 2007. — B. 22.

Albatta, eng hayotiy va zarur rivoyatlarni tanlab olib, ularning to‘g‘riligini naqliy dalillar bilan isbotlab, aqliy dalillar bilan mustahkamlash, mumtoz asarlarning matn va mazmuniga chuqur kirib borib, ularning huquqiy asoslarini belgilab olish katta mehnat va izchil ishlashni talab qilardi.

“Hidoya”ning yana bir xususiyati shundan iboratki, unda “Ilmul-xulof” (Qiyosiy huquqshunoslik) orqali belgilab berilgan qoidalar keng ko‘lamda nazarda tutiladi. Chunki Burhoniddin Marg‘inoniy ushbu fan sohasida ham yetuk olim va mutaxassis hisoblangan. Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya”da huquqiy muammolarni yechish jarayonida faqat uchta asosiy mazhab (hanafiy, molikiy, shofe’iy mazhablari)gagina emas, balki zohiriy va avzo’iy mazhablariga doir fikru mulohazalarni ham o‘rni kelganda keltirib o‘tadi, har biri haqida o‘z nuqtayi nazarini bildiradi. Ushbu nuqtayi nazardan “Hidoya” “Ilmul Xilof”ni keng ko‘lamda o‘rganish uchun ham muhim va e’tiborli manba hisoblanadi. Xanbaliy mazhabiga tegishli masalani “Hidoya” va boshqa yirik faqihlar yozgan asarlarga kiritilmaganligining sababi shundaki, ahli sunna faqihlari, hatto XII asrgacha, xanbaliylarni faqihlar sifatida emas, balki muhaddislar sifatida tan olib kelganlar.

Shunday qilib, Burhoniddin Marg‘inoniy yozgan to‘rt jildlik “al-Hidoya” kitobi sunniylik yo‘nalishida hanafiy mazhabi bo‘yicha muhim va mukammal huquqiy asar sifatida 55 dan ortiq kitob, yuzlab bobu fasldan tarkib topgan bo‘lib, meros huquqidan tashqari, islom huquqining barcha sohalarini qamrab oladi. Burhoniddin Marg‘inoniy meros huquqini o‘z kitobiga kiritmaganining sababi shundaki, Imom A’zam Abu Hanifa meros muammolarini maxsus fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni “al-Faroiz” deb atagan.

“Hidoya”ning birinchi jildi tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro‘za, zakot va haj) ga, ikkinchi jildi oila huquqi, qul saqlash muammolari, hudud jazolari (Alloh tomonidan belgilangan jazolar), xalqaro huquq me’yorlari, shirkatchilik, islom huquqiga xos bo‘lgan vaqf huquqi kabi masalalarga, uchinchi jildi muomalot turlari (fuqarolik huquqi) sud, sud jarayoni, to‘rtinchi jildi esa dehqonchilik va yer muammolari, jinoyat turlari, guvohlik va boshqa ko‘plab mavzularga bag‘ishlangan.

Ma’lumki, hanafiy mazhabi Movarounnahr hududida keng tarqalgan bo‘lib, mazhabning juda ko‘p yirik va salohiyatli vakillari va imomlari, ham e’tiqod sohasida, ham huquq sohasida kamolot darajasiga yetishganlar. Ular hanafiy mazhabining huquqiy, aqidaviy asoslarini tashkil etuvchi Abu Hanifa asarlari va uning iqtidorli shogirdlari Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Abu Yusuf qalamiga mansub “Zohirur-rivoya” kitoblari, “Kitobul-xiroj” kabi fiqhiy asarlarga asoslangan holda, nihoyat muhim huquqiy asarlar yaratib, mazhabning rivoji va gullab-yashnashiga munosib hissa qo‘shib kelganlar. Masalan, Movarounnahrning buyuk faqihlaridan sakkiztasi “al-Mabsut” nomi bilan fiqh ilmi sohasida ilmiy asarlar yozgan. Ulardan Faxrul-islom Al-Bazdaviy Mabsuti 11 jildlik, shayxul-islom Muhammad ibn Husayn al-Buxoriy al-Hanafiy Mabsuti va Shamsul-aimma as-Saraxsiy Mabsuti 15 jildlik bo‘lgan. Ushbu

asarlar islom huquqining barcha sohalari jumladan, oila va nikoh, jinoyat, mulkiy munosabatlar, xalqaro huquq kabi ko‘plab masalalarni qamrab olgan bebaho meros hisoblanadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘zbek xalqi ma’naviyatini, jumladan diniy savodxonligini sog‘lomlashtirish jarayonida islom huquqining yuqorida sanab o‘tilgan sohalarini ajdodlarimizning mumtoz asarlari asosida ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zaruriyatdir. Chunki, ijtimoiy munosabatlarga oid fiqhiy normalarning asl mohiyatini tadqiq etish va hozirgi kunda ildiz otib borayotgan fundamentalistik oqimlar qarashlarining mutlaqo noto‘g‘ri ekanini hamda uning ijtimoiy salbiy oqibatlarini ilmiy tahlil qilish amaliy dolzarblikka ega.

Shu bois, islom huquqi normalarida mustahkamlangan muomalotga oid munosabatlarning umumijtimoiy jihatlari, ijtimoiy-tarixiy negizlarini, uning madaniy-ma’naviy, huquqiy xususiyatlarini, islomning asosiy manbalari, klassik fiqhiy kitoblar, jumladan yurtimizdan yetishib chiqqan allomalardan XII asrda yozilgan Faxruddin Qozixonning “Fatavoi Qozixon”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya”, Alouddin as-Samarqandiyning “Tuhfat ul-fuqaho”, Iftixoruddin Tohur al-Buxoriyning “Hulosat ul-fatavo”, Abul Qosim as-Samarqandiyning “Al-fihq an-Nafi’”, Alouddin Kosoniyning “Badoi’ us-sanoi’ fi tartibish-sharoi’” kabi asarlari asosida ilmiy tadqiq etish, odat huquqi bilan qiyosiy o‘rganish diniy-siyosiy g‘oyaviy kurashlar ketayotgan hozirgi kun uchun o‘ta ahamiyatlidir. Chunki islom huquqi hozirgi kunda odat huquqining bir turi sifatida qaralmoqda ekan, uning xalqqa ta’sir darajasining chuqur ekanligi barchaga ma’lum.

Movarounnahrda ming yildan ortiq davr mobaynida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda asosiy mavqeni egallab kelgan fiqh ilmida huquqiy munosabatlar, majburiyatlar va ularning ijrosini ta’minlash kafolatlari bilan bog‘liq munosabatlar haqidagi qoidalar har tomonlama, mukammal tartibga solingan. Faqihlar o‘z asarlarida ayrim huquqiy normalarni mahalliy sharoit bilan muvofiqlashtirishga ham intilganlar.

Ushbu fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XII asrda islomiy ilmlarni har tomonlama rivojlantirib, o‘zlaridan mo‘tabar asarlar qoldirgan yetuk allomalarimiz merosini o‘rganish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki Burhoniddin Marg‘inoniy kabi yana ko‘plab allomalar merosi islom huquqshunosligi tarixida muhim manbalar hisoblanib, ularning hanafiy ta’limoti ilmiy, nazariy va amaliy rivojida tutgan o‘rni nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon olami huquqshunosligidagi katta yutuqlardan hisoblanadi. Negaki, bu davrda yaratilgan ilmiy meros keyingi davrlarda yaratilgan hanafiy mazhabidagi fiqhiy asarlar uchun manba vazifasini o‘tagan, hattoki, o‘tgan asrning birinchi choragigacha faqihlarning, qozilarning, muftiylarning amaliy faoliyatida muhim manbalar sifatida qo‘llanilgan. Chunki hanafiy mazhabi xulosalariga asoslangan bu asarlardagi qoidalar ham shu mazhab qonunlari kabi nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy

an’analari e’tiborga olinganligi sababli, ular aksariyat musulmon mamlakatlarida keng yoyilgan, chunonchi qozilar muomala munosabatlaridan kelib chiqadigan va boshqa nizoli ishlarni ko‘rib hal etishda shu manbalardan unumli foydalanishgan.

**Миродил ХАЙДАРОВ,**
*доцент Международной академии исламоведения Узбекистана*

## БУРХАНУДДИН АЛ-МАРГИНАНИ: ВЕЛИКИЙ ИСЛАМСКИЙ ПРАВОВЕД МАВЕРАННАХРА

На этом стате рассматриваются известный и признанный учёный, исламский правовед-факих средневекового Востока, который создал своеобразную школу в исламском правоведении, автор фундаменталного труда «Ал-Хидоя фи шарх Бидая ал-Мубтадиъ».

Узбекистан своей древней историей и богатыми культурными традициями внес огромный вклад в дело широкого распространения и развития исламской сивилизатсии. Предки узбекского народа великие ученые-богословы и мыслители, как: Имам ал-Бухари (810-870), Имам ат-Тирмизи (824-892), Имам ал-Матуриди (умер в 944), Абул Муин ан-Насафи (1027-1114), Бурхануддин ал-Маргинани (1123-1197) и многие другие были факелом знамя исламских религий с самого начала исламской сивилизатсии.

Историческое наследие ученых и мыслителей средневекового Востока, играла болшую роль и значение для современной сивилизатсии. Ещё в конце ВИИИ – начале ИХ веках Ташкенте, Бухаре, Самарканде, Хиве, Фергане и других городах Узбекистана были созданы ханафитские богословско-правовие школы. С ХИ-ХИИ века ханафитская богословско-правовая школа Мавераннахра стала лидироват в ханафитском мазхабе. Из самых известных и признанных учёный, который создал своеобразную школу в исламском правоведении – это шейх-ул-ислам Бурхануддин ал-Маргинани, автор болеэ 10 фундаменталных научных трудов по фикху.

Бурхануддин Абул Хасан Али ибн Абу Бакр Маргинани Риштани родился в 1123 году в древнего города Риштана в Ферганской области на территории современного Узбекистана. Родители назвали младенса Али. По не которым исторических данных ученый Мухаммад Абдулхай Лакнавий писал, что Бурхануддин ал-Маргинани родился в 511 г. по хиджре (1118 г.). Его родословие связано с подвижником Абу Бакра Сиддика разиаллаху анху.

Из средневековых писменных источников известно, что его предки были знатной богословов и фикихов, который продолжали семейную традитсию

законоведов – факихов. Поэтому Бурхануддин Маргинани с юности изучал первые азы теологических образование от своих близких, как Халила ибн Абу Бакра (дед), Умара ибн-Хабиба (дед по материнской линии), Абу Бакра ибн Абдулжалила (отес), Абу Бакра ибн Хусомиддина (дядя), а также у известного богослова-факиха Ферганской долины Абу Бакра ибн Хотама ар-Рошидоний и других богословов-факихов Ришстана. Его одаренност и врожденный талант к знанию было очевидно уже в детство. С юных лет знал Коран наизуст.

В поисках основных наук того времени Бурхануддин Маргинани переэхал в Маргилан. Там он изучал науку фикх у известных факихов. Потом учился в Бухаре, Самарканде и других городах Мавераннахра и Хорасана.

Один из основных факторов его высокого уровня в науке фикх, стали его учителя, которые были из числа великих ученых-богословов и мыслителей своего века. Маргинани упоминает в своем книге «Китаб ул-Машойих» («Книга о шейхах») где насчитывает свыше 40 своих учителей, среди них по науке фикх были такие как:

1. Ахмад ибн Абдурашид ибн Хусайн Кавомуддин Бухарий. Его сын Тахир ибн Ахмад ибн Абдурашид и Бурхануддин Маргинаний училис в месте у него. Его сын считается автором «Ал-Хуласа»;

2. Ахмад ибн Абдулазиз ибн Мааз Садр Саид. У него учился по книге «Китаб ас-Сияр ал-Кабир»;

3. Хасан ибн Али ибн Абдулазиз Абул-Махасин Захируддин Маргинани (умер в 1203 г.). Бурхануддин Маргинаний изучал у него по науке фикх и хадис из книг Тирмизий. Также, у него училис самые знаменитые правоведы, как Абдулазиз ибн Умар ибн Мааз, Шамсул аимма Махмуд Узганди и другие;

4. Зияд ибн Иляс Абул Маали Захируддин – ученик Баздави. Автор «Хидои» сказал, что после смерти своего деда учился у него по фикху и правовых разногласиях. Он был одним из известных шейхов Ферганы;

5. Абдуллах ибн Мухаммад ибн Фазл Абул Баракат. Он был учителям из Нишапура города Хорасана (город северо-восточной иранской провинсии);

6. Усман ибн Ибрахим ибн Али ал-Хуканди. Один из известных богослов Ферганы. Он у него изучал некоторые вопросы по фикху и других наук;

7. Усман ибн Али ибн Мухаммад Абу Умар Пайканди (умер в 522 г. по хиджре). Из города Пайканд, каторый расположено в 60 км к юго-западу от Бухары. Он был учеником великого имама ханафитского мазхаба Шамсул Аимма Сарахси, автор знаменитого и крупнейшего труда по мазхабу – «Ал-Мабсут» который дал подробное разъяснение по религиозно-правовым вопросам;

8. Али ибн Мухаммад ибн Исмаил Исбиджаби Самарканди (Исбиджаб в настоящэе время является город Сайрамом в южном Казахстане, 12 км от совр. Чимкента). Он жил в Самарканде и был муфтием, известен Шейх-ул-исламом, и не был за пределами Мавераннахра в свое время (умер в 536 г. по хиджре в Самарканде). Всю свою долгую жизн он отдал в области распространения науки

и имел много учеников, из них как Абу Саъд ас-Самъани автор «Ал-Ансаб» (Книга генеалогических имен);

9. Умар ибн Абдулазиз ибн Умар ибн Мааза Хисамуддин – Ас-Садруш шахид (умер в 536 г. по хиджре). Автор книги «Ал-Фатава ас-сугра», «Ал-Фатавал кубра», «Китаб ал-Мавакит», «Ал-Жаме ал-Мутул», «Ал-Мабсут фил хилафият», «Бахрул мухит». Он особое внимание уделял на Бурхануддина Маргинани среди своих учеников на уроках;

10. Умар ибн Мухаммад ибн Ахмад Нажмиддин Абу Хафс Насафи Самарканди (1067-1143 г.). Родился и жил в городе Насаф (ныне г. Карши в Узбекистане), который был одним из центром исламских наук Средней Азии. Умар Насафи внес колоссалный вклад в развитие исламского вероучения и был известным знатоком ханафитской правовой школы, хадисов, тафсира, литературы, языка и истории. Он автор книги «Ал-Акоидун-насафия». В нем собраны воедино главные и основные положения суннитского вероучения с точки зрения ханафитов. Также, «Тилбату ат-Толаба», «Китаб ал-Вакиат», «Китаб ал-Мавакит» и около 100 статей по фикху;

11. Ахмад ибн Умар ибн Мухаммад Абуллайс. Один из великих правоведов своего времени в Самарканде. Его отес Умар Абу Хафс ан-Насафи был почётный ученым Насафа (об этом мы упоминали ранеэ). Они оба были учителями Бурхануддина Маргинани.

12. Умар ибн Мухаммад ибн Абдуллах ал-Бистоми ал-Балхи – Абу Шуджа (475-562 г. по хиджре). Он был известным знатоком хадисов и ханафитской правовой школы города Балх (одна из 34 провинсий Исламской Республики Афганистан. Административный центр провинсии – город Мазари-Шариф);

13. Мухаммад ибн Абдурахман ибн Ахмад Абу Абдуллах ал-Бухарий (умер в 546 г. по хиджре). Автор «Махасин ал-Ислам ва Шараиъул Ислам» — который он разделил на несколко книг, в том числе вера, поклонение-ибадат, семейные решения, применение наказание, паломничество, договора, судебные органы и свидетелства. Ест придание, что он автор 1000 томов книг по толкование Корана. Маргинани изучал у него, по толкование Корана и методологии фикха.

По науке хадис он изучал у следующих богословов:

1. Саъид ибн Асъад ибн Исхак ал-Маргинани Зияуддин (умер в 593 г. по хиджре). Его семя славилас наукой, добродетелю, фетвами, преподаванием и другими. Он у него изучал сборник хадисов Тирмизи;

2. Саид ибн Юсуф ал-Ханафи ал-Кази. Он передал Бурхануддину Маргинани хадиса Посланника Аллаха (да благословит его Аллах и приветствует) который сказал: «Если будет скрыват раб недостатки другого раба в этом мире, то и Всевышний Аллах скроет его недостатки в Судный Ден» (Муслим);

3. Абдуллах ибн Абил-Фатх ал-Хонакохи ал-Маргинани. Он описал своего учителя достойном богословом. У него изучал 100 поступков (сунна) пророка Мухаммада (да благословит его Аллах и приветствует);

4. Умар ибн Абдулмумин ибн Юсуф ал-Балхи Абул-Хафс – Шейх-ул-ислам (умер в 559 г. по хиджре). В 544 г. по хиджре он был спутником Бурхануддина Маргинани в паломничестве по святым местам и там он прочитал своему Шейху хадисы и вопросы касающийся науке фикха;

5. Мухаммад ибн Ахмад ибн Абдуллах ал-Хатиби ал-Джадди. Автор «Хидои» сказал, что изучал у него хадисы;

6. Мухаммад ибн Хусайн ибн Насыр Зияуддин ал-Банданийджи, у него изучал достоверные хадисы Муслима;

7. Мухаммад ибн Абдуллах ибн Абу Бакр ал-Хатыб ал-Кашмиханни ал-Марвази. Он у него изучал достоверные хадисы по сепочке великого мухаддиса Имама ал-Бухари.

В семе Бурхануддина Маргинани продолжалос неразрывная семейная традиция изучат науки по исламскому праву. Его трое сыновей и внуки были факихами, что даже достигли степени право издания фетвы. Его сыновя были в области науки фикх Шайх ул-Исламом как их отес.

1. Имамуддин Мухаммад ибн Али ибн Абу Бакр ибн Абдулджамил ал-Фергани, ал-Маргилани, ал-Рошидони, ас-Самарканди. Он изучал науки фикх у своего отса — автор «Хидои», также у Кази (суди) Захируддина ал-Бухари. Ему принадлежит книга «Адаб ул-Кази». Его сын Абдурахим тоже был известным факихом, который писал книгу по фикху «Ал-Фусул ал-Имадия», т.е. книга названо в чест своего отса Имамуддина.

2. Низомуддин Умар ибн Али ибн Абу Бакр ибн Абдулджамил ал-Фергани, ал-Маргилани, ал-Рошидони, ас-Самарканди автор «Жавахир ул-Фикх», «Ал-Фаваид» и другие.

3. Жалолиддин Мухаммад ибн Али ибн Абу Бакр ибн Абдулджамил ал-Фергани, ал-Маргилани, ал-Рошидони, ас-Самарканди.

Великий исламский правовед-факих, Шайх ул-Ислам Бурхануддин Маргинани и его потомки внесли болшой вклад в дело широкого распространения и развития исламской праве Мавереннахра.

Бурхануддин Маргинани усердно изучал научные труды и произведение, которые были созданы до неё по исламскому праву. Один из этих произведение «Ал-Джами ас-Сагир» — автор Мухаммад ибн Хасан аш-Шайбани и книга «Ал-Мухтасар» — автор Абул Хасан ибн Ахмад ибн Мухаммад ал-Кудури, который были собраны правовые нормы, действовавшие в Ираке. Он обединил эти два произведения ползуяс методам Шайбани и написал свой главный труд по фикху «Бидая ал-Мубтадиъ» (Азы для начинающэго в право). Правовые нормы в этой книге были теоретическии глубокий труд в понятии ханафитского фикха и неудобным в применении. По этому великий правоведу пришлос дат подробное разъяснение и комментарии в восми томах под названием «Кифаят ал-Мунтахи (Достаточное для завершающэго обучение).

Но однако, Шайх ул-Ислам Бурхануддин Маргинани хотел написат книгу, исползовав правовые нормы, где обем был бы менше, а сущност богаче. По этому поводу второй раз он решил ещё работат над текстом своего произведение на основе взглядов ученых Мавераннахра. В 573 г. по хиджре приступил к написанию «Хидои». Он составил правовых норм обосновав из Корана, сунны, иджма, кыяса и других источников фикха под названием книга «Ал-Хидоя фи шарх Бидая ал-Мубтадиъ». В течение 13 лет постящимся он написал первую част своего произведения в Маргилане, а основную част он завершил в Самарканде.

Кроме этих труды у него были написано следующие:

– «Мажмуъ-ул-навазил» — («Книга о вещах, ниспосланных Аллахом»);

– «Китаб ат-тажнис вал-мазид» («Книга, боготворящая науку»);

– «Китаб ул-фарaиз» («Книга о праве наследства»);

– «Китаб ал-маносик ал-хаж» («Книга о правилах совершения хаджа»);

– «Нашр ал-мазхаб» («Распространение мазхаба»);

– «Китаб ул-Машойих» («Книга о шейхах»);

– «Мазид фи-фуру-ул-ханафий» («Дополнения к ханифисткой школе»);

– «Шарх ал-Жамий ал-Кабир Мухаммад аш-Шайбани» («Комментарий к книге аш-Шайбани «Ал-Джами-ал-Кабир»);

Профессор А.Х.Саидов написал об этих уникалных рукописных экземплярах труды Бурхануддина Маргинани в ведении книге «Хидоя» перевод на русском языке следующий: «К сожалению, не все произведения Бурхануддина Маргинани дошли до нас. В Институте востоковедения АН Республики Узбекистан сохранилис рукописи следующих его трудов:

«Бидая ал-Мубтадиъ» – инвентарный номер 3895;

«Мажмуъ-ул-Навазил» — 4624;

«Хидоя фи ал-Фикх» – 11497 (4 экз.);

«Ал-Кифая фи шарх ал-Хидоя» – 3618;

«Хидая фи ал-Фуруъ» – 11046 (33 экз.).»

Как указывает профессор А.Х.Саидов, что в рукописном фонде Института востоковедения АН Республики Узбекистан хранятся болеэ 80 рукописных вариантов «Хидои». Каждый экземпляр переписан великими каллиграфами Мавераннахра. Кроме того, в этом институте хранятся многие книги и источники по фикху, охватывающие период как до «Хидои», так и после него.

Стоит отметит, что сегодня в республике Узбекистан в воплощэнии президентской программы успешно развивается, чтобы делат преференсии не толко в сторону развития своей экономики, социалной и духовной сферы, но и в полной мере продолжит развитие вековых традитсий националной и духовной культуры страны.

**Shoira AVAZOVA,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*dotsenti v.b., yuridik fanlar nomzodi*

# BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “HIDOYA” ASARIDA IJARAGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR

Fiqh ilmi o‘z mohiyatiga ko‘ra keng ma’noda islom huquqidir. Manbalarda ta’riflanishicha, “fiqh ilmi jamiyat a’zosi bo‘lmoq sifatida insonning o‘z huquq va vazifalarini tamomila bilishdir”[104]. Fiqh ilmi islom dini vujudga kelishi bilan birga paydo bo‘lmay, balki X asrga kelib, to‘liq shakllandi. Ma’lumki, fiqh ilmi ikki asosiy qismga usulul-fiqh va furu’ul fiqhga bo‘linadi. Usulul-fiqh bu asosiy manbalardan hukmlarni chiqarib olish yo‘llarini belgilab beruvchi qoidalarni bilib olishdir. Furu’ul fiqh esa usulul-fiqhda belgilab berilgan qoida va usullar orqali asosiy manbalardan chiqarib olingan far’iy hukmlar majmuasi bo‘lib, fiqh ilmining tarmoqlari yoki sohalarini tashkil etadi[105]. Buyuk Vatandoshimiz Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197)ning “Hidoya” asari furuul-fiqh bo‘yicha yozilgan muhim asardir.

Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” kitobini yozishda o‘ziga xos qaytarilmas uslub yaratgan. “Hidoya” kitobida huquqiy masalalarning yechimi dastlab fiqh ilmining yirik olimlari bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlari yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li faqihlar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan huquqiy masalalarda eng ma’qul yo‘lni tanlab olish yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi asoslab keltirilgan[106].

“Hidoya” asari hanafiy mazhabi ta’limotini, Sharq huquqiy madaniyatini va fiqh ilmi tarixini o‘rganishda eng ishonchli manba hisoblanadi. Unga ko‘plab sharhlar yozilgan.

“Hidoya” asarida yoritilgan huquqiy masalalardan biri ijara hisoblanadi. Ijaraning shariatga kiritilishiga Qur’on, sunnat va ijmodan dalillar mavjud. Islom huquqida ijara, kiro, ya‘ni manfaat evaziga ijaraga bermoq va ijaraga olish bilan ushlab turmoqlikni anglatadi. Ijara so‘zi manfaatlarni sotish ma’nosini anglatadi[107]. Ijarada mulk bir tomondan ikkinchi tomonga bir yo‘la o‘tishi ham yo‘q. Shuningdek, bir narsadan bir tomon manfaat olib, ikkinchi tomon manfaat olmasligi ham yo‘q.

“Hidoya” asariga ko‘ra, ijara shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab kuchga kirgan. Ijarada kelishilgan shartnomaning ob’ekti manfaat (foydalanish huquqi)dir. Ya’ni ijara shartnomasi uchun asos bo‘lgan narsa-manfaatdir. Manfaatlar ashyolar ustida

[104] Begiev M.J. Qavoidi fiqhiya. - Qozon: O‘rnak, 1907. - B.3.
[105] Jo‘zjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. - T.: Toshkent islom universiteti, 2002. - B.53.
[106] O‘sha asar, B. 20.
[107] Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya sharh bidoyatil-mubtadi – 5. – T.: “Hilol-Nashr”, 2024 B. 495

tuzilgan ijara shartnomasining ob’ekti bo‘lganda u ashyodan foydalanish huquqini bergan bo‘lsa, mehnat faoliyati uchun tuzilgan ijara shartnomasida ijara ob’ekti amallar orqali manfaatni vujudga keltiradi.

Shartnoma ob’ektiga ko‘ra ijara ikki turga bo‘linadi: birinchi ashyolardan foydalanish bo‘yicha tuzilgan ijara shartnomasi bo‘lib, ijaraga berilgan narsa yana “ijara ashyosi” deyiladi va ushbu ijara turi 3 qismga bo‘linadi:

1) ko‘chmas mulk ijarasi (xona, do‘kon, mehmonxona, hammom, yerlar ijarasi kabilar).

2) ko‘char mulk ijarasi (kiyim, idish, zeb-ziynatlar ijarasi kabi).

3) hayvonlar ijarasi.

Ikkinchi turi: amal asosida (ya’ni bir ishni bajarish uchun xizmatini ijaraga berish) tuziladigan ijaradir.

Bir ishni bajarish uchun yollangan (xizmatini ijaraga bergan) shaxs “ajir” deb atalgan. Ajirning 2 turi mavjud:

1. Ajiri xos, ya‘ni faqat musta’jir (ijaraga oluvchi)ga ishlash yuzasidan muayyan xizmatni bajarish uchun yollangan shaxsdir (masalan, oylik xizmatkor kabi). Ajiri xosning ijaraga oluvchisi bir shaxs bo‘lgani kabi bir kishi hukmida bo‘lgan bir necha shaxslar bo‘lishi mumkin. Bir necha shaxslarning bir shaxs hukmida bo‘lishi shartnoma asosida ijaraga olishlari natijasida hosil bo‘ladi. Ajiri xosning ish haqiga haqli bo‘lishi belgilangan muddatda bajarilgan xizmatning mavjud bo‘lishidir. Faqat xizmat bilan cheklanmasligi shart va yo‘qsa haqli emas.

2. Ajiri mushtarak, ya’ni musta‘jir (ijara oluvchilar)dan boshqasiga ishlamaslik sharti bo‘lmagan ijaradir. Ajiri mushtarakning ijara haqiga haqli bo‘lishi bajarilgan ish uchundir. Ijara shartnomasi bilan foydalanish huquqiga haqli bo‘lgan shaxs (musta‘jir) aynan o‘sha manfaatni yoki turdoshini, shuningdek, undan kamrog‘ini bajarilishini talab qilishga haqli, ammo undan ko‘pini talab qila olmaydi.

Ijaraga berilgan buyumni qo‘llanilishi, ya’ni undan foydalanadiganlar tomonidan zarar yetkazilganda ixtilof qilingan paytda ya’ni uning ijarasida mo‘jir (ijaraga beruvchi) tarafidan qilingan cheklov e’tiborga olinadi.

Bo‘linadigan yoki bo‘linmaydigan ashyoga nisbatan umumiy mulk asosida ijaraga olingan bo‘lsa sheriklardan biri o‘z ulushini boshqa sherigiga ijaraga berishi mumkin, lekin begona shaxsga ijaraga bera olmaydi. Keyinchalik yuzaga kelgan umumiy mulk huquqi ijara shartnomasini bekor qilmaydi. Shuningdek, ikki sherik birlikda bo‘lib, umumiy (sheriklik) molini boshqa shaxsga ijaraga bera olishlari mumkin, aksincha, bir narsani ikki kishiga ijaraga bermoq joizdir (ruxsat etilgandir).

Ijaraning asosiy ruknlari (elementlari) quyidagilardan iborat:

Bay (savdo) kabi ijara shartnomasi ham ijob va qabul orqali tuzilib, shartnoma tuzilayotganda ijaraga oldim va ijaraga berdim, ijaraga berdim va qabul qildim kabi ijara shartnomasi uchun taalluqli bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi.

Ijaraning tuzilish shartlari: ijara shartnomasi tuzilayotganda tomonlar ijob va qabulga layoqatli, ya’ni muomalaga layoqatli bo‘lishlari shart. Savdoda bo‘lgani kabi ijara tuzilayotganda yana ijobning qabulga mos kelishi va majlisi (shartnoma tuzilayotgan joyi) bitimning birligi shartdir. Ijaraga oluvchi ijaraga olinadigan narsaning tasarruf qiluvchisi yoki tasarruf qiluvchining vakili, yoki valiysi, yoki vasiysi bo‘lmog‘i lozim. Uchinchi shaxsning ijarasi mulk egasining ijozatiga va mulk egasi voyaga yetmagan yoki aqli noraso bo‘lsa, ajiri misliy bilan ijaraga berilganda valiysining yoki vasiysining ijozatiga bog‘liq holda tuzilgan bo‘ladi.

Ijaraning sihat (qonuniy bo‘lish) shartlari quyidagilardan iborat:

– Ijaraning haqiqiy bo‘lishida tomonlarning roziligi shartdir.

– Ijara ob’ekti va ijara haqi ham aniq bo‘lishi shart hisoblanadi.

– Ijarada foydalanish huquqi nizoga olib kelmaydigan shaklda ma’lum bo‘lishi talab etiladi.

– Uy, do‘konlar kabi narsalarda ijara muddatining bayon qilinishi bilan shartnoma ma’lum bo‘ladi.

– Hayvon ijaraga berilganda yuk yuklatmoq uchunmi yoki minish uchunmi va kim minishi masalalarining aniqlanishi yoki istalgan kimsani mindirishi yuzasidan umumlashtirish bilan birga ijaraning muddati bayon qilinishi lozimdir.

– Yerlarning ijarasida aniq muddat bilan barobar nima uchunligi bayon qilinishi va ziroat uchun bo‘lsa, nima ekilishi aniq va yoki ijaraga oluvchi nima hohlasa ekmog‘i masalalari umumlashtirilishi lozimdir.

– Hunarmand ahlining ijarasida foydalanish huquqining ma’lum bo‘lishi, qiladigan ishning izohlanishi bilan ya’ni nima qilinishi va qanday qilinishi aniqlanadi.

– Narsalarni ko‘chirishda ko‘rsatish bilan va ko‘chiriladigan joy aniqlanishi bilan foydalanish huquqi ma’lum bo‘ladi.

– Foydalanish huquqi ko‘zlangan maqsadni bajarishga qodir bo‘lishi shartdir. Ijarada ma’qudi alayh (ijara ob’ekti) hisoblangan foydalanish huquqining haqiqatda va shar’iy bajarilishga qodir bo‘lishi lozimdir.

Ijaraning noqonuniy(botil) bo‘lishi va buzilishi (fasodi): Ijara shartnomasi tuzilayotganda uning shartlaridan biri bo‘lmasa ijara botil bo‘ladi. Botil ijarada ijaraga oluvchi ijaraga olingan narsani iste’moli va foydalangani bilan ijara haqi zarur bo‘lmaydi. Zero botil ijarada haqiqatda yo‘q deb, hisoblangani uchun buning ustida ijara hukmi tatbiq etilmaydi.

Ijara haqi ijaraning sihat shartlaridan bo‘lib, sihat shartlaridan biri bo‘lmasa ijara fosid bo‘ladi. Fosid ijara o‘timlidir, ya’ni ijaraning fasodi bilan ijaraga berilgan va qabul qilib olingan ijara ob’ektini ijaraga oluvchining tasarrufi sahih bo‘ladi. Ijaraning fasodi ba‘zan badal (evaz, pul)ning noaniq bo‘lishidan va ba’zan boshqa sihat shartlarining bo‘lmasligidan kelib chiqadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, “Hidoya” asarida ijaraga oid huquqiy munosabatlar batafsil ishlab chiqilgan, xususan, amal asosida (ya’ni bir ishni bajarish uchun

xizmatini ijaraga berish) tuziladigan ijara turi islom huquqi amalda bo‘lgan davrlarda keng tarqalgan bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirishlariga xizmat qilgan.

**Saidafzal SAIDJALOLOV**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING MEROSINING FIQH ILMI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Abulhasan Ali ibn Abi Bakr ibn Abduljalil ibn Abdulxalil Shayxulislom Burhoniddin Marg‘iloniy islom huquqining zabardast namoyandasi, hanafiy mazhabi taraqqiyotida benazir o‘rin tutgan alloma. 1123-1197-yillar davomida faoliyat yuritgan Burhoniddin Marg‘inoniy diyorimizda Birinchi Renessans shakllanishiga mislsiz hissa qo‘shdi. Renessans ilm-fan va madaniyat rivojini anglatuvchi fenomen. Uni yuzaga kelishidagi asosiy omil olimlar faoliyati. XII asr Movarounnahr xalqlari hayotida turli sohalarning gullab yashnashi davri bo‘ldi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Nasaf, Kesh, Shosh kabi shaharlar bugungi kundagi Oksford, Kembrij, Garvard, Shanxay, Tokio, Seul singari jahon ilmiy markazlari qatorida e’tirof etildi. Movarounnahrning barcha shaharlari olimlar faoliyati uchun qulay muhit yaratildi. Farg‘ona ilmiy muhitidan farg‘oniy, marg‘inoniy, rishdoniylar, o‘shiy taxalluslari bilan yuzlab olimlar yetishib chiqdi. Bu muhitning yorqin vakili Burhoniddin Marg‘inoniydir. Manbalarda olim ismi-sharifiga to‘rt mansublik qo‘shilgan: farg‘oniy, marg‘inoniy, rishdoniy va siddiqiy. Dastlabki uch nisba tushunarli. Abdulhay Laknaviy taqdim etgan ma’lumotga ko‘ra, siddiqiy nisbasi allomaning ulug‘ sahoba, xulafoyi roshidiyning dastlabkisi Abu Bakr Siddiq (r.a) avlodi bo‘lganini anglatadi. Abu Hafs Kabiyr Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Abdulloh Xorazmiy kabi allomalar arab va ajam o‘lkalariga ilmiy safarlar uyushtirganlar. Burhoniddin Marg‘inoniyning alloma sifatida tanilishiga Movarounnahr shaharlaridagi ustozlar sabog‘i kifoya qilganini alohida ta’kidlash o‘rinli. Manbalarda alloma Marv, Nasaf, Buxoro va Samarqand shaharlariga safar qilgani qayd etiladi. IX – XII asrlarda Makka, Madina, Shom, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarga muntazam safar uyushtirgan mintaqa allomalari bu shaharlardagi ilm-fan yutuqlarini to‘la-to‘kis Movarounnahrga ko‘chirdilar. Buning oqibatida mintaqada yuzaga kelgan ilmiy muhit talabalarga uzoq o‘lkalarga safar uyushtirmasdan, o‘z diyorlarida dunyo e’tirof etgan olim sifatida nom qozonish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Burhoniddin Marg‘inoniy kabi allomalar mazkur haqiqatning yorqin ifodasidir. IX-X asrlar Markaziy Osiyo tarixida dunyoning turli nuqtalar ilmiy yutuqlarning o‘lkaga transformatsiyasi davri bo‘lsa, XI-XII asrlarni mintaqa jahon miqyosidagi ilmiy markazga aylanishi davri deyish mumkin.

Burhoniddin Marg‘inoniy islom huquqi, islom huquqi metodologiyasi, fiqh, usulul-fiqh, hanafiy mazhabi ta’limoti kabi sohalarda asarlar ta’lif qilgan: “Bidoyatul-mubtadiy”, “Kifoyatul-muntahiy”, “Hidoya”, “Muxtorot an-navazil”, “At-tajnis val-maziyd”, “Manasik al-haj”, “Kitab al-faraiz”. Qoziyul-quzot Shamsiddin Haririy alloma Jamoliddin ibn Molikdan naql qiladiki: “Burhoniddin Marg‘inoniy sakkiz ilmni mukammal egallagan.”

Manbalarda Burhoniddin Marg‘inoniyning nazmiy qobiliyati kuchli bo‘lgani, g‘azal va she’rlar bitgani naql qilinadi. Allomaning she’rlari alohida kitob shaklida tasnif qilinmagani bois, bu yo‘nalish ilmiy tadqiqotga muhtoj.

Allomaning ilk fiqhiy asari “Bidoyatul-mubtadiy” – Fiqh ilmini o‘rganishni boshlovchilar uchun bir juzlik qo‘llanma hisoblanadi.

Vaqt o‘tib, Burhoniddin Marg‘inoniy mazkur kitobni sharhlashga kirishib ketadi va sakson jildli “Kifoyatul-muntahiy” – fiqh ilmini tugal egallamoqchi bo‘lganlarga kifoya qiladigan asar bitadi. Burhoniddin Marg‘inoniyning mazkur asari hajmi o‘zbekzabon tadqiqotlarning ko‘pida sakkiz jild deb ko‘rsatiladi. Arab tilidagi manbalarda, xususan, Toshko‘prizodaning “Toj at-tarojum” asarida “Kifoyatul-muntahiy” sakson jild bo‘lgani qayd etiladi. Bu qarashni XX asarda Hind zaminida yashab o‘tgan hanafiy mazhabining allomasi Abdulhay Laknaviy ham qo‘llab-quvvatlaydi. “Hidoya” asarining Saudiya Arabistonida chop etilgan nashri muqaddimasida ham “Kifoyatul-muntahiy” sakson jild bo‘lgani qayd etilgan.

Agar “Kifoyatul-muntahiy” sakkiz jild bo‘lsa, uni Burhoniddin Marg‘inoniy qisqartirib, to‘rt jildli “Hidoya” uchun 13 yil vaqt sarflaganini mantiq qabul qilmaydi. Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya”ning 20ga yaqin joyida “Kifoya” ga murojaat qilgan. “Hidoya”ning yozilish sabablaridan biri sifatida “Kifoya”ning hajmi katta ekani va talabalar uni o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelganlari ko‘rsatgan. “Kifoyatul-muntahiy”ning sakkiz jild bo‘lishi uning hajmi kattaligiga asos bo‘lmaydi. Bu asargacha 30 jildli “Tafsiri Tabariy” kabi bir qancha kitoblar yozilgan. Ularning hajmidan hech kim shikoyat qilmagan. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, sakkiz jildli kitobni yarmiga qisqartirish uchun alloma tomonidan 156 oy, 4615 kundan iborat bo‘lgan 13 yilni sarflanishiga bir oz ishonish qiyin. Bu muddatda sakson jildni 20 barobarga qisqartirib, 4 jildga keltirilishini aql qabul qiladi.

Uchinchidan va asosiysi, arab tilidagi manbalarda “Kifoayatul-muntahiy” sakson jild bo‘lgani qayd etilgan. Saudiya Arabistonidagi bugungi noshirlar sakkiz jildli kitobni sakson jild deb yozib “Hidoya”ning yoki uning muallifining obro‘sini ko‘tarishni maqsad qilganlariga ishonish dushvor. Buning o‘ziga xos va mos sabablari borligini fiqh ilmidan ozgina bo‘lsa-da xabardor inson yaxshi anglaydi.

Manbalarda Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarini yozishda muttasil ro‘za tutgani va ro‘zadorligini hatto oila a’zolari ham bilmagani naql qilinadi. Natijada, “Hidoya” dunyo olimlari tomonidan yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan, hozirgacha 60ga yaqin sharh va hoshiyalar bitilgan, turli tillarga tarjima qilingan benazir asar

sifatida olamga tanildi. Burhoniddin Marg‘inoniy o‘nlab kitoblar ta’lif etgan va ularning barchasi hanafiy mazhabi fiqhining mo‘tabar manbalari qatoridan o‘rin olgan.

“Muxtorot an-navazil” Burhoniddin Marg‘inoniyning hanafiy fiqhi bo‘yicha yozilgan asari bo‘lib, “Kashfuz-zunun” sohibi uning hajmini 300 bobdan ko‘proq deb hisoblaydi. Ayrim manbalarda kitob “Muxtorot majmu’ navazil” deb nomlanadi. Mazkur noyob asar 2013-yilda Nyu Deli shahri Ifa nashriyotida Hind Islom fiqhi akademiyasi Bosh kotibi Xolid Sayfulloh ar-Rahmoniy tahqiqi asosida chop etilgan.

Kitobning birinchi jildi “Poklik kitobi” bilan boshlanib, “Haj kitobi” bilan tugallanadi. 5 kitob, 17 bob, 33 fasl, 954 ta masaladan iborat.

Ikkinchi jild “Nikoh kitobi” bilan boshlanib, “Mafqud kitobi” bilan tugallanadi. 15 kitob, 36 fasl, 833 ta masaladan iborat.

Uchinchi jild “Karohiyat kitobi” bilan boshlanib, “Ijara kitobi” bilan tugallanadi. 13 kitob, 3 bob, 29 fasl, 859 ta masaladan iborat.

To‘rtinchi jild “Qozi odoblari kitobi” bilan boshlanib, “Vasiyatlar kitobi” bilan tugallanadi. 21 kitob, 38 fasl, 835 ta masaladan iborat.

“Muxtorot an-navazil” 4 jild, 54 kitob, 35 bob, 136 fasl, 3481 ta fiqhiy masalani qamrab olgan.

Bu asarni “Hidoya” bilan solishtirilganida quyidagi farqlar uchraydi:

Birinchidan, masalalar soni “Hidoya”dagi masalalardan ko‘p.

Ikkinchidan, “Hidoya”da fiqhiy masalalarning shar’iy manbalari berilgan bo‘lsa, bu asarda kamdan-kam o‘rinlarda manba ko‘rsatiladi.

Uchinchidan, “Hidoya”da fiqhiy mazhablar o‘rtasidagi ixtiloflar ko‘rsatilgan, bu asarda bunday yondashuv deyarli uchramaydi.

To‘rtinchidan, asardagi ayrim masalalar yechimi “Hidoya” asaridagi yechimlardan farq qiladi. Bu asar muallifi Burhoniddin Marg‘inoniyning ayrim masalalardagi qarashlari o‘zgargani bilan izohlanadi va “Muxtorot an-navazil” ning “Hidoya”dan keyin yozilganini tasdiqlaydi.

Allomaning “At-tajnis val-maziyd” asari islom huquqining ilk namoyandalari davrida bo‘lmagan, asar bitilgan davr uchun yangi deb e’tirof etilgan, keyingi davr faqihlarining fatvolarini o‘zida jamladi.

Bu asarni Burhoniddin Marg‘inoniyning ustozi, hanafiy mazhabining taniqli namoyandasi Husomiddin Shahid Umar ibn Abdulaziz ibn Moza jamlashni boshlagan bo‘lib, kitob ustoz vafotidan so‘ng alloma tomonidan oxiriga yetkazilgan. Asarning zamonaviy nashri 2004-yilda Islomobod islom xalqaro universiteti professori Muhammad Amin Makkiy tahqiqi asosida Pokistonning Karachi shahrida nashr qilingan.

Asar ikki jild, 28 kitob, 217 bob, 182 fasl, 1357ta masaladan iborat.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “Manasik al-haj” asari beshinchi farz haj ibodati tavsifi va unga oid masalalarga bag‘ishlangan. “Hidoya” asarining “Haj” kitobidla muallif mazkur asarga ishora qilib: “Duolar haqida ayrim asarlar naql qilingan bo‘lsa-

da, biz bu duolarni “Uddatun-nosik fiy udda minal-manasik” asarimizda keltirganmiz” deya qayd etgan. Asar nomi “Hajning ayrim ruknlarga hojining tayyorgarligi” degan ma’noni anglatadi.

Allomaning “Faroiz kitobi” meros ilmiga oid huquqiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, ayrim manbalarda kitobning nomi “Faroiz usmoniy” shaklida keladi.

Burhoniddin Marg‘inoniy merosi asrlar davomida dunyoning turli nuqtalaridagi ilm ahlini o‘ziga rom etib kelmoqda. Alloma olimlar ittifoqiga ko‘ra “Imom”, “Hofiz”, “Muhaddis” va “Faqih” kabi islom ilmlariga xos unvonlar bilan sharaflangan. Burhonuddin – din ilmlarining hujjati va shayxul-islom o‘z davri islom olamining shayxi kabi taxalluslar bilan ulug‘langan.

Hind diyori allomasi Anvashoh Kashmiriy ta’biriga ko‘ra, sunniylikdagi hanafiy, shofeiy, molikiy va hanbaliy mazhablarida “Hidoya” ga o‘xshash fiqhiy kitob yo‘q.

“Hidoya” asari nafiqat hanafiy mazhabi, balki fiqh ilmi taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shdi.U fors, turk, urdu, bengal, ingliz, fransuz va rus tillariga tarjima qilinib, jahon huquqiy tamadduni xazinasidan munosib o‘rin oldi. O‘zbekiston olimlari A. Qambarov, I. Bekmirzayev, A.Ikromjonovlar tomonidan mazkur bebaho manbaning o‘zbek tiliga sharh va izohlari bilan to‘liq tarjima qilinishi va akademik nashrining amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi, Uchinchi Renessans poydevorining o‘ziga xos tamal toshi bo‘ldi.

**Muhammadmuso NABIJONOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*maqsadli tayanch doktoranti*

## BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING HUQUQIY METODOLOGIYASI VA “HIDOYA” ASARINING JAHON TAMADDUNIDAGI O‘RNI

Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahr mintaqasi IX-XII asrlarda islom sivilizatsiyasining intellektual va huquqiy markazi sifatida maydonga chiqdi. Bu davrda jamiyatning jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashishi amaliy huquqiy muammolarga aniq va mantiqiy yechim beradigan mukammal tizimni talab qildi. Bunday tarixiy ehtiyoj natijasida buyuk faqih Burhoniddin Marg‘inoniy o‘zining shoh asari – “Hidoya”ni yaratdi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning jahon tamaddunida buyuk huquqshunos va faqih sifatida tanilishiga sabab bo‘lgan omillarni tahlil qilsak, ular nafaqat shaxsiy fazilatlar, balki o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muhit bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘ramiz. Marg‘inoniy yashagan IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda ilmiy renessansning cho‘qqisi edi. Bu davrda jamiyat rivoji shunchalik tezlashdiki, kundalik

hayotda yuzaga keladigan yangi huquqiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun kuchli huquqshunoslik (fiqh) maktabiga ehtiyoj tug‘ildi. Uning mashhur “Hidoya” asari aynan mana shu hayotiy ehtiyojga javob sifatida dunyoga keldi.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning Xurosondan ma’lum darajada mustaqillashishi mahalliy ulamolarning o‘z kuchlariga tayanishiga turtki berdi.

Qoraxoniy hukmdorlarning ilm ahliga, ayniqsa, hanafiy ulamolariga ko‘rsatgan hurmati va homiyligi Marg‘inoniy avlodlarining Shayxulislom darajasigacha ko‘tarilishiga yo‘l ochdi. O‘sha davrda yozilgan 150 dan ortiq huquqiy asarlar va 20 ta fatvolar to‘plami Marg‘inoniy uchun tayyor ilmiy baza bo‘lib xizmat qildi. Hanafiy mazhabi boshqa mazhablardan o‘zining intellektual erkinligi bilan ajralib turardi. Faqatgina matnga bog‘lanib qolmay, aqliy dalillarga (qiyosga) tayanib, insonlar manfaatini (istehsonni) ustun qo‘yish tamoyili Marg‘inoniyga murakkab masalalarda oson va xalqchil yechimlar topishga yordam berdi. Mahalliy urf-odatlarning shariatga zid bo‘lmagan qismini huquqiy manba sifatida qabul qilinishi Hanafiy mazhabining Markaziy Osiyo hayotiga chuqur singib ketishini ta’minladi.

Marg‘inoniy hanafiy mazhabining eng nozik qirralaridan biri – istehson (yashirin qiyos yoki inson manfaatini ko‘zlab hukmni o‘zgartirish) uslubini mahorat bilan qo‘llagan. Quruq mantiq (qiyosi jaliy) ba’zan hayotiy vaziyatlarda insonlarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Marg‘inoniy esa Abu Hanifa an’analariga sodiq qolgan holda, shariat ruhini saqlab, odamlarga yengillik beruvchi yo‘llarni topgan. “Hidoya” asarida bu uslub shunchalik ko‘p qo‘llanilganki, kitob shunchaki qonunlar to‘plami emas, balki huquqiy mantiq darsligiga aylangan.

Olimning mustaqil mujtahidlik (yangi mazhab ochish) darajasida bo‘lmasa-da, mavjud mazhab doirasida yangi muammolarga yechim topishi uni “mazhab bo‘yicha mujtahid” darajasiga ko‘tardi. U o‘tmishdagi hukmlarni shunchaki ko‘chirmadi, balki ularni tahlil qilib, o‘z davri ehtiyojlariga moslashtirdi. Uning ilmiy uslubi “savol – turli yechimlar – eng afzal yo‘l” zanjiriga asoslangan bo‘lib, bu bugungi zamonaviy yurisprudensiya uslubga yaqin turadi.

“Hidoya” muallifi nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi bo‘lganda sahobalar, mazhablar asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar, turli toifa va qabilalar nomlarini zikr etadi. Abdulhay Laknaviy o‘z muqaddimasida “Hidoya”ning birinchi qismida zikr etilgan sahobalar va tobein ismlari 50 dan ko‘proq, toifa va urug‘lar nomlari 12 ta, jo‘g‘rofiy va tarixiy joylar nomi 55 ta ekanligini ko‘rsatib, ularning har biri haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tgan. U Marg‘inoniy asarida kelgan 90 dan ortiq buyuk faqihlar, imomlar, mujtahidlar, jumladan, mashhur sahobalar va muhaddislar ismlarini hamda ularga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni zikr etadi. Bunga binoan, “Hidoya” muallifining ishi qanchalik og‘ir va keng qamrovli ekanligini tushunish qiyin emas. Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” kitobini yozishda o‘ziga xos uslub yaratdi. Uning har bir iborasi nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumlalarning har biri bir umumiy qoida

shaklida beriladi. Uning iboralari mo‘jaz, ya’ni qisqa va sermazmun, so‘zlarining tarkibi puxta, nuqsonsiz bo‘lib, sun’iylikdan uzoq. U ko‘p zarurat sezmasa, sinonim so‘zlardan foydalanmaydi. Hashv va zavoidni (kerak bo‘lmagan ortiqcha so‘zlarni) ishlatmaydi.

Muallif, “Hidoya”ni yozishda o‘ziga xos bo‘lgan qisqa so‘zlar, istilohlar (atamalar) va ixcham iboralarni ishlatadi. Ushbu iboralar “Hidoya” ustidan yozilgan ko‘p sharhlar va hoshiyalarda mualliflari tomonidan belgilab berilgan. Mazkur manbalarga asoslanib, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy), Shayx Abdulhaq Dehlaviy va Abdulhay Laknaviy o‘z asarlarida ularni izohlab o‘tganlar. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

“Fi diyorina” (“Bizning diyorimizda”) deganda, u Movarounnahr shaharlarini nazarda tutadi.

“Qola mashoixuna” (“Bizning shayxlarimiz, ya’ni ustozlarimiz debdurlar”) deganda, u Movarounnahr (Buxoro, Samarqand) olimlarini nazarda tutadi.

Abu Su’udning yozishicha, “Hidoya” muallifi o‘z fikrini bildirmoqchi bo‘lganda “Qola al-abduz-zaif afo anhu” (Bu ojiz banda Xudo uni kechirsin bunday deydi) iborasini ishlatgan. Lekin uning vafotidan keyin ayrim shogirdlari ushbu jumlani “Qola roziyallohu anhu” (Xudo undan rozi bo‘lsin, bunday deydilar) iborasi bilan almashtirganlar.

Uning odatlaridan biri shundaki, nazarida ma’qul ko‘ringan mazhab dalilini asar oxirida keltiradi. Qozizoda Rumiy laqabi bilan mashhur bo‘lgan Zayniddin Shayx Muhammad Afandi “Natoijul-afkor” kitobida yozishicha, muallif turli mavzular uchun dalil keltirish jarayonida eng kuchli dalilni hammasidan oxirida keltiradi. Bundan uning maqsadi, oxirgi so‘zni ilgari zikr etilgan matlablar uchun dalil sifatida qo‘llashdir.

“Hidoya” kitobining yana bir xususiyati shundan iboratki, unda “ilmul-xilof” orqali belgilab berilgan qoidalar keng ko‘lamda nazarda tutiladi. Chunki Marg‘inoniy ushbu fan sohasida ham katta olim va mutaxassis hisoblangan.

“Ilmul-xilof” faniga birinchi bo‘lib asos solgan alloma Abu Zayd ad-Dabusiy edi. Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya”da huquqiy muammolarni yechish jarayonida faqat asosiy mazhablargagina emas, balki zohiriy va avzo’iy mazhablariga doir fikr-mulohazalarni ham o‘rni kelganda tekshirib o‘tadi va har biri haqida o‘z nuqtayi nazarini bildiradi. Ushbu nuqtayi nazardan “Hidoya” “ilmul-xilof”ni keng ko‘lamda o‘rganish uchun ham muhim va e’tiborli manba hisoblanadi. Ayni holda uni oxirgi davrda yangi bir fan sifatida yuzaga kelgan “qiyosiy huquq”ning o‘ziga xos bir shakli deb qarash mumkin.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarida so‘nggi uch faqih asarlariga ko‘p havola qiladi. Shuning uchun ular to‘g‘risida biroz kengroq ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

Birinchi faqih: Abu Yusuf  Ya’qub ibn Ibrohim ibn Xubayb fiqh ilmi sohasida mashhur bo‘lib, Abu Hanifaning shogirdi, “ahli ray” maktabi asoschilaridan bo‘lgan.

Umrining oxirigacha, ya’ni hijriy 183-yilgacha Horun ar-Rashid davrigacha Bag‘dodda qozilar qozisi bo‘lgan. Abu Yusuf hanafiy mazhabi bo‘yicha birinchi bo‘lib kitob yozgan va ushbu mazhabni tarqalishiga sababchi bo‘lgan buyuk faqih.

Ikkinchi faqih: Muhammad ibn Hasan ibn Vohid Abu Abdulloh Shayboniydir. Uning otasi asli shomlik bo‘lgan. Muhammad Kufada katta bo‘lgan, avval ilmni Molikdan, Avzoiydan, Mus‘ardan va Sariydan olgan. So‘ng Abu Hanifaga shogird bo‘lib fiqh ilmini undan o‘rgangan. Grammatikada, hisobda, Qur‘onda mohir bo‘lgan. Shofe’iy raxmatullohii alayh: “Men Muhammaddan bir tuyaga yuk bo‘lgudek ilm oldim”, degan. “Sharhul-muqaddima”da yozilishicha, Muhammad diniy sohada 990 ta kitob yozgan. Muhammad Anas ibn Molikning huzurida uch yil davomida 700 ta hadisni yod olganlar.

Uchinchi faqih: Zufar ibn Xuzayl ibn Qays Basriydir, hijriy 110-yilda tug‘ilib 158-yili Basrada vafot qilgan. Abu Hanifa u kishini hurmatlab: “Zufar meni shogirdlarim orasida qiyosga eng mohiridir”, degan. Hasan ibn Ziyodning aytishicha, “Abu Hanifaning majlislarida eng peshqadam shogird bu Zufar edi”. Abu Qoim ta’kidlashicha, Zufar ishonchli, omonatdor kishi edi, hatto Basraga kirganlarida (akasining merosini olgani) shahar aholisi uni mahkam ushlab olib, shahardan chiqib ketishiga qarshi bo‘lgan. Abu Dovud Toyi rivoyat qilishicha, Zu-far Abu Yusuf bilan fiqh, borasida munozaralar qilgan, uning tili bag‘oyat fasohatli, ravon bo‘lgan. Ko‘pincha Abu Yusuf ushbu munozaralarda biroz hayajonlanib qolgan. Tarixchi Ibn Xallikon “Vafiyyotul-ayon” asarida yozishicha, Zufar asli Isfaxon shahridan. Muhammad ibn Abdulloh Aqsoriy ta’kidlashicha, Zufarga qozilik taklif etilganda qabul qilmay bir qancha muddat berkinib yurgan. Shunda kelib uyini buzib ketishgan. So‘ng o‘zi kelib uyini tuzatgan. Yana taklif bo‘lgan, Zufar rad etgan, kelib uyini yana vayron qilishgan. Ammo Zufar taklifni qabul qilmagan. Bu yerda qozilik mansabini qabul qilmaslik bu kasbni mas’uliyati katta bo‘lganligi sabablidir.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” kitobida huquqiy muammolarni yechish jarayonida nafaqat to‘rtta asosiy mazhab (Hanafiy, Molikiy, Shofe’iy va Hanbaliy mazhablari), balki Zohiriy va Avzoiy mazhablariga doir fikr va mulohazalarni ham o‘rni kelganda berib o‘tgan va har biri haqida o‘z nuqtayi nazarini bildirgan.

“Hidoya” asarining keng ko‘lamli nazariy manbalari Marg‘inoniyning keng va ko‘p qirrali istedod va ilm egasi ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Faqih o‘zi ixtiyor qilgan mazhab dalillarini eng so‘ngida keltiradi. Yana shunday doimiy odatlaridan biri, garchi buyuk faqihlarning so‘zlarini sanaganda ko‘pincha birinchi bo‘lib eng kuchli so‘zni keltirsa, ixtilofli so‘zlarga dalil keltirgan vaqtda oxiri keltirilgan dalil oldingisiga javob o‘rnida bo‘lishi uchun eng kuchli so‘zning dalilini oxirida keltiradi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning ilmiy faoliyati va “Hidoya” asarini o‘rganish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Marg‘inoniy an’anaviy manbalarni (Nass) aqliy dalillar (Qiyos) va ijtimoiy manfaatlar (Istehson) bilan uyg‘unlashtira olgan. Bu esa islom huquqining barcha zamonlarda hayotiyligini ta’minlaydi.

Alloma belgilab bergan shariatning besh maqsadi (din, aql, hayot, nasl va mulkni saqlash) bugungi zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasi bilan mazmunan hamohangdir.

Uning “Ilmul-xilof” doirasida turli mazhablar va ulamolar (Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy, Zufar ibn Xuzayl) qarashlarini qiyosiy tahlil qilishi, zamonaviy qiyosiy huquqshunoslik fanining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Musulmonlari idorasi qoshidagi Fatvo markazi va boshqa diniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatida aynan Marg‘inoniy metodikasi – jamiyat barqarorligini asrash va diniy savollarga hanafiy mazhabi asosida mo‘jaz va mantiqiy javob topishda asosiy qo‘llanma bo‘lib qolmoqda.

**Fazlulloh ALISHEROV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*“Islom huquqi” 2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent,* **Shuxratjon RAJABOV**

## BURHONIDDIN MARG‘INONIYNING “AL-HIDOYA” ASARIDA VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARIGA OID FIQHIY MASALALAR

XXI asrda inson huquqlari masalasi global miqyosda muhim ilmiy, huquqiy va ijtimoiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, jamiyatning eng himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini ta’minlash davlat siyosati, xalqaro tashkilotlar faoliyati va huquqiy tizimlarning ustuvor yo‘nalishiga aylangan[108]. Bugungi kunda bolalar huquqlari nafaqat ijtimoiy himoya masalasi sifatida, balki huquqiy ong, adolat va insonparvarlik mezoni sifatida ham baholanmoqda.

Xalqaro huquqda BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”, milliy qonunchilikda esa voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, ushbu masalaning diniy-huquqiy manbalardagi ildizlari, xususan islom huquqidagi konseptual asoslari ko‘pincha yetarli darajada ilmiy muhokama qilinmaydi. Holbuki, islom huquqi tarixan

[108] Shavkat Mirziyoyev. “Inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta‘minlash – demokratik taraqqiyotning muhim sharti”. Prezident.uz, 10-dekabr 2018. https://president.uz

bolalar huquqlarini himoya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratgan va bu borada mukammal huquqiy tizimni shakllantirgan[109].

Islom huquqida voyaga yetmagan shaxs faqat tarbiyaviy subyekt emas, balki huquq va majburiyatlarning egasi sifatida qaraladi. Fiqhiy manbalarda bolalarning huquqiy layoqati, mulkka egalik qilish huquqi, nikohga oid masalalardagi holati, vasiylik va homiylik mexanizmlari aniq mezonlar asosida belgilangan[110]. Bu esa islom huquqining insonparvarlik mohiyatini va jamiyatda adolatni ta’minlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Mazkur yo‘nalishda hanafiy fiqh maktabi alohida o‘rin tutadi. Hanafiylar fiqhiy masalalarda ijtimoiy ehtiyoj, manfaat va qulaylik (istihson) tamoyillariga tayangan holda huquqiy qarorlar ishlab chiqqan. Ushbu maktabning eng yetuk va tizimli asarlaridan biri Burhoniddin al-Marghinoniy tomonidan yozilgan “Al-Hidoya” asaridir. Ushbu asar nafaqat hanafiy fiqhning mukammal sharhi, balki islom huquqiy tafakkurining yuqori cho‘qqisi sifatida e’tirof etiladi.

Marg‘inoniy shaxsiyati, uning ilmiy shakllanishi va “Al-Hidoya” asarining yaratilish tarixi hamda fiqhiy-ilmiy ahamiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u Movarounnahr ilmiy an’anasining eng yuksak cho‘qqilaridan birida turgan allomalardan biridir. Uning hayot yo‘li, ustoz-maktabi va ilmiy tarbiyasi o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, XII asr Markaziy Osiyo muhitida shakllangan ilmiy tafakkurning tabiiy davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Marg‘inoniy o‘zidan oldingi hanafiy faqihlar tomonidan yaratilgan huquqiy merosni sinchiklab o‘rgangan, ularning fikrlarini tartibga solgan, qarama-qarshi fikrlarni bir tizimga keltirgan va ularning ichki mantiqini daliliy asosda mustahkamlagan. Shu bois uning merosi fiqh tarixida tub burilish bosqichi sifatida baholanadi.

“Al-Hidoya”ning yaratilish jarayoni Marg‘inoniyning ilmiy pishganlik davri bilan mos tushadi. Asar “Bidayat al-Mubtadi” matnidan boshlangan ilmiy jarayonning eng yetuk shakli bo‘lib, “Kifayat al-Muntahi”dagi murakkab va keng daliliy qatlamlarning ixcham, lekin mazmunan chuqur shaklda qayta tartiblanishi natijasida yuzaga kelgan. Bu jarayonning o‘zi Marg‘inoniyning ilmiy dunyoqarashi, fikrning pishganligi va huquqiy tafakkurning qat’iy metodologik asoslarini mukammal tushunganini ko‘rsatadi. “Al-Hidoya”ning tuzilishidagi mantiqiy ketma-ketlik, boblar o‘rtasidagi uzviylik, hukmlarning sabab-illatlari bilan birga taqdim qilinishi asarni o‘rta asr islom huquqiy tafakkurining eng yuksak namunalaridan biriga aylantirgan.

Bugungi kunda “Al-Hidoya” asari fiqhiy masalalar bo‘yicha keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, undagi voyaga yetmaganlar huquqlariga oid masalalar alohida, kompleks tadqiqot obyekti sifatida kam yoritilgan. Shu sababli mazkur dissertatsiya klassik fiqhiy merosni zamonaviy huquqiy muammolar bilan bog‘lab o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning dolzarbligi aynan shu jihatda namoyon bo‘ladi.

---

[109] Kamali, Mohammad Hashim. Principles of Islamic Jurisprudence. – Kuala Lumpur: Ilmiah Publishers, 2003. – P. 347–352.

[110] As-Saraxsiy, Muhammad ibn Ahmad. المبسوط. – Bayrut: Dar al-Ma‘rifa, 1993. J.24. – B. 36–40.

Islom huquqi inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi mukammal tizim bo‘lib, unda jamiyatning eng zaif qatlamlari – bolalar, yetimlar, voyaga yetmaganlar alohida himoya qilinadi. Qur’onda yetimlarning molini adolatli saqlash, ularni e’tiborsiz qoldirmaslik qat’iy buyurilgan (Niso surasi, 2-oyat). Hadislar ham bu masalani yanada mustahkamlagan.

Burhoniddin Marg‘inoniy hanafiylik fiqhining yirik namoyandalaridan bo‘lib, uning “Al-Hidoya” asari asrlar davomida musulmon dunyosida huquqiy qo‘llanma sifatida keng qo‘llanilgan. Ushbu asarda voyaga yetmaganlarning huquqlariga oid ko‘plab qoidalar jamlangan bo‘lib, ular nafaqat diniy, balki huquqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida ham dolzarbdir.

“Al-Hidoya” – hanafiylik fiqhining mukammal majmuasi bo‘lib, u nafaqat hukmni, balki hukmning dalilini ham izohlaydi. Marg‘inoniy o‘z asarida Qur’on, hadis, ijmo’ va qiyos manbalariga asoslanadi. Voyaga yetmaganlarga oid boblarda ularning huquqlari, ularni himoya qilish mexanizmlari, vasiylik institutining o‘rni chuqur tahlil qilinadi.

Asarda muomalot (savdo, hadya, ijara)da voyaga yetmaganlarning ishtiroki, nikoh masalalari, mol-mulkni boshqarish, vasiy va homiylarning mas’uliyati bosqichma-bosqich tushuntiriladi. Bu esa hanafiylikning insonparvarlik ruhini ko‘rsatib beradi.

Eng muhimi, Marg‘inoniyning fiqh metodologiyasi va “Al-Hidoya”dagi hukmlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asarni faqat matn darajasida emas, balki fikr tizimi darajasida ham mukammal manbaga aylantirgan.

U hukmni keltirar ekan, uni muhitdan uzib qo‘ymaydi, balki sababini, maqsadini, zaruriyatini va ijtimoiy asosini bayon qiladi.

Bu yondashuv zamonaviy huquqshunoslikning “maqosidga yo‘naltirilgan huquqiy tahlil” metodi bilan uyg‘un bo‘lib, “Al-Hidoya”ning bugungi kunda ham qiymatli bo‘lishining asosiy sabablaridan biridir.

Marg‘inoniyning ta’kidlashicha, voyaga yetmaganlar balog‘atga yetmaguncha to‘liq huquqiy mas’uliyatga ega emas.

Ularning qilgan bitimlari faqat vasiy yoki homiyning roziligi bilan haqiqiy bo‘ladi. Masalan, sag‘ir bolaning savdo shartnomasi tuzishi mumkin emas, chunki u oqibatlarini tushunmaydi.

Ammo vasiy ruxsati bilan amalga oshirilsa, shariat uni maqbul deb biladi.

Voyaga yetmagan bola tug‘ilganidan boshlab mol-mulkka egalik huquqiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, meros yo‘li bilan unga mol o‘tishi mumkin. Biroq u mulkni o‘zi tasarruf eta olmaydi.

“Al-Hidoya”da qayd etilishicha, sag‘irning molini boshqarish, uni zararli bitimlardan asrash vasiy zimmasiga yuklatiladi. Vasiy bolaning molidan faqat uning foydasi uchun foydalanishi mumkin, aks holda qozining nazorati ostida javobgar bo‘ladi.

Marg‘inoniy vasiylikni voyaga yetmaganlarning eng muhim huquqiy kafolatlaridan biri sifatida ta’riflaydi.

Vasiy tayinlashda qarindoshlik aloqalari, halollik va mas’uliyat mezonlari asosiy o‘rinda turadi. Vasiy bolaning molini faqat foydali maqsadlarda ishlatishi, uni zararli qarorlardan asrashi shart.

Zarur hollarda vasiy molni savdoga qo‘yishi mumkin, ammo bu bola manfaatiga zid bo‘lmasligi kerak.

Shuningdek, vasiy bolaning ta’limi, tarbiyasi, sog‘lig‘i uchun ham javobgar hisoblanadi. “Al-Hidoya”da vasiylik faqat moliyaviy emas, balki ma’naviy mas’uliyat sifatida ham talqin qilingan.

Voyaga yetmaganlarning nikohi masalasi fiqhda eng ko‘p bahsli mavzulardan biri. Marg‘inoniy hanafiylikdagi qarashlarni bayon qilib, ota-onaning yoki vasiylarning ma’lum sharoitlarda voyaga yetmagan qizni nikohga berishi mumkinligini zikr etadi.

Lekin balog‘atga yetgach, unga tanlash huquqi (ihyor) berilishi alohida qayd etiladi. Bu esa islom huquqining inson huquqlarini qadrlashini ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish fiqhda adolat tamoyilining ifodasidir. “Al-Hidoya”da keltirilgan qoidalar orqali:

– yetimlarning mol-mulki himoyalanadi,

– ularning huquqlarini suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘yilmaydi,

– jamiyatda zaif qatlamning manfaatlari kafolatlanadi.

Bu jihatlar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, xalqaro bolalar huquqlari konvensiyasidagi tamoyillar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Demak, Marg‘inoniyning asari nafaqat o‘z davri, balki bugungi davr uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Burhoniddin Marg‘inoniy o‘zining “Al-Hidoya” asarida voyaga yetmaganlarning huquqlariga oid masalalarni puxta tahlil qilib, ularni himoya qilishning huquqiy va axloqiy asoslarini belgilab bergan. Uning qarashlari shariatning adolat, mas’uliyat va insonparvarlik tamoyillariga tayanganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham bu qoidalar bolalar huquqlarini himoya qilishda, vasiylik institutini mukammallashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Шахзода РАШИДОВА,**
*в.б. доцент Международной академии исламоведения Узбекистана, самостоятелный соискател Института государства и права Академии наук Республики Узбекистан*

# ИНСТИТУТ БРАЧНОГО СОДЕРЖАНИЯ (НАФАКА) В ПРОИЗВЕДЕНИЕ «ХИДОЯ» АЛ-МАРГИНАНИ КАК ГАРАНТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СУБЪЕКТНОСТИ ЖЕНЩИНЫ

Сегодня в Узбекистане защита прав женщин стала частю болшой государственной политики. Разрабатываются способы оградит женщину не толко от домашнего насилия, но и от финансовой зависимости. И здес на помощ неожиданно приходят наши националныэ традитсии, если взглянут на них без привычных стереотипов.

Многие ошибочно полагают, что в классической мусулманской семе женщина экономически бесправна. Чтобы разрушит этот миф, достаточно обратится к наследию нашего великого ученого — Бурхануддина ал-Маргинани[111]. Его фундаменталный труд «Хидоя»[112], написанный в XII веке в Риштане, на столетия стал главным юридическим кодексом для судов всего исламского мира и даже изучался европейскими юристами как образес правовой логики.

Маргинани описывает удивительно современную модель: бюджеты супругов строго разделены. В его трактовке обязанност мужа содержат семю (нафака نَفَقَة) абсолютна. Муж должен платит за всё – еду, жиле, одежду – даже если его жена богаче его самого. Женщина же не обязана тратит на быт ни копейки из своих личных средств[113].

[111] Шейхулислам Бурхониддин Али ибн Абу Бакр ибн Абдулджалил ал-Фаргани ар-Риштани ал-Маргинани родился 23 сентября 1123 года в городе Маргинан. Во времена жизни Маргинани в исламском мире приобрели известност школы правоведения, развивавшиеся в Самарканде и основанныэ имамами ал-Бухари, ал-Мотуриди и Абу Лайсом. В этом отношении понятно стремление имама Бурхониддина ал-Маргинани проживат именно в Самарканде. Имам ал-Маргинани является автором «Хидоя фи фуруъ ал-фикх» («Путеводител по областям фикха»). итул «шейхулислам» является наивысшим признанием духовных знаний и обычно давался государством богословам, заслужившим это признание. Так вот это почетное звание в отношении Маргинани было дано правоведами всего мира, что говорит о его высоком уровне духовных знаний.

[112] Ал-Маргинани, Б. Ал-Хидоя шарх Бидоят ал-мубтади (с комментариями имама Абдул-Хая ал-Лакнави) [Электронный ресурс]: в 7 т. / Бурхануддин ал-Маргинани. — [Б. м.]: Мактаба Ширкат ал-Илмия, [б. г.]. — УРЛ: ҳттпс://арчиве.орг/детаилс/фиқҳ_ҳанафи_ҳидая_лакнави (дата обращэния: 22.01.2026). — Текст на араб. яз. Впервыэ Хидоя была опубликована в Самарканде четвертого месятса Зулкада в 573 года хиджры (середина апреля 1178 года). Эта книга вывела Бурхониддина Маргинани на уровен «имама фикха» и прославила его во всем исламском мире.

[113] «Китаб ан-Нафакат». Ал-Маргинани Б. Хидоя. Комментарии мусулманского права: в 2 ч. Ч. 1. Т. И–ИИ / пер. с англ.; под ред. Н.И. Гродекова; отв. ред., авт. предисл., вступ. ст. и науч. комм. А.Х. Саидов. — М.: Вольтерс Клувер, 2010. — 808 с.

Парадоксалным является то, что именно древние нормы «Хидоя», освобождая женщину от бытовых расходов, создают идеалныэ условия для накопления её личного капитала. Это и ест та самая экономическая автономия, к которой мы стремимся в современном праве.

Для интерпретации текста XII века в данном исследовании исползовался герменевтический метод, позволяющий рассматриват нормы «Хидоя» не толко как религиозные предписания, но и как юридические конструкции, обладающие внутренней логикой и системностю. Также применялся формально-юридический анализ для определения правовой природы нафака как возмездного обязателства, отличного от дарения (هِبَة) или милостыни (صَدَقَة).

Централным элементом экономической модели семи в «Хидоя» является определение правовой природы содержания (нафака — نَفَقَة). Бурхануддин ал-Маргинани, полемизируя с представителями других мазхабов, четко разграничивает понятие материалной помощи нуждающэмуся и супружеского содержания.

В трактовке ал-Маргинани нафака носит характер встречного удовлетворения в рамках брачного договора. Обязанност мужа по содержанию жены возникает не вследствие её нетрудоспособности или бедности, а как юридическая компенсация за Ихтибас (الإِحْتِبَاس) (удержание/посвящэние себя семе). Посколку женщина в рамках брачного союза ограничивает свою социалную мобилност интересами семи, муж, как получател выгоды от этого статуса, обязан полностю компенсироват её жизненныэ расходы (нафака ал-джаза — содержание как компенсация — نَفَقَةُ الْجَزَاءِ). Важно отметит, что данная конструкция не столко ограничивает женщину, сколко создает юридическую базу для требования выплат. Обязанност платит нафака начинается с момента, когда жена выразила готовност переэхат в дом мужа[114].

Ал-Маргинани последовательно проводит идею разделности имущэства. Согласно нормам «Хидоя», даже если жена является богатой (الزَّوْجَةُ مُوسِرَةٌ), владеэт недвижимостю или собственным бизнесом, это не освобождает мужа от обязанности обеспечиват её питанием, одеждой и жилем. В тексте «Хидоя» отсутствует концепция “совместного вклада в быт” в том виде, в каком она сущэствует в советской и постсоветской правовой традитсии[115].

Это позволяет сделат вывод о том, что ханафитская правовая доктрина конструирует модель «гарантированного пассивного дохода» для замужней женщины, при которой её личныэ заработки и активы не расходуются на текущэе потребление, а капитализируются. Именно этот механизм выступает

[114] Ал-Маргинани, Б. Ал-Хидоя шарх Бидоят ал-мубтади (с хашией имама Абдул-Хая ал-Лакнави) [Электронный ресурс]. — [Б. м.]: Мактаба Ширкат ал-Илмия, [б. г.]. — Т. 2. — Книга о содержании (Китаб ан-Нафакат). — Глава И. — URL: хттпс://арчиве.орг/детаилс/фиқх_ханафи_хидая_лакнави (дата обращэния: 22.01.2026). — (В тексте: «Нет содержания для непокорной [ан-нашиза]... из-за отсутствия удержания [ал-ихтибас]...»).

[115] См. подробно: Ал-Маргинани Б. Хидоя. Комментарии мусулманского права: в 2 ч. Ч. 1. Т. И–ИИ. Книга ИВ. О содержании (Китаб-ун-Нафакат). — М.: Вольтерс Клувер, 2010.

экономической основой её субъектности, позволяя женщине сохранят финансовую независимост даже в патриархалном общэстве.

Одной из наиболеэ сложных проблем в теории семейного права является определение точного размера содержания. В «Хидоя» ал-Маргинани приводит фундаменталную правовую дискуссию, которая демонстрирует различие между формалным и социально-ориентированным подходами.

Ал-Маргинани оппонирует позитсии имама аш-Шафии, который утверждал, что размер нафака зависит исключительно от материалного положения мужа[116]. Логика аш-Шафии строится на принципе долгового обязателства: «На богатом лежит обязанност согласно его богатству, а на бедном – согласно его бедности».

В «Хидоя» закрепляется дифференсированная шкала обеспечения, которая служит механизмом защиты женщины от резкого падения уровня жизни после вступления в брак. Ал-Маргинани выделяет три сценарийа:

– оба супруга богаты: жена имеэт право на содержание по высшему разряду (качественная еда, дорогая одежда).

– оба супруга бедны: содержание определяется по минималному стандарту, достаточному для жизни, чтобы не возлагат на мужа невыполнимое бремя.

– смешанный статус: Если муж богат, а жена из бедной семи (или наоборот), ал-Маргинани предписывает придерживатся стандарта «طسَوَلْا» (среднего значения).

Анализируя текста «Китаб ан-Нафакат» (О содержании) можно реконструироват структуру обязателного обеспечения, которая по своей детализатсии предвосхищает современныэ понятия потребителской корзины:

– Продоволственное обеспечение: включает не толко базовый продукт (хлеб/пшенитса), но и то, что делает пищу полнотсенной (приправа, мясо, масло). Причем качество продуктов должно соответствоват привычкам жены.

– Сезонная одежда: Ал-Маргинани подчеркивает императивност предоставления одежды дважды в год (лето/зима), причем качество ткани должно соответствоват социалному статусу[117].

– Право на прислугу: наиболеэ показателный элемент защиты «экономического достоинства». Если жена происходит из семи, где она не занималас бытовым трудом (аристократия, высший класс), муж обязан оплатит услуги прислуги, так как самостоятелное ведение хозяйства для такой женщины является «унижением и непосилной тяготой» (ситируя логику факихов).

Доктрина ал-Маргинани формирует стандарт, при котором женщина не просто “выживает”, а сохраняет привычный ей социалный и культурный уклад за счет средств мужа. Это подтверждает тезис о том, что исламское право конструирует

[116] См.: Ал-Маргинани Б. Хидоя. Комментарии мусулманского права: в 2 ч. Ч. 1. Т. И–ИИ. Книга ИВ. О содержании (Китаб-ун-Нафакат). Глава И. О содержании жены. — М.: Вольтерс Клувер, 2010. — С. 272–273.

[117] Юсупова Н.Ж, Рашидова Ш.Р. Основы семейный жизни в исламском праве. Методическое пособие для брачующихся. Т.: 2019. – С 34.

брак не как партнерство равных вкладов, а как институт, где финансовое бремя полностью возложено на мужчину для обеспечения комфорта женщины.

**Yosinbek RAHIMOV,**
*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*
*“Qiyosiy dinshunoslik” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar: PhD* **Mo‘min Mirzo ABDUPATTAYEV,**
*O‘zXIA dotsenti v.b.,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## BURHONIDDIN AL-MARG‘INONIY MEROSI VA ZAMONAVIY ISLOM MA‘RIFATI: TEOLINGVISTIK TAHLIL

Burhoniddin al-Marg‘inoniy merosini “zamonaviy islom ma’rifati” bilan bog‘lab o‘rganish ko‘pincha tarixiy-fiqhiy yo‘nalishda olib boriladi: asarning yaratilish tarixi, manba tizimi, mazhab doirasidagi o‘rni, sharhlar an’anasi va huquqiy xulosalar doirasi markazga chiqadi. Teolingvistik yondashuv esa masalani boshqa burchakdan ochadi: klassik fiqhiy matn qanday til me’yorlarini barqarorlashtirdi, diniy-huquqiy fikr qanday matn qurilishida “ishlaydi”, me’yor (norma) til orqali qanday legitimlashtiriladi, bugungi ma’rifiy muhitda shu “matn modeli” qanday qayta kommunikativlashadi. Teolingvistika terminining ilmiy muomalaga kirishi va uning mazmuni “diniy e’tiqod va tafakkurning lingvistik artikulyatsiyasi”ni o‘rganishga urg‘u berishi bilan izohlanadi. Ushbu yo‘nalishning pluridisiplinarligi J. van Noppen tomonidan alohida ta’kidlangan. Shu bilan bir qatorda, David Crystal din va til munosabatlari masalasi kengroq lingvistik tahlil uchun muhim maydon ekanini, xususan diniy talqin, sharh, tarjima va taqdim jarayonlari tilshunoslik bilimlari bilan yoritilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, Marg‘inoniy merosi teolingvistika uchun “tayyor ob’ekt” bo‘la oladi: u klassik ilmiy-diniy diskurs(bayon,nutq)ning eng namunaviy ko‘rinishlaridan birini beradi va bugungi diniy-ma’rifiy kommunikatsiyada davom etayotgan til jarayonlarini kuzatish imkonini yaratadi.

Burhoniddin al-Marg‘inoniyning vafot sanasi 593 hijriy/1197 milodiy atrofida qayd etiladi va u hanafiy fiqh maktabining yirik vakillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning “al-Hidoya”si 12-asr hanafiy huquqiy qo‘llanmasi sifatida ko‘plab sharh va hoshiya an’analarini vujudga keltirgan, ta‘lim jarayonida esa “asos matn” vazifasini bajargan asar deb ta’riflanadi. Asarning nomining o‘zi teolingvistik jihatdan “yo‘l ko‘rsatish”, “hidoyat qilish” ma’nosi orqali me’yoriylikni ifodalaydi. Bu

me’yoriylik qat’iy buyruq shaklida emas, balki mantiqiy dalillash va tartibli bayon orqali “to‘g‘ri yo‘l”ga yo‘naltiruvchi ilmiy nutq sifatida namoyon bo‘ladi. Matnda hukmlar ko‘pincha bevosita amr tarzida emas, balki mazhab doirasidagi ixtiloflar va ularni solishtirib, afzalini tanlash (tarjih) yo‘li bilan asoslanadi. Teolingvistik nuqtayi nazardan bunday uslub diniy-huquqiy maqomning til vositalari orqali shakllanishi va mustahkamlanishini ko‘rsatadi.

Maqolaning material bazasi sifatida “al-Hidoya”ning zamonaviy nashr va tarjima muhitidagi mavjudligi ham e’tiborga olinadi. Xususan, O‘zbekistonda “Hilol” nashriyot-matbaasi tomonidan 2022-yilda “Hidoya”ning to‘ldirilgan nashr asosida tarjima qilingani, tarjima va izohlar mualliflari ko‘rsatilgani haqidagi ma’lumotlar bugungi ma’rifiy makonda asar “tilga ko‘chishi”ning institutsional ko‘rinishini bildiradi.

Bu fakt teolingvistik tahlilda muhim: tarjima oddiy “so‘z almashtirish” emas, balki diniy-huquqiy terminlarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini me’yorlashtirish, matnning murakkab argumentatsiyasini zamonaviy o‘quvchi uchun “o‘qiladigan” diskursga aylantirish, izoh orqali pragmatik ko‘prik qurish demakdir. Shu nuqtada klassik fiqhiy nutq bilan zamonaviy ma’rifiy nutq o‘rtasida “kod almashinuvi” yuz beradi: bir tomonda arabcha ilmiy an’ana, ikkinchi tomonda o‘zbekcha ma’rifiy-kommunikativ ehtiyoj.

Zamonaviy islom ma‘rifati konteksti O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “ma’rifat”, “tolerantlik”, “diniy bag‘rikenglik” kabi tushunchalar bilan ko‘proq konseptuallashtirilmoqda. BMT Bosh Assambleyasida 2018-yil dekabr oyida O‘zbekiston tashabbusi bilan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” mavzusidagi rezolyutsiya qabul qilingani va unda ta’limga umumiy kirish, savodsizlik va jaholatga qarshi kurash, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni targ‘ib qilish kabi yo‘nalishlar urg‘ulanishi qayd etiladi. Bu siyosiy-huquqiy fon diniy merosni “ma’rifiy resurs” sifatida qayta o‘qishga turtki beradi. Marg‘inoniy kabi mutafakkirlar asarlari endi faqat tor ixtisosli fiqhiy muhitda emas, balki kengroq ma’naviy-ma’rifiy ta’lim, huquqiy madaniyat va diniy savodxonlikni oshirish doirasida ham tilga olinadi. O‘zbekistonning ilmiy-diniy muassasalari maydonida “ma’rifat va bag‘rikenglik” g‘oyasining targ‘ibi, ajdodlar merosini o‘rganish va yosh avlodga yetkazish zarurati ham shu ruhda izohlanadi.

Teolingvistik jihatdan Marg‘inoniyning zamonaviy islom ma’rifatidagi o‘rnini uch qatlamda ko‘rish mumkin. Terminologik qatlam, diskurs-pragmatik qatlam va intertekstual qatlam.

Terminologik qatlamda “al-Hidoya” fiqhiy kategoriyalarni (hukm turlari, ibodat va muomalotga oid tushunchalar, shart-ruhn, sabab, man’, ruxsat va taqiqlar) aniq chegaralangan semantik maydonlarga joylaydi. Bu maydon keyingi asrlarda ham hanafiy fiqhiy ta’limning “til xaritasi” bo‘lib qoladi. Bugungi tarjima va izoh jarayonida aynan shu semantik maydon o‘zbekcha ifoda vositalariga ko‘chadi: o‘quvchi istilohni anglagani sari, fiqhiy tafakkurning mantiqiy toifalari ham anglanadi.

Diskurs-pragmatik qatlamda “al-Hidoya”ning bayon usuli e’tiborlidir. U “ta’lim matni” sifatida hukmni shunchaki e’lon qilmaydi, balki dalil, qiyos, rivoyat va tarjih mantiqini izchil yuritadi. Mazkur xususiyat “asarga sharh kerak” degan an’anaviy fikrni ham tushuntiradi. Matnning mazmunan zich va ilmiy tarzda ifodalangani uni o‘qituvchi yoki ustoz sharhi orqali tushuntiriladigan, ya’ni izoh bilan ochiladigan didaktik diskursga aylantiradi. “Al-Hidoya”ning ta’lim qo‘llanmasi sifatida keng qo‘llanishi haqida manbalarda bevosita ta‘kidlar uchraydi.

Intertekstual qatlamda esa fiqhiy matn Qur’on va hadis, shuningdek avvalgi fuqaholar merosi bilan doimiy aloqada turadi. Bu aloqa ko‘pincha iqtibos, ishora, rivoyat zanjiri yoki mazhab ichidagi “qavllar” tarmog‘i orqali beriladi. Natijada “Al-Hidoya” zamonaviy ma’rifiy maydonda ham diniy bilimning “matnlararo ko‘prigi” vazifasini bajaradi. U o‘quvchini bevosita manbalarga bog‘laydigan ilmiy tilni taqdim etadi.

“Al-Hidoya”ning tarixiy ta’sir doirasi haqida gap ketganda, uning ingliz tiliga tarjima an’anasi ham muhim indikator bo‘la oladi: Charlz Hemilton (Charles Hamilton) tomonidan 1791-yilda “The Hedàya, or Guide” nomi bilan to‘rt jildda nashr qilingan tarjima mavjudligi qayd etilgan. Bu holat teolingvistik o‘qishda yana bir narsani ko‘rsatadi. Fiqhiy diskurs nafaqat diniy ta’lim ichida, balki turli huquqiy-administrativ kontekstlarda ham “tarjima orqali qayta kodlangan” va yangi auditoriyalarda talqin qilingan. Ya’ni “al-Hidoya”ning zamonaviy ma’rifatdagi o‘rni faqat milliy yoki mintaqaviy doira bilan cheklanmaydi, u global ilmiy-huquqiy kommunikatsiya tarixida ham iz qoldirgan matn sifatida ko‘riladi.

O‘zbekiston sharoitida Marg‘inoniy merosining zamonaviy islom ma’rifatidagi o‘rnini kuchaytirayotgan yana bir omil — merosning institutsional xotira va madaniy makonlarda mustahkamlanishidir.

Marg‘ilonda Burhoniddin Marg‘inoniy maqbarasi va yodgorlik majmuasi mavjudligi, uning hayoti va asarlari haqida mahalliy manbalarda ma’lumotlar berilishi, Marg‘inoniy merosi bo‘yicha maqolalar, tadqiqotlar chop etilishi bu yo‘nalishning “madaniy diskurs”ga ham kirib borayotganini anglatadi.

Teolingvistika nuqtayi nazaridan buni shunday izohlash mumkin: matn (al-Hidoya) atrofida “ma’no hamjamiyati” shakllanadi. Bu hamjamiyat ta’lim, ziyorat, nashr, ilmiy anjuman va ommaviy axborot vositalari orqali o‘zining diskursini yangilab boradi. Natijada Marg‘inoniy merosi “zamonaviy ma’rifat”da uch shaklda yashaydi:

-akademik-tadqiqiy shakl (maqolalar, tahlillar);

-ta’limiy shakl (dars, tarjima, izoh);

-ommaviy-ma’naviy shakl (madaniy xotira, ziyorat va targ‘ib).

Tarjima va izoh masalasiga qaytilsa, bu yerda teolingvistik muammo ayniqsa seziladi. Fiqhiy atamalar odatda birgina sodda ma’noni emas, balki bir nechta huquqiy va diniy ma’no qatlamlarini o‘zida mujassam etgani uchun ularni oddiy so‘z bilan ifodalash asl mazmunning bir qismini yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy tarjimalarda izoh apparatining kuchayishi tabiiy

